

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

Nazokat Jiyanova, Oydin Mo'minova

NUTQ MADANIYATI

Toshkent – 2019

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

Nazokat Jiyanova, Oydin Mo'minova

NUTQ MADANIYATI

O'quv qo'llanma

TOSHKENT – 2019

“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv qo‘llanma oliv ta’lim muassasalari bakalavr bosqichining milliy guruh talabalari uchun mo‘ljallangan. Ushbu o‘quv qo‘llanmada nutq madaniyati bo‘yicha ilmiy va nazariy ma’lumotlar, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantiruvchi turli xil topshiriqlar, muammoli vaziyat matnlari, tahliliy matnlari hamda nazariy bilimlarni mustahkamlovchi testlar berilgan.

Tuzuvchilar:

Jiyanova N.E. – O‘zbek tili kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mo‘minova O.Q.–O‘zbek tili kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: ToshDO‘TAU professori, f.f.d. B.Mengliyev

O‘zDJTU professori, f.f.d. G.Xalliyeva

“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmani o‘zbek tili kafedrasining
20____ yil _____dagi yig‘ilishida, ingliz tili 2-fakultetining 20____ yil
_____dagi fakultet Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

M U N D A R I J A

So‘zboshi.....	5
Kirish.....	7
Nutq madaniyati fanining maqsadi, vazifasi va ahamiyati.....	12
Nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari.....	33
Notiqlik san’ati tarixi. G‘arbda nutq madaniyati.....	47
Sharq madaniyati tarixida notiqlik san’atining o‘rni.....	79
Nutqning kommunikativ sifatlari.....	109
Notiqlik san’ati turlari.....	133
Nutq madaniyati va uslubiyat.....	154
Nutq madaniyati va tasviriy vositalar.....	173
Nutq madaniyatini egallashning usul va yo‘llari.....	190
Glossariy.....	212
Foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	220
Mualliflar haqida ma’lumot.....	223

S O‘Z B O SH I

“Nutq madaniyati” fani oliv ta’lim muassasalari bakalavr bosqichining milliy guruhlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanning asosiy vazifasi talabalarga nutqning kommunikativ sifatlari: to‘g‘rilik, aniqlik, tozalik (soflik), mantiqiylik, ta’sirchanlik, maqsadga muvofiqlik (orfoepik, morfologik, grammatik, sintaktik va shu kabi adabiy til me’yorlariga qat’iy mos keladigan nutq) bo‘yicha, shuningdek, G‘arb va Sharq notiqlik maktabi, notiqlik san’atiga hissa qo‘sghan notiqlar va ularning hayotiy faoliyati haqida nazariy bilimlar berish hamda bular asosida adabiy tilda nutq so‘zlash va to‘g‘ri fikr ifodalash malakasini hosil qilishdir.

O‘quv qo‘llanma fan yuzasidan tuzilgan dasturga moslab yozilgan. “Nutq madaniyati” fanining ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini o‘tishda foydalanish nazarda tutilgan. O‘quv qo‘llanmani yaratishda o‘zbek va rus tilshunosligining yutuqlari hisobga olingan holda E.Begmatov hammuallifligida (1993) nashr etilgan “Adabiy norma va nutq madaniyati”, S.Inomxo‘jayevning “Notiqlik san’ati asoslari” (1982), N.Mahmudovning “O‘qituvchi nutqi madaniyati” (2007), N.Jumaxo‘janing “Istiqlol va ona tilimiz” (1992), A.Ortiqovning “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” (2002), R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo‘ydinov, K.Gayubovalarning “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” (2006, 2008, 2011), E.Begmatov va N.Jiyanovalarning “Nutq madaniyati asoslari” ma’ruzalar to‘plami (2006), X.Jalolovning “Notiqlik san’ati”, E.Qilichev, B.Qilichevlarning “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” (2002), R.Jumaniyozovning “G‘oyaviy tarbiyada notiqlik san’ati” (2002), P.Nosirovning “O‘zbek nutqi madaniyati” (2007), N.Bekmirzayevning “Notiq, nutq, xulq” (2013), T.Qudratovning “Nutq madaniyati asoslari” (1993) kabi kitoblaridan foydalanildi.

O‘quv qo‘llanmada “Nutq madaniyati” fanidan tayyorlangan nazariy ma’lumotlar nutq madaniyati sohasi va tushunchasining mohiyatini, bu fanni o‘qitishning maqsad va vazifalarini, nutq madaniyati va notiqlikka erishishning shartlari va talabalarini, nutq madaniyati bilan unga yondosh sohalar orasidagi aloqadorlik va farqlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Shuningdek, tilning tasviriy vositalari va ularning og‘zaki nutqqa ta’siri bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash, nutqqa tayyorgarlik ko‘rish va nutq ustida ishlash bo‘yicha matnlar, ular yuzasidan topshiriqlar, test savollari kiritildi. O‘quv qo‘llanmada nazariy mavzu bo‘yicha turli hajmdagi amaliy topshiriqlar berildi. O‘qituvchi ulardan ma’qulini (talabalarning bilim darajasi, belgilangan vaqt kabilarni inobatga olgan holda) tanlab darsni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmada uyga vazifa sifatida beriladigan topshiriqlar ham kiritildi. Bu kabi topshiriqlar mustaqil yozma nutq ustida ishlashga hamda og‘zaki nutq so‘zlash uchun tayyorgarlik ko‘rishga undaydi. Umuman, ushbu o‘quv qo‘llanma talabalarni hamisha o‘z nutqlarini nazorat qilish, nutqiga befarq bo‘lmaslik hissini paydo qilish va unga e’tibor bilan qarash ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

KIRISH

Til millatning g'ururi, mavjudlik sharti, xalqning ruhi, milliy madaniyat ko'rsatkichidir. Tilda, professor Nizomiddin Mahmudov aytganidek, butun bir xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarni qaratgan tarixi, qo'yinki, millatning butun bo'y-basti-yu, aqliy-ma'naviy olami qatrada quyosh aks etganday o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, har bir aytilgan so'z orqali insonning dunyoqarashi, aql-farosati, ma'naviy boyligi hamda madaniyati qanday ekanligini bilish mumkin. Ona tilining tiganmas boyligini egallagan, uning qudratini tushungan, kuchiga ta'zim qilib, bosh eggan inson o'ziga ham, o'zgaga ham talab qo'ya oladi, so'zni qanday bo'lsa, shunday qo'llayvermaydi. Dono xalqimiz: "Dunyoda ikki narsani qaytara olmaysan deydi: biri - o'tib ketgan vaqt, ikkinchisi – og'izdan chiqqan so'z". Shu bir og'izgina so'zning kuch-qudrati tufayli butun dunyoni birlashtirib turadigan so'zning xizmati juda katta ekanligini ko'ramiz. Tilini qadrlaydigan, mustaqil fikrlaydigan, shu fikrini boshqalarga lo'nda, aniq, tushunarli va ta'sirchan ifodalaydigan savodli va bilimli yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning bosh maqsadlaridan biridir. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, barchamiz "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹.

Hozirgi kun talabidan kelib chiqib, respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun" hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish, "bakalavr" va "magistr"lik bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirishda nutq madaniyatining o'rni va rolini ko'rsatish bugungi kunning asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi. Shuning uchun ham "Nutq madaniyati" fanini tilshunoslikning alohida sohasi sifatida oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yuksak darajadagi nutq madaniyatiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nutq madaniyati insonning ma'naviy hayotida, uning madaniy saviyasini ko'tarishda, ilmiy va badiiy tafakkurini o'stirishda juda muhim o'rin egallaydi.

Manbalarning guvohlik berishicha, qadimdan Sharq mamlakatlarida ravon va chiroyli gapirishga katta e'tibor qaratilgan. Donishmand Sharqda bundan besh ming yillar burun barpo bo'lgan eng "keksa" muassasalaridan bo'lmish ilk maktablarning² bosh vazifalaridan biri ham bolani to'g'ri, aniq gapirish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lganligi³, ayni vazifaning bugungi kunimizga qadar ham o'z mohiyatini yo'qotmay kelayotganligidan dalolatdir.

¹ SH.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. - Toshkent:O'zbekiston, 2016, 14-b.

² N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. Qarang:Крамер С.Н. История начинается в Шумере. -Москва Наука, 1991.

³N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. Qarang:Къера Е. Оні писалі на глине. Moskva: Nauka, 1984. S. 87 – 93.

Aytish mumkinki, kishilarning to‘g‘ri, chiroyli, ravon hamda ta’sirchan gapirishga intilishi va unga oid odatiy qoidalar qadim tarixga egadir. Sharqona muomala madaniyati har bir o‘zbek xonadoniga xos fazilatdir. Bunday fazilat asrlar davomida shakllanib borishi va avloddan-avlodga meros sifatida o‘tishi darkor. Bizga ma’lumki, Sharqda muloqot nutqi, nutq odobi, muomala nutqi —bularning barchasi insonning ma’naviyatini, ma’rifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Demak, har bir individual shaxsning odobi uning nutqida ko‘rinadi. Chunki qadimdan yomon, inson dili og‘ir botadigan, xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazishning qonun-qoidalari Sharqda doimo bo‘lgan va bu an’analar bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Tinglovchiga aytmoqchi bo‘lgan xabarni beozor yetkazish uchun esa so‘zlovchi o‘z ona tilining imkoniyatlarini mukammal bilishi kerak. Chunki muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bunday muloqotga yoshlikdan ibratlari kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish orqali erishiladi. Muomala – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasidir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shu bois ham til –aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro‘-e’tibor topadi. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, so‘zga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ta’kidlashgan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy muomala madaniyati, tilning ahamiyati to‘g‘risida, shirinsuxanlik haqida purhikmat fikrlar bayon qilganki, bugungi kunimizda ham ushbu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas:”Go‘zal so‘zla va yoqimli bo‘lgan til agarda ko‘ngil bilan bir bo‘lsa, yaxshiroq bo‘lur”, “So‘z borki, tinglovchi joniga jon kiritadi, so‘z borki, aytuvchi boshini yelga beradi”.

Ajdodlarimizning fikricha, shaxs nutqining qanday bo‘lishi uning o‘z tiliga bo‘lgan munosabatida, shuningdek, odob-axloqiga bog‘liqdir. Til odamning dili bilan bog‘liqligi, uni tilga chiqarguncha o‘ylab mulohaza yuritishi, voqelikka mos nutqiy vaziyatni e’tiborga olishi, mazmunli, foydali so‘zlarni so‘zlashi, aytmoqchi bo‘lgan fikri chiroyli va ta’sirchan hamda lo‘nda va qisqa bo‘lishi, zinhor qo‘pol va dag‘al so‘zlarni so‘zlamaslikni ta’kidlaydilar. Shu o‘rinda Yusuf Xos Hojibning quyidagi misralarini keltirib o‘tishni joiz deb bildik:

Qizil til qiladi qisqa yosh seni,
Esonlik tilasang, pishiq tut uni.
Nima der, eshitgin, tilin qisgan er,
Esonlikda yashar o‘zin bosgan er:
“Qora boshga yovuz yovdir qizil til,
Ne-ne boshni yedi, yana yegay, bil,
Boshingni o‘ylasang, asragil tiling,
Istagan onida boshga yetar til”.

Demak, har qanday vaziyatda ham fikr ifodalash jarayonida o'ylab, mulohaza bilan ish ko'rmoq inson xarakterining o'ziga xos bir ko'rinishi bo'lishi lozim. Ayniqsa, bugungi kundagi yosh avlodga bunday nasihatomuz fikrlarni to'g'ri tushuntirishimiz va o'rgatishimiz asosiy vazifamiz bo'lmosg'i shartdir. Shuning uchun ham "Nutq madaniyati" fanida talabalar bilan mavzuga doir bahs-munozara, davra suhbatи kabi o'qitish usullarining turli variantlaridan foydalanish va ularning erkin muloqot sirlarini egallashlariga yordam berish har bir pedagogning asosiy vazifasi bo'lishi joiz. Shundagina barkamol avlodning asrlarga yetguvchi aniq va lo`nda fikr egasi bo'lishlariga erishamiz. Buning uchun esa o'qitish jarayonida, har bir mavzu yuzasidan talabalarning og'zaki va yozma nutqiga e'tibor berishimiz, turli qo'shimcha topshiriqlar berib, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

Nutq madaniyatini o'stirish faqat filologiya sohasidagi ta'limiy- tarbiyaviy ish bo'lmasdan g'oyaviy-siyosiy, ma'rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu fanni o'rganish bo'lajak mutaxassislar uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, adabiy til meyorlariga rioya qilgan holda to'g'ri gapirish va yozish, tilning leksik va grammatik birliklaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalana olish san'atini o'rganish orqali ro'yobga chiqadi. Shunga qaramasdan, bunday zarurat va ehtiyojlarni qondira oluvchi darslik va o'quv qo'llanmalar salmog'ini va sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalari bakalavr bosqichining milliy guruhlari uchun mo'ljallangan. Undan magistratura va bakalavriat yo'nalishidagi talabalar, shuningdek, nutq madaniyati masalalari bilan qiziquvchi barcha shaxslar foydalanishi mumkin.

**"NUTQ MADANIYATI" FANINING MAQSADI, VAZIFASI VA
AHAMIYATI**

“NUTQ MADANIYATI” FANINING MAQSADI, VAZIFASI VA AHAMIYATI. Nutq madaniyati va boshqa fanlar

Tayanch so‘zlar: Nutq madaniyati, nutq odobi, nutqiy etiket, me’yoriy tushunchalar, til birliklari, nutq birliklari, til boyligi, nutq boyligi, til madaniyati, kommunikativ vazifa, ekspressiv vazifa, estetik vazifa.

Nutq madaniyati va uning ijtimoiy o‘rni. XX asr oxiri O‘zbekiston uchun tub o‘zgarishlar, yangilanishlar va tiklanishlar asri bo‘ldi. Ijtimoiy tuzum o‘zgardi, u bilan birga davr ham o‘zgardi. Davr o‘zgarishi esa o‘z-o‘zidan barcha sohalar, xususan, ma’naviy sohalarda qat’iy evrilishlar, tub o‘zgarishlarni taqozo etdi. Bu tabiiy jarayon. Bugungi kunda barcha qatlamlarda nutq madaniyatining saviyasi pasayib ketayotgan, an’anaviy adabiy til me’yorlari buzilayotgan, og‘zaki va yozma nutqning uslubiy xususiyatlari o‘zgarib ketayotgan bir paytda jamiyat a’zolarining nutq madaniyati darajasini oshirish zarurati yuzaga keldi. Zero, nutq madaniyati kishilik jamiyat madaniyatini aks ettiruvchi ko‘zgu hamda jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatimizda ma’naviyat jabhasida olib borilayotgan benihoya keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, ona tiliga, davlat tiliga e’tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi beziz emas. Respublikamizning “Davlat tili haqida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur” va boshqa juda ko‘plab hujjatlarda bu yo‘nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko‘rsatib berilgan. Birinchi Prezidentimiz 1997-yilning iyunida Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dasturni tuzish” komissiyasining yig‘ilishida har bir fuqaro uchun “o‘z davlat tilini bilish, uni o‘rganish yuksak ma’naviyat, Vatani va xalqiga sadoqat belgisi” ekanligini asosli ravishda ta’kidlaganlar.

Bugungi tezkor zamonda o‘z ona tilida ravon, chiroyli gapirish, madaniy nutq va notiqlik san’ati sirlaridan xabardor bo‘lish O‘zbekiston yoshlari uchun juda muhim ahamiyatga ega. Islom Karimovning “O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”⁴ degan so‘zlarini hamisha yodda tutishimiz shart va zarurdir.

Qadimdan Sharq mamlakatlarida ravon va chiroyli gapirishga katta e’tibor qaratilgan. Donishmand Sharqda bundan besh ming yillar burun barpo bo‘lgan eng

⁴Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq, 1997, 9 – bet.

“keksa” muassasalardan bo‘lmish ilk maktablarning⁵ bosh vazifalaridan biri ham bolani to‘g‘ri, aniq gapirish va yozishga o‘rgatishdan iborat bo‘lganligi⁶, ayni vazifaning bugungi kunimizga qadar ham o‘z mohiyatini yo‘qotmay kelayotganligidan dalolatdir.

Aytish mumkinki, kishilarning to‘g‘ri, chiroyli, ravon hamda ta’sirchan gapirishga intilishi va unga oid odatiy qoidalar qadim tarixga egadir.

“Nutq madaniyati” fanining maqsadi tilshunoslikning nazariy fanlaridan olingan bilimlarga suyangan holda nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolarga oid muammolar haqida bahs yuritib, to‘g‘ri, aniq va ta’sirli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi.

“Nutq madaniyati” fanining asosiy vazifalari talabalarni nutq madaniyatining ilmiy va nazariy tushunchalari bilan tanishtirish, bo‘lajak mutaxassislarda til vositalari va ifoda imkoniyatlaridan kommunikativ va estetik maqsad hamda nutq vaziyatiga o‘ta muvofiq tarzda foydalana olish malakalarini shakllantirishdan iborat. Nutqning barcha kommunikativ sifatlari mohiyati hamda nutqqa tayyorgarlik ko‘rish yo‘l va usullari bilan tanishtirib, bunday sifatlarga ega nutq tuzish mahoratini shakllantirish hamda og‘zaki madaniy nutqning muhim uzvi bo‘lmish nutq texnikasini yaxshilash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni yuzaga keltirishdan iboratdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

- 1) madaniy nutqning, ya’ni nutqiy hodisaning nomi;
- 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog‘liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi muammoning nomi;
- 3) nutq madaniyati muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo‘limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko‘rinishlarga, qirralarga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim.⁷

Shunday qilib:

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.
2. Nutq madaniyati – bu adabiy til me’yorlarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo‘lgan faoliyat, ya’ni til rivojiga ongli aralashuvidir.
3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok etish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir.
4. Nutq madaniyati kishilarning o‘zaro to‘liq va teran fikrashi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir.
5. Nutq madaniyati faqat to‘g‘ri nutqqina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir.

⁵ N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Qarang: Крамер С.Н. История начинается в Шумере. –Москва:Наука, 1991.

⁶ N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Qarang:Къера Е. Они писали на глине. -Москва:Наука, 1984. -C. 87 – 93.

⁷ Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent: 1998, 31-bet.

6.Nutq madaniyati til vositalaridan o‘rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so‘zlash va yoza olish san’atidir.

7.Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir.

8.Milliy o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir.⁸

Til va nutq. Nutq madaniyati va til madaniyati tushunchalari. *Til, nutq va madaniyat tushunchalarining har biri jamiyat va til taraqqiyoti mobaynida uzlusiz davom etgan o‘zaro bog‘liqlik natijasida til madaniyati va nutq madaniyati deb atalgan yangi tushunchalarning, yangi ilm sohalarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Til, nutq va madaniyat insonsiz mavjud bo‘lmanidek, ularsiz insonning o‘zini ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Til ijtimoiy mahsulot, lisoniy tizim, undan inson bolaligidan boshlab foydalanadi, u orqali fikrlashni o‘rganadi. U yoki bu hodisalarni odamlar o‘z jamiyatida shakllangan lisoniy ko‘nikma va me’yorlar asosida qabul qiladi. Dunyo manzaralari o‘rtasidagi tafovut ham tillar qanchalik bir-biridan farq qilsa, shu darajada turlicha bo‘ladi. Vilgelm fon Gumboldtning mazkur gaplari tilning mohiyatini yanada teranroq anglashga yordam beradi:”Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turlicha tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko‘rishning farqliligi natijasidir”⁹. Haqiqatan ham, bolalikdan egallangan ona tili har bir millatning o‘ziga xos betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqidir. Madaniyatning nozik qirralari tilda shunday aks etadiki, u olamni, insonni o‘ziga xos tarzda namoyon qiladi. Masalan: o‘zbekcha *achchiq choy*, rus tilida *крепкий чай*, inglizchada *heavy rain*, ya’ni *og ‘ir yomg ‘ir* tarzida so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, uch xalq bir-birini tushunmagan bo‘lar edi.*

Millat uchun ishlab turgan til millat madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Madaniyatning o‘zi esa nutq madaniyati, demak, jamiyatning tilga munosabati bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Til jamiyatga nisbatan ham olib qaralganda, o‘ziga xos turli vazifalarni bajaradi va bu, albatta, insonning nutqiy faoliyatida o‘z aksini topadi. Bular:

- 1) kommunikativ vazifa;
- 2) fikrni ifodalash vazifikasi;
- 3) so‘zlovchining ichki holatini ifodalash vazifikasi yoki ekspressiv vazifa;
- 4) til vositalari orqali go‘zallik yaratish vazifikasi yoki estetik vazifa.

Tilning kommunikativlik vazifikasi odamlar o‘rtasida uning muloqot vositasi sifatida xizmat qilishini talab etadi. Tilning bunday xususiyati antik davrlardan, ya’ni notiqlik san’ati yaratilgandan beri ma’lum bo‘lgan. Tilning fikr yaratish va ifodalash vazifikasi til strukturalarining tafakkur, fikrlash kategoriyalari bilan bog‘liqligi orqali aniqlanadi. Nemis tilshunosi Gumboldt aytganidek, til doimo fikrga hamroh bo‘lishi kerak. Fikr ham tildan ortda qolmasdan uning bir unsuridan keyingisiga yetib

⁸ O‘sha asar, 31-bet.

⁹ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. –М.:Прогресс, 1985. –С.349.

olishi va tilda uning bog‘liqligini ta’minlovchi barcha narsalar orqali o‘z ifodasini topishi lozim. Yaxshi nutq fikr bayonining aniqligi, tushunarligi, mantiqiy ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham tilning kommunikativlik vazifalarini ilmiy va nazariy jihatdan tahlil eta olish va ulardan o‘rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz lozim.

Tilning ekspressiv vazifasi so‘zlovchi yo yozuvchining ichki holatini ifodalashga xizmat qiladi. Til faqat biror bir axborotnigina emas, balki unga, uning mazmuniga nisbatan so‘zlovchi yoki yozuvchining munosabatini ham ifodalashida kerak bo‘ladi. Bunda, asosan, so‘zlovchining ruhiy holati va munosabati nazarda tutiladi. So‘zlovchining biror voqelikka bo‘lgan holati so‘zlashuv jarayonida namoyon bo‘ladi. Demak, ekspressiv vazifa ijobiy yoki salbiy holatda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ijobiy va salbiy munosabat inson nutqi orqali amalgalashiriladi.

Til estetik vazifasiga ko‘ra, yetkazilayotgan xabarning ham shaklan, ham mazmunan shaxsning estetik tuyg‘ularini qondirishga xizmat qiladi. Bunday ilmiy qarashda ham so‘zlovchining ruhiy holati va muomala madaniyati, o‘zini tuta bilishi, kiyinish holati, barcha-barchasi nazarda tutiladi. Lekin bularning barchasi, ya’ni tilning estetik vazifasi kommunikativ vazifa bilan birga voqe bo‘ladi.

Til asosida inson ichki dunyosining o‘ziga xos shaklda obrazlashuvi sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham til ma’naviy va moddiy ishlab chiqarish jarayonlari va ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq. Shu bilan birga, u o‘z qonuniyatlariga ega mustaqil barqaror va turg‘un tizim, (masalan, undagi jumlalar, til birliklari, ya’ni so‘z birikmalari, so‘z, morfema va boshqalarga ajraladi). Til insonlar xotirasida saqlansa-da, biroq u o‘z-o‘zidan ishlab ketmaydi. Til muayyan ijtimoiy faoliyat (ya’ni muloqot) quroli bo‘lgani uchun, asosan, nutqiy faoliyat jarayonida unga nisbatan kuchli ehtiyoj seziladi. Natijada insonlar o‘rtasidagi turlicha munosabat shakllanadi.

Nutq – mustaqil faoliyat, u orqali til tizimi o‘zligini to‘liq namoyon etadi. Nutq – muloqot, unda jamiyatning u yoki bu qatlamiga tegishli madaniyati ham ma’lum darajada o‘z aksini topadi. Til va nutqni o‘zaro taqqoslanganda quyidagilar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

1.Til muloqot uchun xizmat qiladi va insonning dunyo haqidagi bor tasavvurlarini ma’lum bir belgilar orqali ifodalashga qodir.

2.Nutq tilning amaliyot jarayonida tatbiq etilishidir; u harakatdagi til bo‘lib, muloqot vositalarini aniq qo‘llash paytidagi ketma-ketligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Til biror bir ijtimoiy jamoaga (biror bir millatga) tegishli belgilar tizimi va nutqiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lsa-da, biroq u nutq bilan teng bo‘la olmaydi. Nutq jarayonida til tizimlari ishga solinadi. Nutq - individual ong va xohish-istak shakli. U bir tomonidan so‘zlovchi til shakllari orqali o‘z fikrlarini ifodalashdagi almashinuvni taqozo etsa, ikkinchi tomonidan – u psixofiziologik mexanizm sifatida ushbu almashinuvlar mustaqilligini ta’minlaydi .

Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, *til madaniyati* tilning leksik, sintaktik, semantik, ifodalilik va turfa o‘zgaruvchanligi qay darajada rivojlangan va boy ekanligini ko‘rsatsa, *nutq madaniyati* nutqiy muloqot asosida borliq va shaxs haqidagi axborotni yuzaga keltirish, uni til tizimi belgilari orqali ifodalash va aniq yetkazish usulidir. Yoki *til madaniyati* tilning “madaniylashganlik”, adabiylashganlik, normalashganlik darajasini, lug‘at tarkibi, grammatic, semantik, stilistik jihatlardan rivojlanganlik, boylik darajasini, potensial ifoda imkoniyatlarining ko‘lmdorligini ifoda etadi.¹⁰ *Nutq madaniyati* esa tildan bermalol, maqsadga muvofiq va ta’sirchan bir tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda mavjud bo‘lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng maqbulini tanlay bilish va shu asosda to‘g‘ri va ta’sirchan nutq tuza olish mahoratidir. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (o‘quvchi)ga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat.

Til va nutq o‘zaro dialektik bog‘liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik hodisalar bo‘lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obyektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o‘zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo‘lishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma’noda so‘zlardan, so‘z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matn ko‘rinishining ifodasi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ruhiyat va nafosat hodisasi hisoblanadi. Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining ajralmas bir bo‘lagi, shuning uchun jamiyatimizning har bir a’zosi ona tilida o‘z fikrini ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olishi kerak. Madaniyatli kishining birinchi ko‘rsatkichlaridan biri chiroyli nutq so‘zlay olishidir.

Til madaniyati deb so‘z san’atkorlari, ziyolilar va tilshunos olimlar tomonidan qayta ishlanib hamma tushunadigan va qo‘llay oladigan darajaga keltirilgan, ma’lum davr uchun moslangan va xoslangan, barcha qonun-qoidalari va me’yorlari belgilangan, sayqal topgan tilga aytildi. Qaysi tilda adabiy til me’yoriy qonun-qoidalari past darajada ishlangan bo‘lsa, u til nutq madaniyati talablariga to‘liq javob bera olmaydi.

Nutq madaniyati tildan nutqiy amaliyotda namunali foydalanish jarayoni. Nutq go‘zal yoki quruq, yoqimli yoki qo‘pol bo‘lishi mumkin. Bulardan birinchisi madaniy nutq, ikkinchisi esa nomadaniy nutqdir.

Madaniy nutq deb, tilning mavjud barcha vositalari va imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o‘rinli, unumli foydalanilgan nutqqa aytildi. Nutq madaniyati esa ana shu tilni, aloqa-aratashuv qurolini ishlatishga bo‘lgan ongli munosabatdir. Bu munosabat qanchalik yuqori bo‘lsa, nutq ham shunchalik madaniy bo‘ladi¹¹.

¹⁰ Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti. -№ 5. 1975, 50-58-b.

¹¹ E.Begmatov, N.Jiyanova. Nutq madaniyati asoslari, Ma’ruzalar matni.-Toshkent, 2006. 14-15-betlar.

Tor ma'noda nutq madaniyati - til me'yorlarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatis, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan turli sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati - tilning tiganmas boyligini egallashdir. Nutq madaniyatini egallash orqali kishi yetuklik sari bir qadam tashlagan bo'ladi. Insoniyat umummadaniyatining katta tarkibiy qismini nutq madaniyati tashkil etadi. Demak, nutq madaniyati – inson madaniyatini o'stirishga xizmat qiladigan fan.

Nutq odobi va nutqiy etiket tushunchalari. Sharqona muomala madaniyati har bir o'zbek xonadoniga xos fazilat. Muloqot nutqi, nutq odobi, muomala nutqi, bularning barchasi insonning ma'naviyatini, ma'rifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Demak, har bir individual shaxsning odobi uning nutqida ko'rindi. Bizningcha, nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo'lgan har qanday xabarni, tinglovchini hurmat qilgan holda hamda uning ko'ngliga mos, adabiy til me'yorlari asosida yetkazishdir. Shuningdek, xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun esa so'zlovchi o'z ona tilining imkoniyatlarini mukammal bilishi kerak. Chunki muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bunday muloqotga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekan, ularning xulq-atvoriga, gap-so'ziga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat bergen. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi kabi nojo'ya ishlariga zinhor-bazinhor yo'l qo'yaganlar. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi uning muomalasidan ma'lum bo'ladi. Muomala – insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasidir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til-aloha quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, so'zga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'kidlashgan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy muomala madaniyati, xushmomalalik tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida shunday go'zal fikrlar bildirganki, bugungi kunimizda ham ushbu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas:"Donai dur so'zini afsona bil, So'zni jahon bahrida durdona bil"; "Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar, Har neki ag'yor durur yor aylar, So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar, Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar".

Odamlarning bir-birlari bilan qilgan muloqotlarida nutq madaniyatining qonun-qoidalariga rioya qilishning ahamiyatiga xalqimiz doimo o'z e'tiborini qaratgan. Dono xalqimiz o'z fikrlarini qisqa hamda ma'nili maqollarda ifoda etgan. Maqollar odamlarni nimalarga o'rgatadi? Maqollar bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish ularning ma'naviyatini o'stirishga, barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Chunki maqollar ona tilimizning eng nozik xususiyatlarini anglashga va so'z boyligini

oshirishga ko‘maklashadigan vositadir. Maqollar o‘quvchilarni to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, lo‘nda va ixcham bayon etishga o‘rgatadi. Har bir nutq o‘zining chuqur ma’no ifodalashi bilan qimmatlidir. Mazmunli ma’ruzalar, suhbatlar kishiga quvonch bag‘ishlaydi, yangi bilimlar bilan boyitadi. Chunonchi, “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki naqli bor” maqolida har bir so‘zning nozik qirralari bo‘lishi, ularning bo‘s sh gap emasligi, mazmunli suhbatlarning ahamiyati katta ekanligini ifodalaydi. So‘z qo‘llashdagi noqislik, tilga e’tiborsizlik haqida doimo kuyunib gapiradigan buyuk adabiyotshunos olim O.Sharafiddinovning quyidagi jumllalari aforizmdek yangraydi: “...Afsuski, amaliyotda biz ko‘p hollarda tilimizga bepisand qarashni ko‘ramiz. Gapirganda yoki yozganda o‘zimizni nazorat qilmaymiz. O‘zimizning tilimizni o‘zimiz his qilmaymiz, uning ichki ohanglariga qulq tutib ko‘rmaymiz, balki jilovi ustiga tashlab qo‘yilgan otday maysasi ko‘proq ko‘ringan o‘tloqqa kirib ketaveramiz”.¹² Xalq maqollarida ham so‘zlarni noo‘rin, nomuvofiq ma’nolarda qo‘llash, matnda mazmun va ma’nolarning qorishib ketmasligiga ehtiyot bo‘lish, fikrning izchillik bilan rivojlanib borishini yoddan chiqarmaslik, tushunmagan yoki to‘la anglamagan holda fikr bildirishga shoshilmaslik kabi xususiyatlarga e’tibor berish nihoyatda ahamiyatli ekanligi, mazmunsiz nutqning insonga hech qanday foyda keltirmasligi haqida ogohlantiriladi: “So‘zla mazmunli bo‘lsin, tingla foydali bo‘lsin”, “O‘ynab gapisang, ham o‘ylab gapir”, “Ko‘p gap eshakka yuk”, “Ko‘p gapning ozi yaxshi, oz gapning – sozi”, “So‘zga tushmagan so‘zni aytma, Sozga tushmagan g‘azalni”, “So‘zlamay so‘zingga boq, Avval o‘yla, o‘zingga boq”, “Til–aql xazinasining qilichi bo‘lsa, farosat – g‘ilofi”, “Quruq gap quloqqa yoqmas”, “So‘z botirligi tilda, El botirligi belda”, “So‘z kishining o‘zagi, Odob kishining bezagi”, “So‘z oyoqdan ilgari borar”, “So‘z chumchuq emas, Og‘izdan chiqsa, tutib bo‘lmas”.

Biz XXI asrga, ya’ni yangi texnologiyalar, ixtiolar asriga qadam qo‘ydik. Inson tafakkuri shu qadar kengayib borayotgan bir paytda kishilar o‘rtasidagi insoniy munosabatlarning tabiat, ularning xulq-atvori haqida o‘ylab qolasan, kishi. Bir xil ijtimoiy muhitda, bir xil sharoitda kishilar nima uchun o‘zlarini har xil tutadilar. Odoblilik va tarbiyalilik bobida nechun bir-birlariga o‘xshamaydilar? Qisqasi, insoniyatning asab torlari taranglashgan hozirgi zamonda odamlar bilan xushmuomalada bo‘lish uchun har birimizdan sabr-toqat, bag‘rikenglik, muomala madaniyati va uning qonun-qoidalariga (etiket) amal qilish talab qilinadi. Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, o‘z aybini bo‘yniga olish, uzr so‘rash, rag‘batlantirish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud. Bunday vositalar fanda “etiket” tushunchasi tarkibida o‘rgatiladi.

Etiket – bu jamoat joylarida ma’lum bir qoidalarga amal qilishdir. Bunda eng muhimi nutqiy etiketdir. Nutqiy etiket, bir tomonidan, til birliklarini, ikkinchidan, muomala qoidalarini o‘z ichiga oladi. Etiket birlklari quyidagilardan iborat:

¹² Sharafiddinov O. Dovondagi o‘ylar. -T.:Ma’naviyat, 2004. 269-b.

-Salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, ta'ziya bildirish kabi formulalar.

-Siz yoki sen olmoshlari, ism va familiyalarni to'liq va noto'liq ishlatalish.

-Standart kommunikativ vaziyatlar (transportda, do'konda) bular uch qismdan iborat bo'ladi: muomalaning boshlanishi, asosiy qism, muomala yakuni.

-Tanihish (o'zaro insonlar o'rtasidagi munosabatni shakllantirish uchun).

-Kechirim so'rash (muloqotni ijobiy hal etish uchun).

-Minnatdorchilik bildirish (do'stona munosabatni ifodalash uchun).

-Tabriklash (munosabatlarni yaxshilash, yaqinlikni ta'minlash uchun).

-Taklif qilish (o'zaro do'stona fikr almashish jarayonini tashkillashtirish uchun).

-Hamillardlik, ta'ziya bildirish (ko'ngil so'rash uchun).

-Maslahat berish, iltimos qilish (tinglovchiga nisbatan bee'tibor emasligini ifodalash uchun).

-Rad etish, rozilik bildirish (to'g'ri yo'l ko'rsatish va yaqinlikni ifodalash uchun).

Bu haqda Sharq allomalari ham o'z fikrlarini shu tarzda bayon etgan:

"So'z ham to'rt navdur: biri, bilinmayturg'on va aytilmayturg'on; ikkinchisi, ayttilaturg'on va bilinaturg'on: uchinchisi, ham bilinaturg'on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytса bo'laturg'on, to'rtinchisi, bilinaturg'on va aytilmayturg'on. Ammo aytilmayturg'on va bilinmay turg'on undoq so'zdurki... dunyoning salohi unga bog'liqdir. Ul so'z din aytguvchiga ham, eshituvchiga ham ko'p naf yetar. Ammo bilinaturg'on, biroq aytilmayturg'on undoq so'zdirkim, bir muhtasham odamning aybi senga ma'lum bo'lur. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang, uni aytmoq besharmlikdir. Chunki aystsang ul muhtashamning qahri yo u do'stning ozori senda hosil bo'lur, yohud o'z boshingga ulug' sho'rish va g'avg'o paydo qilursan. Shul vajdin ham bul so'z bilinaturg'on, ammo aytilmayturg'on so'zdur. Bu so'zlarning yaxshirog'i ham bilinaturg'on va ham ayttilaturg'on so'zdur"¹³

O'tmish ajdodlarimizning fikricha, shaxs nutqining qanday bo'lishi uning o'z tiliga bo'lgan munosabatida, shuningdek, odob-axloqiga bog'liqdir. Ular til odamning dili bilan bog'liqligi, uni tilga chiqarguncha mushohada qilgan holda yaxshilab mulohaza yuritishi, voqelikka mos nutqiy vaziyatni e'tiborga olishni, mazmunli, foydali so'zlarni so'zlashni, aytmoqchi bo'lgan fikri chiroyli va ta'sirchan hamda lo'nda va qisqa bo'lishini, zinhor qo'pol va dag'al so'zlarni so'zlamaslikni ta'kidlaydi. Nutq odobi va nutq madaniyatini ajdodlarning qoldirgan nasihatlaridan va hayot tajribalaridan o'rganishni inson nutq odobining me'yorlaridan deb hisoblashgan. Demak, kishilarning to'g'ri, chiroyli, ravon hamda ta'sirchan gapirishga intilishi hamda unga oid odatiy qoidalar juda chuqur va qadimiy tarixga egadir. Shunday ekan, nutq odobiga, nutq

¹³ Kaykovus. Qobusnoma. -Toshkent: Meros, 1992.

madaniyatiga ega bo‘lish har bir insonning burchi ekanligini yoshlar ongiga singdirish zarur ekanligini unutmasligimiz kerak.

Nutq madaniyati fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. “Nutq madaniyati” fani tilshunoslikning barcha bo‘limlari bilan bog‘langandir. Chunki nutqda tilning birorta sohasi qatnashmay qolmaydi. Har qanday nutqda tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi va uslubi ham ishtirok etadi. O‘zbek tilidagi mavjud grammatik shakl va kategoriyalarning adabiy me’yorlashganlarini nutq maqsadiga mosini tanlash asosida to‘g‘ri nutq tuzish nutq madaniyati uchun asosiy jihatdir. Tilning lug‘at boyligini yetarli darajada bilmasdan, so‘zlarning ma’nosini, so‘z ma’nosining taraqqiyotini, so‘zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalarni bilmasdan turib yaxshi nutq tuzish mumkin emas. Bu notiqlik san’ati va leksikologiyaning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Antik ritorikaga o‘z hissasini qo‘sghan notiq Protagor fikrni grammatik jihatdan aniq ifoda etish haqidagi bilim tarmog‘i bo‘lgan ortoepiya ritorikaning muhim qismlaridan biri bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlagan. Nutqning grammatik va leksik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi, barcha uchun tushunarli bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarni qo‘llash lozim bo‘lgan, aks holda bunday nutq madaniyatsiz hisoblangan.

“Nutq madaniyati” fani mantiq va ruhshunoslik fanlariga suyanib ish ko‘radi. Chunki mantiq so‘zlar va butun bir gapdan chiqadigan tushunchalarni belgilaydi. So‘zlarning ma’nosini va ifodalananayotgan tushuncha o‘rtasidagi munosabatni mantiq tekshiradi. Mantiq so‘zlar, birikmalar va gaplar orasidagi ma’no aloqalarini ta’minalash uchun xizmat qiladi. Mantiqiy fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish shaxsning dunyoqarashi va ilmiy- nazariy saviyasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Nutq qurilishi o‘rinli yoki o‘rinsiz bo‘lib ko‘rinadigan holatlarda ruhshunoslikka murojaat etiladi. Ruhshunoslik o‘rinsiz aytilgan gaplar insonning ruhiy holatiga qanday ta’sir etishini aniq, nazariy va ilmiy asoslari bilan yoritib beradi. Tilning o‘rinsiz qo‘llanadigan u yoki bu vositasi kishilar ruhiy holatiga qay darajada ta’sir etishini ruhshunoslik ifodalaydi. Notiq turli vaziyatlarda har xil odamlar o‘rtasida bo‘ladi, shuning uchun u o‘z nutqini shularni hisobga olgan holda tuzishi lozim bo‘ladi. Jumladan, muayyan nutqni balandparvoz yoki quruq va sust uslubda so‘zlashmagan. Notiqlar nutqini odamlarning kayfiyati, ijtimoiy ahvoli va muhitni e’tiborga olgan holda so‘zlasa, muvafaqqiyatga erishgan. Shuningdek, inson ongiga, ruhiy holatiga va ta’siriga ko‘ra tilning tasviriy vositalari nimalardan iborat ekanligini ham ruhshunoslik aniqlab beradi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, antik notiqlar kishilarning va sud hay’atining ruhiy holatiga ta’sir qiluvchi usullarni juda ustalik bilan qo‘llaganlar. Masalan, nutqning xulosa qismida ular o‘ziga nisbatan xayrixohlik va hamdardlik, raqibga nisbatan nafrat uyg‘otishda pafos, etos va yumordan mohirona foydalanganlar. Shu usullar orqali notiqlar tinglovchilar ruhiyatiga katta ta’sir o‘tkazgan.

Ruhshunoslik kishilarning nutqiy malakalarini kengaytirish va mustahkamlash jarayoni hamda vositalarini, ularning mukammallashuvini o‘rganish orqali “Nutq

madaniyati” faniga yordam beradi.

Bundan tashqari, “Nutq madaniyati” fani nafosat, go‘zallik haqidagi fan bo‘lib, estetika, adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik bilan ham aloqadordir. Bu aloqadorlikning umumiy shakli inson nutqining shakllanishi va tinglovchiga ta’sirini belgilab beradi. Chunonchi, Afina notiqlik san’atining buyuk namoyandalaridan biri Gorgiy o‘z nutq matnlarini poetik yuksaklik darajasiga ko‘tara olgan. U nutqida nafis ifodalar, epitetlar va obrazli iboralarni qo‘llagan. Bular “Gorgiy figuralari” sifatida mashhur bo‘lib ketgan. Qochirim figuralarga metafora, metonimiya, sinekdoxa, perifraza, giperbola, fikriy figuralarga ritorik so‘roq, undov, murojaat, so‘zlar figurasiqa qaytariq, anafora, ellipsis, antiteza kabilar kirgan. Masalan: *Men o‘zim xohlaganimda ham bunday sotqinlikni qilmagan bo‘lardim; agar bunday sotqinlik qo‘limdan kelganda ham uni qilmagan bo‘lardim.* Uning nutqlaridagi ritm, mutanosiblik, ko‘tarinki ruh va go‘zallik har qanday tinglovchini o‘ziga maftun etgan.

Nutq madaniyati sotsiolingvistika bilan ham bog‘liq bo‘lib, muloqot xulqi muammosini milliy xarakter - millat aholisining o‘ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an’alarini hisobga olmasdan turib o‘rganish mutlaqo mumkin emas. Dialogik nutqni muloqot deb tushunish mumkin. Muloqot uzvlari deganda aloqa, fikr almashish, so‘zlash jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadigan tarkibiy qismlar nazarda tutiladi. Ma’lumki, har qanday muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Dialogik muloqot jarayonida inson xarakterining namoyon bo‘lishini O‘.Hoshimovning asarlaridan keltirilgan misollar orqali dalillashga harakat qilamiz. Masalan, ruslarda boshqa birovga senlab murojaat qilish uni o‘ziga yaqin olganlik, begonasiramaslik mazmunini ifodalaydi.

-Menga erga tegasanmi? – Komissar bu gap og‘zidan qanday chiqib ketganini o‘zi bilmay qoldi. Yumdalab tashlasa, nima qilaman, deb yuragi po‘killab turgan edi, Natasha unday qilmadi.

Otasi (ehtimol, bobosi) tengi bu odam nima deyotganini daf’atan tushunolmagandek, bir zum kipriklarini pirpiratib turdi-da, moviy ko‘zlarida tabassum paydo bo‘ldi.

-Propiskadan o‘tkazsang, tegaman!

Sensiradimi, demak yaqin olgani shu! Mana buni ochiqcha savdo desa bo‘ladi! (“Tushda kechgan umrlar”, 146-bet)

Bu o‘rinda so‘zlovchining “sen”lab murojaat etishi tinglovchi tomonidan “o‘ziga yaqin olganlik”, nutqiy vaziyat mazmuniga ko‘ra esa taklifga – u bilan turmush qurishga rozilik ma’nosini ifoda etgan. So‘zlovchining tinglovchiga nisbatan *menga erga tegasanmi?* shaklida murojaat etishi yoki unga javoban *propiskadan o‘tkazsang, tegaman* tarzida ochiq javob aytilishi ularning o‘zaro munosabatlarida bir-birlariga nisbatan iltifot, turli shakldagi mulozamatlar yo‘qligi ularga xos shaxs xususiyatlarining anglanishi, idrok etilishiga yordam beradi.

O‘zbek xalqida esa bunday holat milliy mentalitimizga begona va buning ustiga katta yoshdagi kishilarga senlab murojaat etilmaydi, bu hol odobsizlik va humatsizlik belgisi sanaladi. Quyidagi nutqiy muloqotda senlash tinglovchi uchun humatsizlik, mensimaslik va haqorat bo‘lib tuyuladi:

-Ie, hali hech nimadan qo‘rqmaydigan bo‘lib qoldingizmi, Duma!-dedi g‘azabdan mo‘ylovi uchib. -Hammangni qator qo‘yib, bittama-bitta peshonangdan otish kerak! Hammangni! Avlod-ajdoding bilan! Xoinlar!

Cholim yarq etib zakunchining ko‘ziga qaradi. Qaddini rostladi. Baqirib-chaqirmadi. Ammo ovozidagi boyagi mutelik yo‘oldi.

-Haqorat qilmang, rais,-dedi sekin, dona-dona qilib.- Shukur avlodimizdan xoin chiqqanmas. O‘g‘lim jon olib jon berib yuribdi. (“Ikki eshik orasi”, 276-277)

Lekin so‘zlovchiga “sen”lab murojaat etish har doim ham bir xil qabul qilinmaydi. Ba’zan o‘zidan yoshi katta odam “sen”lab gapirganda samimiylit munosabati ham paydo bo‘ladi.

(Oqsoqol):-Bundanam og‘ir yillarni ko‘rganmiz, ma‘lim! -dedi yana shang‘illab.- Bu kunlaram o‘tadi-ketadi. Bu yilmi? Esingda bo‘lsin, ma‘lim nasib etsa, o‘ttiz to‘rtinchchi yilda, uzog‘i bilan o‘ttiz beshinchchi yilga borib hammasi oppon-soppon bo‘p ketadi. (“Ikki eshik orasi”, 43)

Quyida keltiriladigan parchada esa Komil tabibning o‘g‘lidan qoraxat kelganligini xotiniga aytolmay azoblanib turgan holatida umrida nafaqat xotinini, balki butun qishloqni sensiramagan tabib xotinini senlab yuboradi:

-Lavlagi sovub qoladi, -dedi Lazakat xola kuymanib.-Issig‘ida yeb olinglar.

-Odamni o‘z holiga qo‘yasanmi-yo‘qmi, a?

Umrida hech kimni sensiramagan tabibning shu qadar jahl bilan hayqirishidan cho‘chib tushdim. Chamasi, Lazakat xola ham cholidan hech qachon bunday muomala eshitmagan bo‘lsa kerak, hayratdan og‘zi ochilib qoldi. (“Ikki eshik orasi”, 258)

Yozuvchi ko‘zining oq-u qorasidan ajralib qolgan otaning qayg‘u-hasratdan o‘rtanib ketayotgan holatini mana shu tarzda mahorat bilan ifodalagan.

Umar zakunchi Ra’noni odamlar oldida o‘rtoq tabelchi, ish yuzasidan gaplashganda “Ra’noxon”, o‘zining ishi tushib mehri tovlanib ketganda Ra’no, goh otiga o‘rtoq qo‘sib, goh qo‘shmay sizlaydi. Yolg‘iz qolganda senlaydi. Mana shunday murojaatlar orqali yozuvchi Umar zakunchining ikkiyuzlamachi tuban kimsa ekanligini kitobxonga yaqqol tasvirlab beradi.

-Ra’no,- dedi ovozini pasaytirib. -Uyingga ertaroq bor, tushundingmi!-qamchini sekin siltagan edi, jiyron sapchib ketdi. Dala tomon yo‘nalgan xotinlar chekka-chechkaga chiqib yo‘l bo‘shatishdi. Umar aka jilovni kuch bilan tortib orqasiga o‘girildi:

-Bilib qo‘ying, o‘rtoq tabelchi! –U hammaga eshittirib qichqirdi: Haydalgan maydonni chorak sotix oshirib yozsangiz ham zakun oldida javob berasiz! (“Ikki eshik orasi”, 218-219-bet)

Nutq madaniyati haqidagi ilmiy fikrlarning paydo bo‘lishi, alohida fan sifatida shakllanishi, u shug‘ullanadigan masalalar, terminologiyasi, tekshirish usullari o‘zbek tilshunosligida lingvistikaning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Tilni yaxshi bilish uchun, albatta, tilning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, balki shu tilda gaplashgan xalqning tarixi, urf-odati, madaniyati, mentaliteti bilan bog‘liqligi, shubhasiz.

Har qanday xalqning etnomadaniy turmushi milliy til bilan bog‘liq holda, ijtimoiy madaniyat ko‘lamida etnolingvistika fani o‘rganadi. Mana shu hodisani jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini – lingvomadaniyatshunoslik tekshiradi. Natijada til va madaniyat kesishgan joyda xalq tili va milliy madaniyat xizmati aniqlanadi. Insonning til madaniyati uning ma’naviy olamida muhim va zalvorli o‘rin egallaydi. Unda tarixiy bosqichning, tizimning, u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topadi. Ular til qurilishida asosiy lisoniy xususiyatlarning o‘zgarishlarida, stilistik vositalarning idrok qilinishida, muloqotning o‘ziga xos (maxsus) shakllarida, shuningdek, tilning ijtimoiy faoliyatdagi vazifalarida ham o‘z ifodasini topadi. Insonning umumiy madaniyati til madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Inson umumiy madaniyatining rivojidagi eng muhim yutuqlardan biri o‘z tilidagi qoloq elementlarni yo‘q qilishga intilishdir. Bu shaxsning o‘z fikrini samarali ravishda og‘zaki va yozma bayon qila olish, tilning zamonaviy leksik va frazeologik vositalaridan, stilistik zaxiralaridan foydalana olish qobiliyatini ifodalaydi. Til madaniyatining taraqqiyoti ham ijtimoiy, ham lingvistik omillarga bog‘liq. Ijtimoiy omillar qatoriga jamiyatning muayyan darajadagi taraqqiyoti, iqtisoddagi, xalqaro miqyosdagi, fan va madaniyat sohasidagi integratsiyalashuv an‘analari kiradi. Bu omillar lingvistik omillar bilan birlashib, yagona butunlikni hosil qiladi, ya’ni milliy tilni, birinchi navbatda, adabiy tilni ilmiy anglash orqali til madaniyatining to‘liq nazariyasi yaratiladi.

Antik notiqlar va nazariyotchilar talqin etish jarayoni oldiga ham juda katta talablar qo‘ygan. Talqin nazariyasini birinchi bo‘lib Feofrast ishlab chiqqan bo‘lib, u bu jarayonga klassik teatr aktyorlarining tajribasini asos qilib oldi. Feofrast nazariyasi va metodikasiga ko‘ra, notiqning ovozi jarangdor, yoqimli, ta’sirchan va ma’no ottenkalariga boy bo‘lishi bilan birga, qaddi-qomati ham shularga mutanosib bo‘lishi talab qilinardi. Bu ekstralolingvistik vositalarning ahamiyati katta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Feofrast tomonidan imo-ishoralarga oid tizim ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning har biriga xos bo‘lgan talqin asoslari, ya’ni ishora, mimika, poza kabilar bilan bog‘liq qoidalar tizimi bayon qilingan.

Aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, notiqlik san’atini egallash uchun grammatika, adabiyot, etika, psixologiya, tarix, mifologiya, siyosat, sotsiolingvistika kabi fanlarni chuqur va puxta bilish talab qilinadi.

Notiqlik san’ati va nutq madaniyatining bir-biridan farqli jihatlari. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati tushunchalari haqida olimlar va mutaxassislarning ilmiy-

nazariy fikrlari turlichadir. Ilmiy adabiyotlarda bu ikki tushuncha bir-biriga yaqin, ammo o‘rganish obyekti mavjud ekanligi haqidagi ilmiy qarashlar ham bor. Bular quyidagilar:

1. Notiqlik san’ati qadimiylar tarixga ega hisoblanadi. Nutq madaniyati esa ilmiy soha sifatida endi shakllanib, rivojlanib kelmoqda.
2. Notiqlik san’ati hamma sharoitga muvofiq yagona andozaga ega emas, turli davrlarda turlicha qarashlar asosida shakllanib kelgan. Nutq madaniyati esa jamiyat a’zolariga adabiy til boyliklari va vositalardan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosiga ko‘ra o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini beradi.
3. Notiqlik san’ati aniq bir shaxs - notiq yoki notiqlar guruhi muammolari bilan shug‘ullanadi. Nutq madaniyati esa umumxalq nutqi muammolarini nazarda tutadi.
4. Notiqlik san’ati ko‘proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga ega bo‘lsa, nutq madaniyati esa ko‘proq nutqning til tuzilishiga e’tibor qaratadi.
5. Notiqlik san’ati, avvalo, notiqdagi mavjud qobiliyat va iste’dod bilan bog‘liq bo‘lsa, nutq madaniyati keng xalq ommasini savodxon qilishga qaratilgan sohadir.
6. Notiqlik san’ati notiqning qobiliyati hamda iste’dodini o‘rganuvchi ilm, nutq madaniyati esa adabiy til va uning me’yorlarini o‘rganuvchi ilmdir.
7. Notiqlik san’atini o‘rganish va mohir notiq bo‘lish hammaga ham nasib etavermaydi. Har bir shaxs nutq madaniyatini mukammal o‘zlashtirgani holda notiq bo‘lolmasligi mumkin. Lekin har bir notiq adabiy til va nutq madaniyatidan xabardor bo‘lishi shart.
8. Notiqlik san’ati tor va maxsus soha bo‘lsa, nutq madaniyati keng qamrovli sohadir.
9. Nutq madaniyati nutqning barcha jarayonlarini qamrab oladi. Notiqlik esa o‘sha yerdagi tinglovchilarnigina qamrab oladi.
10. Notiqlik san’ati notiqning nutqiy mahorati va san’atini ifodalasa, nutq madaniyati butun xalq nutqini madaniylashtirish muammolari bilan shug‘ullanadi.
11. Notiqlik san’ati nutqning faqat og‘zaki shakli, nutq madaniyati esa ham og‘zaki, ham yozma shaklga taalluqli tushunchadir.
12. Notiqlik san’atida so‘zga chechanlik, ta’sirchanlik ustuvor bo‘lsa, nutq madaniyati adabiy til bilan bog‘liq hodisadir.


Yuqorida tafovutlar har ikkala fanning bir-biriga yaqinligidan tashqari alohida xususiyatlarga ham egaligi bois, alohida-alohida fanlar sifatida faoliyat ko‘rsatishiga imkoniyat beradi. Notiqlik san’ati ilmidan to‘la xabardor bo‘lgan holda nutqiy madaniyatga ega bo‘lish imkoniyatlarini yaratadi.

1-mashq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmasining ma’nosiga e’tibor bering. O‘z fikrlaringizni og‘zaki bayon eting.

Madaniyat. O‘zbek tiliga ushbu termin arab tilidan («**madaniyat**» –«**shahar, shaharlik**») olingan. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui.

Nutq madaniyati – adabiy tilning og‘zaki turiga mos me’yorlarni egallash, tildagi ifoda birliklaridan maqsadga muvofig‘ini tanlab qo‘llay olish, nutq so‘zlashda madaniyatlilik odobini ko‘rsatish.

1-topshiriq. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati fanining farqli hamda bog‘liqligini VENN diagrammasini chizib tushuntiring.



2-topshiriq. Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini tahlil qiling va o‘z dalillaringizni keltirgan holda fikrlaringizni og‘zaki izohlang: “Til muncha sharaf bila nutqning olati (quroli)dur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur.”

3-topshiriq. Til va nutq hamda til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarining farqli va bog‘liq jihatlarini bilasizmi? VENN diagrammasi asosida shakllantiring va tushuntiring.

4-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qib, reja tuzing.

1. Nutq madaniyati - tilning tiganmas boyligini egallashdir. Nutq madaniyatini egallash orqali kishi yetuklik sari bir qadam tashlagan bo‘ladi. Insoniyat umummadaniyatining katta tarkibiy qismini nutq madaniyati tashkil etadi.

Nutq madaniyati atamasi adabiyotlarda, asosan, ikki xil ma’noda ishlatiladi: birinchidan, nutq madaniyati deyilganda, nutqning fazilatlari (sifatlari) yig‘indisi, bu sifatlarning tizimi tushuniladi; ikkinchidan, nutq madaniyati atamasi namunaviy nutq sirlarini egallash haqidagi ta’limotni anglatadi.

Rejasi: _____

G‘oyasi: _____

2. Ba'zi bir odamlar birovning so'ziga qulq solmay, o'ziga aytilgan so'zni oxirigacha tinglamay, o'zgalar gapiga aralashib suhbatni buzadiganlar ham bor. Shunda gapi rayotgan kishining fikri buzilib suhbat bir maromda bo'lmay qoladi. Har bir kishi o'z kamchiliklarini tan olishi va uni yo'qotishga harakat qilishi lozim. Shunda bizning nutq madaniyatimiz rivojlanadi.

Rejasি: _____

G'oyasi: _____

3. Odamlar bilan suhbatlashayotganda uning yuziga jilmayib qarab so'zini oxirigacha tinglash lozim. So'zini diqqat bilan tinglamay teskari qarab olish, soatga tez-tez qarash, gapiga aralashish odobsizlik sanaladi. Juda zarur bo'lsa, "kechirasiz, so'zingizni bo'laman" deb, aytish kerak. Siz kelishmaydigan masala bo'lsa, oxirigacha eshitib dalillar keltirib, bosiqlik bilan so'zlagan ma'qul.

Rejasি: _____

G'oyasi: _____

4. Har bir shaxsning nutqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bir kishining nutqi tinglovchiga yaxshi tushuniladi, voqeа – hodisalar haqida aniq, ravshan ma'lumot beradi, o'zining til qurilishi bilan tinglovchining xulqiga ta'sir etadi. Boshqa bir kishining nutqidan tinglovchi asosiy narsalarni ajratib ololmaydi. Bunday nutqning til qurilishida grammatik-uslubiy nuqsonlar bo'ladi. Tilga olingan nutqlarning birinchisi to'g'ri, madaniyatli nutq, keyingisini nuqsonli nutq deyish mumkin.

Rejasি: _____

G'oyasi: _____

5-topshiriq. Til so'zi qatnashgan iboralarning qaysi biri odam a'zosi, nutq a'zosi, aloqa vositasi sifatida kelgan. Jadvalga ajratib yozing va gap tuzing. Yana qanday ma'nolarda qo'llanilganligini izohlang.

Odam a'zosi	Nutq a'zosi sifatida	Aloqa vositasi sifatida	Shirin so'zlik ma'nosida	Gapga ma'nosida	chechanlik

Tilni tiymoq, til uchida turmoq, doimo tilida, tilning suyagi yo‘q, tili osilmoq, aytishga tili bormadi, ta’mi tilini yormoq, tili kelishmaydi, tili burro, til biriktirmoq, tili qichimoq, tilini tishlamoq, tili tanglayiga yopishib qolmoq, tili bir qarich, tili yomon, tilga kirmoq, tilini chiqarmoq, tildan qolmoq, tili qisiq, til topishmoq, til uchida so‘zlamoq, tili bormaslik, tilidan tushirmaslik, tilidan bol tommoq, tilidan osilmoq, tili uzun, tili bilan yurmoq, tili chiqqan, tili aylanmay qolmoq, tili chuchuk.

6-topshiriq. Maqollarning 2-qismini topib, ma’nosini izohlang.

1. So‘zdan so‘zning farqi bor, ...
2. So‘zla mazmunli bo‘lsin, ...
- 3.O‘ynab gapirsang ham, ...
- 4.So‘zga tushmagan so‘zni aytma, ...
- 5.So‘zlamay so‘zingga boq...
- 6.So‘z kishining o‘zagi, ...
- 7.So‘z chumchuq emas, ...

Mustaqil bajarish uchun qo‘srimcha vazifalar.

1.Quyida berilgan mavzulardan birini tanlab, 5 daqiqali informatsion nutq tayyorlang:

- a)mamlakatdagi yangiliklar haqida;
- b)xorijdagi yangiliklar;
- d)madaniy yangiliklar;
- e)badiiy adabiyot yangiliklari;
- f)ishlab chiqarishda kompyuterning roli.

2. Matnni diqqat bilan o‘qing va o‘z fikr-mulohazalariningizni qo‘sigan holda yozing va og‘zaki bayon qiling.

Konfutsiyga: “Bir mamlakatga uni boshqarish uchun chaqirilganingizda birinchi bo‘lib qilgan ishingiz nima bo‘lar edi?” deb so‘rashganida shunday javob bergan: “Birinchi bo‘lib tilni tuzatar edim. Til to‘g‘ri bo‘lmasa, so‘zlar tushunchalarni yaxshi ifodalay olmaydi. Tushunchalar yaxshi tushunilmasa, qilinishi kerak bo‘lgan ishlar yaxshi amalga oshmaydi. Kerakli ishlar amalga oshirilmas ekan, axloq va madaniyat buziladi. Axloq va madaniyat buzilganida,adolatdan uzoqlashiladi. Adolatdan uzoqlashilganda esa xalq zaiflik va sarkushlik ichida qoladi va nima qilishini bilmay qoladi. Shu sababli aytiluvchi so‘z to‘g‘ri va tushunarli bo‘lishi kerak. Hech bir narsa tilchalik ahamiyatga ega emas.”

3. Jadvalda keltirilgan nutq va notiqlik haqidagi fikrlar kimniki ekanligini toping va o‘z fikringiz bilan to‘ldiring.

№	Nutq va notiqlik haqidagi qarashlar	A.Navoiy	Sitseron	Demosfen	Kaykovus	Ibn Sino	Farobi	Aristotel	A.Qodiriy
1.	Biz nutqni emas, gapirayotgan insonni tinglaymiz. Men seni bilishim uchun so‘zla.								
2.	Notiqlikning eng ulug‘ fazilatlaridan biri zarur narsani aytishdagina emas, balki nozarur narsani aytmasligida hamdir.								
3.	Nutqning bosh fazilati aniqlik va ravshanlikdir.								
4.	Tili yomon odam xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi.								
5.	So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin, So‘zdirki, berar jonga xabar jonondin								
6.	So‘z eshitishdan qochma, kishi so‘z eshitish bilan notiq bo‘ladi								
7.	Nasihatga (va’zxonlikka) ko‘p berilmaslik kerak, uni o‘rtoqlik suhbatি tarzida olib borish kerak								
8.	Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish masalasiga kelganda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi, jismlarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.								
9.	So‘z so‘zlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak								
10.	Kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi.								

Mavzu bo‘yicha testlar:

1.Milliy o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi nutq qanday ataladi?

- A.Madaniy nutq.
- B. Og‘zaki nutq.
- C. Yozma nutq.

D. Badiiy nutq.

2. Nutq madaniyati fanining vazifalari...

A. Madaniy nutq muammolarini bartaraf etadi va shu masala yuzasidan takliflar beradi.

B. Madaniy nutq muammolarni o‘rganadi, lekin takliflar bermaydi.

S. Tilning leksikologiya bo‘limi bilan shug‘ullanadi, so‘zning leksik-semantik munosabatlarini o‘rgatadi.

D. Fonetika bo‘limi bilan shug‘ullanadi hamda nutqning talaffuziga doir masalalarini o‘rgatadi.

3. Nutq madaniyati fanining tekshirish predmeti nima?

A. Adabiy til me’yorlari.

B. Imlo me’yorlari.

C. Tinish belgilari.

D. Talaffuz me’yorlari.

4. Nutq madaniyati fanining vazifasi nimadan iborat?

A. Adabiy tilni kuzatib borish, tavsiyalar berish.

B. Tildagi eskirgan so‘zlarni yangilash.

C. So‘zlashuv me’yorlarini kuzatib borish.

D. Adabiy tildagi yangi so‘zlarni kuzatib borish.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. “Nutq madaniyati” fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2. Til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarining farqi nimada?

3. Nega nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi?

4. Til boyligi qanday belgilanadi?

5. Nutq boyligining qanday imkoniyatlari mavjud?

6. Nutq odobi tushunchasi nimani anglatadi?

7. Nutq madaniyatini rivojlantirish uchun nimalarga e’tibor berish zarur?

Glossariy

1. Nutq – so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan hosil qilingan matnning tashqi shakliy ko‘rinishi.

2. Nutq madaniyati – adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri, chiroyli va o‘rinli so‘zlash; tildan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikma va malakalarining jami.

3. Madaniy nutq – adabiy me’yorlarga rioya qilib tuzilgan nutq.

4. Adabiy norma – til birliklaridan maqsadga muvofig‘ini tanlash.

5. Nutqiy etiket - bu jamoat joylarida ma’lum bir qoidalarga amal qilishdir.

6. Dialektizm – shevaga oid birlik.

7.Jargon – ijtimoiy sheva, ma'lum ijtimoiy guruh nutqiga xos birliklar.

8.Til boyligi – tildagi so‘zlar va iboralar miqdori va shu tilning ifoda vositalari, ifoda usullari.

9.Nutq boyligi – tildagi rang-barang vositalarning nutqda ifodalanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 13-jild. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.

2.Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 5-son, 1975, 50-58-betlar.

3.Sossyur de F. Trudi po yazikoznaniyu. -Moskva: Progress, 1977.

4.Kьera E. Oni pisali na gline. -Moskva: Nauka, 1984.

5.Kramer S.N. Istorija nachinaetsya v Shumere. -Moskva: Nauka, 1991.

6.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -Toshkent: 1993, 38-bet.

7. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.

8.Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent: 1998.

9.Sharafiddinov O. Dovondagi o‘ylar. -Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

10. E.Begmatov, N.Jiyanova. Nutq madaniyati asoslari. Ma’ruzalar matni. - Toshkent, 2006.

NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TIL ME’YORLARI

NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TIL ME’YORLARI

Tayanch so‘zlar: Nutq madaniyati, adabiy til, me’yor tushunchasi, talaffuz me’yori, leksik-semantik me’yor, so‘z yasalishi me’yori, imloviy me’yorlar, grammatik me’yor, punktuatsion me’yorlar, uslubiy me’yor.

Til vositalaridan nutqiy faoliyatda foydalanishda jamiyat tomonidan o‘rnataligan muayyan ijtimoiy, aniqrog‘i, ma’rifiy va madaniy me’yorlarga rioya qilish qat’iy talab etiladi. Nutq madaniyati nazariyasida til me’yori markaziy tushuncha hisoblanadi. Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til me’yorlari, asosiy vazifasi esa ushbu me’yordagi ikkilanishlarni bartaraf etishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Nutq madaniyati

haqida gap ketganda, tabiiyki, nutqda so‘zlarning o‘rinli va o‘rinsiz ishlatilishi to‘g‘risida ham bahs boradi. Qo‘llangan til birligini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deyilganda, albatta, ma’lum bir o‘lchov (mezon)ga asoslanishimiz tayin. Mana shu o‘lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me’yori deb yuritiladi. Adabiy me’yor – til birliklaridan maqsadga muvofiq‘ini tanlab olishdir. Ma’lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o‘sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo‘ladi, ya’ni aloqani engil amalga oshirishga imkon beradi. Bu tilning o‘zi me’yordan iboratligini ko‘rsatadi. Me’yor – tilning yashash shaklidir.¹⁴

O‘zbek adabiy tili me’yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1.Leksik - semantik me’yor.

2.Orfoepik me’yor.

3.Grammatik (morfologik va sintaktik) me’yor.

4.So‘z yasalish me’yorlari.

5.Uslubiy me’yor

6.Imloviy me’yor.

7.Punktuatsion (tinish belgilari) me’yor.

Nutq madaniyati fani adabiy til me’yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishini, undagi ba’zi birliklarning eskirishi, ular o‘rnida yangi me’yoriy birliklarning paydo bo‘lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq mazkur fan adabiy me’yorlarni yaratmaydi, ba’zi bir hodisalarini me’yor sifatida majburan kiritmaydi, balki o‘zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.

Nutq madaniyati fani hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganar ekan, shu adabiy til asosida vujudga keladigan barcha nutq turlari, adabiy tilga asos bo‘luvchi xalq tili shevalari ham uning obyektiga daxldordir.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til me’yoriga yondashuvi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) nutq madaniyati adabiy til me’yordagi o‘zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til me’yorini doimiy rivojlanib, o‘zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til me’yori sistemasidagi yangi holatlarni, o‘zgarayotgan,

¹⁴ Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -Toshkent: 1993, 38-bet.

o‘zgargan holatlarni, shuningdek, «o‘lgan», iste’moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til me’yori sistemasidagi qarama - qarshi holatlarni belgilishi hamda tilning barcha yaruslari bo‘yicha tekshirishi lozim.

Keng ravishda uslubiy tarmoqlanganlik adabiy tilning o‘ziga xos belgilaridan biri adabiy tilning ham yozma, ham og‘zaki shaklga ega ekanligidir. Adabiy tilning muhim xususiyatlaridan biri uning murakkab, ko‘p qirrali vazifalarini ham yozma, ham og‘zaki shakllarda o‘tashidir. Har qanday adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllarining yuzaga kelishi o‘z tarixiga va murakkab qonuniyatlarga egadir. Adabiy tilda har ikki shaklining paydo bo‘lishi ham o‘ziga xosdir. Bu dastlab adabiy til yozma shaklining yuzaga kelishi, keyinchalik esa og‘zaki shaklining paydo bo‘lishida ko‘rinadi.

Adabiy tilning yozma shakli yuzasidan ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Lekin adabiy til og‘zaki shaklining paydo bo‘lishi va shakllanish qonuniyatları nihoyatda kam o‘rganilgan. Shuni hisobga olib, biz quyida bu masalaga qisqacha to‘xtalamiz.

Adabiy tilning dastlabki namunalari ilk davrda xalq jonli tilining yozuvdagi ifodasi bo‘lgan. Shu sababli ilk davrdagi yozma va og‘zaki nutq orasida shakliy farq kam bo‘lgan. Hozirgi ma’nodagi sezilarli xususiyatlar bo‘lmagan. Lekin yozuv, yozma nutqning o‘zi ma’lum ma’noda unga ijodiy yondashish, uni estetik-normativ baholash natijasidir. Yozuv kishining o‘z tili, ya’ni yozma nutqi ustida o‘ylashiga, unga muayyan o‘zgartirishlar kiritishiga imkon beradi. Yozma tilda badiiy, ilmiy asarlar ijod qilish, yozishmalar olib borish esa qayd qilingan imkoniyat chegaralarini yanada kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Natijada muayyan davrga kelib, o‘zining ma’lum xususiyatlari bilan jonli og‘zaki til (xalq tili) namunalaridan (sheva va dialektlardan) farqlanuvchi til shakli yuzaga keladi. Bu hozirgi adabiy tilning ilk namunasi edi. Shunday qilib, adabiy tilning paydo bo‘lishida yozuv muhim va belgilovchi rol o‘ynadi. Shu tufayli ham adabiy til dastlab yozma til - yozma adabiy til sifatida shaklland. O‘zbek adabiy tilining paydo bo‘lishi va shakllanishi XI-XV asrlarga to‘g‘ri keladi.

Adabiy til og‘zaki shaklining yuzaga kelishi ma’lum sharoitlar bilan bog‘liqidir. Bulardan eng muhimi adabiy tildan kundalik turmushda foydalanish zaruriyatining paydo bo‘lishi va bu jarayonning kundalik hayotiy ehtiyojga aylanishi bilan bog‘liqidir. Natijada adabiy tilning o‘ziga xos alohida ko‘rinishi og‘zaki adabiy nutq yuzaga keladi va u o‘ziga xos xususiyatlari bilan yozma tildan farq qiladi.

Adabiy til og‘zaki shaklining paydo bo‘lishi sheva va dialektlardan yuqori turuvchi, qo‘llanish doirasiga ko‘ra ulardan ustunlik qiluvchi og‘zaki nutqning yuzaga kelishidir. Og‘zaki adabiy nutqning yuzaga kelishi har qanday rivoj topgan milliy tilning muhim belgisidir. Adabiy tilning dastlabki davrlarida uning ikki shakli – yozma nutq va og‘zaki adabiy nutq bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib kelingan bo‘lsa, adabiy tilning milliy tillik davriga kelib, adabiy nutqning bu ikki turi o‘zaro yaqinlashadi, o‘zaro bir-biriga o‘tib turadigan bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, adabiy til og‘zaki shakli tilning milliy tillik davrlarida, ya’ni milliy til shakllanishi davrida yuzaga keladi. Bu paytga kelib adabiy til og‘zaki shakli uchun zaruriyat tug‘iladi. Muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar yuzaga keladi. Adabiy til bu davrda keng xalq ommasi hayotiga kirib boradi, u og‘zaki nutq tarzida qo‘llana boshlaydi. Og‘zaki adabiy tilda gapiruvchilar soni kengayib va ko‘payib boradi. Adabiy tilning og‘zaki shakli, xuddi uning yozma shakli kabi mакtab va maорif sohalariga kirib boradi, og‘zaki nutq radio, keyinchalik televideниye tiliga aylanadi, og‘zaki tilda keng doirada bilim beriladi, og‘zaki targ‘ibot ishlari olib boriladi. Adabiy tilning og‘zaki shakli uning yozma shakli kabi ma’lum qoidalarga solinadi, uning me’yorlari belgilanadi.

Adabiy til og‘zaki shaklining yoyilishi va shakllanishida milliy teatr, radio, televideниye tili, ayniqsa, o‘rtta va oliv ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shunday sharoitlar o‘zbek adabiy tili uchun XX asrda yuzaga keldi. Bu hol o‘zbek adabiy tili og‘zaki shaklining yuzaga kelishi va shakllanishi uchun asos bo‘ldi. Shunday qilib, o‘zbek adabiy tilida yangi komponent – o‘zbek adabiy tilining og‘zaki shakli paydo bo‘ldi.

Demak, o‘zbek adabiy tili aloqa quroli sifatida ikki shaklga ega: 1)o‘zbek yozma adabiy tili; 2)o‘zbek og‘zaki adabiy tili. Adabiy tilning bu ikki shakli yozma adabiy nutq, og‘zaki adabiy nutq deb ham yuritiladi.

Adabiy me’yorning ikki shakli mavjud. Bular:

1.Og‘zaki shakli. Og‘zaki adabiy me’yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago‘ylari, xalq baxshilari katta hissa qo‘shganlar.

2. Yozma shakli. Yozma adabiy me’yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldirilgan yozma adabiyotning xizmati kattadir.

Adabiy til me’yori va uning shakllanish qonuniyatları nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi. O‘zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi me’yorlar farqlanadi:

Talaffuz – (orfoepik) me'yori

Leksik –semantik me'yori

So'z yasalish me'yori

Grammatik me'yori

Uslubiy me'yori

Leksik-semantik me'yori. Leksik-semantik me'yori lug'atlarda, xususan, izohli lug'atlarda o'z aksini topadi. Bu lug'atlarga birinchi navbatda adabiy til leksikasi kiradi. Adabiy me'yordan tashqaridagi so'zlarning ma'lum qismi ham izohli lug'atdan o'ren olgan, ammo ular "esk." (eskirgan), "s.t" (so'zlashuv tili), "dial" (dialektal), "tar." (tarixiy) kabi izohlar bilan beriladi. O'zbek tilining izohli lug'ati (2 tomli 1981-yil. Moskva) ga hozirgi zamon o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan so'z va frazeologik iboralar kiritilgan. Aytish joizki, bugun bu lug'atdagi anchagina so'zlar hozirgi adabiy tilimiz me'yorlaridan chiqdi, bir qancha so'zlar me'yorga kirdi. Shuning uchun yangi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" tayyorlandi. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, milliylikka intilish, tabiiyki, tilning lug'at tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar, qizg'in jarayonlar asnosida ba'zi yangi so'zlar iste'molga kirgan bo'lsa, ayrimlari esa, aksincha, butkul iste'moldan chiqib ketdi. Yer yuzida mutlaqo sof birorta til mavjud emas, aloqa - aralashuv jarayonida, biridan boshqasiga so'z o'tadi. E'tibor beriladigan bo'lsa, 90 yillarda ijtimoiy-siyosiy-ma'muriy terminologiya sohasida lug'atni o'zbek sovet terminologiyasidan oldinroq mavjud bo'lган terminlar hisobiga boyitishga intilish seziladi. Bunda XX asr boshlarida iste'molda bo'lgan arab va forscha so'zlarga boy chig'atoy adabiy tili lug'atini qayta tiklash tendensiysi ustuvorlik qilgandi. Mazkur tendensiya 1989- yilgi qonunda tarixiy merosni o'rganish masalasining qayd etilishi bilan bog'liq ravishda yuz bergandi. Biroq bu yo'l ham o'zini to'liq oqlamadi. *Gazeta, respublika, aeroport, jurnal* kabi ruscha-baynalmilal so'zlarning vaqtincha *ro'znama, jumhuriyat, tayyoragoh, majalla* singari so'zlar bilan almashinishi til iste'molchilar bo'l mish xalqqa singishib ketmadi, buning ustiga, ifodalashi lozim bo'lgan ma'nolarni to'la aks ettira olmadi. Shu sababli yuqoridagi so'zlarga o'xshash baynalmilal so'zlar o'zgarishsiz qabul qilindi. *Ministr* va *ministrlik* yoki *oblast* va *rayon* kabi so'zlarning vazir, vazirlik, viloyat, tuman singari muqobillariga almashinishi o'zini oqlab,

baynalmilal so‘zlarni iste’ moldan siqib chiqardi. “Davlat tili haqidagi” Qonun qabul qilingandan keyin *avtor, gonorar, gruppa, ministr, oblast, programma, plan, redaktor, sekretar, tekst, tema* kabi rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan kirgan bir qancha so‘zlar o‘rniga tavsiya etilgan *muallif, qalam haqi, guruhi, vazir, viloyat, dastur, reja, muharrir, kotib, matn, mavzu* kabi arabcha, forscha so‘zlar bugun o‘zbek tilining leksik me’yoriga aylanib bo‘ldi. Mustaqillikdan so‘ng fransuzcha *komitet* so‘zini o‘zbekcha talaffuzga moslashtirib, *qo‘mita* shaklida olindi va u adabiy leksik me’yorga aylandi. “Kichkintoylar nutqini o‘stirish” nomli bir kitobda shunday jumla bor: *Tarbiyachi xattaxta oldiga ikki nafar bolani chaqiradi*. Bu so‘z ruschadan olingen *doska* so‘zining muqobili sifatida yasalgan, lekin leksik me’yor maqomini olmagan. Demak, fan va texnologiya rivojlanib borgan sari yangi-yangi so‘zlar tilimizga kirib keladi. Masalan, hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar tufayli *marketing, menejment, menejer, broker, lizing, birja*; aloqa sohasiga oid *dizayner, kompyuter* kabi bir qancha so‘zlar o‘zbek adabiy tilining lug‘at xazinasidan joy olib ulgurdi. Demak, bunday so‘zlarni iste’molchi xalq qabul qildi. Bu esa o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligini kengaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Talaffuz (orfoepik) me’yori. O‘zbek adabiy tilining talaffuz (orfoepik) me’yori deganda, nutqda ayrim tovushlar, ularning qo‘shilmasi, so‘zlar, gaplarning ohangi (intonatsiyasi) va shu kabilarni to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalari nazarda tutiladi. Mazkur me’yorlar nutq tovushlari talaffuzi, urg‘u, intonatsiya, pauzaga oiddir. Bu me’yorlar o‘zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan 2 ta orfoepik lug‘atda aks ettirilgan. (Sodiqova M., Usmonova O‘. O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati. -T., 1977) (Asomiddinova M., va boshqalar. O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati. -T., 1984.) Lekin bu lug‘atlar ancha eskirdi.

Nutq madaniyati haqida gapirganda, so‘z urg‘usining muhim ahamiyatga egaligini ham qayd etish lozim. Rus tilida urg‘u qoidalari behad ko‘p bo‘lib, ularda xilma-xil xususiy va istisno holatlar bor. O‘zbek tilidagi urg‘u esa turg‘un bo‘lib, sanoqli istisno holatlar hisobga olinmasa, u asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Qo‘shimcha qo‘shilgani sayin, urg‘u ham ko‘chib boraveradi. Masalan: *paxta, paxtakor, paxtakorlار, paxtakorlargå*. Bu qoida kuchli me’yor bo‘lib, hech qaysi o‘zbek unga amal qilishda yanglishmaydi. Lekin –ma (borma) –dek (guldek), -ta (o‘nta), -cha (qishloqcha), yuklamalar, shaxs-son (-man, -san, -miz, -siz) kabilar yoki yangi-yangi, hozir-hozir, etik-etik, qatlama-qatlama kabi urg‘uning ko‘chishi kabi istisno holatlar uncha ko‘p emas. Adabiy talaffuz me’yorlarini belgilashda so‘zlardagi tovush va tovush qo‘shilmalarini to‘g‘ri aytish alohida o‘rin tutadi. Masalan, *kitob, hisob, muktab, yuzlab, savod, obod, marvarid* kabi so‘zlarning oxiridagi jarangli -b, -d undoshlari nutqda jarangsizlashadi. Nutqda *kitop, hisop, muktap, savot, obot, marvarit* tarzida aytilishi o‘zbek tilining deyarli barcha shevalarida uchraydi. Shunga ko‘ra bu holat adabiy talaffuz me’yori hisoblanadi. Shuningdek, so‘z oxiridagi 2 ta undoshning talaffuzda oxirgi 1ta

undoshning tushib qolishi ham talaffuz me'yori sifatida qaraladi. Masalan, *balan, poez, Samarqan, xursan, do's, go'sh* kabilar. Shuningdek, so'z shakllarining quyidagicha aytlishi ham me'yorga aylanib bo'lgan: ushta (uchta), besso'm (besh so'm), ushti (uchdi), ketti (ketdi), tussiz (tuzsiz) kabilar. Og'zaki nutqda *bo lsa, kelsa, bo lgan, kelgan* singari so'zlar talaffuzida 1 tovushini tushirib qoldirish ham adabiy orfoepiya me'yoriga aylangan.

Adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishi, avvalo, shevaning ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bolalikdan shakllangan shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamom qutulish oson bo'lmaydi. Buning oqibatida, buxorolik **o'** tovushini faqat til oldi tarzida, xorazmlik **o'** tovushini, asosan, a tarzida yoki unga yaqin tarzda talaffuz qilishi, toshkentlik *choyni* so'z shaklini *choyyi*, *oshni* so'z shaklini *oshshi* farg'onalik *choydi*, *oshti* tarzida aytishi kabi ko'plab xatolar kelib chiqaveradi.

Ba'zan bir xorijiy tilni mukammal biladiganlar nutqida nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Masalan, *yanvar* so'zini *yinvar*, *Yaponiya* so'zini *Yiponiya*, *dekan* so'zini *de'kan* yoki *paynet* so'zini *peynet* tarzida begona aksent bilan talaffuz qilish o'zbekcha talaffuz me'yoriga ziddir.

Nutqda intonatsiya ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, *bahor* so'zi darak, so'roq, undov gaplarga aylanishi mumkin. Intonatsiyaning o'zgarishi bilan gapning mantiqiy mazmuni ham tamoman o'zgaradi. Masalan, o'qituvchi o'quvchiga murojaat qilar ekan, *jem o'tirasizmi?* gapini bir intonatsiya bilan, ya'ni *ji-im o'tirasizmi?* tarzida aytsa, *jem o'tirmang, javob bering*, mazmuni anglashiladi. Yana boshqa intonatsiya bilan, ya'ni *jem o'tirasizmi?!* tarzida aytganda esa, *jem o'tiring, bo lmasa jazolayman mazmuni* ifodalanadi. Pauza ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, *katta/ mevali daraxt (daraxtning kattaligi), katta mevali/ daraxt* gapida (mevasi kattaligi) nazarda tutilmoxda. Ushbu gapda ikki mazmun o'rtasidagi farq to'xtamning to'g'ri qo'yilishiga bog'liqdir.

So'z yasalish me'yori. O'zbek tilida so'z yasalish me'yorlari mavjud. Har qanday yasaladigan so'z me'yor doirasida bo'lishi kerak. Agar shu me'yorga amal qilinmasa, tilning lug'at tarkibidan o'rin ololmaydi. Masalan: -gich, (-g'ich, -qich, -kich) qo'shilmasi faol yasovchi qo'shimchalar bo'lib, fe'lga qo'shiladi, narsa-qurol otini yasaydi. Masalan: *suzgich, qirg'ich, qisqich, ko'rsatkich* kabi. Bu qo'shimchalar ot turkumidagi so'zga qo'shila olmaydi. Mustaqillikning ilk yillarida forscha *-noma* va – *goh* qo'shimchalaridan ham ko'p so'zlar yasashga harakat qilindi. *-noma* qo'shimchasi matn turini bildiruvchi ot turkumidagi so'zga bog'lanishi kerak, *-goh* qo'shimchasi esa harakat sodir bo'ladigan joyni bildiradigan so'zni ifodalaydi. Bu qo'shimchalardan yasalgan ba'zi so'zlar o'zidan oldingi lisoniy iste'molda bo'lgan ruscha-baynalmilal so'zning ma'nosini to'liq ifodalab berolmaydi. Masalan, «*o'yingoh*» so'zi to'g'ri yasalgan bo'lsa-da, ikki so'z o'rtasida semantik izomorfizm yetishmasligi sababli

«stadion» leksemasi o‘rnini to‘la bosolmaydi. Shuning uchun so‘z yasashda lingvistik bilim va ekspertiza juda ham zarurdir.

Ba’zi bir yozuvchi shoirlar turli badiiy estetik maqsad asosida bu me’yorlarni buzadi va uning nutqi noto‘g‘ri deb hisoblanmaydi. Masalan, M.Yusuf ijodida *quyoshiston*, *yurtfurush*, *bulbulzabon*, *tahoratkash* kabi, A.Qodiriy ijodida *qorong‘uzor* kabi yangi yasalmalarni ishlatadi. To‘g‘ri, bunday so‘zlar o‘zbek adabiy tilining leksik boyligi sifatida sanalishi mumkin. Biroq ularni nutq jarayonida qo‘llash mumkinmi yoki yo‘qmi, buni o‘ylab ko‘rish kerak, nazarimizda.

Grammatik me’yorlar. Grammatik me’yorlar morfologik va sintaktik me’yorlardan tashkil topadi. Adabiy morfologik me’yorlarning nutqda buzilishi tez-tez uchrab turadi. Bu qaratqich kelishigi bilan tushum kelishigini almashtirishdir. Qoida bo‘yicha qaratqich kelishigi ot so‘z turkumiga, tushum kelishigi fe’lga bog‘lanadi. Ammo mazkur me’yor shevalar va og‘zaki nutq ta’sirida kuchsizlanadi. Hozirgi kunda og‘zaki nutq jarayonida bu kelishikni almashtirish holatlari ko‘p uchraydi. (*daraxtni bargi*, *talabani kitobi* va h.k.) Qaratqich va tushum kelishigi nutqda belgili va belgisiz qo‘llana oladi, bunda ham tegishli me’yorlar bor. Belgili qo‘llanganda, aniqlik, ta’kidlash ma’nolari, belgisiz qo‘llanganda esa umumiylit ma’nolarini beradi. Nutqda bir kelishikning o‘rnida boshqasini qo‘llash holatlari uchraydi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi sheva vakillari nutqida o‘rin-payt kelishigi o‘rnida jo‘nalish kelishigini ishlatish holatlari uchraydi. Masalan, *Toshkentga o‘qimoq*, *dalaga ishlamoq*, *poezdga kelmoq*. Bunday qo‘llanish esa me’yorning buzilishidir. *Senga bitta gapim bor*, *hali poezdga aytaman* deyilsa, boshqa sheva vakillari tomonidan “*senga aytadigan gapimni senga emas*, *poezdga aytaman*” tarzida kulgili mazmunni ifodalaydi.

Tushum va chiqish kelishigining ma’nosи bilan bog‘liq ikki holatni qiyoslang: *uzumni emoq* - *uzumdan emoq*. Qismni –dan, butunni –ni ifodalaydi. *Uzumdan paqqos tushirdi* gapida kelishik qo‘shimchasi noto‘g‘ri qo‘llangan.

Sintaktik me’yorlarning ham nutqda buzilish holatlari kuzatiladi. Ega va kesimning shaxs va sonda moslashishi kuchli me’yor, ammo bunda ham ba’zi xususiy o‘rinlar borki, ular nutq tuzuvchining ikkilanishiga sabab bo‘ladi. Masalan, ega va kesimning 3-shaxs ko‘plik sonda moslashishini olib ko‘raylik. Ega kesim bilan 3-shaxs ko‘plikda hamisha moslashishi shart emas, ya’ni ega shaxsni bildiradigan so‘z bo‘lganda, kesim ko‘plikda ham, birlikda ham kelaverishi mumkin. *O‘quvchilar maktabga keldilar*. *O‘quvchilar maktabga keldi*. Lekin ega vazifasidagi so‘z jonivorlar yoki jonsiz narsalarni bildirsa, kesim asosan birlikda qo‘llaniladi: *Gullar ochildi*. *Itlar vovulladi*. *Barcha ta’lim muassasalari qishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rdilar*. Bu gapda esa kesim birlikda qo‘llanilish kerak edi. Mantiqiy ko‘plik bilan grammatik ko‘plikning farqiga bormaslik ham sintaktik me’yorning buzilishiga olib keladi. Masalan, *Isroil armiyasi ushbu hududda harbiy texnikalarni ko‘paytirganlar*. Tildagi gaplarning rang-barangligi ham nutqning to‘g‘riligini ta’minlovchi imkoniyatdir. Sintaktik me’yorlarning buzilishi

tildagi gap modellari – struktur sxemalarni ham yaxshi tasavvur qilmaslikdan kelib chiqadi. Masalan, reklamada berilayotgan “*Menda ishtaha yo‘q*” jumlesi o‘zbekcha gap modeli asosida tuzilgan emas.

Til qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning uslubiy me’yori ham shunchalik rivojlangan, boyigan bo‘ladi. O‘zbek tilida 5ta nutq uslubi bor. So‘zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy. Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so‘z, so‘z birikmalari, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o‘zbek adabiy tili uslubiy me’yorlarining asosidir. Har bir uslubning o‘ziga xos til xususiyatlarini, uslubiy me’yorlarini bilmasdan turib tuzilgan har qanday nutq madaniy nutq bo‘la olmaydi.

“Tilga e’tiborsiz — elga e’tiborsiz” naqlini barchamiz bilamiz. Demak, tilga e’tiborsizlik uning keyingi rivoji va yangi avlodini tarbiyalashda, umumiyl savodxonlik va yuqori nutq madaniyatiga erishishda salbiy o‘rin tutadi. O‘zbek tili mavqeiga putur yetkazadi. Shuning uchun yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘laman degan har bir kishidan adabiy til me’yorlarini puxta bilish va tilda yuz berayotgan o‘zgarishlardan voqif bo‘lib borish talab qilinadi. Buning uchun qaysi sohada faoliyat yuritmaylik o‘z ona tilimizning me’yoriy qoidalarini bilishimiz va nutq jarayonida o‘rinli foydalanishimiz zarur.

1-mashq. Quyidagi so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasini qo‘sning va urg‘usini to‘g‘ri qo‘yib o‘qing.

I. Akvarel, kollokvium, disk, aktiv, zaryad, gastrol, gramm, kottej, gladiolus, defolt, infarkt, allergolog, kollej, aloe, ammoniy, antibiotik, antropolog, dividend, jurnalist, instinkt, artikl, arxeolog, diftong, asteroid, kontakt, affiks, bakteriolog, benefis, bifshteks, boks, aktyor, imij, kiosk, konspekt, konflikt.

II. Akvalang, dirijabl, akvarium, bronxit,akkord, bronetank, katafalk, akt, vals, alpinist, gidrolog, antrakt, anshlag, aspekt, vedomost, aspirant, kabel, affekt, balans, banderol, bank, aktsept, blank, blok, bukinist, bumerang, buterbod, bulldog, debyut, dialog, dizel, duel, duet, ieroglif, intervyu.

2-mashq. Orfoepiya qoidasiga asosan yozilgan matnni imlo qoidalari bo‘yicha yozing.

Umir

Tanishtilar...

Sevishtilar...

Turmush qurdilar...

Farzan ko‘rdilar...

To‘ng‘ichi nimjonroq edi. Kasal bo‘lip, ko‘p kuydirdi...

O‘rtanchasi o‘yinqaroq edi... Qamalip chiqtı...

Kenjası qız edi... erkaroq o‘sti. Turmushi buzildi...

Bir kuni erkak kechasi uyg‘onip ketti. Uzoq o‘y o‘ylap yotti. Qarasa, ayoliyam uyg‘oq ekan.

Onasi,- dedi. – Dunyoga kelip nima ko‘rdik o‘zi?

Bilmasam, – dedi ayoli xo‘rsinip...

..Bobotoqqa borganimda qurip qogan ikkita daraxni ko‘rgandim. Ikkalasi bir-biriga suyani-i-ip turardi...

3-mashq. Jonli so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarni yozma adabiy tilda yozing.

N a m u n a: sevindi - suyundi.

Anjon, Samarqan, Toshkan, asma, do‘slik, ishliyman, telvizor, ko‘yni, obketaman, to‘r, ishka, silar, bo‘maydi, abzal, maxtanchoq, mart, dasro‘mol, daslapki, yusso‘m, ushta, olli, taxsimlamoq, shammi, bironqa, aynalmoq.

4-mashq. Quyida berilgan gaplarda qanday xatolarga yo‘l qo‘yilganligini aniqlang.

1.V.Matviyenko chiqqan jurnallar qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. 2.“Vlast” jurnalining muqovasida Sankt-Peterburg gubernatori Valentina Matviyenkonning surati chiqqan soni gazet do‘konlari peshtaxtalaridan g‘oyib bo‘ldi. 3.Oliygohda ta’lim olasizmi? 4.Futbol faqat erkaklar uchun emas, biz ayollar ham ishqibozmiz. 5. Hozirda korxonada 35 kishi ishlamoqda, ularning 15 nafarlari gretsiyalik mutaxassis. 6. Bolgariyaning Qora dengizidagi port shahri vokzalida boshqa turistlar qatori do‘stlar bizni ham iliq chehra bilan kutib oldilar.

Mustaqil bajarishi uchun qo‘shimcha vazifalar.

1-topshiriq. Avvallari markaziy televide niye diktori lari nutqi barcha uchun namuna, savodxonlik etaloni vazifasini bajaruvchi, o‘zbek adabiy tili me’yorlariga qat’iy amal qiluvchi nutq edi. Muammo: Hozirgi kun teleboshlovchi va radioeshittiruvchilarning nutq madaniyati haqida nima ayta olasiz?

2-topshiriq. Berilgan matnni quyidagicha tahlil qiling:

- a) orfoepik me’yor asosida o‘qib, matndagi adabiy talaffuzdan chekinishga yo‘l qo‘yilgan o‘rnlarni aniqlang, daftaringizga ko‘chiring va izohlang;
- b) yondosh undoshlarni aniqlab, talaffuzini izohlang;
- d) matndagi ayrim so‘zlarning umumiy talaffuzida hozirgi adabiy til me’yorida chekinishlar borligini aniqlang.

Yoshi ellikdan oshibdi. Qanchadan qancha narsalarni ko‘ribdi. Qiziq. Nimalarni ko‘rdi? O‘ylab qarasa, hech nimani ko‘rmaganga o‘xshaydi. Ro‘parasida zulmat, ortiga o‘girilib qarasa, qorong‘i - bo‘shliq. Faqat uqubat uchun tug‘ilgan odam ham u kabi uqubat chekmasa kerak. Qoq suyak topgan it ham o‘zini baxtli his qilar, balki. Shuncha boyligi bo‘la turib nima uchun Asadbek baxtsiz?..

Har bir odamning baxti o‘ziga alohida bo‘ladi. Bu baxt daraxtini boylik bulog‘i suvi bilan sug‘orib, meva olmoqchi bo‘lganlar yanglishadilar. Asadbek ana shu

adashuvchilardan biri edi. Faqat imon bulog‘idan suv ichgan baxt daraxtigina shirin meva berishini hamma ham anglab yetavermaydi. Asadbek ana shu anglamaganlardan biri edi. Zulm bulog‘idan suv ichgan baxt daraxti qiyomatda zaqqum daraxtiga aylanajagidan barcha xabardormi? (T. Malik).

3-topshiriq. Matnni o‘qib, qaysi uslubga xosligini aniqlang va nima uchun yozuvchi tomonidan shunday variantdagi til birliklari qo‘llanganligini tushuntiring. Shu uslubda qo‘llangan so‘zlarining adabiy til me’yoriga muvofiq variantini yozing.

Supada qator yotibmiz: akam, men, ukam...

Eng chekkada qo‘shni kampir... Sutdek oydin kecha. Hammayoq osuda. Chigirtkalar nag‘ma chaladi...

Endi ko‘zim ilingan ekan, olisdan poezd g‘ildiragining taraqa-turuq tovushi keldi. Keyin paravoz cho‘zib “gu-u-u-k” dedi. Kampir ovozi titrab, xitob qildi:

-O‘-o‘-o‘-l! Ovozing o‘chsin -o‘-o‘-o‘-l! Turg‘unimni nega urushga obketding, juvonmarg! Obkeb ber yolg‘izimni!

Ko‘rpadan mo‘ralab qarasam, kampir tizzasini quchoqlab, oyga termilib o‘tribdi. Uyqum butunlay o‘chib ketdi. Anchagacha jim yotdim-da, oxiri so‘radim:

-Poyizzi nega qarg‘ayapsiz, buvi?

Kampir xo‘rsindi:

-Uxla, bolam, uxla...

...O‘sandan beri yoz kechalari hovlida yotsam, olisdan poyezd g‘ildiraklarining shovqini, gudok tovushi kelsa, tizzalarini quchoqlab o‘tirgan kampir ko‘z o‘ngimda jonlanadi. (O‘.Hoshimov)

4-topshiriq. Matn tahriri



Trener o‘qituvchi 5-6 talabadan iborat guruh tashkil qiladi.



Talabalar trening maqsadi, tartibi va shartlari bilan tanishtirilgach, har bir guruhga umumiyl muammoning tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari beriladi.



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan tarqatmaga asosan bayon qiladi.



Guruqlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. So‘ngra trener-o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, to‘ldiriladi.

Namuna...Kapalaklarni aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo‘nayotgan kapalaklarga mahliyo bo‘lmay ilojing yo‘q. Bularni hammasi O‘tkirni butunlay sehrlab qo‘ydi. O‘tkir o‘rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli 2 ta kapalaklarga ko‘zi tushib qoldi. Buncha chiroyli uchmasa. O‘tkir kapalakni ushlarmoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, kapalak ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustiga paydo bo‘lardi. O‘tkir kapalakning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri kapalakni ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi.

Nutqning to‘g‘riliği	Nutqning boyligi

5.Namunadagidek mavzuga mos biror muammo shakllantiring va har biriga izoh bering.

No	Muammoning turlari	Muammoning kelib chiqish sabaq
1.	A.Navoiy asarlarini to‘laligicha tahlil etish muammosi	Oliy ta’lim muassasalarida mumtoz adabiyot darslari
2.	G‘arb notiqlari haqidagi ma’lumotlarning o‘sishini aniqlash	Ritorika ilmi bo‘yicha manbalarning o‘zbek tilida yo‘qligi

	ma'lumotlarning kamligi	
3.	Sharq notiqligi tarixi haqidagi ma'lumotlarning kamligi	Sharq notiqligi, va'z va voizlar haqidagi ma'lumotlarning kamligi
4.	Navoiy zamonasida yashagan notiqlar haqidagi to'liq ma'lumotlarning yo'qligi	Navoiy davri notiqlari haqidagi nazariy manbalar to'liq ma'lumotlarning kamligi

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha test savollari.

1. Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun 2 me’yor asosiy sanaladi, bular qaysilar?

- A. Urg‘u va grammatik me’yorlar.
 - B. Urg‘u va bo‘g‘inga oid me’yorlar.
 - C. Urg‘u va uslubiy me’yorlar.
 - D. Urg‘u va intonatsion me’yorlar.

2. Nutqning mantiqiyligi uchun, asosan, qaysi me'yor muhim?

- A. Leksik-semantik me'yor.
 - B. Fonetik me'yor.
 - C. Sintaktik me'yor.
 - D. Uslubiy me'yor.

3. Nutqning ta'sirchanligini oshirishda nimalardan foydalanildi?

- A. Maqol va matallardan.
 - B. Tilning tasviriy vositalaridan.
 - C. Terminlardan.
 - D. A va V.

4. Adabiy me'yorning qanday ko'rinishlari mavjud?

- A. Badiiy va ilmiy.
- B. Og‘zaki va yozma.
- S. Substantsiya va forma.
- D. Shakl va mazmun.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Adabiy til me’yori deb nimaga aytildi?
2. Adabiy til me’yorlarining ahamiyatini bilasizmi?
3. Orfoepik me’yorni misollar asosida tushuntiring.
4. Leksik-semantik me’yor deganda nimani tushunasiz?
5. Morfologik me’yor nima?
6. Sintaktik me’yor deganda nimani tushunasiz?

Glossariy

Adabiy norma - til birliklaridan maqsadga muvofig‘ini tanlash.

Adabiy til me’yorlari - bu ko‘pchilik til tashuvchilari tomonidan til vositalaridan bir xilda foydalanish maqsadida qabul qilingan qonun va qoidalar.

Madaniy nutq - adabiy me’yorlarga rioya qilib tuzilgan nutq.

Orfoepik me’yor – to‘g‘ri talaffuz normalarini o‘rganadi.

Leksik-semantik me’yor – so‘z ma’nolarini o‘rganadi.

Morfologik me’yor – so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga xosligini o‘rganadi.

Sintaktik me’yor – gap qurilishi qoidalarini o‘rganadi.

Punktuatsion me’yor – tinish belgilaringin gapdagi o‘rnini o‘rganadi.

Fonetik me’yor – tovushlarning uslubiy o‘rnini o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 13-jild. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
2. Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 5-son, 1975, 50-58-betlar.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -Toshkent: 1993, 38-bet.
4. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent: 1998.

**NOTIQLIK SAN’ATI TARIXI. G‘ARBDA NUTQ
MADANIYATI**

Tayanch so‘zlar: Ritorika tushunchasi, ritorika ilmi, sofistlar, sofizm, ritorika maqsadi: ishontirish, rohatlantirish, hayajonlantirish, ritorika manbai, nutq madaniyati, nutq tuzish qoidalari, antik notiqlik sirlari.

Ritorikaning vujudga kelishi. Notiqlik san’ati Qadimgi Yunonistonda vujudga keldi va katta mavqega erishdi. Notiqlik san’ati haqidagi ilk ma’lumot Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida keltirilgan. U o‘z asarida Menelay, Nestor, Axill, Odissey kabi mashhur notiqlar bo‘lganligi, ular notiqlik san’atining to‘rt yo‘nalishiga mansubligi, notiqlik maktablarida tahsil olganliklari, xususan, Axillning Feniks nomli so‘z ustasi darsxonasida saboq olganligi haqida qayd etadi. Gomerning notiqlik namoyandalarini o‘z asarlariga kiritganligi qadimgi Yunonistonda notiqlik san’atining yuksak kamol topganligini ko‘rsatadi. Yunonistonda notiqlik san’ati ritorika deb nomlangan. Ritorika –yunoncha so‘z bo‘lib, qadimgi yunon tilida rhej ”gapisht”, ”quyilib kelish”, retor - ”ritor”- notiq ma’nolarini anglatgan. Avvallari ”ritor” so‘zi umuman notiqlarga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik notiqlik san’atiga o‘rgatuvchi maxsus muallimlarni shu nom bilan ataganlar.

Ritorikaning vatani qadimgi Yunoniston hisoblanadi, chunki ritorika nazariyasi bo‘yicha ishlar birinchi bor Elladada vujudga kelgan. Eramizdan oldingi V asrlarga kelib, xalq majlislari va besh yuzlar kengashida so‘zini o‘tkaza olgan kishilargina davlat arbobi darajasiga ko‘tariladigan bo‘lgani uchun notiqlik asoslarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Ana shunday ijtimoiy ehtiyoj tufayli tarixda sofistlar deb ataluvchi kishilar toifasi vujudga keldi. Sofistlar ”donolar” degan ma’noni anglatib, fozil faylasuflarni shunday atashgan. Bu davrda esa sofistlar jahon madaniyati tarixida birinchi bor pul olib o‘qitgan professional saviyadagi o‘qituvchilar bo‘lib, ular etika, ritorika, grammatika, tarix, siyosat, mifologiya va kosmologiya kabi fanlardan dars bergen. Sofist-ritorlarning eng asosiy vazifasi shogirdlarini fikrash va so‘zlashga o‘rgatish bo‘lgan. Ular yoshlarni professional ritor sifatida faoliyat olib bora olishlari uchun amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilganlar hamda notiqlik san’atining nazariy asoslarini ishlab chiqib, ritorikani o‘qitish mazmuniga aniqlik kiritganlar. Sofistlar o‘rgatadigan metod, asosan, 3 yo‘nalishni qamrab olgan:

- 1.Ritorikaning umumiyl qonunlarni nazariy va amaliy ishlab chiqish.
- 2.Siyosiy va sudbop matnlarni tuzish va uni talqin qilish uslublari.
- 3.Bahs qoidalari.

Sofistlar notiqlik san’atiga inson o‘qish va mehnat qilish orqasida erishadi deb hisoblaganlar. Shuning uchun avval fanlarni chuqur o‘rgatib, xotira mashqlariga, nutq tuzishga va bahslashishga ko‘proq e’tiborni qaratgan. Nutq ishonchli bo‘lishi uchun maxsus leksikadan foydalanishni, gaplarni tuzganda, ularning uyg‘unligiga, jarangdorligiga ahamiyat berish kerakligini uqtirishgan. Tajribali notiqlar nutqini

kuzatishgan, ularning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishgan hamda hozirjavoblik bo‘yicha musobaqalar tashkil etishgan.

Antik ritorikaga Protagor, Prodik, Gorgiy, Korak va Aristotel kabi yirik sofist–ritorlar katta hissa qo‘sishdi. Ularning asarlari bugungi kunda ham dasturulamal bo‘lmoqda va sofistlar tomonidan kiritilgan terminologiya qo‘llanilmoqda. U davrda ritorika “Barcha fanlarning malikasi” bo‘lgan. Ustoz-ritor sifatida Protagor ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ishlarni amalga oshirgan. U birinchi bo‘lib nutqni klassifikatsiya qilgan, ya’ni nutqni 4 guruhga ajratib, ularning iltimos, savol, javob va buyruqlardan iborat ekanligini aytadi. Protagor notiqlik san’atida fikrni grammatik jihatdan aniq ifoda etish (ortoepiya) masalasiga alohida e’tibor bergen hamda notiqlik san’atini egallahda muhim bir komponent darajasiga ko‘targan. Biroq Protagorning nima qilib bo‘lsa ham (hiyla ishlatib), bahsda yutib chiqish maqsadida tuzilgan nutqlar haqidagi fikrlari sofistlar matabining kamchiliklaridan biri edi. Tarixdan ma’lumki, Protagorning o‘zi ham ana shunday “Evatl sofizmi” ning qurboni bo‘ldi. Kunlardan bir kuni Protagorning yoniga Evatl ismli yigitcha kelib, notiq bo‘lishni orzu qilishini, shuning uchun unga notiqlik sirlarini o‘rgatishni iltimos qiladi. Ular o‘zaro shunday shartnomalar tuzadilar: Agar Evatl birinchi sud ishida yutib chiqsa, ustoziga o‘qish uchun 10 ming draxm to‘laydi. Yutqazsa, hech narsa to‘lamaydi.

Evatl o‘qishni tugatgandan keyin sud ishlarida qatnashmaydi va o‘qish uchun pul ham to‘lamay yuraveradi. Sabr kosasi to‘lgan Protagor shogirdini sudga beradi. Protagor shunday argumentni keltiradi: “Sudning har qanday qaroriga qaramasdan Evatl o‘qish haqini to‘lashi shart. Ishni yutsa ham, yutqazsa ham. Agar yutib chiqsa, shartnomalar bo‘yicha to‘lashi, yutqazsa, sud qarori bo‘yicha to‘laydi”.

Evatl esa: ”U holatda ham, bu holatda ham to‘lashga majbur emasman. Agar ishni yutib chiqsam, sud qarori bo‘yicha, yutqazsam, shartnomalar bo‘yicha to‘lamasligim kerak”, -deydi.

Tisiy, Koraklarning qo‘llanmalarida ham qanday qilib bo‘lmisin, o‘zini oqlab ketish yo‘llari o‘rgatilgan. Buning uchun kim haq-u kim nohaqligining farqi bo‘lmagan, ishqilib notiq o‘z so‘ziga ishontirsa bo‘ldi. Masalan, bir nimjon kishini baquvvat kishi ursa, nimjon kishi “mana meni urdi, mana izlari” deb ishontirishi mumkin. Baquvvat kishi esa “nahotki men urgancha bo‘lsam, ursam o‘ldirib qo‘ygan bo‘lardim-ku, bu nimjonnini” deb ishontirishi mumkin bo‘lgan.

Sofistlarning mana shunday fikrlarini Suqrot qattiq tanqid qiladi. Suqrot barcha narsalarning mezonini haqiqat deb belgilaydi. Suqrot o‘z shogirdlarini fikrlash, dalillar keltirish, gapirishga o‘rgatgan. Suqrot suhbatlarni shunday uyuştirish kerakki, oxirida haqiqat yuzaga chiqsin deydi. Ushbu fikrlarni Suqrotning shogirdi Platon yanada rivojlantirib, notiqlik san’ati haqiqatga asoslanishi va odamlarni ishontira olish san’ati bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Platonning yanada qimmatli bo‘lgan fikrlaridan biri bu nutqning inson qalbiga ta’sir qilish g‘oyasidir. Uningcha, tinglovchilar har xil bo‘ladi,

shuning uchun nutqni kishilarning bilim saviyasini, darajalarini hisobga olgan holda tuzilishini qayd qiladi. Platon ham ustozি Suqrot kabi haqiqiy notiqlik san'ati haqiqatga asoslanishi kerak deb hisoblaydi. Narsalarning asl mohiyatini bilgan notiq inson tabiatini anglaydi va tinglovchilarga o'z fikrini o'tkaza oladi.

Antik ritorikaning notiqlik san'ati asoslariga bo'lgan talablari tizimi quyidagilardan iborat bo'lgan: Notiqlik san'atining 3 turi farqlangan:

I.Siyosiy yoki kengash nutqi:

- 1.Ishontirish nutqlari.
- 2.Fikridan qaytaruvchi nutqlar.

Bunda notiq foyda va zarar kategoriyasidan kelib chiqib nutq so'zlagan.

II.Tantanali yoki epideyktik tur:

- 1.Maqtov nutqlari.
- 2.Tanbeh nutqlari.

Bunda notiq yaxshilik va yomonlik kategoriyasidan kelib chiqib nutq so'zlagan.

III.Sud notiqligi:

- 1.Ayplash nutqi.
- 2.Himoya nutqi.

Bunda notiq haqiqat va nohaqlik kategoriyasidan kelib chiqib nutq so'zlagan.

Notiqlik san'atining 3 manbai va 3 maqsadi klassifikatsiya qilingan:

1.Tabiiy iste'dod.

2.Nazariy bilim.

3.Amaliy mashqlar.

Notiqlik san'atining 3 maqsadi:

1.Ishontirish.

2.Rohatlantirish.

3.Hayajonlantirish.

Nutq matni ustida ishslash jarayoni 5 qismdan iborat bo'lgan:


- 1.Materialni topish.
2. Materialni joylashtirish.
- 3.So'zda bayon qilish, yozish.
- 4.Eslab qolish.
- 5.Talqin etish.

O'sha davr nazariyotchilarini **birinchi** ish muayyan mavzuni aniqlab olish, so'ngra shu mavzuga xos bo'lgan va uni yorituvchi faktlarni o'rganish va ularni to'plash, **ikkinci** ish-to'plangan va o'rganib chiqilgan fakt va hujjatlarni reja asosida joylashtirish, **uchinchi** ish-nutqqa qo'yilgan talablar asosida, ya'ni to'g'rilik, aniqlik, o'rinnlik va yuksaklikka rioya qilgan holda yozma shaklda bayon etish, **to'rtinchi** ish-matnni xotirada saqlab qolish, **beshinchi** ish-notiq va nutq sha'niga mos ravishda nutq so'zlash jarayoni bo'lishini ishlab chiqqanlar. Birinchi navbatda kirish qismini yaxshilab

belgilab olish, ikkinchidan, uni bayon qilish, uchinchidan, dalillarni keltirish, to‘rtinchidan, haqiqiy xulosalarni keltirish turgan.

Xullas, olim M.Gasparov aytganidek, antik qoidalar “yosh notiqlar uchun yaxshi maktab, yetuk notiqlar uchun yaxshi quroldir”.¹⁵ Shuning uchun ham bugungi kunda antik notiqlik sirlarini o‘rganish, ularning eng ilg‘or xususiyatlarini o‘zlashtirish va amalda qo‘llay olish maqsadga muvofiqdir.

Notiqlik turlarining rivojlanishi. Qadim Yunonistonda notiqlik san’atining rivojiga demokratiya sabab bo‘lgan. Bular:



Besh yuzlar kengashi


Xalq majlisi

Sud organi

Besh yuzlar kengashida davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalar bo‘yicha kiritiladigan takliflar, qonun-qoidalar loyihasini tuzib, muhokama etilardi. Ana shu jarayonda Kengash a’zosi muhokama etilayotgan masala yoki loyiha bo‘yicha o‘z fikrini aytar, loyihani kirituvchi yoki masalani ko‘taruvchi kengash a’zolari esa o‘z nuqtayi nazarlarini erkin tarzda himoya qilib, har tomonlama asoslab, uzundan-uzoq nutq so‘zlardilar. Ana shu nutq va erkin muhokama jarayonida masalani ko‘taruvchi Kengash a’zosi o‘z pozitsiyasini himoya qila olsa, loyiha qabul qilinar, asoslay olmasa, qabul qilinmas edi. Ana shunday so‘z erkinligi, ya’ni demokratiya notiqlik san’atining taraqqiyoti uchun qulay zamin yaratdi. Kengash notiqligi siyosiy xarakterga ega bo‘lganligi uchun bu toifaga mansub notiqlarning ko‘pchiligi o‘z mavqeyiga ko‘ra siyosiy yoki harbiy notiqlar bo‘lib, ular ijtimoiy-siyosiy notiqlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ijtimoiy-siyosiy notiqlikning yirik namoyandalaridan biri Perikldir. Periklning notiqlik mahorati haqida Evpolid shunday deydi:

¹⁵ М.Л.Гаспаров. Цицерон и античная риторика. (Qarang:Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве. – С.25.)



U so`zda donoligi jihatdan hammadan ustun turadi. Uning lablariga ishontirish xudosi makon qurban: u shu qadar maftun eta olardiki, notiqlar ichida, tinglovchilarida o`z nishtarini qoldiradigan yakka-yu yagonasi edi.

Notiq-Periklning ibrat bo`ladigan xislatlaridan biri shundaki, u yuksak mahoratga ega ekanligiga qaramay, to puxta tayyorgarlik ko`rib, nutq matnini ko`ngildagiday qilib to`la-to`kis yozib olmaguncha, sira minbarga chiqmagan. Plutarxning aytishicha, odamlar qaysarlik qilib talab qilganda ham, tayyorlanib ulgurmaganligini aytib, so`zga chiqmagan. U o`z nutqida mantiq masalasiga alohida e'tibor bergen. Buning uchun u nutqida qo'llanadigan fakt va hujjat, misol va dalillarni shunday joylashtirganki, natijada, uning nutqini eshitgan tinglovchida notiq pozitsiyasining to'g'riliqiga hech qanday shubha qolmagan. Perikl nutq matnlarining tiliga va uning talqini jarayonidagi talaffuziga ham e'tibor berib, o`z fikrlarini obrazli ifodalashga harakat qilgan.

Yunon demokratiyasining ikkinchi hal qiluvchi organi – qonun chiqaruvchi Xalq majlisi edi. Besh yuzlar muhokamasidan o'tgan masala va loyihalarni keng umumxalq muhokamasiga qo'yishar va ana shu muhokama natijasida muayyan masala yoki loyiha qabul qilinardi yo uzil-kesil inkor etilardi. Shu jarayonda fuqarolarning barchasi erkin ishtirok etish va erkin muhokama yuritish huquqiga ega edi. Demokratik asosga ega bo`lgan bunday muhokama va munozaralar jarayonida shahar fuqarolari orasidan o'nlab zabardast notiqlar yetishib chiqar va ular ming-ming kishilardan iborat keng muhokama etuvchi auditoriyalar oldida yurtdoshlari manfaatini, o`z davlati manfaatini va o`zlarining xususiy pozitsiyalarini himoya qilib nutq so`zlardilar. Bu hol keng omma orasida notiqlik san'atining rivojlanishi uchun juda qulay sharoit yaratdi. Chunki notiqlik san'ati har bir fuqaro uchun ehtiyojga aylangan edi. Ular notiqlik san'atining assoslарini egallash uchun kurashar va maqsadga erishish uchun maxsus ustoz-o'qituvchilardan dars olishardi. Badavlat oilalar esa o`z bolalarini bolalik chog'idanoq shu san'at sirlaridan xabardor etishga urinar va farzandlarini maxsus notiqlik mакtablariga berib o'qitardi. O`z-o'zidan ma'lumki, ana shu ommaviy ehtiyoj tufayli notiqlik san'atining boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim darajasidagi maktabi mavjud

bo‘lib, ularda minglab kishilar ta’lim olardi. Shuhrat qozongan maktablardan biri Isokratning maktabi bo‘lgan. Isokrat eramizdan avvalgi 436-338 yillarda yashagan. U notiqlik, falsafa va yurisprudensiya sohasida Suqrot, Lisiy, Gorgiy kabi zabardast olimlardan saboq oladi. U 329- yili Afinada notiqlik maktabini ochadi va unda 40 yil ustozlik qiladi. O‘sha davrda Isokrat maktabi o‘zining yetuk, puxta bilim berishi bilan shuhratga ega bo‘ldi. Shuning uchun ham bu maktabga faqat afinaliklar emas, balki Yunonistonning barcha burchaklaridan o‘quvchilar oqib kela boshlaydi. Bu esa Isokrat maktabining shuhrat topishiga imkon yaratadi. O‘sha davrda bu maktabdan ko‘plab notiqlar (jumladan, Demosfen) yetishib chiqadilar.

Sud notiqligi Yunonistonda eng katta mavqe va e’tiborga, amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan notiqlik turlaridan biridir. Antik demokratiya qoidalariga ko‘ra har bir erkin fuqaro xohlagan paytida, xohlagan ishi bo‘yicha sudga murojaat etishi va o‘z manfaatini himoya qilishi mumkin bo‘lgan. Sud jarayonida sud hay’ati chinakamiga demokratik, odilona pozitsiyada turar, sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo‘lishi ko‘pincha ularning notiqlik san’atidagi mahoratiga bog‘liq edi. Qaysi tomon o‘zining mantiqiy fikrlari, asosli dalillari orqali ishontirish kuchiga ega bo‘lib, sud hay’atini ishontira olsa, hukm o‘shaning foydasiga hal bo‘lar edi. Antik sud jarayonining demokratik qoidalariga ko‘ra, har kim o‘zini himoya qilishi mumkin edi. Biroq hamma vaqt ham sud jarayonida yetuk notiq bo‘lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin kechar edi. Shuning uchun ham antik sud tizimining qoidalariga muvofiq kuchli notiqlar tazyiqiga uchramasliklari uchun bunday kishilarga ular nomidan so‘zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Ular sinegorlar va logograflar deb atalgan.

Sinegorlar sud jarayonida boshqa birovning manfaatini ko‘zlab nutq so‘zlovchi kishilardir. Sinegorlar notiqlik san’ati va huquqshunoslikdan maxsus ta’lim olgan kishilar bo‘lgan. Ular olgan ishlarini ipidan-ignasigacha o‘rganib chiqib, uni yurisprudensiya qoidalari asosida yozib, notiqlik mahoratlarini ishga solib, sud jarayonida g‘olib chiqishga harakat qilganlar. Bu ularning tayyorlagan nutq matnlari va ijro mahorati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Logograflar esa nutq matnlarini tuzib yoki yozib beruvchi iqtidorli kishilar bo‘lgan. Ular qonunshunos mutaxassis, ta’sirchan, mantiqiy, izchil va ishontiruvchi nutqlarning yozuvchisi, o‘rni kelganda notiq sifatida o‘z himoyalalaridagi kishilarni keng omma oldida, demokratik sud oldida oqlab chiquvchi bilimdon shaxslardir. Logograflar kishining yoshi, mavqeyi va boshqa jihatlariga qarab nutq matnlarini yozgan va himoyalanuvchiga mana shu matnlarni mahorat bilan ijro etishi uchun repetitsiya ham qildirgan. Shunday qilib, notiqlik san’atining rivojlanishiga, xususan, sud notiqligi taraqqiyotiga sinegorlar va logograflar ulkan hissa qo‘shishgan.

Notiqlik turlaridan yana biri epideyktik, ya’ni tantanali notiqlikdir. Epideyktik nutq ko‘rinishi notiqlik san’atiga bo‘lgan katta qiziqishning mahsuli bo‘lib, faqatgina

suxanpardozlik maqsadini ko‘zda tutardi. Bu nutqdan ko‘zlangan maqsad, o‘z notiqlik mahoratini namoyish etish, notiqlik san’atining barcha imkoniyatlarini ishga solib, tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlashdan iborat edi. Epideyktik notiqlikda balandparvoz so‘zlar ishlatilar, shu bois ham bunday nutq matnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qilardi. Natijada logograflar o‘zlaridan oldingi notiqlarning merosiga va xalq og‘zaki ijodiga murojaat eta boshlashdi. Shu tufayli chiroyli so‘zlash san’ati astasekin shakllanib, badiiy adabiyotning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi, ya’ni tragediya, komediya va roman janrlarining tug‘ilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.


Eng muhimi, notiqlik san’atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, shuningdek, notiqlik san’ati nazariyasi bo‘lmish “Ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Rimdag'i barcha shoirlar va notiqlar shu maktabdan, ya’ni ritorika maktabidan ta’lim olganlar. Notiqlar tomonidan yaratilgan nutq matnlari nasriy va poetik ijod namunasi sanalgan. Tantanali nutq matnlari shu qadar go‘zal, silliq, badiiy va lingvistik bezaklarga boy holda tuzilganki, ularni o‘qib chiqishning o‘zi ham katta zavq-shavq beradi. Iste’dodli notiq talqinida esa bu nutqlar ajoyib artistona ijrochilikka aylanib ketgan va tinglovchilarga katta estetik zavq bag‘ishlagan. Shu nuqtayi nazardan Yunon notiqligining epideyktik ko‘rinishi o‘z ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra badiiy-estetik ijod xarakteriga ega bo‘lgan. Umuman, yozma adabiyotning paydo bo‘lishida, nafis adabiyotning go‘zal lirik shakllarining yuzaga kelishida epideyktik notiqlikning ta’siri juda katta bo‘lgan.

Yunonistonda bo‘lganidek, Rimda ham notiqlikning, asosan, uch turini ko‘rsatish mumkin:

1. Sud notiqligi - oqllovchi va qoralovchi nutqlari asosida shakllangan.
2. Siyosiy notiqlik – turli diplomatik yozishmalar asosida shakllangan.
3. Maqtov notiqligi – o‘sha davrning yuqori tabaqa vakillari va mansabdor shaxslar nomiga aytiladigan maqtov matnlari hisoblanadi.

Bulardan tashqari, Yunonistonda bo‘lganidek, notiqlik san’atini o‘qitish uchun xizmat qiluvchi o‘quv - mashq notiqligi ham mavjud edi. Bunday notiqlikning asosiy vazifasi nutq nazariyasiga asosan notiqlik maktabida notiqlarning shakllanishi uchun xizmat qilgan. Keyinchalik Rimda urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi. Natijada G‘arb-u Sharqda mashhur harbiy notiqlar paydo bo‘la boshladи. Ularning vazifasi urushda askarlarni g‘alabaga chorlashdan iborat bo‘lgan.

Notiqlik san’atining yirik namoyandasini Sitseron bu san’atga yuksak baho berib, ikki xil san’atni — lashkarboshilik va notiqlik san’atini tan oladi: «*Tarixda nom qoldirish uchun yo yaxshi sarkarda, yo yaxshi notiq bo‘lish kerak*». Bunday ijodkor notiqlarning nomi o‘z mamlakati doirasidan chiqib, jahonga ma’lum va mashhur bo‘lgan. Aristotel, Demosfen va Sitseron, Lisiy, Katon, aka-uka Grakxlar shular jumlasidandir.



Grek notiqlik maktabi vakillari

Aristotel (384-322). Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo‘lgan Aristotel eramizdan avvalgi 384-yilda Stagirda (Makedoniya yarim oroli) shifokor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nikomax Aleksandr Makedonskiyning nabirasi podsho Aminti II saroyida shifokorlik qilgan.

Aristotel 17 yoshida Afinaga keladi va bu yerda o‘z zamonasining mashhur olimlaridan bo‘lgan Platonga shogird tushadi. Aristotel ustozining akademiyasida 20 yil tahsil oldi. Platonning vafotidan so‘ng Aristotel 347- yili Afinadan Troad tomon o‘tib, Assosga boradi. Chunki bu yerda ustozining tarafдорлари ko‘p edi. Unga, ayniqsa, zo‘ravon, zolim Germiy homiylik qiladi. Aristotel Germiy vafotidan so‘ng Lesbos yarim orolidagi Mitilen shahriga ko‘chib o‘tadi va u yerda 342- yilgacha yashaydi. 342- yili Makedoniya podshosi Filipp o‘zining Aleksandr nomli 13 yoshli o‘g‘lining tarbiyasi uchun Aristotelni Mitilendan chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi.

Shu davrda Gretsiyada chiroyli so‘zlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Natijada qator notiqlik maktablari ochiladi. Bu maktablardan o‘z davrining so‘z san’ati ustalari tayyorlanardi. Keyinchalik chiroyli so‘zlash haqidagi qo‘llanmalar maydonga kela boshladi. Shunday asarlardan biri Aristotelning “Ritorika” nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur “Poetika” nomli asaridan so‘ng, ya’ni eramizdan oldingi 330- yillarda Afinaga so‘nggi marta qaytib kelganda yozgan edi.

Ma’lumki, ungacha Anaksimon, Lampsak ham “Ritorika” nomli qo‘llanma yaratgan edi. Bu ikki asar bir-biriga tamoman o‘xshamaydi. Ularning birinchisi qo‘llanma bo‘lsa, ikkinchisi chiroyli so‘zlash nazariyasi bo‘yicha ilmiy mulohazalardan iborat edi.

Aristotelning ritorika nazariyasi haqidagi qarashlari bizga 335- yilda yozilgan “Ritorika” nomli asari orqali yetib kelgan. Bu asar uch kitobdan iborat bo‘lgan:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo‘lgan tamoyillar tahlili.

2. Notiq uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyat va qobiliyat.
3. Notiq nutqida qo‘llaniladigan nutq texnikasi, nutq usullari.

Asarning birinchi kitobida ishontirishning turli usullarini topish xususiyatlarini aniqlash lozimligi ta’kidlab o‘tiladi. Bularning 3 turi mavjudligi, birinchisi, so‘zlovchining xarakteriga, ikkinchisi, tinglovchining kayfiyatiga, uchinchisi, nutqiga bog‘liq bo‘ladi. Xullas, olim 1-kitobida so‘zlash to‘g‘risidagi nazariy fikrlarini bayon qiladi.

2-kitobda notiq donolik, o‘ziga xayrixoh va moyillik uyg‘ota oluvchi xislatlarga ega bo‘lsa, tinglovchilarni ishontira oladi, lekin bularning barchasi faqat haqiqatga asoslanishi lozim deb hisoblaydi. Notiq tinglovchilarning yoshi, ijtimoiy ahvoli kabilarga doimo e’tibor qaratish lozimligini uqtiradi. 2-kitob ishontirish uslublari haqidagi nazariy fikr va mulohazalardan iborat.

3-kitobda nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi. Nutq uslubini to‘g‘ri tanlash, ya’ni har bir predmetga mos uslubni qo‘llash, barcha uchun tushunarli bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarini tanlash, sun’iylikka yo‘l qo‘ymaslik, nutq musiqiyligi va yuksakligiga katta e’tibor qaratilgan. Masalan, muhim voqealar yengil-yelpi, hazil-huzul bilan bayon qilinmaganidek, maqtov nutqlari jiddiy bayon qilinmasligini qayd etadi.

Asarning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan, chiroqli so‘zlash, ishontirish uslublari haqidagi nazariy fikr va mulohazalardan iborat bo‘lsa, uchinchi kitobida nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi. Olimning nutq nazariyasi haqidagi fikri, notiq tilidagi turli “qorishmalar”, ya’ni so‘zlarning noto‘g‘ri va noo‘rin talaffuz qilinishi, jumlalarning mantiqan har xil tuzilishi so‘zlovchining katta xatosidir, deb hisoblaydi. Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo‘lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so‘zlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo‘lishini alohida uqtiradi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani o‘ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so‘zlar bilan lirk chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilish zarurligini, agar turli ko‘rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog‘ishtirish va metaforalarni qo‘llasa, nutqining ta’sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko‘payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo‘ymasligi kerakligini ham ta’kidlaydi.

Aristotel notiqlik san’atini egallashni 5 qismga bo‘lib o‘rgatadi:

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash). Bunda Aristotel auditoriyaga mos matn tayyorlash lozimligini nazarda tutadi. Demak, har qanday notiq qanday auditoriyaga kirayotganligini his etishi va shunga ko‘ra matn materialini kashf etishi kerakligini qayd etadi.
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi). Bunda Aristotel auditoriyaga mos matnni ta’sirchan, jozibali so‘zlar orqali fikr ketma-ketligini tuzib chiqishni tavsiya etadi. Fikr

ketma-ketligi notiqning so‘z mahorati va o‘z nutqi orqali ifoda etish san’ati bilan bog‘liq hodisa ekanligini uqtiradi.

3. Materialni eslab qolish (o‘zlashtirish). Notiq so‘zga chechan, so‘z ustasi bo‘lolmasa, u qanday materialni kashf etmasin, uning ketma-ketligini mos holda tayyorlamasin, eslash qobiliyati yaxshi bo‘lmasa, auditoriyaga yetkazib berolmaydi. Bunday holatda notiqdan kuchli xotira talab etiladi.

4. Materialni so‘z yordamida to‘g‘ri aks ettirish. Notiq so‘z yordamida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Demak, u so‘z sehrini, ma’nosini, ko‘chma ma’noga egaligini, ta’sirchanligini his eta olishi va o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi zarurdir.

5. Materialni to‘g‘ri talaffuz etish. Agar notiq so‘z ustida tinimsiz izlanish olib bormasa, uning fikr ifodalash jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish qobiliyati rivojlanmaydi. Izlanish va ijod har bir so‘zni to‘g‘ri talaffuz etish imkoniyatini keltirib chiqaradi.

Aristotelning falsafiy fikrlari hozirgi kunda ham o‘z qiymatini saqlab kelmoqda. G‘arb-u Sharq notiqlari bu fikrlar asosida o‘zlarining notiqlik mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Suqrot (taxminan 427-347y.y.) . “Oddiy so‘z emas, ma’noga to‘yingan so‘z qudratga ega bo‘ladi”, - deydi, - buyuk alloma Suqrot. Insoniyatga so‘z shuning uchun beriladiki, u o‘ziga yuklatilgan vazifani - dunyoni, o‘zligini anglash uchun xizmat qilsin.

Faylasufning fikricha, nutq xuddi tirik mavjudoddek tuzilishi, uning tanasi bilan qo‘l-oyog‘i bir-biriga muvofiq bo‘lgani singari nutqdagi so‘zlar o‘zaro mos bo‘lishi kerak. Birinchidan, nutq boshida kirish, ikkinchidan, bayon qilish, guvohliklar, uchinchidan-isbotlar, to‘rtinchidan-xulosa bo‘lishi kerak. Notiqlik borasida Suqrotning g‘oyasi quyidagicha:

1. Dialogik muloqot. Bunda suhbatdoshlar o‘z fikrlarini, o‘z nutqlarini himoya qila olishlari uqtirilmaydi. Balki o‘zaro suhbat jarayonida hal etilishi zarur bo‘lgan masalani nihoyasiga etkazish ko‘zda tutilgan.

2. Uyg‘unlashgan muloqot. Suhbat. Bahs-munozaraning asosiy maqsadi kurash yoki g‘alaba qilish emas, muloqot qatnashchilarining umumiyligini maqsadga erishishi uchun birlashishlaridir.

3. Fikriy muloqot. Odamlar o‘rtasidagi nutqning maqsadi muhokama mavzusida yashiringan, topish mumkin bo‘lgan haqiqatni, ma’noni izlash va topish.

Platon dialoglarida ham tasvir etilgan bir qancha shaxslar orasida alohida o‘rin tutadigan, alohida iliq muhabbat va samimiy ehtirom bilan tilga olinadigan zot Suqrotdir.

Bir kishi Suqrotning oldiga kelib, shunday dedi:

-Bilasanmi, menga do‘sting sen haqingda nima deganini?

- Shoshma-shoshma, oldin aytmoqchi bo‘lgan xabaringni uch elakdan o‘tkazib ol! – dedi Suqrot uni so‘zdan to‘xtatib.

-Uch elak?!

-Nimadir aytishdan avval, u xabaringni uch marta elaklash kerak. Birinchisi, haqiqat g‘alviridan. Aytmoqchi bo‘lgan xabaring rostligiga aminmisan?

-Yo‘q, men shunchaki uni eshitdim.

-Demak, sen buni rost yoki yolg‘onligini bilmaysan. Unday bo‘lsa – ikkinchisi, yaxshilik g‘alviridan o‘tkazamiz. Sen mening do‘stim haqida biron bir yaxshi narsa aytmoqchimisan?

-Yo‘q, aksincha.

-Xo‘sh, Suqrot so‘zida davom etib, - sen u haqda biron yomon narsa aytmoqchisan-u, lekin o‘zing u so‘zning rostmi, yolg‘onmi ekanligini bilmaysan. Demak, aytmoqchi bo‘lgan xabaringni, uchinchi g‘alvirimiz - foyda elagidan o‘tkazamiz. Shunday ekan, sen aytmoqchi bo‘lgan xabaringni eshitishimdan menga qandaydir foyda bormi!?

-Yo‘q, hech qanday foyda keltirmaydi.

-Ha, shuni unutmaginki, aytmoqchi bo‘lgan har qanday gapingni rostligini bilmasang, shu xabaring yaxshilik bo‘lishiga sababchi bo‘lmasa yoinki bilishdan hech qanday naf yo‘q bo‘lsa, u holda sukut saqlagin, - deb ta’lim berdi Suqrot so‘zini yakunlab.

Dialogni o‘qiganimizda, xunukkina, g‘aribona kiyingan Suqrotning oddiy, ammo benihoya yoqimli mazmundor so‘zлari kalondimog‘, lekin ichi po‘k, xonaki olimlarni mulzam qilganini ko‘rib, zohiran juda to‘pori tuyulgan bu odamning aslida naqadar teran aql, tiniq fikr va atrofdagilarning dilini yoritib turadigan darajada dilrabo xislat egasi ekanligiga, hamisha haqiqat tarafdoi bo‘lganligiga iqror bo‘lishimiz mumkin.

Demosfen (384-322). Notiqlik san’atiga o‘z ustida tinmay mehnat qilish orqali erishish mumkinligini isbotlagan va butun umrini Ona-Vatanining gullab-yashnashiga bag‘ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq Demosfen eramizdan oldingi 384-yili Afinada o‘ziga to‘q oilada dunyoga keldi. Otasining ismi ham Demosfen bo‘lib, qurol-yaroq ustaxonasining egasi bo‘lgan. Bo‘lajak notiq 5 yoshga to‘lganida otasidan ayrıldi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi va merosi vaqtincha tog‘asiga topshiriladi. Tog‘a esa barcha boyliklarni qo‘lga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada, Demosfen juda nimjon va kasalmand bo‘lib o‘sadi.

Demosfen voyaga yetgach, tog‘asi unga faqat qullari, uyi va uy jihozlarini hamda pulning ma’lum bir qisminigina berib aldaydi. Demosfen tog‘asidan mol-mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so‘raydi. Biroq tog‘a bundan bosh tortganidan keyin u qolgan merosini sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afinaning davlat qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan

birga, ravon so‘zlash, da’vosining to‘g‘riligiga kishilarni ishontirish kerak edi. Shu sababli Demosfen notiqlik san’atini o‘rganish uchun o‘z davrining meros ishlari bo‘yicha mashhur advokati Isey maktabida ta’lim olishga majbur bo‘ladi va to‘rt yil davomida qunt bilan o‘qiydi. Shuningdek, bu davrda ko‘pgina yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, mashhur tarixchi Fukidid (eramizdan oldingi V asrda yashagan Afina tarixchisi va davlat arbobi. U Pelopan urushida ishtirok etgan va uning tarixini yozgan) va faylasuf Platonning tanlangan asarlarini puxta o‘rganadi. Bo‘lajak notiq Fukidid asarlarini sakkiz marotaba qayta ko‘chirib yozib, uni deyarli yoddan o‘zlashtiradi.

Demosfen o‘qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo‘lgan kurash bo‘lajak notiq xarakterining toblanishida, bir so‘zli va matonatli bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. Yoshlik chog‘laridayoq ko‘pchilik oldida so‘zga chiqishni orzu qilib yurgan Demosfen o‘qish yillarida o‘qituvchisi bilan sud majlislariga qatnashadi. Demosfen notiqlik bilan shug‘ullanishdan avval o‘z ustozи yo‘lidan borib, boshqalarga sudda so‘zlanadigan nutqning matnini yozib berar va bu ishlari uchun yaxshigina haq olar edi. Bora-bora nutqiy matnlar yozish Demosfenni qoniqtirmaydi. U otashin vatanparvar sifatida o‘z ijtimoiy faoliyatini Vatan ravnaqi uchun sarflashni orzu qiladi. Shu orzusi ortidan ergashadi, qunt bilan o‘qiydi, o‘rganadi.

Yosh notiqning xalq oldidagi birinchi nutqi ayanchli holda: to‘polon, kulgi, qiyqiriq, hushtak chalib masxaralash bilan qarshi olinadi. U o‘z nutqini tugatolmay minbardan tushishga majbur bo‘ladi.

Demosfen nutqining bunday ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki uning tovushi juda past bo‘lib, bir oz duduqlanar, “R” harfini talaffuz etolmas, g‘uldirab, mujmal gapirar edi. Bulardan tashqari, uning yelkasini qimirlatib turadigan odati ham bo‘lib, ko‘pchilik orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilmas edi.

Xalq majlislaridan birida Demosfen o‘zini ikkinchi bor sinab ko‘radi. Lekin bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so‘ng Demosfen o‘z nutqidagi kamchiliklarni boshqa takrorlamaslik uchun astoydil bosh qotiradi. Har kuni bir necha soatlab noto‘g‘ri talaffuz etayotgan so‘zları ustida qayta-qayta mashq qiladi. Og‘ziga tosh solib olib, qattiq va ravon gapirishga harakat qiladi. “R” tovushini to‘g‘ri talaffuz etish maqsadida kuchuk bolasining irillashini kuzatadi va o‘zi ham xuddi shu tovushni qaytaradi. Nihoyat, uzoq muddatli tinimsiz mashqlardan so‘ng Demosfen o‘z maqsadiga erishadi. Natijada, dunyo tan olgan mashhur notiq bo‘lib yetishadi. Ammo shunga qaramay, u hech qachon tayyorgariksiz nutq so‘zlamas, oldindan yozib qo‘yilgan matnni yodlab olar, har bir so‘z ustida puxta o‘ylanar, jumlalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. Ulug‘ notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo‘lardiki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasi edi.

Demosfen bo‘lmag‘ur safsatalarni yoqtirmas, xotirjamlik bilan tinglovchilarni

o‘ziga tortar, ularni o‘zi himoya qilayotgan ishning haqligiga ishontirish uchun butun kuch-quvvatini sarflar edi.

Demosfen 30 yoshga to‘lganda davlat ishlarida ham ishtirok eta boshlaydi. U o‘zining butun mahorat va bilimini Vatanining dushmani — makedoniyalik podsho Filipga qaratadi. Afina davlati Makedoniya rahbarligiga o‘tgach, Demosfen dushmanlari qaytadan bosh ko‘taradilar. Aslida bu voqeadan bir necha yil ilgari Xalq partiyasi Demosfenning vatanparvarligini yuksak baholab, uni “Oltin gulchambar” bilan taqdirlashga tavsiya etgan, Xalq majlisi ham buni ma’qullab, qaror qabul qilgan edi. Makedoniya tarafdorlari bu qarorga qarshi chiqadilar. Hatto o‘z davrining mashhur notiqlaridan bo‘lgan Esxin majlis qarori ustidan sudga shikoyat qilib ariza beradi. U xalq majlisining noto‘g‘ri qaror chiqarganligini isbotlashga urinib, Demosfenning bunday oliv mukofotga munosib emasligini uqtiradi. Qayta bo‘lgan sud ikki buyuk notiqning yakkama-yakka olishuviga aylanib ketadi.

Sud bo‘layotgan maydonga shunchalik ko‘p xalq to‘plangan ediki, go‘yo mavj urib turgan dengizni eslatardi. Demosfenni qoralab so‘zga chiqqan Esxin tamomila kurakda turmaydigan gaplar bilan tuhmat toshini ota boshlaydi. “Gulchambar”ni himoya qilish maqsadida so‘z olgan Demosfen esa, Vatanining gullab-yashnashi yo‘lida tinmay kurashganini, shu bilan birga, Esxinning sotqinlikdan iborat faoliyatini yorqin nutqida obrazli tarzda tasvirlab beradi. G‘animlarning qarshiligidagi qaramay, sud juda to‘g‘ri va oqilona qaror chiqaradi. Sud hukmiga muvofiq Esxinga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg‘a qilinadi. Demosfenning “Gulchambar” haqidagi nutqi faqat Esxin ustidan qozonilgan g‘alabagina emas, balki Afina va butun Gretsiyadagi vatanparvarlarning tantanasi ham edi. Suddagi muvaffaqiyatidan so‘ng, Demosfenning davlat oldidagi obro‘sni yanada oshadi. Biroq turli sabablarga ko‘ra, Makedoniya bilan Afina o‘rtasida boshlanib ketgan urushda afinaliklar mag‘lub bo‘lib, barcha vatanparvarlar o‘z yurtidan badarg‘a qilinadilar. Faqat aristokrat boylargagina siyosiy va iqtisodiy huquqlar beriladi. Demosfen sirdan o‘limga mahkum etiladi. Shundan so‘ng u Kalavri oroliga qochib borib, Poseydon ibodatxonasiga yashirinadi. O‘sha vaqtarda ibodatxonaga qochib kirgan odamni, kim bo‘lishidan qat’i nazar, qamash yoki o‘ldirish mumkin emas edi. Chunki u xudoning panohi va himoyasida hisoblanar edi.

Dushmanlari Demosfenning yashiringan joyidan xabar topib, uni tiriklayin qo‘lga tushirishga harakat qiladilar. Ular notiqqa bo‘lmag‘ur va’dalarni berib, Antipatra huzuriga olib bormoqchi bo‘ladilar. Demosfen yovuz niyatni fahmlagach, uyiga xat yozish bahonasi bilan ibodatxonaning ichkarisiga kirib, zahar ichadi. Buyuk notiq eramizdan oldingi 322- yilning 12-oktabrida shu tariqa dunyodan o‘tadi.

Demosfen uslubi quyidagicha bo‘lgan:

1. Demosfen nutq matnida ham, nutq talqini jarayonida ham arxaizmdan qochadi, juda latif va jozibador so‘zlarni qo‘llamaydi, yangicha so‘z, ibora va terminlar to‘qimaydi. Faqatgina, gohida xalq hikmatlaridan va maqol-matallardangina

foydalanadi.

2. U nutqlarida biror tushunchani ifoda etuvchi sinonimlarni ko‘p qo‘llaydi. Masalan, “mayli gapisin va maslahat bersin”, “shodlanmoq va quvonmoq”. “yig‘lamoq va ko‘z yoshi to‘kmoq”, “so‘zlar va nutqlar” kabi sinonimlar uning nutq matnlarida ko‘plab uchraydi.

3. U nutqda uzuq-yuluq gaplardan qochar, qisqa bo‘g‘in, kalta-kalta jumlalarni ishlatmas, aksincha, uzun, cho‘ziq bo‘g‘inlarni ko‘plab qo‘llashni xush ko‘rardi.

4. Nutq matnlarini tayyorlash jarayonida gapning boshi va oxiriga mantiqiy urg‘u tushuvchi, muhim ma’no kasb etuvchi so‘zlarni qo‘yardi.

5. Nutqda musiqiylik va ta’sirchanlikka erishish uchun jumlalarning oxiri nasriy she’r bilan, muayyan vazn bilan tugashiga alohida e’tibor berardi.

6. Demosfen nutqlaridagi davrlanish kompozitsion yaxlitlik va mutanosiblikka ega edi. Uning har bir nutqiy davri oldingi va keyingisi bilan mantiqiy mustahkam bog‘lanib, ulardan birortasini isloh etish mazmuniga ham, shaklga ham katta putur yetkazardi.

7. Ayrim, o‘zi uchun muhim tuyulgan so‘zlarni ongli ravishda bir necha marta qaytarishni yoqtirardi.

8. So‘z va jumlalarni o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib, ifodaviylik va obrazlilikka erishishni xush ko‘rar edi. Jumladan, “Gulchambar haqida” nomli nutqida Esxinga qarata shunday deydi: “Sen savod chiqararding, men bo‘lsam maktabga qatnardim, sen maqtovlar tayyorlarding, men maqtanuvchi edim, sen xorda raqsga tusharding, men xorning xo‘jayini edim, sen kotib eding, men bo‘lsam xalq majlisida qatnashardim, sen mayda rolda chiquvchi aktyor eding, men esa tomoshabin edim, sen rasvo qilib o‘ynarding, men bo‘lsam hushtak chalardim”.

9. Ritorik savollardan unumli va o‘rinli foydalanardi. Shuning uchun ham uning nutqlarida “Xo‘sh, buning hammasiga sabab nima?”, “Nega endi men buni hozir gaprayapman?” kabi ritorik savollar ko‘plab uchraydi.

10. Demosfening nutqlari eng avval o‘zining chuqur mazmundorligi, siyosiy o‘tkirligi bilan diqqatga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, uning fikrlari nihoyatda oljanob, vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan, samimiyligi pafosi bilan xarakterlanar edi.

11. U nutq talqini jarayonida emotsiyal hayajon, jestikulatsiya, mimika kabi psixofizik va tashqi ifoda vositalaridan unumli foydalangan.

12. Demosfen o‘zining notiqlik missiyasini faqatgina Vatanga va xalqiga halol xizmat qilishdan iborat, deb tushunardi.

Demosfen Afina notiqligining yirik namoyandasini bo‘lib, uning texnik mashqlari, nutq talqini jarayonidagi holatlari, nutq ustida ishslash uslublari, til imkoniyatlaridan va notiqlikning talqiniy ifoda vositalaridan mohirona foydalana olishi barcha notiqlar uchun maktab vazifasini o‘tagan va bugungi kunda ham ahamiyatga ega hisoblanadi.

Lisiy (taxminan 459-380 y.y.). Lisiyning asl vatani Sitsiliyadir. Notiqning otasi Periklning taklifiga binoan Afinaga kelib, shu yerda o'rnashib qoladi. Lisiylar oilasi shaharning anchagina davlatmand xonadonlaridan hisoblansa ham, uning a'zolari metek, ya'ni kelgindi bo'lganliklari sababidan Afina fuqarosi qatoriga kirisholmaydi. Peloponess urushida Afinaning mag'lubiyatga uchrashi natijasida, demokratiyaning tarafdori sifatida Lisiyning akasi qatl qilinadi, uning o'zi arang qochib qutiladi. 403-yilda demokratiya tartiblari yangidan tiklangach, Lisiy yana Afinaga qaytib, muttasil logograflik kasbi bilan shug'ullana boshlaydi.

Notiqlik tarixi haqida ma'lumotlarga ko'ra, Lisiy merosidan bizga qadar faqat 34 tasi etib kelgan. Ularning barchasi, asosan, sud nutqlaridan iboratdir. O'z faoliyatini logograflik kasbiga bag'ishlagan Lisiy, dastavval, sud ahllarining va sudga ishi tushgan kishilarning tabiatini chuqr o'rghanishga kirishadi. Ma'lumki, Afina sudida qatnashgan shaxslarning ko'pchiligi murakkab davlat qonunlarini teran bilmagan, aksar unchalik durust tahsil ko'rmagan odamlar bo'lishgan, shu sababli ular ayyor va ustomon odamlarning sud hay'atini aldab ketishlaridan hadiksirab ilmoq dor, dabdabali so'zlarga chuqr shubha bilan qarar va bu xildagi so'zlarni to'qishda, albatta, biron odam ko'maklashgan bo'lsa kerak, deb gumon qilardilar. Ikkinchidan, logograflarning yordamiga muhtoj bo'lib, ularga murojaat etgan odamlar orasida jamiyatning turlituman fuqarolari bo'lган. Binobarin, Lisiy har bir nutqni yozishga kirisharkan, u avvalo, buyurtma bergen kishining tabiatiga, ijtimoiy mavqeyiga qanchalik monand kelishkelmasligi katta e'tibor beradi. Gapirishi lozim bo'lган kishining xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnini ishlab chiqishga usta edi. Natijada Lisiy tayyorlagan nutq faqat o'sha so'zlovchigagina xos bo'lardi.

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san'atini egallab olganligidir. U har qanday voqeani sodda, jonli, qiziqarli shaklda hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san'atidagi uchinchi xususiyati-uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi. Lisiy og'zaki nutqning inson ruhiyatiga ta'sir etishini yaxshi tushunadi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri fikr ifodalash jarayonida so'zlarni takrorlamaslik deb biladi. Uning fikricha, biror masala bo'yicha so'zlangan nutq ikkinchi marta takrorlanmasligi kerak, agarda shu nutqni avvalgi tinglovchilar bir necha marta takror eshitsalar, nutq o'z kuchini va ifodalilagini yo'qotadi.

Lisiyning yozma merosi bo'lган nutq matnlarini uch toifaga bo'lish mumkin:

1. Epideyktik (tantanali yoki tasviriy) nutqlar.
2. Siyosiy (kengash) va sud nutqlari.
3. Epitafiya, ya'ni motam nutqlari.

Lisiyning nutqlari tilining musaffoligi va benihoya go'zalligi bilan alohida ajralib turgan. Dionisiyning ma'lumotiga ko'ra uning tilidagi fasohat quyidagilardan iborat bo'lган:

1. U nutqlarida kishilar uchun sal bo‘lsa ham tushunarsiz bo‘lib qolgan arxaik so‘zlarni sira ishlatmagan.

2. U o‘z nutqini neologizmlardan, ya’ni o‘z zamonasining jonli nutqiga kirib kelayotgan, lekin hamma uchun ommaviy darajada tushunarli bo‘limgan gap qurilishi va so‘zlardan foydalanmagan.

3. G‘oyat sodda, hamma uchun tushunarli tilda yozgan va so‘zlagan. Ammo sodda, barcha uchun tushunarli usulda ham nafis va latif so‘zlay olgan.

Lisiy o‘z mahorati bilan tinglovchilarni, sud hay’atini mahliyo etib, ularning mehr-u muhabbatini qozongan. Biroq ba’zan haddan ortiq berilib ketish oqibatida ayrim dalilarining kuchli emasligi tufayli ojizlik qilib qolgan paytlari ham bo‘lgan.

Lisiy kishilarning xarakterini tasvirlash va shu kishilar tilidan gapirish usulidan unumli foydalana olgan. Uning logograflik san’ati kuchli bo‘lgan. Natijada Lisiy qalamidan chiqqan nutqlarini qaysi bir sinfga mansub kishi talqin etmasin, hech qanday shubha tug‘dirmagan.

Isokrat (eramizdan oldingi 436-338). Isokrat notiqlik, falsafa va yurisprudensiya sohasida o‘z zamonasining eng yirik vakili hisoblangan. U ko‘zga ko‘ringan fan va madaniyat arboblari bo‘lgan Suqrot, Tisiy, Gorgiylardan ta’lim olgan.

Isokrat siyosiy vaziyatga ko‘ra 404-yilda Xios oroliga ko‘chib ketadi va u yerda ritorika maktabini ochadi. Bir yildan so‘ng, Afinada demokratiya tiklangach, ona yurti Attikaga qaytib keladi. Isokrat ona shahrida logograflik bilan shug‘ullanadi. Afinada notiqlik maktabini ochadi va qariyb 40 yil davomida ustozlik qiladi.

O‘z zamonasida Isokratning notiqlik maktabi juda katta shuhrat qozongan. Shuning uchun ham u ochgan maktabga afinaliklargina emas, balki Yunonistonning barcha burchaklaridan o‘quvchilar kelib tahsil oladilar. Natijada Isokratga to‘lanadigan mehnat haqi ham ko‘payib ketadi. O‘z davrining mashhur kishilaridan hisoblangan ulug‘ notiqlar Likurg va Giperid, zabardast tarixchilardan Efor va Feopomp Isokrat maktabini bitirishgan edi.

Isokrat mahoratlari ustozgina emas, balki o‘z zamonasining yirik notig‘i ham edi. U notiqlik san’atining nazariyotchilaridan biri sanalgan. Bizgacha uning 27 ta nutqi turlicha ahvolda yetib kelgan.

Isokratning nutqlarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Sud nutqlari – 6 ta.
2. Epideyktik nutqlari – 6 ta
3. O‘quv-epideyktik nutqlari – 9 ta
4. Siyosiy nutqlari – 6 ta.

Bulardan tashqari, uning 9 ta maktubi va ritorikaga oid qo‘llanmasidan parchalar ham yetib kelgan. Bu manbalar notiqning ijodiy faoliyatini o‘rganishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Isokrat notiqligining biz uchun ibratli tomoni shundan iboratki, u nutq matnlari ustida uzoq ish olib borgan va ixtirolari bilan boshqa notiqlar nutqidan farqlanib, ajralib turgan. Notiq o‘z nutqining tashqi bezagiga juda katta e’tibor bergen. Buning uchun u “gorgiy figuralari” deb dong taratgan uslubdan keng foydalangan. Natijada “gorgiy figuralari” sistemasini yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘targan. Isokrat nutqini shakliy bezak san’ati egallab olganligi uchun ham uning nutqlarida shaklning mazmundan ustun kelish holatlarini sezish mumkin. Biroq Gorgiy uslubini ijodiy rivojlantirgan Isokrat o‘z ustozining ovoziga xos bo‘lgan balandparvozlik xususiyatini yo‘qotadi va ko‘rkam figuralar bilan bezalgan nutqlarining tabiiy va sodda bo‘lishiga erishadi.

Isokratning notiqlik san’atida o‘rnak olishga arziydigan yana bir xizmati bu nutqning davrlarga bo‘linishiga alohida e’tibor bergenligidir. Nutqlarning davrlarga bo‘linishi Isokrattdan avval ham amalga oshirilgan edi. Biroq Isokratning asosiy xizmati nutqlarining ayrim davriy bo‘laklari o‘zining cho‘ziqligi, bir xilligi bilan ajralib turganligidadir. Chunki u nutqning musiqiyligini so‘z va jumlalarning ichki tuzilishidan izladi. Bu esa o‘sha davr notiqlik san’atida yangi ijodiy qadam edi.

Isey (eramizdan oldingi taxminan 420-350). Notiqlik san’atida shuhrat qozongan, asosan, logograflik bilan shug‘ullangan yirik notiqlardan biri bu Iseydir. Iseyning logograflik va notiqlik faoliyatiga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri uning so‘zga chechanligidadir. U o‘zining ana shu iqtidori, notiqlik mahorati tufayli qo‘liga tushgan har qanday ishni o‘zi va mijozи foydasiga hal qila olgan.

Isey logograflik va notiqlikda Lisiy va Isokratlarning notiqlik sohasidagi yutuqlariga suyangan holda ish yuritgan. Uning nutqidagi musiqiylik va mantiqiylik va boshqa xususiyatlari ustozlari izidan borganligini isbotlab turadi.

Isey nutqlarining qolipi uncha murakkab emas edi. U ibrido, diegeza, argumentatsiya va epilog kabi qismlardan iborat bo‘lgan. U zarur bo‘lganda, nutq tuzilishidagi komponentlar o‘rnini alamashtirib yuboravergan. Buni u har bir ishning aniq mazmunidan, har bir vaziyatning xususiy talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirgan. Bu esa Iseyning asosiy yutuqlaridan biri sanaladi. Isey nutq jarayoniga ham ijodiy yondashgan. U so‘zlayotgan paytida muayyan fikr va dalillarning bir necha marta takrorlanishidan qo‘rqmagan. Chunki har takrorlashda ana shu dalillarning yangi bir qirrasini ochib bera olgan. U o‘z nutqlariga istagancha rivoyat, afsona, naql va hikmatli so‘zlarni qo‘sib fikriy aniqlikka erishgan. Isey nutqida avval kichik-kichik dalillardan boshlab, da’vo dalillari ta’sirini tobora oshirib borgan. Eng oxirida qaqshatqich zarba beruvchi, kuchli faktlarni ishga solib, shundan keyin darhol xulosa chiqargan. Isey bu yo‘nalishi bilan o‘z raqibini, ba’zan sud hay’atini va tinglovchilarni ham dovdiratib qo‘ygan. Isey o‘z davrida hech kimnikiga o‘xshamaydigan nutqlari bilan o‘z o‘rnini topa olgan kuchli notiq hisoblangan.

Likurg (324 -yilda vafot etgan). O‘z davrining gumanist notig‘i, davlat, fan va madaniyat arbobi Likurg demokratiya tarafдорларидан бирі hisoblangan. U Demosfening maslakdoshi hisoblangan. Yoshi ham Demosfendan kattaroq bo‘lib, taxminan 324-yilda vafot etgan.

Likurg notiqlik san’ati asoslari, falsafa va yurisprudensiya bo‘yicha Platon va Isokratdan maxsus ta’lim olgan. Iste’dodi va notiqlik mahorati tufayli Afina davlatining eng yirik notiqlari va arboblari safidan joy olgan. Eramizdan oldingi 388-yildan boshlab u davlat xazinachisi sifatida (hozirgi tushunchada moliya vaziri) Afina iqtisodini boshqaradi. Likurg ana shu lavozimida turib qator xayrli, demokratik ruhdagi ishlarni amalga oshiradi.

Likurg zabardast notiq ham edi. U o‘z mansabi va ijtimoiy mavqeyi taqozosiga ko‘ra ko‘proq davlatning ichki masalalariga oid siyosiy nutqlar so‘zlardi. Likurg o‘z nutqlarida Afina davlatini mag‘lubiyatga olib kelgan dalillarni va bunga sababchi shaxslarni fosh qilar, shuningdek, nikohni buzuvchi, dinni haqoratlovchi shaxslarning xatti-harakatlarini qat’iy qoralardi. Likurg nutqlarini mavzuiy jihatdan 3 turga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Harbiy-jangovarlik.
2. Siyosiy-ijtimoiy.
3. Axloqiy mavzudagi nutqlar.

Likurg nutq so‘zlayotgan paytda o‘zini g‘oyat tantanali, xotirjam tutar, nutqlari nafis, jiddiy va mantiqiy ediki, bu sifatlar uni ulkan notiqlar darajasiga ko‘tardi. U yunon xalqining haqiqiy farzandi edi. Shuning uchun ham uning xizmatlari munosib taqdirlandi. U halol xizmatlari uchun bir necha marta eng oliv mukofot – oltin gulchambar bilan mukofotlandi. Vafotidan so‘ng Afinada unga katta haykal o‘rnatildi, barcha qarindosh-urug‘lariga davlat tomonidan alohida ehtirom ko‘rsatildi. Likurg chiqargan qonunlar va uning hikmatli so‘zları yozdirilib, Akropolga o‘rnatildi.

Rim notiqlik maktabining vakillari

Sitseron (103-43). Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 103-yilda Rimdan uzoq bo‘lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keldi. Uning bolalik yillari Arpina shahridagi otasiga qarashli yerlarda o‘tadi. Otasi o‘z farzandiga yaxshi ta’lim-tarbiya berish maqsadida Rimga ko‘chib o‘tadi. Sitseron u yerda Yunon murabbiylari qo‘lida tahsil oladi. Yunon tili va adabiyotini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhur so‘z ustalari Litsiniy Koidaas va Mark Antoniy kabi notiqlardan so‘z san’atining nozik sir-asrorlarini o‘rganadi, ularning ajoyib nutqlarini tinglaydi. Bo‘lajak notiq ayni vaqtida falsafa bilan shug‘ullanadi. Lekin uni ko‘proq notiqlik san’ati qiziqtiradi. Sitseron notiqlarning turli mimika va harakatlar bilan so‘zlayotganini ko‘rib, notiq bo‘lish uchun aktyorlikdan ham xabardor bo‘lish kerak ekan, degan xulosaga

keladi. Shuning uchun Ezop va Rostsiy kabi o‘z davrining mashhur aktyorlaridan saboq oladi.

Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so‘ng, 25 yoshida birinchi marotaba xalq oldida nutq so‘zlashga jur’at etadi. U avval fuqarolik so‘ngra jinoiy ish jarayoni bo‘yicha gapiradi. Biroq uning bu nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli mashhur notiqlar qarshi chiqadi. Shundan so‘ng u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish maqsadida zamonasining buyuk notiqlaridan hisoblangan Antio Askalonskiydan ta’lim oladi, mashhur so‘z ustalaridan notiqlik sirlarini o‘rganish niyatida Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi. U ancha vaqtgacha nutq so‘zlashda yangi usullar qidiradi. Nihoyat, Osiyo hamda Attika (O‘rta Gretsianing Yunoniston janubi sharqidagi dengiz ichkarisiga ancha yorib kirgan yarim orol Attika deb ataladi) usullari omuxtasidan iborat bo‘lgan yangi bir uslub kashf etadi.

Sitseron zamonasining ko‘pchilik so‘z ustalari singari o‘z faoliyatining ilk davrlaridayoq nutqida uslubning chiroyliligi, iboralarning jonliligi, jumlalarning nafis bo‘lishiga katta e’tibor beradi.

Sitseron Osiyoga sayohat qilib, notiqlik san’atining sirlarini o‘rganib yurgan vaqtida Rim hukmdori Sull vafot etadi. Shundan so‘ng yosh notiq Rimga qaytib keladi va 31 yoshidan boshlab davlat ishlarida ishtirok etadi. Sitseron konsullik lavozimiga saylangach, butun notiqlik mahoratini siyosiy nutqlarga bag‘ishladi. U suddagi nutqlarida o‘zi yaratgan uslubdan foydalanib, raqiblarini “qo‘l-oyog‘i bog‘langan quyonday taslim qildi”. Hukmdor Sull tomonidan qabul qilingan senat qonunlarini qattiq qoralab, Sull tarafdarlarini o‘ldirib yuboradi. Kelgusi yili (59- yil) Sitseron o‘rniga Sezar konsul bo‘lib saylangach, senatning Sull loyihasiga juda yaqin bo‘lgan yangi qonunlar qabul qilinadi. Gabini va Pizonlar o‘zlarini konsul bo‘lib ish boshlagan 58- yilning dastlabki davrida Sitseronni Rimdan badarg‘a etish haqida qonun chiqarishga harakat qiladilar. Dushmanlari tomonidan qasos olinishi muqarrar ekanligiga ishongan notiq proyekti chiqmasidanoq Yunonistonga jo‘nab ketadi.

Vatandan haydalishi Sitseron uchun nihoyat darajada og‘ir bo‘ladi. U bir yarim yildan so‘ngina do‘stlarining yordami tufayli Italiyaga qaytib kelish uchun ruxsat oladi. Ona-Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat buyuk notiqning ilhomini yanada jo‘sh urdiradi. U nutq nazariyasi ustida tinimsiz ijod qila boshlaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, mashaqqatli mehnat samarasi sifatida, uning uch kitobdan iborat “Notiqlar haqida” nomli asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan bo‘lib, Litsiniy, Koidaass, Mark Antoniy, Yuliy Sezar, Strabon, Katull, huquqshunos Ssevola va uning shogirdlari Katt, Sulnitsiy Ruflarning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, ularning notiqlik san’ati hamda bu san’atning eng mayda-chuyda masalalaridan tortib siyosiy muammolargacha bo‘lgan qimmatli notiqlik haqidagi fikr va mulohazalarini o‘z ichiga oladi.

Sitseronning notiqlik haqidagi fikrlari shundan iboratki, notiq shunchaki sud

ishlarining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan qonunparast emas, balki davlat ishlarini chuqur tushunadigan, xalq qayg‘usiga hamdardlik qila oladigan davlat arbobi bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun notiqlik san’atiga qiziqqan har bir kishi faqat Ritorika ilmiga oid ibtidoiy bilimlar bilan cheklanmasdan, shuningdek, o‘zining tabiiy iste’dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o‘qib-o‘rganmog‘i, ilm va madaniyatning yuqori cho‘qqilariga intilmog‘i darkor. Bundan tashqari, “Notiqlar haqida” asarining muallifi notiqlarning odamlar diliga qo‘rquv, g‘azab va qayg‘u sola bilishi va aksincha, bu xildagi hayajonli holatlardan kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg‘ota olishi kerakligini ta’kidlaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, agar notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatidagi umumiyl xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa, hech qachon o‘zining maqsadiga erisha olmaydi.

Sitseron “Brut” (47 yil), “Notiq” (56 yil) nomli boshqa asarlarida Rim notiqlik san’ati tarixi haqida bat afsil nazariy fikrlar yuritib, attikachilarining nazariyalariga tamomila qarshi mulohazalar bilan maydonga chiqadi. Uning ta’kidlashicha, har qanday notiqning ko‘zda tutgan asosiy maqsadi tinglovchining zavqini uyg‘otib, ularni o‘ziga moyil qilishdan iboratdir. Notiq sharoitga qarab mavjud uslublarning hammasidan baravar foydalanishi zarur. Sitseron bu fikrini davom ettirib, «*kimki jo ‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi*» deydi.

Poeziya tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa xijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinuvi, bir so‘zning oxiri va ikkinchi so‘zning boshida ikki unlining qator kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, so‘zlarni turlicha talaffuz etish, grammatik qoidalarga katta e’tibor berish kabi notiqlik san’atining muhim masalalari ham Sitseron asarlarida o‘zining to‘la ifodasini topgan.

Tinglovchini toliqtirib qo‘ymaslik uchun nutq davomida ko‘tarinki usulni bir parda pasaytirib, nutq mavzusiga aloqador shaxslar bo‘lsa, ularning goh salbiy, goh ijobjiy xarakteristikasini berish, ilgari o‘tgan mashhur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo‘lganda ba’zi bir hayotiy manzaralarni, dramatik voqealarni eslash, o‘rniga qarab biroz hikmatli so‘z, maqol yoki qochiriq gapni qistirib o‘tish — Sitseronning eng sevgan usullaridan hisoblanadi.

Sitseron nutq kompozitsiyasiga alohida e’tibor bergen. U nutq jarayonida uch muhim omilga alohida e’tibor berishni ta’kidlaydi. Bu – nutqning kirish qismi, xotimasi va repetitsiyasi (shug‘ullanish)idir. Shuningdek, Sitseron nutq kompozitsiyasining nazariyasini ham ishlab chiqqan. Uning fikricha, nutq quyidagi qismlardan iborat bo‘lmog‘i zarur:

1.Nutqning kirish qismi

2.Ishning mohiyatini ochish

3.Keyingi qismlarning rejasi

4.Asosiy qism (dalillar)

5.Oxirgi qism, ya’ni nutq davomidagi asosiy masalalarni qisqa-qisqa eslatib o’tish va yakun yasash

Sezar vafotidan so‘ng davlatni uning nabirasi Oktavian boshqaradi. U o‘z davlatini mustahkamlash maqsadida Setseronning Senat oldidagi mavqeyi va obro‘sidan foydalanmoqchi bo‘ladi. Biroq Sitseron Oktavianga ishonmaydi. Sitseronning dushmanlari yangi hukmdorni o‘zlari tomonga og‘dirib olgach, undan buyuk notiqni qatl etishni talab qiladilar. Shunday qilib, so‘z san’atining mohir ustasi shafqatsiz jazoga hukm etiladi. Oldin uning o‘ng qo‘li qirqib tashlanadi, so‘ngra boshi tanasidan judo qilinadi.

Sitseronni butun insoniyat oldida ulug‘lab, obro‘sini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari bo‘ladi. Uyg‘onish davrida Italiya, Fransiya va Germaniyaning insonparvar olimlari Sitseronning ilhombaxsh nutqlarini sevib o‘rgandilar. O’sha davrda chiroyli so‘zlagan kishilar “sitseronchilar” deb atalar edi. Chunki ular Sitseron ta’limotiga suyangan holda o‘z nutqlarini tayyorlashgan.

Katon (eramizdan oldingi 234-145 yillar). Rim notiqlik matabining yirik vakillaridan biri, davlat arbobi bu Katon hisoblanadi. U Rim imperiyasining lashkarboshisi va senatori sifatida o‘z vatani va xalqiga sadoqat bilan xizmat qilgan insonlardan biridir.

Mark Portius Katon so‘z san’atkori sifatida yunon notiqlik san’ati ruhida tarbiyalandi. U keng ma’lumotli, donishmand kishi bo‘lib, garchi o‘zi yunon madaniyati ruhida tarbiyalangan, unga xayrixoh bo‘lsa ham, amalda yunon madaniyatining Rim madaniyatiga ta’sir etishiga qarshi turgan.

Katon 150 taga yaqin nutq meros qoldirgan. Ammo bu nutqlardan bizgacha ayrim parchalar yetib kelgan. Notiq sifatida Katon ko‘tarinkи ruh yoki nafrat bilan, ya’ni katta

emotsional qudrat bilan gapirgan. U biror muhim narsaga tinglovchilar e'tiborini jalg qilish zarur bo'lsa, shu narsani ko'p martalab qaytarish va ta'kidlashdan qo'rwmagan. Aksincha, u har bir imkoniyatdan foydalanib, hatto qaysarlik bilan o'sha muhim o'rinni qaytargan va shu yo'l bilan niyatining amalga oshishi uchun kurashgan.

Katon notiq sifatida shu qadar kuchli mahorat egasi bo'lganki, bu borada unga Sitseron ham tan bergen. Sitseronning fikricha: "*Hammasini yanada chiroyliroq, yanada nafisroq qilib aytish mumkin, ammo hech narsani undan kuchliroq va jonliroq qilib aytish mumkin emas*".

Katonning notiqlik mahoratiga quyidagi to'rt muhim xususiyat xos edi:

1. U Lisiy izidan borib, masalani muxtasar, ixcham bayon qilish uslubini qo'llagan. Bugina emas, muhim masalalarni muxtasar, ammo katta ehtiros va ta'sirchanlik bilan bayon etishda muayyan muvaffaqiyatga erishgan.

2. Masalani g'oyat keskin tarzda qo'yish Katonning eng sevimli ishi hisoblangan. U eng muhim muammolarni g'oyat keskinlikda qo'yganki, natijada ko'pdan-ko'p bahslarni o'z foydasiga hal etishga erishgan.

3. Fikrlarini uslub jihatdan g'oyat go'zal qoliplarda, ifodali va ta'sirchan shaklda bayon etishni xush ko'rgan. Bu uslub esa, uning ta'sirchan nutq uslubiga mos kelgan.

4. U har bir masala bilan tanishar ekan, uni atroficha o'rganib chiqishga alohida e'tibor bergan. Shuning uchun ham u notiqlarga nasihat qilib, "*ishni puxta o'rgan, so'zning o'zi keladi*" deb aytadi.

Katon Rim notiqlik san'atining yorqin siymolaridan biri hisoblanadi.

Aka-uka Grakxlar (eramizdan oldingi II asrda yashab o'tgan). Aka – uka Grakxlar ham o'z davrining kuchli notiqlari hisoblanishgan. Akasi Tiberiy va ukasi Kay Grakxlarning notiqlik iste'dodi ularning g'oyaviy-ijtimoiy qarashlari zaminida ochildi va shuhrat qozondi. Ular Italiyada yer reformasi uchun kurash olib bordilar. Ularning reformalari o'sha davr uchun chindan ham katta ahamiyatga ega edi. Grakxlarning maqsadi katta yerga ega bo'lgan zamindor boyalar mulkini qisqartirib, kam yerli va yersiz fuqarolarga bo'lib berishdan iborat bo'lgan. Busiz ham sinfiy kurash avj olib turgan bir paytda Grakxlar reformasi loyihasi tufayli keskin munozara va kurash boshlanib ketadi. Ayni ana shu g'oyaviy va iqtisodiy kurash jarayonida aka-uka Grakxlarning notiqlik zakovati yorqin namoyon bo'ladi. Bu kurashda Grakxlar mag'lubiyatga uchraydilar. Natijada avval akasi, so'ngra ukasi qatl etiladi.

Ular notiq sifatida g'oyat ta'sirchan, faqat so'z olovi bilan emas, balki his-hayajon olovi bilan ham raqiblar uyiga o't qo'yuvchi kuchli so'z ustasi bo'lganlar. Jumladan, Tiberiy Grakx bir nutqida shunday deydi: "*Italiyada izg'ib yurgan vahshiy yirtqichlarning ham tunash uchun g'or va yaylovlari bor, Italiyani deb kurashayotgan va qurban bo'layotgan kishilarda esa, nur bilan havodan boshqa hech narsasi yo'q... Soldatlar boshqa birovlarining ishrati va boyishi uchun jang qilyapti; ularni*

“borliqning hokimi” deb aytishadi, aslida esa ularning bir qarichgina yeri ham yo‘q. Demak, Tiberiy ommaning baxtu saodati, ko‘p millionli Italiya xalqining porloq istiqboli deb jonbozlik qilgan kuchli notiqlardan biridir.

Ukasi Kay Grakx ham siyosiy-g‘oyaviy jihatdan akasiga hamnafas notiq bo‘lgan. Notiqlik mahorati nuqtayi nazaridan qaraganda Kayning o‘ziga xos qirralari ko‘p bo‘lgan. Kayning nutqlari emotsional jo‘shqin bo‘lib, ritorik savollarga, xitoblarga ham boy bo‘lgan. Jumladan, u akasi Tiberiy qatl etilgandan so‘ng so‘zlagan motam nutqida bunday deydi: *“Men baxti qaro, endi boshimni qayerga urishim kerak? Kapitoliygami? Axir u yer akamning qoniga to‘lib yotibdi-ku! Uyimgami? Busiz ham baxtsiz, haqoratlangan onamni birato‘la o‘ldirish uchunmi?”* Shulardan eng muhimi uning nutqda ovoz va ohang mutanosibligiga alohida e’tibor bergenligidadir. U nutq so‘zlashga tayyorlanib, mustaqil shug‘ullanayotgan chog‘idayoq nutqining qay qismi qay tondan (notadan) boshlanishini oldindan belgilab olgan. Shuning uchun ham u qayerda nutq so‘zlamasin, o‘zi bilan fleyta chaluvchi xizmatkorini birga olib yurgen. Chunki, nutqning kerakli o‘rnida xizmatkor muayyan notani chalib ton bergen va Kay ana shu tondan boshlab nutqini davom ettirgan. Jahon tarixida, yirik notiqlar orasida o‘z nutqining tonal rangdorligi haqida qayg‘urgan inson - bu Kay Grakx bo‘ladi.

Mark Antoniy (eramizdan oldingi 143-87-yillar). Sitseron o‘zining “Notiqlik haqida” asarida o‘zi bilan teng ko‘rgan Rim notiqlik maktabining yirik namoyandasasi, davlat arbobi bu Mark Antoniy hisoblanadi. U davlat konsuli va keyinchalik senzorlik martabalarida ishlab, asosan, xalq majlislari va senatda so‘zlagan. Notiq sifatida u ko‘pincha avvaldan tayyorlanmasdan, ekspromt – badiha tarzida nutq so‘zlagan. Antoniyning notiqlik san’ati haqidagi qarashlari ham qiziqarli. Uning fikricha: *“Nutqda tinglovchini o‘ziga qaratib olishdan muhimroq narsa yo‘q, buning uchun esa tomoshabinni shu qadar hayajonlantira olish kerakki, natijada u ko‘proq qalb hayajoni ta’sirida bo‘lsin”*. Albatta, bunday mahoratga ega bo‘lish uchun notiq g‘oyatda chiniqqan bo‘lishi zarur. Antoniy esa notiq ahlidan ayni shunday shijoatni talab etgan.

Mark Antoniyning nutq kompozitsiyasi oldiga qo‘ygan talablari ham mavjud: “Mening nutq uslubim va uni talqin etish mahoratim uchta asosga tayanadi: birinchisi – tinglovchilarni jalb etish, ikkinchisi – ularni to‘g‘ri yo‘naltirmoq, uchinchisi – ularni qo‘zg‘atish - deydi Antoniy. Bu uch asosdan birichisi – nutqda yumshoqlikni talab qiladi, ikkinchisi – o‘tkirlikni, uchinchisi qudratni”. Fikrlaridan ko‘rinadiki, u o‘z oldiga aniq vazifalarni qo‘ygan va ularni mahorat bilan amlga oshirishga intilgan.

Shunday qilib, qadimda davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli so‘zlash san’atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylangan. Shu ehtiyoj qonun doirasigacha borgan. Ular o‘z mansablarining yuqori bo‘lishini istaganliklari uchun ham notiqlik san’ati sirlarini o‘rgatadigan maxsus maktablarda ta’lim olganlar. Chiroyli nutq egasi bo‘lishga harakat qilganlar. Chiroyli nutq egasagina yuqori lavozimlarni egallagan. Shuning uchun ham ular doimo o‘z nutqini o‘sirish

ustida ishlaganlar.

1-mashq. Notiq (orator), ritor, sofist, nutq, auditoriya, so‘zga chechanlik, nutq madaniyati terminlarining ma’nosini og‘zaki izohlang.

2-mashq. Quyida keltirilgan hikoyat nima haqidaligini aniqlang va o‘zingizning munosabatingizni bildiring.

1-matn.

Bir kuni jabrlangan bir kishi kelib, meni birov urdi, uni sudga berdim, meni himoya qilsangiz, deb Demosfenga iltimos qilibdi.

“Yolg‘on, -debdı Demosfen. – Seni hech kim urgan emas, tuhmat qilyapsan”.

Shunda haligi kishi notiqqa qarab, jon-jahdi bilan baqirib debdi:

- Hoy, Demosfen? qanday qilib meni urmagan bo‘lsin?

- Ana endi men jabrlangan kishi ovozini eshityapman, -debdı Demosfen.

2-matn. Periklning notiqlik mahorati haqida shunday deydi: “U so‘zda donoligi jihatdan hammadan ustun turadi. Uning lablariga Ishontirish xudosi makon qurban: u shu qadar maftun eta olardiki, notiqlar ichida, tinglovchilarida o‘z nishtarini qoldiradigan yakkayu-yagonasi edi”.

3-mashq. Sitseronnning quyida berilgan fikrlari haqida o‘z mulohazangizni ayting.

«Kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi”.

4- mashq. Quyida berilgan Sitseronning nutq kompozitsiyasi bo‘yicha o‘zingiz “Giyohvandlikka qarshi kurashish kerakmi?” mavzusida nutq tuzing.

1.Nutqning kirish qismi.

2.Ishning mohiyatini ochish.

3.Keyingi qismlarning rejasi.

4.Asosiy qism.

5.Oxirgi qism, ya’ni nutq davomidagi asosiy masalalarni qisqa-qisqa eslatib o‘tish.

6. Xulosa.

1-topshiriq. 2 guruhga bo‘linib, Yunon va Rim notiqlari klasterini chizing va har bir notiq haqida ma’lumot bering.

2-topshiriq. Quyida berilgan yo‘l-yo‘riqlar bo‘yicha istagan mavzuda nutq tuzing.

Biror voqea, joyga, vaqtga e’tiborni qaratish; qiziqish uyg‘otish; qarama-qarshiliklarga, kurashga e’tiborni jalb qilish; qandaydir narsani namoyish qilish; o‘z hayotingizda yuz bergen voqea-hodisalar, o‘qigan narsalar haqida gapirish; tanishingizning gapidan misol keltirish; mashhur kishilar fikrlaridan misollar keltirish; tarixiy voqea; axborot manbaiga ilova; ritorik so‘roq.

Topshiriqni bajarish namunasi: “Men nima uchun shahrimizni yaxshi ko‘raman?”

Biror voqeа, joyga, vaqtga e’tiborni qaratish: “Har bir kishining o‘z uyi, mahallasi bor. Lekin biz siz bilan bir shaharda – Toshkent shahrida yashaymiz. Uning tekis ko‘chalarida yuramiz, bog‘larida sayr qilamiz, mahallaning shinam bog‘chalarida dam olamiz. Barcha toshkentliklarga ma’lum bo‘lgan Mustaqillik maydoni, Milliy bog‘, Amir Temur xiyoboni va boshqa so‘lim go‘shalarni yaxshi bilamiz. Agar biz uzoqqa safar qilsak, tezda yurtimizni sog‘inib, uyga qaytgimiz keladi. Nega shunday? Bunda ne sinoat bor?”

Qiziqish uyg‘otish: “Men bir qancha katta va kichik shaharlarda bo‘lganman, televizor orqali ham juda ko‘p shaharlarni tomosha qilganman, lekin yaqinda o‘z shahrimning barcha shaharlardan ortiq ekanligini tushundim. Nimaga shunday?”

Qarama-qarshiliklarga, kurashga e’tiborni jalb qilish: Samarqandliklar eng zo‘r shahar – Samarqand, toshkentliklar – Toshkent, buxoroliklar –Buxoro, xorazmliklar – Xiva deb hisoblashadi. Bu shaharlar o‘rtasida necha asrlardan beri tortishuv davom etadi. Tortishuvda kim haq? Eng yaxshi shahar nomiga qaysi biri loyiq? Bunga samarqandliklar nuqtayi nazari bilan qarasak?

Qandaydir narsani namoyish qilish: Mana mening qo‘limda Samarqand ustalari tomonidan yasalgan zargarlik buyumlari. Bu taqinchoqlar uzoq tarixga ega. Mana shu taqinchoqlarni ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘ysa bo‘ladi. Hozir nimaga shu narsa ishlab chiqarilmaydi? Qancha faxrlansak arziydi. Yana boshqa faxrlanadigan narsamiz yo‘qmi? Aslo unday emas.

O‘z hayotida yuz bergen voqeа-hodisalar, o‘qigan narsalar haqida gapirish: Men asli samarqandlikman. Buvam, buvim, otam, onam va qarindosh-urug‘larimning barchasi shu yerda tug‘ilib o‘sgan. Buvam buvim bilan, ota-onam ham shu shaharda tanishib turmush qurishgan. Shahrimiz tarixining guvohi ular. Shuning uchun ham men o‘z shahrimni juda sevaman.

Mashhur kishilar fikrlaridan misollar keltirish, tarixiy voqeа: Buyuk sarkarda Amir Temur ham bejizga Samarqandni o‘z ulkan davlatining poytaxti qilib tanlamagan. Buyuk ipak yo‘li ham shu yerdan o‘tgan. Biz shu shahardan yetishib chiqqan olimlar, buyuk shaxslar bilan faxrlanamiz. Hozirgi zamonaviy Samarqand bilan ham juda faxrlanamiz.

Axborot manbaiga ilova: Bizning shahrimizda har yili “Sharq taronalari” festivali o‘tkaziladi. Festivalga dunyoning turli burchaklaridan san’at oshuftalari kelib, shahrimizning yildan yilga go‘zallahib va rivojlanib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdalar. Shuning uchun shahrimizning yanada rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Ritorik so‘roq: O‘z tug‘ilib o‘sgan shahrini sevmaydigan odam bo‘lmasa kerak?

3-topshiriq. Quyida berilgan dalillarni o‘qing, ularning ichidan o‘zingiz uchun zarurlarini tanlang hamda o‘z fikringizni qo‘sib “Nima uchun men televide niyeni yaxshi ko‘raman?” mavzusida nutq so‘zlang.

1. Televizor ko‘rish qiziqarli.
2. Televizor noxush narsalarni unuttiradi.
3. Televideniye pulni tejaydi.
4. Televideniyesiz hayotimizni tasavvur qilolmaymiz.
5. Televideniye pul topish yo‘lini o‘rgatadi.
6. Televideniyedan beriladigan reklamalar – yangiliklar manbai.
7. Televideniye ayollarga pardoz qilishni o‘rgatadi.
8. Televideniye oshpazlik sirlarini o‘rgatadi.
9. Televizor ko‘rayotganimda ota-onam meni bezovta qilishmaydi.
10. Televizorni ertalab ham, kechqurun ham ko‘rish mumkin.
11. Televizor uyga bezak berib turadi.
12. Televideniye orqali beriladigan diniy ko‘rsatuвлar ma’naviyatni shakllantiradi.
13. Televideniye oilaning jamuljam bo‘lishiga imkon beradi.
14. Televideniye - tekin dam olish turi.
15. Musiqiy ko‘rsatuвлar zamonaviy musiqadan xabardor qiladi.
16. Xorijiy televizorlar juda yaxshi.
17. Televideniye orqali olamdagи yangiliklardan xabardor bo‘lamiz.
18. Televideniye nozik didning paydo bo‘lishiga yordam beradi.
19. Televideniyenı hamma yaxshi ko‘radi.
20. Televideniye inson dunyoqarashini kengaytiradi, boyitadi.
21. Televideniye turmush tashvishlaridan chalg‘itadi.
22. Televideniye yolg‘izlikdan qutqaradi.
23. Televideniye beminnat maslahatchi.
24. Dunyo xabarlaridan boxabar qiluvchi asosiy manba.

4-topshiriq. Ishontiruvchi ma’ruza tayyorlang:

- 1) ritorikani o‘rganishning zaruriyati haqida;
- 2) chekishni tashlashning zarurligi haqida;
- 3) nutqiy malakaga ega bo‘lish zarurligi haqida;
- 4) kiyinish odobining inson xarakteri bilan bog‘liqligi haqida.

5-topshiriq. O‘tilgan mavzu yuzasidan bilib olgan nazariy bilimlaringizni “Tushunchalar tahlili” metodi asosida yoriting va so‘zlab bering.

Tushunchalar	Mazmuni
Ritorika tarixining yuzaga kelishi	
Ritorika tushunchasining mazmun-mohiyati	
Ritorika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.	
Ritorika va nutq madaniyatining bir-biridan farqli jihatlari.	

Antik ritorika haqida ma'lumot.	
“Ritorika” asarining muallifi haqida ma'lumot.	
Sofistlar kimlar va ular ritorikaga qanday hissa qo'shgan.	
Sofistlarning bosh maqsadi nimalardan iborat bo'lgan?	
“Ritorika” asarining shakllanishidagi omillar.	

Mustaqil bajarish uchun qo'shimcha vazifalar. Berilgan ko'rsatmalar yordamida quyidagi mavzuda esse yozing “Nega ritorikani ham fan, ham notiqlik san'ati deb hisoblaydilar?”

1.Berilgan mavzuning muammosini tushuntirish hamda to‘g‘ri va aniq ochib berish lozim.

- 2.Muallif pozitsiyasini ifodalash.
- 3.Ilmiy-ommabop uslubda fikrni ifodalash.
- 4.Fikrni mantiqan to‘g‘ri va ravon ifodalash.
- 5.Essening hajmi 200 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi kerak.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1.Antik notiqlik san'atining nazariy asoslarini ishlab chiquvchi va shu sohadan dars beruvchi o'qituvchilar nima deb atalgan?

- A.Ritorlar.
- B.Oratorlar.
- C.Notiqlar.
- D.Eristiklar.

2. Antik notiqlik san'atining siyosiy nutqida notiq qaysi kategoriyalardan kelib chiqib nutq tuzgan?

- A.Foyda va zarar.
- B.Yaxshilik va yomonlik.
- C.Haq va nohaqlik.
- D.Haqiqat va nohaqlik.

3.Ritorikaning 3 manbai ko'rsatilgan qatorni toping.

- A.Ishontirish, tabiiy iste'dod, amaliy mashqlar.
- B.Tabiiy iste'dod, nazariy bilim, amaliy mashqlar.

S.Tabiyy iste'dod, nazariy bilim, taqlid.

D.Tabiyy iste'dod, amaliy mashqlar, hayajonlantirish.

4.Ritorikaning 3 maqsadi ko'rsatilgan qatorni toping.

A.Ishontirish, ta'sirlantirish, hayajonlantirish.

B.Ishontirish, rohatlantirish, dalillash.

C.Ishontirish, dalillash, ta'sirlantirish.

D.Ishontirish, rohatlantirish, hayajonlantirish.

5.Nutqning kirish qismidan maqsad nima?

A.E'tiborni jalg qilish, ehtiros uyg'otish.

B.E'tiborni jalg qilish, xayrixoh etish.

C. E'tiborni jalg qilish, dalillash.

D. E'tiborni jalg qilish, ishontirish.

6. Sofistlarning kamchiligi qaysi qatorda keltirilgan?

A.Nima qilib bo'lsa ham bahsda yutib chiqish.

B.Xayrixohlik hissini uyg'otib bahsda yutib chiqish.

C. Dalillarni keltirib bahsda yutib chiqish.

D.Haqiqatni keltirib bahsda yutib chiqish.

7.Qadimgi Gretsiyada nutq matnlarini yozib beruvchi shaxsni nima deb atashgan?

A. Sinegorlar.

B. Satirlar.

C. Logograflar.

D. Ritorlar.

8. Notiqlik haqida ilk ma'lumot qaysi asarda berilgan?

A. Brut, Iliada.

B. Iliada, Notiq haqida.

C. Notiq, Iliada.

D. Odisseya, Iliada.

9. «Tarixda nom qoldirish uchun yo yaxshi sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak». Ushbu fikr muallifi kim?

A.Sitseron

V. Demosfen

S. Perikl

D. Arastu.

10. Aristotelning notiqlikka bag'ishlangan asari -

A.Ritorika.

V.Iliada.

S. Notiq.

D. Brut.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Notiqlik san'ati dastlab qayerda shakllangan?
2. Ritorika so'zining ma'nosini bilasizmi?
3. Ritorika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat bo'lgan?
4. Antik ritorika haqida nimalarni bilasiz?
5. Sofistlar kimlar va ularning ritorikaga qanday aloqasi bor?
6. Grek maktabi vakillari haqida nimalarni bilasiz?
7. Rim notiqlik san'ati maktabi vakillari haqida nimalarni bilasiz?
8. "Ritorika" asarining muallifi kim va u haqda nimalarni bilasiz?
9. Logograflar bilan sinegorlarning asosiy vazifasi nimalardan iborat bo'lgan?
10. Ravon, chiroyli va ta'sirchan gapirishni tug'ma iqtidor deyish mumkinmi?

Glossariy

Ritorik – ritorikaga, notiqlik san'atiga oid so'z.

Ritorika – notiqlik nazariyasi haqidagi ta'limot. Notiqqa o'z bilimi va dunyoqarashiga suyangan holda to'g'ri, chiroyli, jozibador, ta'sirchan so'zlash yo'llarini o'rgatadi.

Pafos – yuksak darajali tug'yонкор his-hayajon.

Etos – g'oyat muloyim, me'yorli his-hayajon.

Yumor – kulgi va istehzo kuchi bilan raqibning da'vo va dalillarini yo'qqa chiqarish.

Nafosat – nafislik, go'zallik, nafosat.

Mantiq – nutq, til, so'zlash degan ma'nolarni anglatadi. Gap, fikr, harakat va shu kabining aqlga monandligi, asosliligi.

Estetika – 1. Nafis san'at va badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati va shakllarini, inson va odam o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rjanuvchi falsafiy fan. 2. Biror narsaning go'zalligi.

Sinegor – qadimda ma'lum haq evaziga sudda tomonlarning manfaatini himoya qilib nutq so'zlovchi shaxs.

Logograf – qadimda nutq matnini tuzib beruvchi shaxs.

Epideyktik notiqlik – tantanali notiqlik.

Dialogik muloqot - o'zaro suhbat vaqtida hal etilishi zarur bo'lgan masalani nihoyasiga yetkazish jarayoni.

Uyg'unlashgan muloqot - suhbat, bahs-munozara jarayonida muloqot qatnashchilarining umumiyl maqsadga erishishi uchun birlashishlari.

Fikriy muloqot – muloqot jarayonida nutqning maqsadi muhokama mavzusida yashiringan, topish mumkin bo'lgan haqiqatni, ma'noni izlash.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. –Toshkent: Fan, 1973.
2. Inomxo‘jaev S. Notiqlik san’ati asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1982.
3. М.Л.Гаспаров. Цицерон и античная риторика. (Qarang:Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве. –М.:Наука, 1972.)
4. Begmatov E., Tursunqulov M. O‘zbek nutqi madaniyati asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
5. Begmatov E., Jiyanova N. Nutq madaniyati asoslari. (Ma’ruzalar matni). –T.: 2009.

SHARQ MADANIYATI TARIXIDA NOTIQLIK SAN’ATINING O’RNI

Tayanch so‘zlar: Va’z tushunchasi, voiz tushunchasi, nutq tuzish, nutq odobi, sharq notiqligi, odobnama tushunchasi, didaktik adabiyot tushunchasi, nutq odobi, mantiq, notiq, notiqlik, so‘z san’ati, pand-nasihat, ma’naviy olam, suhbat odobi, muloqot odobi, to‘g‘ri so‘zlash, rost so‘zlash qoidalari.

Sharq Uyg‘onish davri notiqlik tarixi. Hozirda nutq madaniyati, nutq odobi deb yuritilayotgan nuqtayi nazarlar qadimda yashab o‘tgan ajodolarimizning tafakkuri mevasidir. Buning yorqin namunalari yozma manbalarda, xalq udumlarida saqlanib, bizgacha yetib kelgan: xalq og‘zaki ijodi tilidagi, lahja va shevalardagi til va nutqqa oid fikrlar; qadimi yozma obidalar (toshbitiklardagi matnlar, tarixiy memuarlar, mumtoz adabiyot asarlari va boshqalar); xalq og‘zaki ijodi asarlari – doston va ertaklar, maqol va matallar; qadimdan turli shakllarda saqlanib bizgacha yetgan mifologik asarlar – afsonalar, latifalar, miflar; “Ibratli hikoyalar”, “Hikmatlar” nomi bilan bizgacha yetib kelgan yozma asarlar shular jumlasidandir.

Eng qadimgi yozma obidamiz “Avesto”da til, nutq, nutq odobi, tilga munosabat, tilni ulug‘lashga oid fikrlar ham mavjud. Unda aytilishicha, o‘sha davr dini va ma’naviyati asosini *e’tiqod, ezgu niyat, ezgu so‘z* va *ezgu amal tushunchalari tashkil qilgan*¹⁶. Keltirilgan *ezgu so‘z* tushunchasi xalq uchun foydali bo‘lgan fikrni ifodalagan, uni nutq odobi va madaniyatiga amal qilgan nutq hamda kishilarga manfaat keltiruvchi va ta’sir etuvchi, qolaversa, ularni tarbiyalovchi vosita, so‘z deb tushunmoq kerak. Bu fikrni ba’zi o‘rnarda *ezgu so‘z o‘rnida ezgu kalom, ezgu fikr, muqaddas so‘z* kabilar ifodalashida ham ko‘rish mumkin.

¹⁶ Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. –T.:Sharq, 2001, 56-57-b.

Qadimiy turkiy yozma yodgorliklaridan “Kul Tegin yodgorligi”dagi kichik yozuvda tabg‘achlarning chuchuk so‘z ekanligi haqida gapiriladi va ular o‘zining shirin muomalasi bilan yiroq ellarni o‘ziga yaqinlashtirishi ta’kidlanadi:

*Tabg‘ach budun so‘zi chuchuk,
Og‘izi yumshoq ermish.
Suchuk so‘zi, yumshoq qiliq(la) avrab,
Yiroq budunni ancha yaqinlatar ermish.¹⁷*

Shu bilan birga, ushbu yodgorlikda kishining, ayniqsa, dushmanning shirin tiliga ishonib aldanish kerakmasligi ham aytiladi:

*Chuchuk so‘ziga, yumshoq qilig‘iga aldanib,
Ko‘p, turk buduni, o‘lding.¹⁸*

Demak, bizning ajdodlarimiz VI-VII asrlardayoq shirin, yoqimli tilni ulug‘lagan, yolg‘on va qo‘pol tilni qoralagan.

Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti, shuningdek, va’zxonlik, “Qur’on”ni targ‘ib qilish bilan mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma’nosini undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko‘p yaxshi ilmiy va nazariy qoidalar aytilgan. Va’zxonlik (so‘zga chechanlik, notiqlik) san’atining uslubi barobarida nutq oldiga qo‘yilgan talablar zamonga mos holda shakllantirib borildi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy, Zamashshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e’tibor berishga da’vat etish bilan birga tilga, lug‘atga, grammatika va mantiq, tilshunoslikka bag‘ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador nazariy va ilmiy fikrlar bildirdilar.

Notiqlik — o‘tmish so‘z san’atining eng qadimiy san’atlaridan biri bo‘lib, bu san’at musulmon Sharqida voizlik deb atalgan. Shunga ko‘ra nutq — va’z, notiq — voiz deb yuritilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflardan biriga ko‘tarila olgan edi. Umuman, o‘rta asrlarda fan va madaniyatning rivojiga Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Koshg‘ariy, Navoiy kabi ulug‘ siymolar katta hissa qo‘shganlar. Ular yashagan davr Sharq tarixida Uyg‘onish davri ham deb yuritiladi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san’at va madaniyatimizning ravnaq topgan yillari bo‘ldi. Adabiyot, san’at, fan va umuman, madaniyatimizning targ‘ibotchilari bo‘lgan bu allomalar ayni vaqtida voizlik san’atini ham yaratdilar. “Va’z” so‘zi arabcha targ‘ib qilish, pand-nasihat degan ma’nolarni anglatadi; “voiz” so‘zi esa va’z aytuvchi, nutq so‘zlovchi shaxs ma’nosini bildiradi.

¹⁷ Qayumov A. Qadimiyat obidalari. –T.:Adabiyo va san’at, 1972, 135-b.

¹⁸ Qayumov A. Ko‘rsatilgan asar. 136-b.

Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, hozirgi vaqtida u notiqlik san'ati deb yuritilmoqda.

Qadimgi Sharqda (IX asrgacha) voizlik vazifasini shohlar, xalifalar bajargan. Ular juma kunlari, hayit va boshqa bayramlarda jamoani yig'ib, davlat siyosati, fuqarolarning majburiyat va burchlari, boshqa mamlakatlardagi vaziyat, dushmanlarning kirdikorlari, mudofaa masalalari haqida va boshqa mavzularda va'z aytganlar. IX asrdan boshlab davlat hukmdorlari bu tadbirni o'z ixtiyorlaridagi maxsus so'z ustalariga yuklab, ularni voizlar deb atay boshlaganlar. "Voiz" so'zi hatto ularning ismi shariflariga qo'shib aytilgan va yozilgan.

XII asrdan boshlab voizlik san'ati nazariyasi va amaliyotini talqin va tavsif etadigan ko'plab ilmiy, tarixiy, uslubiy risolalar yozilgan. Bular qatoriga Muhammad Rafiq Voizning "Avbob ul-jinon", Voiz Kazviniyning "Zilolu maqol", Voiz Shirvoniyning "Ahsan ul-ahodis", Muhammad Voizning "Hidoyat ul-taqvim", Quraysh Saidiyning "Anis ul-voizin", Voiz Samarqandiyning "Ravozat ul-voizin", Qozi O'shiyning "Miftoh un-najjoh", Husayn Voiz Koshifiyning "Dah majlis", "Maxzan ul-insho" kabi asarlari kiradi. Shuningdek, tarixchi, shoir, muhaddislarning asarlarida ham voizlik san'atiga aloqador ba'zi fikrlar bayon qilingan. Tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, Navoiyning "Majolis un-nafois", "Mantiq ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Xamsa", "Chor devon" asarlarida; Zaynuddin Vosifiyning (XV asr) "Badoe ul-vaqoe", Xondamirning "Makorim ul-axloq" risolasida atoqli voizlarning mahorati, iste'dodi, va'zxonlik uslublari haqida mulohazalar yuritilgan.

Tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra, sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi davlat arboblari voizlik san'atini puxta egallaganlar va o'z faoliyatlarida undan mohirona foydalanganlar.

Voizlik san'ati asosan uch shaklda bo'lgan: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik. Bulardan birinchisi—davlat maqomidagi yozishmalarni yozma bayon etish va qiroat bilan o'qib berish, ikkinchisi, juma kunlari peshin namozi oldidan xutba o'qish, uchinchisi, juma kunlaridagi, hayit va boshqa tantanali kunlardagi anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berishdan iborat bo'lgan. Ularni asosan imom-xatib, imom-noiblar, goho mudarrislar o'tkazgan. Umuman, voizlik san'atiga diniy ta'limot sohiblari hamisha katta e'tibor bilan qaragan va bu an'ana hozir ham davom etmoqda. Voizlik san'ati tinglovchilarining, voizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqe va lavozimlarini hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ham uchga ajratilgan va uch xil nomlangan:

- 1) yuqori tabaqa a'yonlari va zodagonlari uchun mo'ljallangan bo'lib, sultoniyot;
- 2) janggohlar ishtirokchilari uchun mo'ljallangan bo'lib jihodiya;

3) oddiy fuqarolar uchun mo'ljallangan bo'lib g'aribona deb yuritilgan. Sultoniyotda - hukmdorlar sha'niga hamd-u sanolar aytilgan; ular ko'klarga ko'tarib maqtalgan, ya'ni shaxsga sig'inish, xushomadgo'ylik, laganbardorlik o'z ifodasini

topgan; jihodiyada — jangovarlik, botirlik, qahramonlik, jasurlik, fidoyilik, vatanparvarlik ulug‘langan, barcha jihodga chaqirilgan; g‘aribonada esa mehnat ahlini itoatkorlikka, yuvoshlikka chaqirish kabilar ifodalangan. Har birining yozilish, o‘qilish, shuningdek, va’z etilish shartlari, usuli, ohangi ham har xil bo‘lgan.

Mashhur voizlardan biri, ko‘pgina bilimlarni chuqur egallagan, xalq orasida katta nufuzga ega bo‘lgan Voiz Irshod haqida Faxriddin Ali Safiy degan tarixchining asaridan quyidagi bir voqeа keltiriladi:

Kunlardan birida Husayn Boyqaro Sherozning zamondosh shohi huzuriga bir nufuzli vakil yubormoqchi bo‘libdi. Bu kishi rasmiy davlat ishi yuzasidan shoh bilan muzokara olib borishi lozim bo‘lgan. Sulton arkoni davlat a’yonlari bilan maslahat qilganida, ular o‘z zamonasining g‘oyat mahoratlari notiq va siyosatdonlaridan biri hisoblangan mavlono Irshodni tavsiya qilganlar. Uni sultanatga chorlab, bu muzokarani unga topshirganlar. Mavlono Irshod Sherozga borib, qisqa muddatda topshiriqni mohirlik bilan ado etgan. Uning voizlik mahoratini payqagan shoh unga qaytish uchun ijozat bermay, bitta anjuman chaqirtirib, va’z ayttirib, so‘ng javob berajagini aytgan. Voiz mammuniyat bilan bu iltimosni qabul qilib, juma kuni bo‘ladigan anjumanga puxta tayyorgarlik ko‘rgan. Faxriddin Ali Safiyning shohidlik berishicha, Irshod minbarga chiqib, shunday mahorat va ehtiros bilan nutq so‘zlaganki, masjidi jomega yig‘ilganlar ho‘ng-ho‘ng yig‘lay boshlaganlar. Shunda u o‘z nutqining jozibador, maftunkor yana bir qirrasini namoyish qilgan: u o‘z va’zi jarayonida shunday bir burilish yasaganki, yig‘lab o‘tirganlarning barchasi beixtiyor qahqaha otib yuborgan.

Yana shunday notiqlardan biri XV-XVI asrlarda Farg‘ona vodiysida yashagan notiq Qozi O‘shiy bo‘lgan. U O‘sh shahrida tug‘ilib, bu yerda qozilik mansabida xizmat qilgani uchun shunday nom olgan. Faxriddin Ali Safiyning yuqorida qayd etilgan risolasida va tarixnavis Muhammad Majdiyning “Zaynat ul-Majolis” asarida ta’kidlanishicha, O‘shiy voizlik san’atida mislsiz mahorat sohibi sifatida dong taratgan va el nazariga tushgan.

Ushbu qo‘lyozmalarda qayd etilishicha, Eron mamlakatining janubidagi Seyiston viloyatining aholisi o‘sha davrlarda ziqnaligi bilan nom chiqargan bo‘lib, hatto tilanchiga ham bir burda non bermas ekan. Bu ziqnalikni eshitgan Qozi O‘shiy o‘sha viloyatga boribdi. Bundan biror naf chiqishidan shubhalangan birodarları uni bu fikrdan qaytarishga urinibdilar. Shunda voiz ularga qarab: ”*Dunyoda yumshamaydigan ko‘ngil, ochilmaydigan qufl bo‘lmaydi: men ularning ko‘ngil quflini suxandonlik kaliti bilan ochib yumshataman*”, -debdi. O‘shiy so‘zining ustidan chiqibdi. Qozi O‘shiyning “Miftoh un-Najjoh”, ya’ni “So‘z kaliti” risolasi esa voizlik san’atining sir-asrorini mohirona ochib bergen. Bu esa uning o‘tkir voizgina emas, balki nutq madaniyati bo‘yicha yetarli bilim sohibi ekanligidan ham dalolat beradi. Notiqlik nazariyasi sohasida ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan.

Voizlik san’ati, uning mohiyati, muhim shartlari nimalardan iborat bo‘lgan? Va’z

nima-yu, voiz kim? Pir-u murshid voiz qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak? Uni tinglovchi murid-chi? Ushbu savollar har bir zamondoshimizni ko‘pdan qiziqtirib keladi. Bu kabi savollarga hazrat Alisher Navoiy ijodidan javob topsa bo‘ladi.

Qadim Sharq san’atida voizlik — notiqlik san’atining eng ommaviy turlaridan biri bo‘lgan. Bu san’at katta notiqlik iste’dodini va mahoratini talab etgan. Har kim ham voizlik san’atini egallay olmagan, har kimga ham voizlik martabasi ishonilmagan, har kim ham xalq minbarida voizlik maqomiga tuyassar bo‘lolmagan. Voizlar bo‘lganki, va’zxonlikni kasb darajasiga ko‘targanlar, umrbod shug‘ullanib, bu san’at sohasida kitoblar yozganlar, o‘z nutqlari bilan xalqqa ruhiy madadkor bo‘lganlar, yo‘lboshchilik qilganlar, podsholar huzurida ma’naviy homiylik maqomini tutganlar, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar. Bunday voizlar piri komil bo‘lganlar. Voizlar bo‘lganki, ma’naviy komil bo‘lmaganliklaridan, xalqning dili dagi gapni topib gapirolmaganlar, minbarni tepib, mushtlab, pirlik va nutq odobiga noloyiq harakatlar qilib, ommaning nazaridan qolganlar, minbarni tez tark etganlar”.¹⁹

Sharq allomalarining notiqlik san’ati haqidagi qarashlari. Buyuk olim Beruniy (973-1048) o‘z davridagi barcha fan sohalari bo‘yicha ijod qilib 150 dan ortiq asar qoldirdi. Bizgacha yetib kelgan asarlari “Xronologiya”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Mineralogiya” va boshqalardir. “Geodeziya” asarining kirish qismida fanlarning paydo bo‘lishi va tarmoqlanib ko‘payishi haqida so‘z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir. Inson nutqi o‘z tuzilishi, materialiga ko‘ra rostni ham, yolg‘onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg‘ondan ajratadigan “mezon”ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Inson nutqida shubhali o‘rinlar sezilsa, ma’lum “mezon” yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o‘rganmasdan, uni malomat qilganlarga hayron qoladi va ularga achinib: “Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog‘lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she‘r o‘lchovi) va mantiqni (logika) mutolaa qilganida edi, so‘zning (nutq) nasr va nazmga ajralishini bilgan bo‘lardi” — deydi.²⁰

Demak, Beruniy nutqning ikki xil — nasr va nazm ko‘rinishi borligini ta’kidlamoqda. Nutqning bu turlari ma’lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv qonun-qoidalari, nazm aruz talablariga binoan tuziladi. Aruzga qaraganda nahvning ta’sir doirasi keng, u nasr uchun ham, nazm uchun ham zarur. Beruniy yozadi: “Nahv nasrda va aruz nazmda aytilgan so‘zning me’yorini o‘lchovchi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon bo‘lib qoldi, lekin nahv bular ikkisining umumiyyrog‘idir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda o‘z ichiga qamrab oladi. Xullas, yaxshi nutq tuzish

¹⁹ Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Istiqlol va ona tilimiz. –T.: Sharq, 1991.

²⁰ Beruniy. Tanlangan asarlar. -J.III, 1982, 64-bet.

*uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning bиронтасига аhamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buзilsa, qolgan ikkitasiga ta’sir qilmay qo‘ymaydi*²¹

Beruniy shakl va mazmun birligiga katta ahamiyat beradi. Uningcha, shakl mazmunga xizmat qilishi, mazmunsiz har qanday chiroyli shakl ham el orasida e’tibor qozonmaydi. Nutqning nasriy shaklida ham, nazmiy shaklida ham mazmun asosiy mezon ekanligini ta’kidlaydi. Abu Rayhon Beruniyning asarlarida so‘z, uning ahamiyati, so‘zni to‘g‘ri qo‘llash va so‘z qo‘llash me’yorlaridan tashqari tildagi o‘zlashma so‘zlar va bevosita nutq madaniyati va til estetikasiga aloqador bo‘lgan mulohazalar ham mavjud. Beruniyning yozishicha, tilning tarixiy taraqqiyoti davrida til lug‘at tarkibida “...o‘sha tilda faqatgina oz kishi fahmlaydigan birmuncha begona so‘zlar paydo bo‘ladi va ular tushunarsiz bo‘lgani uchun bunday so‘zlarga salbiy munosabatda bo‘ladi”. Olimning ta’kidlashicha, “Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko‘zi bilan qaraydilar”²². Atrofimizdagи hamma narsa va hodisa kabi til ham rivojlanishi va o‘zgarishini, tildagi bunday o‘zgarishlar, avvalo, xalq tarixida sodir bo‘lgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar tufayli yangi so‘zlar kirib kelishini va aksincha ayrimlari iste’moldan chiqib ketishini yaxshi bilgan olim bu hodisalarga ijobjiy munosabatda bo‘ladi va tilning asosiy vazifasi kishilarning o‘zaro madaniy muloqotini ta’minalash deb hisoblaydi: “Til – so‘zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir”²³.

Ulug‘ faylasuf **Abu Nasr Forobiy** (870-950) ilmning turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan allomadir. Nutq va aql tarbiyasiga oid ilmlar to‘g‘risida Forobiy qimmatli fikrlar aytgan.

To‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, nutqiy qoidani qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘zlash va qanday javob berish (masalasi) ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi — jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman”.

Ikkinchi ilm grammatikadir: *u jismlarga berilgan nomlarni qanday tartibga solishni hamda narsalar (substantsiya) va hodisalarning (aktsidentsiya) joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi*.

Uchinchi ilm mantiqdир: “ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar

²¹ Beruniy. O‘sha asar, 64-b.

²² Beruniy. Hikmatlar. –T.:Yosh gvardiya, 1973, 22-b.

²³ Beruniy. Ko‘rsatilgan asar, 46-b.

yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz”.²⁴

Ko‘rinadiki, leksikologiya, grammatica va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat bergenlar. Notiq nimani va qanday so‘zlashi kerakligini bilishi va to‘g‘ri xulosalar chiqarishi uchun o‘z nutqida so‘z va gaplarning joylashish tartibi katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Nutq odobi, nutqiy mahorat, poetik nutq xususiyatlari, uning har bir badiiy janrda o‘ziga xos namoyon bo‘lishi haqidagi ba’zi fikrlar Abu Nasr Forobiyning “She‘r san’ati”²⁵ asarida uchraydi. Abu Nasr Forobiyning ushbu risolada keltirilgan bir she’rida yolg‘on so‘zlaydigan notiqdan uzoqroq yurishni maslahat beradi:

*Uzoq yur bo ‘lsa botil, so ‘zi yolg‘on,
Haqiqat tarqatib, bo ‘lsa imkon*²⁶.

Tilshunoslik tarixida **Mahmud Koshg‘ariy** salmoqli o‘rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko‘p sohalari bo‘yicha asarlar yozdi. Qiyosiy tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist, leksikolog, leksikograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

Bizgacha Mahmud Koshg‘ariyning hayoti haqida juda oz ma’lumot yetib kelgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, uning tug‘ilgan yili aniq emas. Lekin lug‘at yozilganda muallifning keksayib qolganligini hisobga olsak, u XI asr boshlarida tug‘ilgan deb hisoblash mumkin. M.Koshg‘ariyning turkiy tillarga bag‘ishlangan ikkita asar yozganligi ma’lum. Ulardan biri “Javohirun nahv fil lug‘atit turk” (“Turkiy tillarning sintaksi javohirlari”), ikkinchisi esa “Devonu lug‘at-it turk” (“Turkiy so‘zlar to‘plami) deb ataladi.

Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. Olim so‘zlarning ma’nolarini izohlabgina qolmay, ma’no o‘zgarishlari yuzasidan ham nozik kuzatishlar olib borganligini ta’kidlaydi. Ma’noning kengayishi, torayishi va ma’no ko‘chish usullari bilan birga so‘zlardagi omonimiya va sinonimiya hodisalari ham asarda tilga olinadi. Mahmud Koshg‘ariyning boshqa tillardan so‘z olish haqidagi fikrlari ham mavjud. Olim o‘z ona tilimizda mavjud bo‘lgan so‘zlarni boshqa chet tillardagi so‘zlar o‘rnida ishlatilish holatlariga salbiy munosabat bildiradi. Masalan, o‘g‘uzlarning *qumg‘on* so‘zi o‘rnida *oftoba* so‘zini qo‘llashlariga tanqidiy munosabatda bo‘lib, bunday holatning til uchun zararli ekanligini qayd etadi.

“Devonu lug‘at-it turk”ning adabiy qimmati benihoya kattadir. Unda uch yuzga yaqin she’riy parcha va ko‘plab maqol hamda hikmatli so‘zlar bo‘lib, shoir bunday she’riy parchalarga qisqa-qisqa sharhlar beradi, xalq maqollarining mohiyatini yoritib, ularning ishlatilish o‘rnini ham ko‘rsatadi. Asarda ham til, til odobi, nutq, muomala,

²⁴ Abu Nasr Forobi. Risolalar, -T., 1975, 54-bet.

²⁵ Abu Nasr Forobi. She‘r san’ati. –T:Adabiyot va san’at, 1979, 53-b.

yaxshi va yomon so‘z, yoqimli va mayin so‘z, ezmalik va chaqimchilik, to‘g‘ri va yolg‘on so‘z haqida aytilgan fikrlar uchraydi. Masalan: *Ardam boshi til - adab va fazilatning boshi til*,²⁷ deb ta‘kidlaydi. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy o‘zi o‘rgangan har bir lajha, shevalardagi farqli hodisalar – qattiq va yumshoq talaffuz, dag‘al va mayin ohang, yumshoq va dag‘al (qo‘pol) muomala haqida ham fikrlar bildirgan. Bular bevosita qadimdan ota-bobolarimizning nutq odobi va madaniyatiga alohida e’tibor bilan qaraganliklarini ko‘rsatadi.

O‘rta asr Sharqining buyuk allomalari orasida mashhur tabib, faylasuf, shoir **Abu Ali ibn Sino** alohida o‘rin tutadi. Uning turli sohalar bilan birga ta’lim-tarbiya, axloq va nutq haqida ham fikrlari mavjudki, ular bilan yaqindan tanishish notiqlik san‘atini mukammal o‘rganishga yordam beradi. Ibn Sinoning fikricha, inson tili shunchaki aloqa vositasi bo‘lmasdan, balki muloqot egalariga muayyan axloqiy va estetik ta’sir etishini ham ko‘zda tutadi. Shu sababli Ibn Sino “*Kishi nutqining kuchi shundaki, u boshqa kishilarga ham ta’sir qila oladi*” deb hisoblagan.

Ibn Sino nutq madaniyati, nutqning sifatiga xos belgilaridan tashqari nutq texnikasi, notiq amal qilishi lozim bo‘lgan ba’zi talablar haqida ham fikr yuritgan. Masalan, ovozdan o‘rinli foydalanish yuzasidan shunday maslahat bergen: “*Ovozni yo‘qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo, o‘qishni past ovoz bilan boshlab, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish, lekin kuchli ovoz bilan o‘qish ham uzoq davom etmasligi kerak*”²⁸.

Yaxshi do‘st qaysi yo‘l bilan axloqiy kamchiliklarni tuzatishda boshqalarga yordam berishi mumkinligi masalasiga Ibn Sino alohida e’tibor beradi va notiq quyidagilarga amal qilishi lozim deb biladi:

- 1.Nasihat qo‘pol ohangda berilmasligi kerak.
- 2.Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur.
- 3.Nasihatga ko‘p berilmasdan, o‘rtoqlik suhbat tarzida olib borish kerak.
- 4.Nasihatni muloyim ohangda, yolg‘iz olib borish kerak.
- 5.Agar ta‘na qilmoqchi bo‘lsang, boshqalar kamchiligi bilan qiyoslab ta‘na qil.
- 6.Agar o‘z e’tiqodingni aytmoqchi bo‘lsang, faqat bir faktga tayanma, balki ko‘p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga yaqin olishga, shu narsa haqida o‘ylashga va haqiqatni izlashga ishontir.
- 7.Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e’tibor bilan qulop solayotgan bo‘lsa, suhbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin uning e’tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.

Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya beruvchi muallimlar haqidagi fikrlari ham e’tiborga loyiq. Uning fikricha, muallim mardonavor, rostgo‘y va pokiza inson bo‘lmog‘i, bola tarbiyasi usullarini hamda ma’naviyat qonun-qoidalarini mukammal bilishi zarur.

²⁷ Mahmud Koshfariy. Devonu lug`at-it turk. –T.: – B. 323.

²⁸Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967, 52, 86-b.

Alloma bolaga yakka-yolg‘iz ilm bermasdan, balki ko‘pchilik, ya’ni guruh asosida darsni olib borish kerak deydi. Chunki bolalar bir-birlari bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib turishlari, bir-birlaridan yaxshi xulqni o‘zlashtirishlari darkor. Ibn Sinoning fikricha, muallim quyidagi qoidalarni bilishi shartdir: o‘quvchini noxush ta’sirlardan asrashi, uning xush axloqli va vijdonli do‘stlar bilan birgalikda bo‘lishligini nazorat qilib turishi kerak. Abu Ali ibn Sinoning o‘qituvchining nutqi, uning qisqa, aniq, ortiqcha so‘zlardan xoli, tinglovchining yoshi, aqliy darajasiga mos bo‘lishi yuzasidan aytgan fikrlari Beruniy mulohazalari bilan hamohangdir²⁹.

Ming yil muqaddam bitilgan allomamizning bu fikrlari yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga solishga, ularni jismonan sog‘lom, ma’nан yetuk qilishga, ularning bir-birlari bilan muloqot qilgandagina komil inson bo‘lib yetishishlarini tasdiqlaydi.

Kaykovusning notiq va notiqlik haqidagi fikrlari. “Qobusnomा” muallifi Kaykovus o‘z davrining qomusiy bilimlarga ega bo‘lgan mutafakkirlaridan biri bo‘lgan. U tibbiyat, falakiyat, ayniqla, diniy bilimlarni mukammal bilgan inson bo‘lgan. U o‘z davrigacha yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid asarlarni o‘rganib chiqqan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda bo‘lgan Nosir Xisravning “Saodatnomा”, “Ro‘shnoinomа” asarlarini o‘rgangan.

XI asrning 82-83 yillarida G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab ‘Nasihatnomा’sini yaratadi va o‘sha davr an’anasiga ko‘ra, uni bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga “Qobusnomा” deb ataydi “Qobusnomा” asrlar mobaynida Sharq-u G‘arb mutafakkirlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelgan: 1702-1705 yillarda turk tiliga, 1786-1787 yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg‘ur tiliga, 1881-yilda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga hamda XIX asrdayoq ingliz, fransuz, olmon tillariga tarjima qilingan. 1935-yilda Tehron universitetining professori, atoqli adib Said Nafisiy “Qobusnomा”ni Tehronda katta ilmiy sharh bilan nashr ettirdi.

1860-yilda “Qobusnomा” o‘zbek tiliga birinchi marta buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida va Sank-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada saqlanadi.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnomा”da ham notiqlik va notiq odobi haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo‘lib, ular hozir ham ma’lum darajada ahamiyatini yo‘qotmagandir. “Qobusnomা” Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan bo‘lib, 44 bobdan iborat.

Uning 6-7-boblari so‘z odobi haqidadir. Asar muallifning farzandiga qilgan

²⁹ Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – B. 75-76.

nasihatlari sifatida yozilgandir. U farzandini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: *Yaxshi so‘zlashga o‘rgan va muloyim so‘zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki, qanday so‘zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So‘zni o‘z joyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z, agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham, yomon ko‘rinadi”*. “*Kishi sxuxandon va notiq bo‘lishi lozim*”. *Har bir notiq o‘z nutqi ustida ko‘p mashq qilishi, xalq oldida nutq so‘zlaganda yoqimli va bama’ni gapirishi, xalqning e’tiborini qozonishi zarur.* “*Xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘z bilan baland darajaga erishganiningni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi”*.

Notiq so‘zning ma’nolarini har tomonlama o‘rgangan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi Kaykovus. “*Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilg‘il, so‘zlaganiningda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar!*” Notiq xalq tilini, xalqning fikrini, ruhiyatini bilishi kerak. “*Shunday kishini notiq (suxango ‘y) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ham ma’lum bo‘lsin*”. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko‘z oldiga keltirib gapirgan notiq pushaymon bo‘lmaydi. “*O‘ylamasdan so‘zlama, har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmasdan*”.

Kaykovus notiqlarni “bilag‘onlik” qilib tildagi so‘zlarni buzib so‘zlamaslikka, hamma vaqt mavjud til me’yorlariga amal qilishga chaqiradi: “*Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham, hech bir so‘zni buzma, to‘g‘ri ta‘rifla. So‘zni bir xil gapir. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang ko‘p so‘zlama, chunki aqslsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi daho aqlli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqslsiz deydi...*”

So‘zning qadri, undan foydalanish, kam so‘zlab, ko‘p ma’no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XI- XII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiylar ham ibratli fikrlar bildirganlar.

Ulug‘ shoir **Yusuf Xos Xojib** turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash haqida: “*Bilib so‘zlasa, so‘z bilig sanalur*” degan edi. Gapirishdan maqsad so‘zlovchining ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta’sirchan yetkazishidan iborat. Shunday ekan, nutqning to‘g‘riliği, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir yana so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda hovliqmasdan, so‘zning ma’nolarini yaxshi anglab, ravon nutq tuzishga chaqiradi:

*Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,
Goho til maqtaladi, goho so‘qiladi.*

*Modomiki shunday ekan, so 'zni bilib so 'zla,
So 'zing ko 'r uchun ko 'z bo 'lsin, (u) ko 'ra bilsin.*

Mansabdor shaxslardan turli-tuman fan assoslarini o'rganish, ayniqsa, badiiy so'z sirlarini yaxshi o'zlashtirish kabilar talab qilinadi. Masalan, agar elchi she'riyatni yaxshi his etsa, tushunsa, buning ustiga o'zi ham she'rlar yozsa, nur ustiga nur bo'ladi:

Turli kasb-hunarda er bo'lsa tugal,
Har yerda yorug' yuz bo'lur har mahal.
Kitoblar o'qir ham bilur bo'lsa soz,
She'r uqsa, ta'bi ham kelishsa biroz

Qaysi odam o'z so'zlarini so'zlay boshlassa, undan ko'zda tutilgan maqsadni aniq anglay oladigan bo'lsin. Bu bilan donishmand muallif elchidan notiqlik san'atidagi aniqlik, maqsadga muvofiqlik, ta'sirchanlik kabi sifatlarga rioya qilishni talab etmoqda. Agar elchining nutqi aniq va maqsadga muvofiq bo'lmasa, yetkazmoqchi bo'lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to'laligicha va aynan anglashilmaydi. U holda fikr chala yoki yanglish tushunilishi mumkinki, oqibatda ikki muxolif davlat orasida nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

“Qutadg'u bilig” asarining bir necha bobi bevosita odob-axloq qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, unda nutq odobi talablarini tushuntirish alohida o'rin tutadi. Asarda “Til ardami” (“Til odobi”) deyilgan maxsus bob bo'lib, unda tilning ahamiyati, nutq odobiga oid mulohazalar bayon qilinadi. Yusuf Xos Hojib ham o'z asarining qismlaridan birida tilning ahamiyati haqida so'zlaydi. Uning fikricha, til kishini bilimma'rifatga, e'zoz va hurmatga erishtiradi:

*Aql-u idrok, bilim tarjimoni – til,
Ulug'lovchi mardni ravon tilni bil
Til-la kishi bo'lur ulug', baxtiyor,
Til-la beqadr er, g'amga giriftor.³⁰*

Yusuf Xos Hojib fikricha, ko'p so'z so'zlagan qadrsiz bo'lishi, topib so'zlagan kishi esa iqbol topadi:

*Bilib so'zlangan har so'zda iqbol bor,
Bilimsiz so'z-la o'z baxtin qilur xor.*

Tilning aql ifodachisi ekanligi, til bilan dil bir bo'lishi, haqiqatning doimo insonlarga foyda kelitirishini uqtiradi:

*So 'z dilda yaralar, tilda tug'ililar,
Egri so'zdan poklik kuyar, bo'g'ilalar.
To 'g'ri so'zlangan so'z ko'p foydali ish,*

³⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –Toshkent: Akademnashr, 1915. – B.29, 30, 99.

Gar egri so 'zlansa, barchasi so 'kish.

Yusuf Xos Hojib tilning, nutqiy odobning inson hayotidagi rolini shu darajada yuksak baholaydiki, bunga ko'ra kishi tili tufayli podshohlikka erishishi, aksincha, "yashil ko'k"ka, ya'ni qanchalik yuksaklikka erishgan bo'lsa, undan judo bo'lib, yerga qulashi mumkin:

*So 'z foydasi tufayli, ko 'rgin, qora yerdagi,
Yashil ko 'kka yuksaladi, to 'rga chiqadi.
Agar til so 'zni uddalab so 'zlay olmasa,
Yashil ko 'kda bo 'lsa ham, u kishini pastga tushiradi, ko 'r³¹.*

Shunday qilib, donishmand shoir Yusuf Xos Hojib o'z asarida mansabdor shaxslarning notiqlik san'ati sirlaridan, ya'ni tilning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta o'rganish, nutqning ichki va tashqi shakliga birday e'tibor berish, mantiqli, go'zal va ta'sirchan nutq tuza olish, til birliklarini maqsadga muvofiq hamda o'rinli ishlatish vazifalaridan xabardor bo'lishlarini qayd etgan.

Ahmad Yugnakiy (XII) iste'dodli shoir va donishmand murabbiyidir. Undan saqlanib qolgan yagona adabiy so'z san'ati va adabiy meros "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") badiiy so'z san'ati va adabiy tilning juda qimmatli hamda nodir yodgorligidir. Bu asar didaktik doston bo'lib, axloq-odob masalalari undagi ko'pchilik boblarning mavzusini tashkil etadi. Shoир til olobi, saxiylik, baxillik, kamtarlik, ezgulik va boshqalar haqida xuddi Yusuf Xos Hojib kabi zamonasining peshqadam murabbiysi sifatida fikr yuritib, kishilarga o'git beradi.

Rost, sog'lom va mazmunli so'zlashni, kerak bo'lganda, sir saqlay olishni maqtab, laqmalik, yolg'on so'zlash va sergaplikni qoralagan shoir tilni tiyish odobning boshi deydi. So'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zлами ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagan, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

*Uqib so 'zla so 'zni eva so 'zlama,
So 'zing qizla, kedin, boshing qizlama.*

*Kudazgil tilingni, kel oz qil so 'zung,
Kudazilsa bu til kudazlur o 'zung.³²*

(Tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o'zing ham saqlanasan).

Demak, shoir nutqiy odobning asosiy sharti tilni tiyish, o'rinli so'zlash, insonning tili va dili bir bo'lishidir, deb hisoblaydi.

Nosiruddin Rabg'uziy o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida mavqe qozongan

³¹ Yu0f Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –Toshkent: Fan, 1971. – B. 205.

³² Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. -T., 1971, 78-49-b.

adibdir. Uning “Qissasi Rabg‘uziy” asari turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. U payg‘ambarlar haqidagi qissalardan iboratdir. Rabg‘uziy hikoyalarida insonparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillik darajasiga ko‘tarish, axloqiy poklik, ma’naviy barkamollik sari undash g‘oyalari yetakchilik qiladi. Ular orasida til odobi va qalb pokligi ham alohida o‘rin tutadi. Bu jihatdan “Luqmon va uning xojasi” hikoyati ibratlidir:

“Luqmonga xojasi aydi: - “Borg‘il, bir qo‘y bo‘g‘izlab etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil”. Qo‘yni bo‘g‘izladi, tili birla yurakni olib keldi. Xojasi so‘radi: - Bularni naluk (nima uchun) kelturding?

Aydi: - “Qo‘yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo‘q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo‘q”.

Tilga e’tibor berish, har bir aytildigan so‘z mas’uliyatini ta’kidlash hikoyadagi asosiy g‘oyaviy-badiiy niyatdir. Bu yerda donolik, hozirjavoblik ham ulug‘langan.

Alisher Navoiy notiqlik haqida. So‘zning kuch-qudrati, tilning o‘tkir quroq ekanligini Alisher Navoiy asarlari misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Shoirimiz E.Vohidov ta’biri bilan aytganda, “Navoiyni o‘rganishdan asosiy maqsad, faqatgina so‘z boyligini oshirish emas, balki ana shu xazinani tiklash hamdir. Bir zamonlar, davr taqozosi bilan mumtoz adabiyotimizdan yiroqlashdik, alaloqibat, so‘z boyligimiz nihoyatda qashshoqlashdi. Tilimiz nazokat, latofatdan butkul uzoqlashdi. Endi yangi avlod oldida til boyligimizni tiklash vazifasi turibdi”.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Xazoyin-ul maoniy», “Xamsa”, “Muhokamat-ul lug‘atayn”, «Mahbub-ul qulub» kabi shoh asarlari ona tilimizning til birliklaridan foydalana olish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Mazkur masalaga oid qarashlari o‘sha davrda amal qilingan nutq madaniyati va odobining negizidan iborat bo‘lib, shoirning badiiy, lisoniy, tarixiy, diniy asarlari sahifalarida o‘z ifodasini topgan:

1. Alisher Navoiy, avvalo, nutq san’atini egallash noyob hunarlardan biri ekanligini ta’kidlaydi:*Erdin so‘z hunar, enchdin bo‘z hunar.*(Mahbub ul-qulub, 82)

2. «Muhokamat-ul lug‘atayn» asarida so‘zning qudratiga yuksak baho berib, nutq madaniyatini tinimsiz mehnat va mashq evaziga erishiluvchi malaka deb hisoblaydi va so‘zning qadri naqadar balandligini alohida ta’kidlaydi: «...so‘z bir dur bo‘lib, uning daryosi ko‘ngildir, ko‘ngil shunday bir o‘rin bo‘lib, unda mayda va yirik ma’nolar to‘plangandir. Bu shunga o‘xshaydiki, gavhar daryodan g‘avvos vositasida chiqariladi. So‘z duri ham ko‘ngildan so‘zga chechan kishi vositasi bilan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham o‘zining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yoqqa yoyiladi. Nechunki, gavhar qiymat yuzasidan juda ko‘p darajalarga bo‘linadi, hatto bir diramdan yuz tumangacha desa bo‘ladi».

2. Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning nutqi ekanligi: ”Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshiligi so‘z bila”.(Mahbub ul-qulub, 79)

3.So‘zlaganda o‘ylab gapirishni: “So ‘zni ko ‘nglungda pishqarmaguncha tilga kelturma, harnakim ko ‘nglungda bo ‘lsa tilga surma”.(Mahbub ul-qulub,83)

4.So‘z yoqimli va yolg‘ondan xoli bo‘lishi: *Til bori ul debki, demak xo ‘b emas, Ko ‘z ko ‘rubon oniki, matlub emas.* (HA, 126-b).

5.Navoiyning yozishicha, kishi ona tili oldidagi mas’uliyatini sezmas ekan, demak, nutqi oldidagi mas’uliyatni ham his qilmaydi:

Sen o ‘zungni tonimas ermishsen,O‘z so ‘zungni tonimas ermishsen. (Sab’ai Sayyor, 406)

5. Navoiy nutqning izchil, mantiqiy bo‘lishiga katta e’tibor qilgan. Mehinbonu tomonidan Farhod sharafiga uyushtirilgan ziyofatda ishtirot etayotgan o‘nta kanizaklarning nutqini madh etadi:

*Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay’at ruqumida qalamkash.*(FSH, 272-b).

6. Nutq rang-barang, ifodalarga boy bo‘lishi kerak:

Demonkim, so ‘z ayturg ‘a balog ‘atko ‘sh o ‘l,

Nafsingg ‘a saloh istar esang xomo ‘sh o ‘l. (Nazm ul – javohir, 158-b; NAIL, T.I. 208-b).

7. So‘z takrori, ko‘p gapirish kishining obro‘yini tushirishini ta’kidlaydi: *Bir deganni ikki demak xush emas,So ‘z chu takror topti dilkash emas.* (Sab’ai Sayyor, 73-b). *Navoiy, xomadek tortib uzun til,Ne dersen, oxir o ‘z haddingni bilgil.* (Farhod va Shirin, 16-b). *Harza erur chunki musha’bid so ‘zi,O‘z tilini ko ‘rki kesar ham o ‘zi.* (Hayrat ul-abror, 156-b).

Shunday qilib, Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan mulohazalardan ma’lum bo‘ladiki, nutq madaniyati insonlarni bir-biriga bog‘lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go‘zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o‘z o‘rnini topa olishida, boshqalarning hurmat-ehtiromiga erishishida nutq madaniyatining o‘rni beqiyosdir. Go‘zal so‘z inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq va qo‘pol so‘z inson qalbini larzaga soladi. Nutq odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy- me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhabtlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi.

Alisher Navoiy so‘zlovchining nutqi tinglovchiga qiziqrarli bo‘lishini ta’minlaydigan omillardan biri sifatida suhabtdoshning, ya’ni tinglovchining kimligini, saviyasini, ehtiyojini hisobga olishi, deb hisoblaydi:

*Har biriga o ‘zgacha so ‘z muddao,
O ‘zgacha so ‘z demaki, yuz muddao.* (HA, 334-b).

Shunday qilib, shoirning so‘z, uning ma’nolari, unda mujassam bo‘lgan tushunchalar, so‘zning kuchi, muqaddasligi haqidagi fikrlari uning nutq madaniyati yuzasidan bildirgan mulohazalari negizini tashkil qiladi. Alisher Navoiy nutqning mazmundorligi, maqsadga muvofiqligi, qisqa va lo‘ndaligi, tilning lisoniy me’yorlari, nutqda til qonun-qoidalariiga amal qilinishi, aniqligi, ifoda vositalariga boyligi, qo‘pol vositalardan xoli bo‘lishligi, vaziyatbopligi, xushohangligini madaniyatli nutqning lisoniy talablari deb hisoblaydi.

Alisher Navoiyning voizlar haqidagi fikrlari. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida nasihatgo‘y va va’zxonlar to‘g‘risida alohida to‘xtaladi. U voiz qanday kishi bo‘lishi kerakligi haqida shunday fikr yuritadi: “*Voiz Haq so‘zni targ‘ib qilishi, Payg‘ambar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o‘zi Haq va payg‘ambar yo‘liga kirishi, so‘ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim. O‘zi yurmagan yo‘lga elni boshlamoq — musofirni yo‘ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo‘qotmoqdir. O‘zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi — uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da’vat etishiga o‘xshash bir narsadir*”. Demak, voiz Qur’oni karim va hadisi shariflarni targ‘ib etadigan, avvalo, o‘zi shariat va tariqat yo‘liga kirgan notiq bo‘lishi kerak ekan.

Hayotda ba’zan shu darajaga yetmagan kishilarning va’z aytganini eshitib qolasiz, tabiiyki, bunday kishilardagi hayotiy tajribaning yetishmasligi, g‘oyaviy maslagining qat’iy emasligi tinglovchilarni ham maqsad yo‘lidan ozdiradi.

Navoiy nazdida: “*Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga kirgan odam to‘lib chiqsin; to‘la kirgan odam esa yengil tortib, xoli ketsin. Voiz olim va halol ish ko‘rvuchi bo‘lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o‘zi qilmasa, uning so‘zlari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi. O‘z yordamchilari orqali nasihat qiluvchi voiz — o‘zi qolib, shogirdini kuylatuvchi qo‘shiqchidir*”.

O‘tmishda ko‘plab voizlar bo‘lishgan. Masalan, Alisher Navoiy zamonasida yashagan Husayn Voiz Koshify Sharqning mashhur allomalaridan biri bo‘lgan. U axloq, tarix, tasavvuf, ilmi nujum (astronomiya), riyoziyot, fiqx sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratgan. Uning “Futuvvatnomai sultoniy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai xotamiya”, “Anvori Suhayliy”, “Lubbi lubobi” kabi o‘nlab asarlari besh yuz yildan beri sharqona odob va axloq dasturi sifatida yurtma- yurt, qo‘lma-qo‘l o‘qib kelinmoqda. Husayn Voiz Koshify Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do‘sti bo‘lgan. U “Tafsiri Husayniy” va “Javohir ut-tafsir at-tuhfat ul -Amir” nomli tafsir asarlarini Alisher Navoiyga bag‘ishlab yozgan.

Alisher Navoiy “Majolis ul-nafois” asarida bu ulug‘ voiz haqida shunday ma’lumot beradi: “*Mavlono Husayn Voiz “Koshify” taxallus qilur. Sabzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadur va Mavlono Zufunun rangin va purkor voqe bo‘lubtur. Oz fan bo‘lg‘aykim, daxli bo‘lmag‘ay*”.

Alisher Navoiyning boshqa bir voiz haqidagi ma'lumotiga e'tibor beraylik: “*Mavlono Muin Voiz — Mavlono xoji Muhammad Faroxiyning o'g'lidurkim, mashoxirdindur. Xolo o'zida azim voizdur va muridlari ko'p. Minbar ustida devonavor ilik tashlamog'i va taxtani tepmagi ko'pdir va o'zin “Muin devona bila ta'bir qilur va ko'p baland-u past so'zlar aytur”.*

Alisher Navoiyning bunday voizlarga tanqidiy munosabati uning ko'p asarlarida hajviy ifodasini topgan. Afsuski, shunday voizlar ham bo'lgan va bor. Darvoqe, voizning o'zi axloq-odob o'rgatuvchi murabbiy bo'lmog'i lozim-ku. Shu bois, mumtoz merosimizda, avvalo, voizning o'z odobi haqida ko'proq fikr yuritiladi.

Abu Xomid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliyning “Oxiratnama” asarida ham voizlarga dasturul-amal tariqasida pand-nasihatlar aytildi. G'azzoliy voizlik tili, va'zning uslubiga alohida e'tibor qaratadi: “*Mabodo, va'z o'qitishdan boshqa ilojing qolmasa, ikki narsada ehtiyot bo'l: birlamchi — so'zlarining ortiqcha ibora-yu ishoratlar, asli puch hikoyatlar-u ma'nisiz baytlar ila yasangan, ya'niki, sertakalluf bo'lmisin! Chunki, Olloh taolo takalluf qiluvchilarga g'azab qiladi, ularni do'st tutmaydi. Haddan tashqari sertakalluflik voizning botinan xarob, qalban g'aflatda ekanidan dalolat qiladi*”. Darhaqiqat, notiqning nutqi asosiy maqsadga qaratilmagan har qanday ortiqcha so'z va iboralardan xoli bo'lishi kerak. Aksariyat notiqlar nutqlarini sertakalluf, jimjimador so'z-iboralar bilan bezashga harakat qiladilar. Ular nutqlarining chiroyli bo'lishini istaydilar va uning tashqi chiroyiga zo'r beradilar. Aslida esa nutqqa zeb beradigan narsa fikrdir. Va'zni eshitimli qiluvchi omillardan biri hayotiy hikoyatlar va bayt-u g'azallar bilan omuxta gapirishdir. Ammo ko'p notiqlar bu borada ham me'yordan chiqib ketadilar. So'zlash davomida o'z hayotiy sarguzashtlari tafsilotlariga haddan tashqari beriladilar. Voiz va'z aytishda xudnamolikdan, xalqqa o'zini ko'z-ko'z qilishdan, shuhratparastlikdan ehtiyot bo'lmog'i lozim.

Voizlik san'ati faqat o'tmishdagina emas, balki bugungi kunda ham zarur. Mustaqil O'zbekiston fuqarolarida yangicha dunyoqarashning shakllanishida voizlik san'atining o'ziga xos o'rni bor. Hazrat Navoiy ham “Majolisun-nafois” asarida qator voizlar haqida ma'lumot bergenligi Sharq voizlarining jamiyat hayotidagi rolining katta bo'lganligini ko'rsatadi.

Xoja Muayyad Mehnagiy o'z zamonasining etuk notiqlaridan biri bo'lib, o'z zamonasida oddiy mozor shayxlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning yozishicha, u “zohir ulumin takmil qilib erdi”, ya'ni yuzadagi ilmlar, o'ziga ayon bo'lgan fanlarning hammasini o'zlashtirgangina emas, balki uni to'ldirgan va rivojlantirgan ham edi. Uning va'zları jo'shqin o'tgan, o'z tinglovchilarida nutqiga nisbatan xayrixohlik qo'zg'ata olgan. Shuning bilan birga u o'z tinglovchilari qalbiga qo'l sola olgan, ularni faqatgina tinglovchilikdan, har birini faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga nisbatan faol munosabatda bo'luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. O'z majlislarining qizg'in o'tishiga erisha olgan.

O'sha davrlarda Xoja Muayyad Mehnagiy kabi otashnafas notiqlar soni juda kam bo'lgan. Shuning uchun ham ularning nomi ulkan adiblar nomi qatorida tarix sahifasidan sharaflı o'rın olgan. Uning ijodiy mahorati boshqa notiqlar uchun namuna bo'la oladi. Chunki u o'sha davrdagi mavjud fanlarning barchasini to'la o'zlashtirgan va ularni takomillashtirgan donishmand olimdir.

Xoja Muayyad Mehnagiy kabi mahorat va bilimga ega bo'lgan har bir notiq o'z tinglovchilari qalbini larzaga keltirishi, ularni hayajonga sola olishi turgan gap. Ana shunday qudrat zakovati tufayligina sultonlar, podshohlar ham uning mahorati, iste'dodini tan olib, e'zozlaganlar.

Mavlono Riyoziy Zova deb atalgan viloyatda o'sdi, ulg'aydi. O'zining aql-zakovati bila shu viloyatning qozilik lavozimigacha ko'tarildi. Biroq Alisher Navoiy "Majolisun nafois" asarida yozishicha, u ayrim o'rinsiz xatti-harakatlari uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilgan, kishanga solib badarg'a qilingan. Natijada bir umr ta'qib ostida yuradi, g'ariblikda kun kechiradi.

Mavlono Riyoziyning notiqlik darajasiga erishuvida mamlakat hukmronlari mafkurasi bilan uning insonparvarlik qarashlari o'rtasidagi kelishmovchilik, turli ziddiyatlar asosiy omillardan biri bo'lgan. Riyoziy notiqligining tabiiy tomonlaridan biri hamdardlik tuyg'ularini birinchi o'ringa qo'ya bilishdir. Alisher Navoiy: "... va 'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab vajdi xol qilur erdi", — deydi. Shoirning bu so'zlari ancha diqqat-e'tiborga loyiq, chunki el oldida rasmiy nutq bilan chiqib, yig'lash darajasiga borib etish va bu ko'z yoshiga nisbatan tinglovchilarda kulgi emas, balki hamdardlik kayfiyatini uyg'ota olish uchun katta san'atkori mahorati kerak. Mavlono Riyoziy nutq paytida ko'z yoshi darajasiga yetib borar ekan, qalbidagini yig'ib bayon etar va kishilarni shunga ishontira olar ekan, demak, shubhasiz, u juda iste'dodli notiq, chinakam so'z san'atkori bo'lgan.

Mavlono Riyoziy ajoyib so'z san'atkori bo'lishi bilan bir qatorda, o'z davrining ko'zga ko'ringan pedagoglaridan ham biri bo'lgan. U dunyoviy fanlar: tabiatshunoslik, geografiya, tarix, adabiyot nazariyasi va tabiiy fanlarni chuqur o'rganib, yoshlar o'rtasida targ'ib qilgan. Mavlono Riyoziy o'z nutqlarida boshqa notiqlar qatori xalq og'zaki ijodidan va ayniqsa, badiiy adabiyotdan juda ustalik bilan foydalangan. U o'z zamonasining zabardast notig'i, olimi, pedagog va shoirlaridan bo'lgan.

Husayn Voiz Koshifiyning voizlik san'atiga qo'shgan hissasi. Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Shayx Sa'diy Sherazi kabi Sharqning buyuk allomalari ijodida nutq odobi qoidalari qiyomiga yetkazib bayon etilgan. Insonshunoslikning oliy natjalari tarzida ushbu umumlashmalarni bugungi inson odobaxloqiga ham aynan tatbiq etish mumkin.

Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoniy" asarida nutq odobi to'g'risida mufassal tafakkur yuritadiki, buning mahsuli nutq odobi nizomnomasiday shakllangan. Mutafakkirlarimizning nazdida til nutq odobining birdan-bir vositasidir. Uni nihoyatda

ehtiyyotkorlik bilan ishlatishgina notiqni maqsadiga muyassar etishi mumkin.

Hayotda, insonlararo muomalada tilning faoliyatiga ehtiyoj va zarurat juda katta. Quyidagi holatlarda tilni suhbatga ochish lozim hisoblanadi.

Zarurat taqozosi bilan ko‘ngildagi yashirin sirlarni oshkor etish, mazlumlarning faryodiga, nidosiga, iltijosiga javob berish, mazlumlarga madad berish maqsadida so‘z aytish. Zotan, bu holatlarda ko‘ngil yengil tortadi, aytilgan so‘zlar mazlumlarni zolimlar zulmidan ozod etishi mumkin.

Tildan foydalanish bilan birga, kezi kelganda tilni tiya bilish ham katta ahamiyatga ega. Tilni asrash o‘zni asrash, tinchlikni saqlash, insonlararo muomala, munosabat muvozanatini me’yorlashtirishga sabab bo‘ladi. Husayn Voiz Koshify tilni saqlash lozim bo‘lgan holatlarni quyidagicha ko‘rsatadi:³³

1. Yolg‘on gapishtidan, zero, yolg‘onchi xudoning dushmanidir.
2. Va’daga xilof gapishtish va munofiqona so‘z aytishdan.
3. G‘iybat va bo‘hton gaplardan (chunki bo‘hton fosiqlar ishidir).
4. Behuda bahs-u munozaradan, ayb qidirishdan va gap tashishdan (bular shayton vasvasasiga kiradi).
5. O‘zini maqtash va ta’riflashdan (bu xudbinlikka olib keladi).
6. Navkar va xizmatkorlarni la’natlashdan.
7. Qarg‘ashdan, duoyibad qilishdan (chunki bu jon-u dilning ofatidir).
8. Mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan.

Odamzodning ichki ma’naviy olami, sharafi, obro‘-e’tibori uning nutqida namoyon bo‘ladi. So‘z muqaddas narsa, shunday ekan, u faqat ezgulik uchun xizmat qilishi kerak. So‘z to‘g‘ri, o‘rnida, vaqtida aytilgan va haqiqatni ilgari suradigan bo‘lishi lozim. Odam haqiqatni hatto juda tang ahvolda qolganida ham aytolmas, haqqoniy gapirolmas ekan, loaqlal yolg‘onni gapirmasin, jim tursin. Yolg‘on gapirmslikning o‘zi yarim rostgo‘ylikdir.

Afsuski, zamon ahli zarurat bo‘lmagan chog‘ida ham yolg‘onni ko‘p gapisadi. Bu esa jamiyatni ma’naviy bo‘hronga itaruvchi ofatdir.

Husayn voiz Koshify tariqat ahlini ikki toifaga bo‘ladi:

- a) martabaga erishganlar;
- b) martabaga erishmaganlar.

So‘ng ularning har ikkisi uchun alohida-alohida suhbat odobi qoidalarini tasnif etadi: “Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak, deb so‘rasalar, aytgil, quyidagi oltita qoidani saqlashlari kerak:

1. Har kimning ahvoliga qarab munosib so‘z aytsin.
2. Dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.

³³ Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. -T., 1994, 51-bet.

3. Gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.
4. Ovozini baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin.
5. Odamlarga nafi tegadigan ma’noli gaplarni gapirsin.
6. Agar so‘zning qimmati — qadri bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisoli urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qayerga ekmang, unib chiqmaydi.

Agar martabaga erishmaganlarning suhbat odobi nechta, deb so‘rasalar, bu ham sakkizta deb aytgil.

1. So‘ramagunlaricha gapirmasin.
2. Gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasin.
3. Gapirayotganda o‘ng-u so‘lga qaramasin.
4. G‘arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin.
5. Betgachoparlik qilmasin.
6. Pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin.
7. Odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin.

8. Ko‘p gapirmasin. Chunki ko‘p gapiresh aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham soz gapirishni shior etsin”.

So‘zlash ham, tinglash ham juda katta mas’uliyat va madaniyat talab qiladigan insoniy fazilatdir. Agar inson yaxshi so‘zlasa-yu, tinglashni bilmasa yoxud tinglasa-yu, so‘zlayolmasa, bu ham ma’naviy noqislik alomatidir. Chunki o‘z so‘zini so‘zlasa-da, suhbatdoshining so‘zini diqqat bilan tinglamasa, o‘zining xudbinligi va do‘stining dardlariga befarqligi bilan suhbatdoshini ranjitib qo‘yishi mumkin. Tinglasa, o‘ylasada, astoydil gapirmasa, ichki mushohadakorligi va tafakkur qobiliyatini yuzaga chiqara olmaydi. Nutq va tafakkurida mutanosiblik yuzaga kelmaydi. Shuning uchun so‘zni sidqi sadoqat, samimiyat bilan so‘zlagan ma’qul. Suhbatdosh esa so‘zni qabul qulog‘i bilan, diqqat-e’tibori bilan, xayrixohlik va hamdardlik bilan tinglagani ma’qul. “Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi, deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo‘lmaydi. Agar nuqsonli so‘z qaysidir, deb so‘rasalar, Xudo va Rasulning so‘ziga muvofiq kelmaydigan so‘z, deb javob bergil,” — deydi Husayn Voiz Koshifiy. Darhaqiqat, aytilgan so‘z odam uchun farzandi jigarbandiday bir narsadir. Ota-onan farzandidan tonolmagani kabi, inson o‘z so‘zidan ham tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan tonolmagani kabi, so‘z ham suxandonning o‘ziniki. Shu bois aytilgan so‘zga mas’ullik ota-onaning farzandga, farzandning ota-onaga mas’ulligi darajasida bo‘lmog‘i lozim. Elga foyda keltiradigan farzand qobil, birovga zarari tegadigan farzand esa noqobil sanaladi. So‘z ham shunday. Birovga nafi tegadigan so‘z yaxshi sanaladi va o‘z egasiga sharaf keltiradi. Birovga zarar yetkazadigan so‘z yomon hisoblanadi va so‘zlovchini badnom etadi.

Muin Voiz. Hirot viloyatining eng zabardast voizlaridan yana biri mavlono Muin Voizdir. Muin Voiz haqidagi ma'lumotlar A.Navoiy asarlarida uchraydi. Navoiyning bu voizga katta e'tibor bergenligi shundan ham ma'lumki, uning tazkirasida Muinning nutq madaniyatiga taalluqli ko'pgina qimmatli dalillar bor. Ulardan ayon bo'lishicha, Muin g'oyat jo'shqin, ehtirosli nutq so'zlash mahoratiga ega bo'lgan. U va'z qilayotganda, shu qadar berilib ketar ekanki, devonalik darajasiga yetib borar hamda "baland va past so'zlardan aytur" ekan.

Muin Voizning nutq paytidagi qo'l harakatlari, chehrasidagi imo-ishoralari, tanasining holati ham va bu voiz nutq madaniyatining yordamchi, qo'shimcha vositalaridan o'z o'rnida mohirona foydalanganidan dalolat beradi. Demak, u tinglovchilarni kuchli harorat va mo'l-ko'l iqtidor bilan qanoatlantirgan ekan.

Muinning dilrabo va'zlarini tinglovchi shinavandalar sabrsizlik bilan kutganliklari sababli, uning, ayniqsa, juma namozida, ramazon va qurban hayatlari kunlarida o'qiladigan bomdod namozlari oldidan aytadigan va'zları hammani lol qoldirgan, nodir hodisa hisoblangan.

Tarixnavis Xondamirning ta'kidlashicha, voiz Muin o'z va'zlarida hech kimni yuzxotir qilmagan, murosasiz bo'lgan. Hatto davlat arboblarini ham ayovsiz tanqid qilgan. Garchi bu arboblarning o'zları ishtirok etayotganini ko'rsa-da, ularni haqli, adolatli tanqid qilavergani uchun, quyi, o'rta, yuqori martabali hokimlar voizga qarshi chiqishga ojiz bo'lib qolganlar. Muin Voizga Xondamir bergen yuqori baholarga qaraganda, bu voiz zo'r suxandon bo'lish bilan birga, keng va chuqur bilim sohibi ham bo'lgan. Uning chuqur bilimli voiz bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham bor. Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lam" degan lug'atida keltirgan dalillar bu voizning donishmand olimligidan dalolat beradi. Bu qomusda aytishicha, Muin Voiz beshta asarning muallifidir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Muin Voiz o'zining hayratomuz san'atiga fidoyi suxandonlardan bo'lib, jozibador notiqlik zakovati, ohanrabo so'z san'ati, yana ko'p qirrali pedagogik faoliyati, shiddatkor, murosasiz jo'shqinligi uning mohir voiz bo'lganligidan yorqin dalolat beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari badiiy nutqning go'zal namunasidir. Bobur o'zi hammabop yozishi bilan birga, boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o'z o'g'li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuboriladigan maktubni muallifning o'zi bir necha bor o'qib ko'rishi lozimligi, uning ravonligiga, so'zlarning ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilinishi, shundan so'nggina uni jo'natish mumkinligini ta'kidlaydi. So'zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo'lgan fikrni xiralashtiradi, o'quvchini qiynaydi: *Yana men degandek, bu xatlarining bitibsen va o'qimaysen ne uchunkim, agar u ko'p xayol qilsang edi, o'qiyolmas eding. O'qiyolmagandan so'ng albatta tag'yir bo'lur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qusa*

bo ‘ladur, vale asru mug ‘laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko ‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatoingni xud har tavr qilib o ‘qusa bo ‘ladur, vale bu mutloq alfozingdin maqsud tamon mafxum bo ‘lmaydur. G’olibo xat biturda koxilliging ham ushbu jihattindur. Takalluf qilmay deysan, ul jihatdin mug ‘lak bo ‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitgin; ham senga tashvish ozroq bo ‘lur va ham o ‘qiguvchiga”³⁴.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o‘rganish, go‘zal va ta’sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o‘rinli ishlatish vazifalarini qo‘yadilar.

1-mashq. Quyida Kaykovusning “Qobusnama” asaridan keltirilgan matnni o‘z fikrlaringiz bilan davom ettiring va mazmunini izohlab bering.

Ey farzand, demak, yolg‘on va behuda so‘z aytmak devonalikning bir qismidur. Har kishiga so‘z aytur bo‘lsang, qarag‘il, ul sening so‘zingga xaridormu yoki xaridor emasmu?...

2-mashq. Allomalarimizning fikrini diqqat bilan o‘qing va o‘z qarashlaringizni ham yozma, ham og‘zaki bayon eting.

ABU SHUKUR BALXIY:

“So‘z kuchidan yiqlur minbar ham, dor ham,
So‘z birla chiqar indan ilon-murdor ham”.

ABULQOSIM FIRDAVSIY:

“Kimki qisqa so‘zda dedi ko‘p ma’no
Ravonlik bobida ul kishi a’lo”.
“Kimda behuda so‘z gar bo‘lsa bisyor,
Ul nutq majlisida doim bo‘lur xor”.

NOSIR XISRAV:

“So‘z ichra mudom aql yashirindur,
So‘z chimildig‘-u aql kelindur”.
“Ey birodar, bo‘lsa es-hushdan nishon,
Bo‘l muloyim, boadab, shirin zabon”.

SA’DIY SHEROZIY:

“Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator,
Donolardek bir so‘z degil, lek ma’nodor”.

ABDURAHMON JOMIY:

“So‘z joy-u vaqtiga bo‘lar ekan mos,

³⁴ Bobur. Boburnoma. –T.:Olduz, 1960, 421-b.

Sehr-u afsun uchun u bo‘lur asos”.

XUSRAV DEHLAVIY:

“Qisqa so‘zlik, qara, ne yaxshi holdir,
Sergaplik bo‘lsa-chi, dilga maloldir”.

SA’DIY SHEROZIY:

“Ey oqil, so‘zning ham bosh-oyog‘i bor,
O‘zga so‘zga so‘zing qistirma, zinhor,
Aql-u hush egasi, tadbirli inson
So‘z boshlar suhbatdosh jim, bo‘lgan zamon”.

3- mashq. Ahmad Yugnakiyning quyidagi to‘rtliklarini izohlab bering.

Ahmad Yugnakiy quyidagi she’riy parchada so ‘zni nimaga o ‘xshatgan?
Ko‘ni so‘z asalteg, bu yalg‘an-basal,
Basal yeb achitma ag‘iz, e asal.
Bu yalg‘an so‘z igteg, ko‘ni so‘z-shifa,
Bu bir so‘z o‘zag‘i urulmish masal.

“Qutadg‘u bilig” dan olingen quyidagi parchalarni izohlab bering.

Til arslon turur. Ko‘r, eshikda yatur,
Aya evlug, arsiq boshingni yeyur.

4-mashq. A.Navoiyning so‘z haqidagi quyidagi misralarini tushuntirib bering.

Jon bo‘lib ul, ruh aning qolib,
Kim tanida ruh, aning tolibi.

Til bu chamanning varag‘i lolasi,
So‘z durardin bo‘lubon jolasi...

So‘zdin o‘likning tanida ruhi pok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.

So‘z aro yolg‘on kibi yo‘q napisand,
Aylar oni nazdida dono risand.

5-mashq. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing va savollarga javob bering.

Yomon fe’l-jahannamga olib boradi

Ashobi Kirom sevimli Payg‘ambarimiz (SAV) dan so‘radilar:

-Yo, Rasululloh! Bizning mahallada bir xotin bor. Kunduzlari ro‘za tutadi, kechalari uyg‘oq, ibodat qiladi. Faqat qo‘shnilari bilan yaxshi muomalada emas. Ularga xunuk gaplar gapiradi. Bu ayol haqida nima deysiz? -dedilar.

Rasuli Akram (SAV):

-Ul xotinda hech ezgulik yo‘q. U jahannamga borg‘uvchidir, -dedilar.

Ey, jannat yo‘lchisi! Rasululloh(SAV) bir hadisi shariflarida “Haqiqiy musulmon ul kimsadirki, uning qo‘lidan, tilidan hech kim jabr ko‘rmaydi” - deb marhamat qiladilar.

Sevikli Payg‘ambarimiz (SAV)dan:

-Eng qimmatli, qadrli musulmon kimdir? -deb so‘raganlarida, Rasululloh (SAV) yuqoridagi hadisni keltirib:

-Birovga jabr qilmagan odamdir, -dedilar.

“Namoz o‘qigan, ro‘za tutgan odam”, demadilar.

Payg‘ambarimiz (SAV) go‘zal axloq o‘rgatish uchun, yaxshi fe’llarni bildirmoq uchun kelganlar. Go‘zal axloq, yaxshi fe’l-atvor islomning asosidir. Faqat namoz, ro‘za bilan ish bitmaydi. Namozsiz, ro‘zasiz ham yaxshi axloq bo‘lmaydi. Har ikkalasi bирgalikda jannatga yo‘l boshlaydi. Bu haqiqatlarni to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri qo‘llashda hamma musulmonlar uchun ko‘p foydalar bordir.

Savollar:

1.Qo‘shnilar bilan qanday muomalada bo‘lish kerak?

2.Nima uchun Rasululloh(SAV) bir hadisi shariflarida “Haqiqiy musulmon ul kimsadirki, uning qo‘lidan, tilidan hech kim jabr ko‘rmaydi” - deb marhamat qiladilar?

3. “Eng qimmatli, qadrli musulmon kimdir?” -deb so‘raganlarida, Rasululloh (SAV) nima deb javob berdilar?

4.Fe’li yomon deganda nimani tushunasiz?

1-topshiriq. Quyidagi berilgan muammoli vaziyatni o‘qing, to‘g‘ri variantni tanlang va fikringizni bildiring.

1-vaziyat: Alisher Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

1.Voiz kerakki “Qolalloh” so‘z aytса.

2.Va’z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur.

3.Voizkim, bo‘lg‘ay olim va muttaqiyaning nasihatidin chiqqan shaqiy.

4.Ulki buyurib o‘zi qilmag‘ay, hech kimga foyda va asar aning so‘zi qilmag‘ay.

5.O‘zi kirgondin so‘ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagon yo‘lga elni boshqarmoq-musofirmi yo‘ldin chiqarmoqdur va biyobong‘a keturmak va bodiyada iturmakdur.

6.Voiz uldurki, majlisig‘a xoli kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan xoli bo‘lg‘ay.

Muammo:Voiz (notiq) qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim? Bugungi kun notiqlariga ham shu xususiyatlar tegishlimi?

2-vaziyat:Ey farzand, bilgilki, xaloyiq uch turli bo‘ladi, nutq esa to‘rt xil bo‘ladi:

Xaloyiqning biri shuki, biladi, bilganini ham biladi..., biri shuki, biladi, bilganini bilmaydi; biri shundayki, bilmaydi, bilganini ham bilmaydi.

So‘z to‘rt nav bo‘ladi: birinchisi bilishga va aytishga zarur bo‘lgan so‘zlar, ikkinchisi, bilishga va aytishga hojati yo‘q so‘zlar, uchinchisi, bilishga zarurati yo‘q, ammo aytsa bo‘ladigan so‘zlar, to‘rtinchisi bilsa bo‘ladigan, ammo aytishga hojati yo‘q so‘zlar.

Bu to‘rt xil so‘zning ikki tomoni bordir: biri go‘zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. So‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil. Hamma vaqt to‘g‘ri gapir, bilmagan ilmdan gapirmagin. Ko‘ngillarga sevimli bo‘lishni istasang, xaloyiqning maqsadini ko‘zla, yolg‘onga o‘xshagan rostni so‘zlamagil.

Muammo: “Qobusnoma” asarining muallifi so‘z (nutq) va odamlar haqida nima degan?

2-topshiriq. Quyidagi aforizmlarni yod oling va so‘z xususida esse yozing.

1.Aqli so‘z dur-javohirlaru toj-taxtdan ham qimmatliroqdir. (Firdavsiy)

2.Hakimning uch quroli bor: so‘z, giyoh va tig‘. (Abu Ali Ibn Sino)

3.So‘z-libos. Ma’no shu libos ostiga yashiringan sir.(Jaloliddin Rumiy)

4.Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,

Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin. (A.Navoiy)

5.Ko‘p ortiqcha so‘zlashuv eshituvchini ranjitar. (Zamaxshariy)

6.So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin. (Yusuf Xos Hojib)

7.O‘qub so‘zla so‘zni eva so‘zlama,

So‘zung qizla kedin, boshing qizlama. (Ahmad Yugnakiy)

8.Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator,

Donolardek bir so‘z degil, lek ma’nodor. (Sa’diy Sheraziy)

9.So‘z joy-u vaqtiga bo‘lar ekan mos,

Sehr-u afsun uchun u bo‘lar asos. (Abdurahmon Jomiy)

10.Ko‘p bil-u,oz so‘zla; kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi.(Kaykovus)

3-topshiriq. Markaziy Osiyo notiqlarining nutq odobi, so‘zlash qoidalari, muomala madaniyati haqidagi fikrlarini qo‘sghan holda “Ilm boylikdan ustundir”, “Inson tavozeли bo‘lmog‘i kerak”, “Boshqani ko‘rib, o‘z holingga shukr qil”, “O‘zing suymaganni boshqaga ravo ko‘rma” mavzularidan birini tanlab matn tuzing va so‘zlab bering.

Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan “Rezyume” texnologiyasidan foydalanib G‘arb va SHarq notiqlik tarixini o‘rganishning afzalligi va kamchiliklari xususidagi fikrlaringizni yozing va xulosalang. Yozgan fikrlaringizni og‘zaki so‘zlab bering.

N	G‘arb notiqligi tarixini o‘rganishning		Sharq notiqlik tarixini o‘rganishning		Notiqlik san’atini o‘rganishning	
	afzalligi	kamchili gi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchili gi

Xulosa:

Mavzu bo‘yicha test savollari:

1.Qaysi olim go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika, mantiq fanlarining ahamiyati katta deb aytadi?

- A. Beruniy
- B. Forobiy
- S. Abu Ali ibn Sino
- D. M.Koshg‘ariy

2.Qaysi olim nutqning ikki xil-nasr, nazm ko‘rinishi borligini ta’kidlaydi?

- A. Beruniy
- B. Forobiy
- S. M.Koshg‘ariy
- D. Yusuf Xos Hojib

3.”Mafotih ul-ulum” (Ilmlar kaliti) nomli asar kimga tegishli?

- A. Koshg‘ariy
- B. Beruniy
- S. Forobiy
- D. Al-Xorazmiy

4.Qaysi muallif “hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, rajaz va nasr deb atagan adabiy parchalar haqida gapirib o‘tgan?

- A. M.Koshg‘ariy
- B. Yusuf Xos Hojib
- S. Kaykovus
- D. A.Yugnakiy

5.M.Koshg‘ariyning “Uma kelsa, qut kelar” maqolining mazmuni to‘g‘ri berilgan qatorni toping.

- A. Mehmon kelsa, baraka kelar
- B. Kuz kelsa, hosil kelar
- S. Mehnat qilsang, rizqing kelar
- D. Tinchlik bo‘lsa, baxt kelar

6.Kaykovusning “Qobusnomा” asari necha bobdan iborat va nechanchi bobida suxandonlik haqida gapirilgan?

- A. 43 bobdan, 3-bobida
- B. 44 bobdan, 5-bobida
- S. 46 bobdan, 7-bobida
- D. 44 bobdan, 7-bobida

7.A. Yugnakiy ijodida ishlatilgan “Ko‘ni so‘z” ma’nosini toping.

- A. To‘g‘ri so‘z
- B. Achchiq so‘z
- S. Yolg‘on so‘z
- D. Foydali so‘z

8.”Qutadg‘u bilig”ning nechanchi bobida til odobi haqida gapirilgan?

- A. 5-bobida
- B. 3-bobida
- S. 10-bobida
- D. 7-bobida

9. Qadimgi Sharqda voizlik necha shaklda bo‘lgan va nomlarini ko‘rsating.

- A. 3ta:dabirlik, xatiblik, muzakkirlik

- B. 2ta:suxandonlik, xattotlik
- S. 4ta:badihago‘ylik, voizlik, maddohlik
- D. 3ta:qissago‘ylik, voizlik, xatiblik.

10.”Dah majlis”, “Mahzan ul-insho” asarlari kimga tegishli?

- A. Voiz Kazviniy
- B. Voiz Samarqandiy
- V. Qozi O‘shiy
- G. Voiz Koshifiy

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1. Sharq notiqlik san’ati tarixi haqida nimalarni bilasiz?
- 2. Beruniyning grammatikaga oid fikrlarida qanday ilmiy g‘oyalar ilgari surilgan?
- 3. Notiqlik haqida Abu Ali Ibn Sinoning maslahatlarini aytib bering.
- 4. Abu Nasr Forobiy mazmundor va go‘zal nutq tuzishda qaysi fanlarni bilish kerakligini aytadi?
- 5. Kaykovusning notiqlikka qo‘shgan hissasi haqidagi fikrlaringiz?
- 6. Yusuf Xos Hojib beklarni ham, tilni ham arslonga o‘xshatadi? Nima uchun?
- 7. Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarining nechanchi bobida til, nutq odobi haqida fikr yuritgan?
- 8. Alisher Navoiyning notiqlar va so‘z qudrati haqidagi fikrlaridan keltira olasizmi?
- 9. Z.M.Bobur xatida qanday ilm haqida fikr yuritgan?
- 10. Husayin Voiz Koshifiyning voizlik haqidagi fikrlarini bilasizmi?

Glossariy

Va’z- da’vat, xitob.

Voiz – islomda odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so‘zlovchi shaxs.

Maddoh – biror shaxs yoki narsa, voqea-hodisani madh etuvchi.

Suxandon – so‘zga chechan, turli mavzularda nutq so‘zlaydigan madaniyatli va ma’rifatli shaxs.

Badihago‘y – so‘zga chechan kishilarning she’riy yo‘sinda birdaniga so‘z, she’r yoki qo‘shiq aytishi.

Xutba – juma va hayit namozlarida hamda katta diniy marosimlarda diniy arbobning rasmiy nutqidir.

Qissago‘y – afsona, ertak va dostonlarni ravon va ifodali o‘qiydigan kishi.

Mutafakkir – chuqur falsafiy fikrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi.

Axloq – muomala, xatti-harakat odobi.

Ma’naviyat – insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k. tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma’rifat –ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat.

E’tiqod – ishonch, ishonish; ko‘ngilda tasdiqlash; imon, maslak.

Xulq - fe’l-atvor, tabiat, kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmui.

Sarf - morfologiya

Nahv –sintaksis

Didaktik adabiyot – ibratli, ta’lim beruvchi adabiyot, o‘git-nasihat beruvchi adabiyot.

Mantiq –to‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur. Boburnoma. –T.:Yulduz, 1960.
2. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u biling. –Toshkent: Fan, 1971; 2015.
4. Ahmad Yugnakiy. Hibat-ul-haqoyiq. -T., 1971.
- 5.Qayumov A. Qadimiyat obidalari. –T.:Adabiyot va san’at, 1972.
- 6.Beruniy. Hikmatlar. –T.:Yosh gvardiya, 1973.
7. Abu Nasr Forobi. She’r san’ati. –T:Adabiyot va san’at, 1979.
8. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘at-it turk. –T.:...
9. Beruniy. Tanlangan asarlar. -J.III. –T., 1982.
10. Inomxo‘jaev S. Notiqlik san’ati asoslari.-Toshkent:O‘qituvchi, 1982.
11. Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. –T.:Sharq, 2001.
11. Tohir Malik. Ko‘ngil nimadan qorayadi. - Toshkent, 2014, 43-bet.

NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Tayanch so‘zlar: Madaniy nutq talablari, lisoniy omillar, nutqning to‘g‘riliqi, nutqning talaffuz madaniyati, lug‘aviy madaniyat, nutqning aniqligi, nutqning ixchamligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning tozaligi, nutqning ta’sirchanligi, nutqning jozibadorligi.

Madaniy nutq malakasini hosil qilish, nutq madaniyatiga erishish, hech shubhasiz, adabiy til me’yorlariga amal qilish bilan bog‘liqdir. Adabiy til me’yorlari talabiga rioya qilish notiq nutqini umumtushunarli qiladi, unga adabiylik, to‘g‘rilik xususiyatlarini baxsh etadi. Shu bilan birga, har qanday nutq alohida shaxslarning o‘ziga xos faoliyati

va ijodidir hamda u ko‘p holda betakrorligi bilan ajralib turadi. Nutqning individual faoliyat ekani har bir shaxs bilganicha gapiraveradi degan gap emas. Har qanday nutq ma’lum va aniq tinglovchiga, shaxsga, jamoaga qaratilgan bo‘ladi. Demak, nutq ana shu shaxs yoki jamoaga tushunarli bo‘lishi lozim. Mana shu ma’noda nutq oldiga ma’lum umumiylablar qo‘yiladi, bu talablar, bir tomonidan, lisoniy omillarga, ikkinchi tomonidan, nolisoniy omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu talablarning asosiyлари: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik (ta’sirchanlik), boylik, soflik, jo‘yalilikdir.

Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat bo‘lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta’sirchanligini yuzaga keltiradi.

Nutqning to‘g‘riliги. Nutqiy madaniyatning muhim belgilardan biri fikrni to‘g‘ri, mazmunli bayon qilishdir. Adabiy tilning fonetik-orfoepik, leksik-semantik va grammatik me’yorlari talablariga mos keladigan nutq to‘g‘ri nutqdir. Nutqning talaffuz madaniyati til materiallarini to‘g‘ri, ifodali talaffuz qilish bilan bog‘liqdir. Bunga so‘z va iboralarning to‘g‘ri diksiyasi, so‘z va mantiqiy urg‘u, intonatsiya va pauzaga e’tibor qilish orqali erishiladi. Masalan: *qatlama, hozir, qo’llar, bog’lar* kabilar. Nutqda mantiqiy urg‘udan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan: *Semiz papkali kishi keldi, Onasiz bola o‘ynamas* kabi gaplarning ma’nosini urg‘uning qaysi gap bo‘lagiga tushishiga ko‘ra turli ma’nolarni anglatishi mumkin.

Madaniy nutqda so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishi eng muhim shartlardan biridir. Ayrim so‘zlarni eskirgan shaklda talaffuz qilish (ishkop, parishta), talaffuzi bir-biriga yaqin so‘zlarning farqiga bormay (tip-tif), e’tiborsizlik natijasida x tovushi o‘rnida h ni (shoh-shox), u tovushi o‘rnida o‘ (ulkan-o‘lkan) ni, ruscha o‘zlashmalardagi o‘ tovushi o‘rnida o (kollej) ni talaffuz qilish g‘ayrime yoriy holatdir.

Intonatsiya tufayli so‘zlarning ma’no ifodalash imkoniyatlari kengayadi. Odatda, intonatsiya nutq so‘zlanib turgan vaziyatda yuzaga keladi va u nutqiy talabga ko‘ra har xil ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan: *keling* so‘zi ohangiga ko‘ra samimiyat, norozilik, masxaralash kabi qator ma’nolarni ifodalashi mumkin. *Bahor* so‘zi gap intonatsiyasi bilan aytilmasa, so‘zligicha turaveradi, ammo tegishli intonatsion modelga muvofiq aytilsa darak, so‘roq, undov gaplarga aylanadi. To‘g‘ri nutq tuzish uchun fikrni har tomonlama mazmunli, ifodali qiluvchi so‘z va so‘z variantlarini topa bilish, ularni o‘z o‘rnida ishlata olish muhimdir. So‘zning lug‘aviy ma’nosini tushunmaslik uni xato qo‘llashga olib keladi. Masalan: *G‘ofir Solihboyning qiroli edi.* (aslida qaroli)

Sinonimlar nutqni ta’sirchan qilish bilan birga, turli qaytariqlarning oldini olib, uni ravon qiladi. Nutqda sinonimlardan ularning ma’no va uslubiy nozikliklarini to‘la anglagan holda foydalanish lozim, aks holda nutqiy g‘alizlik vujudga keladi. Masalan: *ozg‘in, oriq, yuz, aft, bet, chehra, turk, jamol, oraz, bashara; kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq, ishshaymoq, irjaymoq, tirjaymoq* kabi.

To‘g‘ri nutqqa qo‘yiladigan talablardan biri uning grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishidir. Jumladan, qaratqich kelishigini belgili va belgisiz qo‘llash bo‘yicha muammolar bor. Gapning ma’nosni, mazmuniga putur yetmasa, qaratqich kelishigi tushirib qoldiriladi. Ba’zi hollarda qaratqich kelishigi qo‘srimchasingning tushirib qoldirilishi axborotni xiralashtiradi, fikrni chalg‘itadi: *Askar otasi* deb yozganda, matnni o‘qib chiqmasdan turib, gap kim haqida boryotganligini bilib bo‘lmaydi: gap askarning otasi haqidami, yoki askar birovning otasimi? *Unda fakultetlarning ma’naviyat va ma’rifat masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari qatnashdi.* - *Fakultet dekanining ma’naviyat va ma’rifat masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari qatnashdi.* Aniqlovchi ko‘plik bildiruvchi so‘z bo‘lganda -lar egada ham, kesimda ham tejaladi. Hozirgi kunda ana shu qoidaga rioya qilinmay ega va kesimga -lar qo‘sib ishlatalmoqda: *Musobaqada 1, 2, 4, 5, 9, 10, 11, 15, 31-o‘rtta maktablardan 64 nafar sportchilar ishtirok etdilar.* Ayni kunda ilm maskanida 3 nafar fan doktori, 19 nafar fan nomzodlari, 26 nafar oliv toifali o‘qituvchilar ishtirok qilishmoqda.

Hozirgi kunda so‘zlash madaniyatida sezilayotgan yana bir tendensiya arab va fors so‘zlarini zo‘rma-zo‘raki ishlatish hisobiga yozma va og‘zaki nutqni jimjimador, dabdabali qilishga intilishdir. Jumladan, *sarafroz, zuhur etmoq, alhol, muxtasar, nomavzun* kabi so‘zlar o‘rniga o‘zbekcha muqobillarini ishlatish o‘rinli bo‘ladi. Xuddi shuningdek, adabiy til lug‘at tarkibidan o‘rin olmagan, faqat so‘zlashuv nutqida o‘rinsiz ishlatiladigan *гостиница* – “*mehmonxona*”, *столовой* – “*oshxona*”, *больница* – “*kasalxona*”, *библиотека* – “*kutubxona*” kabi qator so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini ishlatish to‘g‘ri nutq me’yorini ta’minlaydi.

To‘g‘ri nutq tuzish kishining ruhiy holati bilan ham bog‘liq. Jumladan, sen va siz kishilik olmoshlari nutq vaziyati hamda so‘zlovchi va tinglovchi munosabatiga ko‘ra turlicha ma’noviy-uslubiy vazifa bajaradi. «Sen» kishilarning yaqinligini (yoshi yoki qarindoshligi jihatidan) ko‘rsatadi. «Siz» so‘zida hurmat semasi bo‘lganligi uchun yoshi ulug‘ yoki tanish bo‘lmagan kishilarga nisbatan ishlatiladi va orada oz bo‘lsa-da masofa saqlanadi. Ayni zamonda «sen» qo‘pollik, hurmatsizlikni, «siz» esa diqqat va xushmuomalalikni ifodalashi ham mumkin. Nutq jarayonida biror bir sababsiz sharoitda «siz»dan «sen»ga va aksincha «siz» lashga o‘tish o‘rinli emas. Chunki «siz» so‘zidan keyin «sen»lash noqulaylik tug‘dirsa, «sen»dan keyin «siz»lash esa muomalada sovuqlik tug‘diradi. Xulosa qilib aytganda, har ikkala holatda ham nutqiy to‘g‘rilik buziladi.

Nutqda ortiqcha keraksiz so‘zlarni qo‘llash uning ma’nosini, ta’sir kuchini susaytiradi. Jumladan, ayrim notiqlar nutqidagi *masalan, demak, nihoyat, xo‘s, masalan, demoqchimanki, aytaylik, haligi* so‘zlarining takror-takror ishlatilishi bunga misol bo‘ladi.

Ayrim shaxslar o‘z nutqida ruscha so‘zlarni beparvolik oqibatida ehtiyoji bo‘lmagan o‘rinlarda ham ishlatadilar: *aka* o‘rniga *brat, bratan, band* o‘rniga *zaynit,*

ota o‘rniga paxan, bizning otets, marhamat o‘rniga pojalista, yaxshi o‘rnida xorosh, otlichno kabi. Xuddi shuningdek, ba’zi yoshlar juda chiroyli ismlarni buzib, ruschaga taqlidan talaffuz etadilar: *Irodani-Ira, Adolatni –Adol, Alisherni –Alik, Dilbarni- Dilya, Ulug ‘bekni – Uzik, Muhammadni - Muxa kabi.*

Yuksak nutq madaniyatiga erishish uchun shevachilikning ayrim salbiy ta’siridan ham qutulmoq lozim. Hozirgacha matbuot radio va teleko‘rsatuvlarda shevachilik ta’siri seziladi.

Demak, tildagi leksik, frazeologik va grammatic vositalardan o‘rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanib to‘g‘ri nutq tuzish har bir madaniyatli kishining, ayniqlsa, notiqning muqaddas burchi bo‘lmog‘i zarurdir.

Nutqning aniqligi. Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o‘zining “Ritorika” kitobida nutqning asosiy fazilati uning aniqligida ekanligini aytib, “agar nutq aniq bo‘lmasa, u o‘z maqsadiga erisha olmaydi” deb ta’kidlaydi.³⁵ Nutqning aniqligi –bu aytilayotgan so‘z yoki iboraning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mos va muvofiq kelishidir. Shuning uchun so‘zlovchi kim yoki nima haqida gapiroayotganini har tomonlama chuqur tushungan bo‘lishi kerak, aks holda nutq aniq bo‘lmaydi. Nutqiy aniqlik deyilganda, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning lisoniy aloqa jarayonidagi atamasi bo‘lgan materiali o‘rtasidagi mutanosiblik tushuniladi. Yaxshi nutqning kommunikativ sifati bo‘lgan aniqlikni «nutq-voqelik», «nutq- tafakkur» munosabati asosida belgilash mumkin.

Nutq aniq bo‘lishi uchun, eng avvalo, so‘zda ifodalanayotgan denotat haqida to‘g‘ri tasavvur bo‘lmog‘i kerak. Shu o‘rinda to‘g‘ri nutq va aniq nutq o‘zaro farqlanadi. To‘g‘ri nutq bu «til-nutq» munosabati asosida qurilib, asosan, lisoniy dalillarga suyansa, aniq nutq «nutq-borliq-voqelik» munosabati asosiga quriladi va haqiqatni fahmlash, bilishga qaratilgan bo‘ladi. Tafakkur qilish, bilish nutq shaklida ro‘yobga chiqadi. Aytilayotgan fikr tinglovchilar tomonidan qabul qilinsa, tushunilsa, bunday nutq aniq bo‘lib o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Shuning uchun so‘zlovchi nima yoki kim haqida gapiroayotganini har tomonlama chuqur tushungan bo‘lishi kerak, aks holda nutq aniq bo‘lmaydi. Fikr tinglovchiga to‘liq borib yetmaydi.

Fikriy noaniqliklar quyidagi hollarda uchraydi:

1. So‘z ma’nosiga yetarli e’tibor bermaslik natijasida: *Tarbiyachi bolalarga tushunarli bo‘lishi uchun kitobni olib, xontaxta tortmasiga qo‘yadi.* (xontaxtaning tortmasi bo‘lmaydi).

2. Paronimlar ma’nosini bilmaslik natijasida: *Dilnoza marjon donalarini ipga chizdi.* (ipga tizmoq bo‘lishi kerak). “*Orifjon, otning afzallarini joyiga qo‘y,*”- dedi otasi (*Otning abzallari*).

3. Mantiqiy jihatdan voqelikka zid bo‘lgan tushuncha ifodalovchi so‘zlarni yonmayon ishlatish natijasida: *Korxonaga yangi zamонавиј тeхnologiya o‘rnatildi* (ishlab

³⁵ Antichnyie ritoriki. -Moskva: MGU, 1978. - S.129.

chiqarish jarayonlari va usullari haqidagi bilimlarning jami, shuning uchun moddiy bo‘lmagan narsa o‘rnatilmaydi, balki joriy etiladi yoki texnika so‘zi bilan almashtirish kerak).

4. Nutqda so‘zni o‘z o‘rniga qo‘yib gap tuzolmaslik, gap tartibining buzilishi natijasida: *Yaqindagina nashriyotdan chiqqan adibimizning yangi asarlar to‘plami keng jamoatchilikka manzur bo‘ldi.*

5. So‘zning noo‘rin tanlanishi natijasida: *Shahar bilan qishloq o‘rtasida tafovut tobora qisqarayotir. Rejissyor bir qator umidli sahna ustalarini kashf etdi.*

6. Bir sinonimik qatorni tashkil qilgan so‘zlarning barchasi ham boshqa so‘zlar bilan sintagmatik munosabat tashkil qilolmaydi. *Puxta, pishiq, mustahkam* sinonimlari bino so‘zi bilan sintagmatik munosabat tashkil qiladi, yigit so‘zi esa *pishiq* va *chidamli* so‘zları bilan sintagmatik aloqaga kirishadi.

Aniqlik sifati badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asar badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik birinchi planda bo‘lganligi uchun so‘z ma’nosidagi siljishlar, ko‘chishlar ko‘p kuzatiladi. So‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy nutq o‘zining ta’sir etishdan iborat asosiy maqsadiga erishish uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma’nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi. Badiiy nutqda so‘zlar o‘z va hatto ko‘chma ma’nolaridan tashqari o‘ziga xos yangidan-yangi ma’no qirralarini kashf etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta’minlashi mumkin: *Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi.* Bu gapdagi *g‘ururining kaltaklanishi* va *kular yuzini no‘qtalamoq* birikmalaridagi ajratilgan so‘zlar kasb etgan ma’no nozikliklari bilan matnga aniqlik, ta’sirchanlik baxsh etgan (*g‘ururni azobli darajada poymol qilish, keskin va tamoman to‘xtatmoq*).

Demak, nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma’nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir.

Kompost- kompot paronimiyasidagi kompost go‘ngdan achitib tayyorlanadigan o‘g‘itni, kompot esa mevalarni qaynatib tayyorlanadigan ichimlikni ifodalovchi so‘zlar bo‘lib, quyidagi parchada ular asosida juda chiroyli kulgu chiqarilgan: *Marhamat,-dedim-da, u yoq-bu yoqqa qarab olgach, leksiya o‘qishga tushib ketdim, -o‘rtoqlar, kompost juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha shirin bo‘ladi. Bizning Farg‘ona tomonlarda kompostni o‘rik, shaftoli qoqi va olchaning qurug‘idan tayyorlashadi. Xullas, kompost ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan o‘tirgan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi.*(X.To‘xtaboev, Sariq devni minib).

Gippokrat kasal ko‘rayotganda, undan: “Siz kim tomondasiz? Men tomondami yoki kasal tomondami?”-deb so‘rarkan. Shunda kasal:”Albatta, siz tomondaman-da”

desa, Gippokrat unga qarab: “Men tomon bo‘lsangiz, biz ikkovlon kasalni yengamiz. Agar kasal tomonda bo‘lsangiz, men yakkalanib qolaman-da”, der ekan.

Demak, aniq nutq malakasining shakllanishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tildagi so‘z ma’nolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga e’tibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Ana shunda ifoda uchun eng uyg‘un va almashtirib bo‘lmaydigan aniq so‘zni topish mumkin.

Nutqda **ixchamlikka**, **aniqlikka** intilish hayotiy zarurat hisoblanib, u odatda, og‘zaki nutqda ko‘proq uchraydi. Yozma nutqda turli sarlavhalar, xalq maqollari ixcham shaklda bo‘ladi. *Tobutdan chiqqan tovush – Tobutdan tovush; Oltin vodiydan esgan shabadalar – Oltin vodiydan shabadalar: Do ‘stimdan kelgan xat-Do ‘stimdan xat; Onamga yozilgan xat- Onamga xat; Yaxshidan ot qolur, yomondan dod qolur – Yaxshidan ot – yomondan dod* kabi. Bunday qo‘llanishlar tilning ixchamlikka intilish qonuniyatini o‘zida aks ettiradi, shu sababli ular adabiy nutq ehtiyoji hisoblanadi. Demak, nutq ixchamligi deganda, nutqda so‘zlarni kam miqdorda qo‘llagan hamda uning mazmundorligini kuchaytirish tushuniladi. Ko‘p so‘z nutqiy mazmunga, nutqning chiroyli bo‘lishiga xalaqit beradi. Jumlalarni qisqa va to‘g‘ri tuzish nutq aniqligini ta’minlaydi.

Nutqning aniqligi uning mantiqiyligi bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, nutqning aniqligi mantiqiy nutqni yuzaga keltiradi.

Nutqning mantiqiyligi. O‘zaro mantiqiy bog‘liqlik inson faoliyatining barcha sohalari qatori fikr almashish quroli bo‘lgan til va nutq hodisalariga ko‘proq taalluqlidir. Tildagi lug‘aviy, frazeologik va grammatik birliklar ham o‘zaro mantiqan bog‘liqdir. Yaxlit bir tizim (sistema)ga birlashib, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, lug‘aviy va grammatik shakllar aniq hamda maqsadga muvofiq ishlatilgan nutq mantiqiy nutqdir.

Mantiqiylilik eng avvalo, nutqning tafakkur bilan aloqasiga asoslanadi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq hech qachon mantiqiy bo‘lmaydi. Mantiqiy nutq nafaqat so‘zlarning ma’nosiga asoslanadi, balki ularning sintagmatik bog‘lanishi bilan ham yuzaga keladi.

Mantiqiy nutq tushunchasi keng qamrovlidir. U gap, xatboshi, butun bir asarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Nutqdan mantiqiylikka erishish uchun matndagi fikrlar bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmasligi lozim. Nutq boshida aytilgan fikr izchil davom etib, oxirida to‘g‘ri yakun topgandagina mantiqiy nutq hosil bo‘ladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, mantiqiylilik, eng avvalo, so‘zlar ifodalagan tushunchaning o‘z denotatiga mos kelishi bilan belgilanadi. Denotatga, voqelikka mos kelmagan nutq mantiqsiz bo‘ladi: *Ko ‘z yoshin selila o ‘stirardi don* (G‘ayratiy). Gapdag‘i don so‘zi o‘rnida ekin so‘zini ishlatish lozim edi. Yana quyidagi misolni ham chog‘ishtirib ko‘ramiz: *Men ana shu "kosiblar" orasidan tarbiyachilik kasbini tanlab oldim.* Kosib va kasb so‘zları turli denotatlarni ifodalaydi.

Nutqda ayrim so‘zlarning tushirilib qoldirilishi uning mantig‘iga salbiy ta’sir qiladi: - *Yur, jo‘rajon, ikkovimiz bir portretga tushaylik.* (O‘.Usmonov). Portretga

tushib bo‘lmaydi. Portret uchun rasmga tushish mumkin. *Qiz onasini samolyotda kutib olishga chiqdi. U oq ko‘ylakda bo‘ladi* (Kim oq ko‘ylakda bo‘ladi, onasimi yoki qizi).

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to‘g‘ri va to‘liq anglanishi uchun zaruriy bo‘lgan sifatlaridan biridir. Mantiqiylikdan mahrum bo‘lgan biron-bir nutq kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlay olmaydi. Nutqning mantiqiyligini to‘g‘rilik va aniqlik sifatlaridan ajralgan holda tasavvur ham qilib bo‘lmaydi, chunki to‘g‘ri va aniq bo‘limgan nutq hech qachon mantiqiy bo‘lishi mumkin emas. Zotan, to‘g‘ri va aniq bo‘limgan nutqdan mantiqiylikni izlab topib bo‘lmaydi. Adabiy til me’yorlariga zid tarzda tuzilgan va tegishli birliklar noo‘rin tanlangan nutqqa mantiq begona bo‘lishi tabiiy.

Fikr tarkibi va qurilishining to‘g‘ri ifodalanishi nutq mantiqiyligining asosi deyish mumkin. Nutqda til vositalarining mantiq va to‘g‘ri tafakkur qonuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini baholashning bosh o‘lchovi hisoblanadi. Ana shunga ko‘ra mantiqiylik sifatini nutqda so‘zlar va gaplar o‘rtasidagi semantik aloqalarning va fikrning mantiqiy mohiyati hamda uning rivojlanib borishiga qat’iy mosligi tarzida ta’riflash maqsadga muvofiqdir.

Aytish mumkinki, nutqning mantiqiyligi struktura nuqtayi nazaridan ko‘proq tilning sintaktik sathi bilan bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, nutq tuzuvchi nutqning mantiqiyligiga erishish uchun til birliklarining sintagmatik imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim. So‘zlovchi (yozuvchi), eng avvalo, bayon etmoqchi bo‘lgan fikrini, bildirmoqchi bo‘lgan xabarini va u bilan bog‘liq tafsilotlarni, ayni paytda mantiq qonuniyatlarini yetarli darajada tasavvur etmas ekan, u mantiqli nutq tuza olmaydi. Bu o‘rinda nutq tuzuvchining tafakkur qobiliyati juda-juda muhimdir. Ko‘rinadiki, nutqning mantiqiy bo‘lishi uchun ham lisoniy, ham g‘ayrilisoniy omil ishtirok etadi.

Nutq madaniyati tushunchalarini ifodalovchi so‘zlarga terminologik ma’no yuklashga alohida e’tibor qaratgan B.N.Golovin narsa mantiqiyligi va tushuncha mantiqiyligini farqlash maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi. Uning ko‘rsatishicha, narsa mantiqiyligi nutqdagi til birliklari mazmuniy aloqalari va munosabatlarining real borliqdagi narsa-hodisalar aloqalari va munosabatlari bilan mutanosibligidir. Tushuncha mantiqiyligi esa mantiqiy fikr tarkibi va uning mantiqiy rivojining nutqdagi til unsurlarining semantik aloqalarida to‘g‘ri aks etishidir. Mantiqiylikning bu ikki ko‘rinishi bir-biri bilan bog‘liq va nutqda ular birlikda namoyon bo‘ladi, lekin ertak, badiiy fantastika, majoziy asarlar kabi alohida nutq ko‘rinishlarida narsa mantiqiyligidan ataylab voz kechilishi mumkin.³⁶ Masalan, ertaklarda hayvonlar, turli buyumlar, o‘simplik va shunga o‘xshashlarning odamlarday gapirishi, kulishi, o‘ylashi va boshqa harakatlarida narsa mantiqiyligi sog‘lom saqlanadi. Mavjud an’anaga ko‘ra bunday holatlardagi nutqda mantiqiylik buzilgan deb qaralmaydi, mazmun to‘g‘ri anglashilaveradi.

³⁶ Головин В.Н. Основы культуры речи. –Москва:Высшая школа, 1988. - С.145.

Nutqning (tozaligi) sofligi. Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asilligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o‘z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me’yorlardan kelib chiqiladi. Soflik sifati nutqni ana shunday baholash me’yorlaridan hisoblanadi. Aytish lozimki, nutqning bu kommunikativ sifati nutq bilan adabiy til va nutq bilan jamiyat munosabatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra nutqning sofligini nutqning adabiy til me’yorlariga va jamiyatdagi ma’naviy-axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta’riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko‘rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiyлари quyidagilardir:

1) shevaga xos so‘z, ibora, grammatic shakllar, urg‘u va talaffuz. O‘zbek tili ko‘p shevalidir. Har bir shevaga xos lug‘aviy va grammatic shakllar mavjud bo‘lib, ular adabiy til me’yori doirasiga kirmaydi. Faqat so‘zlashuv va badiiy nutq uslublarida ishlatiladi.

Shevaviy so‘z va grammatic shakllar badiiy adabiyotda tasviriy vosita – mahalliy kolorit yaratish, qahramonlar nutqini individuallashtirish vazifasini bajaradi, shu bilan bir qatorda adabiy tilning shevalar hisobidan boyib borishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo shevaga xos unsurlarni ommaviy nutqlarda, o‘quv va o‘qitish jarayonida, radio va televizor eshittirishlarida qo‘llash man etiladi. Bunga asosiy sabab sheva so‘zlarining ma’nosini ma’lum hudud vakillarigagina tushunarli bo‘lishidir.

2)o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari (varvarizmlar). Ajnabiy so‘z va iboralar madaniy nutq tozaligini buzadi. Varvarizmlardan, odatda, o‘zga yer va xalqlarga xos urf-odatlarni tasvirlashda, ba’zan xorij madaniyati oldida sajda qiluvchi personajlarning nutqini individuallashtirishda foydalaniladi. Ammo ba’zi shaxslar o‘z nutqlariga e’tibor bermay, pala-partishlik bilan tilimizga kirib, o‘zlashmagan «zayavleniya yozdi», «boshliq zaynit», «organizovat qil», «dokument topshirdi» kabi qoliplarda gapiraveradilar.

3)jargon va argolar. Nutq tozaligiga putur yetkazuvchi lug‘aviy birliklardan biri **jargon va argolardir**. Jargon va argolar tildagi so‘zlarining tovush tomonini o‘zgartirish, buzib qo‘llash, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va tildagi mavjud so‘zlarga maxsus ma’no berish yo‘li bilan hosil qilinadi. Bunday so‘zlar dindorlar, savdogarlar, o‘g‘ri va firibgarlar nutqiga xos bo‘lib, ma’noviy maxfiyligi bilan xarakterlanadi. Badiiy adabiyotda ba’zi tiplarning obrazini yaratishda ayrim hollarda o‘rinsiz ishlatilgan jargon va argolardan foydalaniladi. Jargon va argolar tilni bulg‘aydi. Madaniy nutqning tozaligi va sofligiga putur yetkazadi.

4) dag‘al, haqorat so‘z va iboralar (vulgarizmlar). Keyingi paytlarda talabalar hamda ayrim yoshlar nutqida uchrayotgan «dum», «mejdunarodniy», «lokomotiv», «nishtyak» kabi ma’nosini faqat ularning o‘zlarigagina tushunarli so‘zlarini ijobiy baholab

bo‘lmaydi. Nutq tozaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan til birliklaridan biri **vulgarizmlar** hisoblanadi. Vulgarizmlardan badiiy adabiyotda ayrim qahramonlarning dag‘alligini, madaniyatsizligini ko‘rsatish uchun foydalilanadi. Ammo bunday so‘zlar odatiy nutqda ishlatilmaydi.

5) “ishlamaydigan” yoki parazit so‘zlar. Ayrim shaxslar nutqida, avval ham takidlanganidek, rasmiy, siyqa (shablon) so‘z va iboralarning noo‘rin ishlatilishi (ma’lumki, kerak bo‘lsa, biz bilamizki); shuningdek, «bekorchi (parazit) so‘zlar” deb ataluvchi (ya’ni, masalan, xo‘s, anaqa kabi) lug‘aviy birliklarni me’yordan ortiq qo‘llash nutqning notabiiy va ishonchsz chiqishiga olib keladi.

6) idoraviy so‘z va iboralar (kanselyarizmlar). Rasmiy ish qog‘ozlari uslubida doimiy qo‘llanadigan, qoliplashgan so‘z va iboralar. Masalan. *Yutuqlarga erishmoq, faktlarga murojaat qilmoq, tarixiy voqealarga guvoh bo‘lmoq, shuni qayd etib o‘tmoq, shuni aytib o‘tish joizki* kabi. Binobarin, madaniy nutq tuzuvchi notiq nutqida ushbu unsurlar uchramasligi kerak. Chunki kanselyarizmlar so‘zlashuv, badiiy va publisistik nutqlarda qo‘llansa, nutqning tozaligiga anchagina putur yetadi. Xullas, nutqning tozaligi uchun kurash adabiy til madaniyati uchun kurashdir.

So‘zlashish jarayonida o‘zbekcha so‘zlarning yarmiga ruscha so‘zlarni qo‘shib, o‘zbekcha so‘zlarga ruscha qo‘shimchalarni qo‘shib tilimiz xususiyatlarini buzib gapirib yurgan yoshlарimiz qancha? O‘zimiz ham tili endi chiqib kelayotgan bolaga xonalarni, ya’ni yotoqni “spalniy”, bolalar xonasini “detskiy”, oshxonani “kuxnya”, dahlizni “prixojka”, “koridor” deb o‘zbekchasini unutib, ruschasini aytamiz. Ba’zi yoshlарimiz uyda, ko‘chada, jamoat joylarida ham bir-birlari bilan muloqotda qanday bo‘lsa shunday gaplashishi, ona tilining qadrini bilmayotgani va his qilmayotgani seziladi. Shuning oqibatida ular o‘z fikrlarini to‘g‘ri va tushunarli qilib yetkazib bera olmaydilar, “*haligi, nima edi, anavi, anaqa, masalan, keyin*” kabi keraksiz so‘zlarni qo‘llab, fikrni mujmal qilib yuboradilar. Ayrimplari xorij so‘zlarini aralashtirib gapirsa, ayrimlari shevada va jargonda gapirishni ma’qul ko‘radilar.

Masalan: “*vau, soating jinni ekanu*”, *ko ‘ylaging chetkiy turibdi*”, “*o ‘radingmi?*”, “*qulog ‘ingga tepib ketmasin?*”, “*tormozmisan, nima qilib yuribsan zavisat qilib qolgan diskka o‘xshab*”, “*toming ketib qopti*”, “*bratuxa gruppadamisan?*”, “*to ‘kib keting, saqlab keting*”, “*ashulani sindiribdi*” deyishlarini qanday tushunsa bo‘ladi. Afsuslar bo‘lsinki, ayrim yoshlarning so‘zlash odobi bilan madaniyati shu tarzda.

Biz yoshlarning tilida uchraydigan kamchiliklarning sabablarini quyidagilarda deb o‘ylaymiz:

1.Yoshlarning badiiy adabiyotni o‘qishga qiziqmasligi. Badiiy adabiyotni o‘qimaydigan odamning so‘z boyligi kam bo‘ladi, shuning uchun o‘z fikrini mantiqiy izchillikda bayon qilishga qiynaladi.

2.Ota-onalar farzandlarining nutq madaniyatiga e’tibor bermaydilar. Uyda bolalarining teleko‘rsatuvarlar, filmlarni boshqa tilda tomosha qilishlariga yo‘l qo‘yib

beradilar, ularni ona tilida filmlar ko‘rishga, musiqa tinglashga va badiiy asarlar o‘qishga qiziqtirmaydilar.

3. Nutq madaniyatini shakllantirishni faqat ona tili darsiga yuklab qo‘yish.

4. Boshlang‘ich sinfda ona tili alifbosi chuqur o‘rganilmay, rus tili ingliz tili kabi fanlarni o‘rgatish. Bir necha tilni o‘rganish og‘irligini hamda harflarni chalkashtirib ishlatishning hisobga olinmasligi.

5. O‘qituvchilar nutq madaniyati va mahoratining yetishmasligi, ularning tildan foydalanishda namuna bo‘ladigan fazilatlarni egallashlarining sustligi.

6. Oila tarbiyasida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanmaslik va o‘qituvchilarning shu masalaga alohida ahamiyat qaratmasligi.

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, takomillashishida tilshunoslarning hissasi katta. Tilshunos olimlar, yozuvchi va shoirlar o‘zbek adabiy tili me’yoriga xos bo‘lman qo‘llanishlarni tartibga keltiradi, yoshlarning nutq madaniyatini oshirishda buni doimo nazarda tutadi. Binobarin, me’yorga amal qilish tilning kommunikativ sifatlariga amal qilish har bir jamiyatda mavjud. Biroq har bir madaniyatda submadaniyat elementlari hosil bo‘ladi, shunga mos rasmiy madaniyat har doim turlicha sub va kont madaniyat bilan birga umr suradi, ular jamiyatning rivojiga ta’sir qiladi. Avvallari jargon so‘zlarning qo‘llanilishi chegaralangan bo‘lsa, keyingi yillarda adabiy me’yordagi so‘zlar bilan bir qatorda ishlatilib kelmoqda va talabalarning til elementiga aylanib bormoqda. Bunday uslub talabalarning bir-birini tushunishlariga qulaylik tug‘diradi, ularni bahamjihatlikka chaqiradi, ikkinchi tomondan esa jamiyatning boshqa a’zolaridan ularni ajratib turadi. Jargon fransuzcha so‘z bo‘lib, biron ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqat ularning o‘zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so‘z va iboralar.³⁷ Jargon so‘zlarni qo‘llovchi kishilar guruhi turli-tuman bo‘lgani uchun argo va jargon so‘zlar ham kelib chiqish xarakteriga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Masalan, talabalar argosi, artistlar argosi, savdogarlar argosi, qimorbozlar argosi, kissovurlar argosi. Jargonlarning eng xarakterli belgisi o‘zaro so‘zlashuvni boshqalardan maxfiy sir tutishdir. Shunga ko‘ra jargonlarning yaratilish yo‘llari ham ko‘pincha tilning so‘z yasash sistemasiga to‘g‘ri kelmaydi, jargon til ichidagi tildir. Ular o‘ziga xos sun’iy, shartli so‘zlardir.

Jargonlar ko‘pincha tildagi so‘zlarning tovush tomonini o‘zgartirish, so‘zlarni buzib qo‘llash, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va tildagi mavjud so‘zlarga yangi ma’no berish bilan hosil qilinadi. Masalan: baks, ko‘k – dollar, tachka – avtomobil, chuvak – yigit.

Argo va jargonlarning biror guruh yoki tabaqa doirasida paydo bo‘lishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

³⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –J.2. –T.:O‘zME, 2006.

- a) professional argo-jargonlar;
- b) ijtimoiy argo-jargonlar.

Professional argo va jargonlarga biror kasb-hunar kishilari orasida ishlataladigan maxsus so‘z va iboralar kiradi. Bu xil argolar va jargonlarning paydo bo‘lishi, odatda, ishlab chiqarish ixtisosи, mehnatning umumiyligi va ba’zan turmush madaniyati tarzlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Argo va jargonlarni qo‘llovchi guruhrular turlicha uyushadilar.

1. Qiziqishlariga, o‘rganib qolgan odatlariga qarab birlashgan guruhlarga xos jargonlar, xususan, ichuvchilar tilida: - *Oqidamni yo qizilidanmi, xo‘jayin? –O‘ldirsa ham qizili o‘ldirsin.*

Yuqoridagi misolda qizili, oqi deganda vino, aroq kabi spirtli ichimliklar ko‘zda tutilyapti.

2. Yoshlariga, jinslariga ko‘ra birlashgan guruhlarga xos argo va jargonlar.

Yoshlar nutqidagi jargonlar o‘zining ta’sirchanligi, obrazliligi bilan ajralib turadi. Ularni ham quyidagi kichik guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Oliy ma’lumotli yoshlar nutqidagi jargonlar: *tanka - talabani qo‘llab-quvvatlovchi, xaker* so‘zi imtihon vaqtida o‘qituvchi bilan kelishib, baho oladigan talabaga nisbatan qo‘llaniladi.

2. O‘rta ma’lumotli yoshlar nutqidagi jargonlar: *harip- ahmoq, sindiraman-biror ishni bajarmoq yoki do‘ndirmoq, chig‘atoy- firma yoki uyushma, tachka, mashina, zaryatka qilib bering-o‘rtaga tushing, bazar-shovqin, urish-janjal* va h.

Hozirgi kunda jargon so‘zlar yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Yangi so‘zlarning keng qo‘llanilishi ommaviy axborot vositalariga bog‘liq. Jargon so‘zlar jonli so‘zlashuv va adabiy tilga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bugungi tezkor zamonda yangi tushunchalar paydo bo‘lmoqda va bularga mos yangi bir so‘zga ehtiyoj natijasida minglab chet tillardan so‘zlar kirib kelmoqda. Masalan, musiqaga oid so‘zlarning ko‘pi ingliz tiliga taalluqli: *popsa – mashhur musiqa* (ingliz tilidagi populyar musik) ma’nosini bildiradi. Ko‘pincha jargonlar o‘ta zarurat yuzasidan emas, shunchaki ermak uchun qo‘llaniladi deb aytadi M.A.Grachev.³⁸ Yoshlar jargoni istagan tilda qo‘llaniladigan va yana barcha davrda umr suradigan faqat son, til va boshqa omillar sababidan o‘z qo‘llanilish sohasini o‘zgartiradigan hodisa. Jargonlar yoshlar madaniyatining ajralmas bir qismi. Chunki hech bir madaniyat o‘zining kommunikativ kodlik so‘zisiz umr sura olmaydi. Til turlicha madaniy, maishiy va siyosiy sohada qo‘llaniladi. Talabalar tilining asosiy o‘zgachaligi uning xizmat doirasining ko‘pligi bilan ifodalanadi. Jargonlar ma’lum biror vazifani bajargani uchun keng tarqaladi. Jargonlarning keng foydalanimishining funksional vazifalaridan biri uning kommunikativ xizmatidir. O‘zgacha jamoa tarkib

³⁸ Грачев М. А. Арготизмы в молодежном жаргоне. М. А. Грачев // Русский язык в школе. – 1996. – № 1. – С. 78–86

topadi va shu bilan birga ichki o‘xshashlik belgilari bilan tildagi yangicha qo‘llanishlar o‘z tengdoshlari bilan kommunikativ aloqaga kirishga yo‘l ochadi. Mustaqil, erkin yoshlari jargoni kattalarning olamidan chiqishga talpinadi. Kattalar “yaxshi” desa, yoshlari “o key!” “prikol!” “klassno!” deydi. Yoshlar jargonining o‘zgachaligi uning tez o‘zgarib yangilanib turishida deb hisoblaymiz. 5-7 yilda yoshlari bilan birga jargon so‘zlar ham almashib turadi. Yoshlar jargonining yana bitta belgisi ular mavzusining cheklanganligi. Atamalarning bir talay sinonimlari farqlanadi: *kiyim va oyoq kiyimlar (shuz), pul (baks, limon, dollar, ko‘k, ko‘kat), xatti-harakatlarga tegishli birikmalar (qulogqa lag‘mon ilmoq, kidat qilmoq, dampingni ol, quyonning rasmini chizib ketmoq, mingga qo‘ymoq)*. Yoshlar jargoniga kiruvchi so‘zlar noaniqligi bilan ham farqlanadi (*bo‘rimi - imtihondan o‘tdingmi?*) Yoshlar jargonining turli submadaniyatidagi so‘zlashuv tilining xizmatigina emas, shu bilan birga ularning fikrlash tizimini ifodalaydigan turlicha leksik guruhrilar hosil qiladi. Har bir individ turli tipdagi guruhga kiradi. Masalan: musiqa fanatlarining so‘zlashuv tili, nashaxo‘rlarning tili, kompyuterchilar jargoni, shaharliklar tili va b. Bularning har birining o‘z olami, o‘z yo‘li va o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqlik bor, chunonchi, *nasiyani temir daftar, aldamchini hoji aka...* Yoshlar jargoni kreativ xizmatni amalga oshiradi, chunki u leksik birliklarni o‘zaro aloqa jarayonida o‘z fikrini bildirishda asosiy qurol sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Adabiy tildagi me’yorlar bilan tabularni buzib, yangi so‘zlarni o‘ylab chiqaradi va shu orqali ijodkorlik qirralari ochiladi, leksikani yangilaydi. Yoshlar jargonidan foydalanish ko‘p muammolarni hal qilish yo‘llarini ochganligidan nominativ birliklarning yasalishi bilan tarqalishi turlicha bo‘ladi. Yoshlar jargonining ko‘pchiligi o‘zgartirilgan rasmiy atamalardir. Hozirgi kunda qo‘llanilayotgan jargonlarni bir necha mavzuiy guruhlarga bo‘lish mumkin: o‘qish, fanlar, talabalar hayoti, o‘qituvchilar va ularning psixologik xususiyatlari va b. Talabalar jargon atamalarini o‘z hayotlaridan o‘zgacha o‘rin olgan narsa va hodisalarga, odamlarga, muayyan davrga qo‘yadi. Talabalar jargonlari asosan o‘qitish tartibi va o‘quv qurollariga tegishli bo‘ladi. Agar o‘qitiladigan fan bir so‘zdan iborat bo‘lsa, talabalar nutqida ular falsafa, tarix, fonetika kabi tarzda o‘zgartirilmagan shaklda qo‘llanadi. Lekin bir necha so‘zdan iborat bo‘lsa, qisqartirilgan shaklda ishlatiladi.: *OYONA, echki (yosh), ass (assistant), psix (psixolog), prof/profa/profi (professor), zav-kaf, gavgav (kafedra mudiri)*, dekan talabaning barcha masalasini hal qiluvchi shaxs bo‘lgani uchun, uni «*taqdirni yechuvchi*», «*tarbiyachi*», «*stipendiyadan ayiruvchi*» kabi so‘zlar bilan ataydi.

Talabalar nutqida chegaralash nuqtasi bo‘ladi. Universitetga ilk bor kelish dunyoga yangi kelish bilan birday. Talaba bo‘lolmagan abituriyentlarni *abita, abitura, abituxa, 1 kurs talabalarini pervash, bitiruvchilarga esa baklan* deb nom qo‘yadilar. Darsliklarga nisbatan ham nom qo‘yadilar: *bosh qotiruvchi, jonni qiynovchi*, umuman keraksiz bo‘lgan narsalarga *makulatura, sekond xend*, imtihondan o‘tgan-o‘tmaganini *bo‘rimi*

deb so‘raydi. Lekin talabalar darsliklarni bilim bulog‘i ekanligini unutmay (*chitalka-o‘quv zali, ma ‘nolar xazinasi*), yordamchi sifatida (*tez yordam, repetitor*)

Talabalar sessiya davrini o‘tish davri deb his qilib *kichkina do‘zax, to‘y tamom bo‘ldi, lotoreya, kurash* deb ataydi.

Talabalar jargonlarining ichida eng qiziqarlisi bu – talabalar turar joyi. Studentlar uni *obshit – yotoqxona, uya, kaptarxona kabi nomlar bilan ifodalaydi*.

Jargonlarda yoshlarning doimo shoshib yurishlari bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisod qilish prinsipi asosiy hisoblanadi. Yoshlarning nutqidan ularning kim ekanliklarini aniqlab olish mumkin. Filolog talabalarning submadaniy diskursi ularning umumiyligini qiyofasini hosil qilishgagina emas, shu bilan birga turlicha vaziyatlarda identifikator vazifasini bajarishini kuzatish mumkin. Kuzatishlardan yoshlar jargonini 3 guruhsiga bo‘lish mumkin: 1.O‘zlashma so‘zlardan foydalanish. 2. Semantik derivatsiya. 3. Morfologik derivatsiya.

Yoshlar nutqining o‘zgachaligini chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘p ishlatilishi buning yorqin ifodasıdir. Bu talabalarning madaniyatlararo munosabatlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Yoshlarning bunday so‘zlarni ko‘p qo‘llashi muayyan bir guruhlarda uchraydi. Rasmiy bo‘lmagan guruhlarning bunday so‘zlarini yoshlar tuzatishga ham harakat qilmay, shu so‘zlarni qo‘llaydi, universitetga aloqador so‘zlar ishlatadi va keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Yoshlar tilida programmist mutaxassislarining jargoni ko‘p ishlatiladi. Bu leksikani faqat shu sohada bo‘yicha o‘qib yurganlargina emas, informatsion texnologiya, kompyuter bilan ishlovchi yoshlarning barchasi qo‘llaydi. Masalan: *yemelya – elektron pochta, inet- internet, pen, penyok-pentium*. OAV tili ham zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun markerlangan jargon leksikasidan foydalanadi. Maqolalar mavzulari kerakli leksika bilan ifodalanadi. Muxbirlar ham yosh o‘quvchilar e’tiborini qaratish maqsadida talabalar jargonidan foydalanadi. Shunday qilib, talabalar nutqining o‘zgachaligi, leksikonining boyish usuli hamda uning berilish yo‘llarini ko‘rsata o‘tirib yoshlar jargonining yoshlari madaniyati zanjiridagi o‘zgacha tizim deb ayta olamiz. Birinchidan, ular jamiyatdagi boshqa guruhlar bilan bog‘lashga xizmat qilsa, ikkinchidan, yoshlari madaniyatining boshqa submadaniy birlashmalar bilan birikish usulini aniqlaydi. Albatta, jargonlar biror guruh yoki tabaqalar doirasida paydo bo‘ladi. Lekin ular uzoq yashamaydi, guruh yoki uyushgan to‘dalar yo‘qolishi bilanoq jargon so‘zlar iste’moldan chiqadi. Ba’zilari adabiy tilga o‘zlashib ketadi. Argo va jargon so‘zlar tilning iste’mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsa ham, o‘zbek tilini boyitishda ularning qaysidir tomonidan ahamiyati muhim. Jargonlarning o‘ziga xos xususiyatlardan biri: ularning har doim ekspressiv-uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishidir.

Nutqning boyligi. Nutqning ta’sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, “yuqumli” tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo‘lmish boyligiga ham bog‘liq. Boy nutq tinglovchining joniga tegmaydi, balki u

bunday nutqni jon qulog‘i bilan tinglaydi. Nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan (so‘zlar, ma’nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va hokazo) elementlardan qay darajada foydalanganligi bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo‘lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag‘al hisoblanadi va uning ta’siri ham shunga yarasha bo‘ladi. Ulug‘ Alisher Navoiy aytganidek, “*Bir deganni ikki demak xush emas, So‘z takror o‘ldi, dilkash emas*”. Shuning uchun nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya’ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo‘llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o‘lchanishiga urg‘u beriladi. Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy (eramizdan oldingi I asr) “*So‘zlarning qo‘silishi haqida*” nomli asarida *nutqning rang-barangligi (boyligi) sifatining zaruriyati to‘g‘risida shunday yozadi:* “*Umuman barcha yoqimli narsalarday hatto har qanday go‘zallik ham tinimsiz takrorlansa, jonga tegadi; xilma-xil, rang-barang o‘zgarishlarda esa bu go‘zallik mangu, yangi bo‘lib qolaveradi.*”³⁹

Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli “libos”lar tanlash va kiydirish lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zaxirasi mavjud bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, notiq yetarli darajadagi so‘zlar, ularning ma’nolari, so‘z birikmasi va gap modellari, jumlaning intonatsiya va melodika turlari zaxiralariga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu zaxira qancha boy bo‘lsa, notiq o‘z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko‘proq ega bo‘ladi.

Leksik, semantik, grammatik, intonatsion jihatdan rang-baranglik nutqning boyligini yuzaga keltiradi. Atoqli so‘z san’atkorlarida, masalan, ulug‘ Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq,⁴⁰ rus shoiri Pushkinda 21 mingdan ortiq⁴¹ so‘z boyligi mavjudligini ta’kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so‘z boyligiga ega bo‘lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o‘z nutqini boy, ta’sirchan, o‘tkir bo‘lishini istaydigan har bir kishi o‘z lug‘at boyligini kengaytirib borish haqida qayg‘urishi lozim.

Nutqning maqsadga muvofiqligi. Agar notiq nutqi o‘zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsa-yu, har jihatdan jo‘yali, ya’ni o‘z o‘rnida bo‘lmasa, u maqsadiga erisha olmaydi. Jo‘yalilik yo‘q joyda nutqning boylik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlarining mohiyati yo‘qoladi.

Sharqning buyuk pandnomachisi Kaykovusning shunday o‘giti bor:”... *Tilingni yaxshi hunar bila o‘rgatg‘il va muloyim so‘zdin boshqa narsani odat qilmag‘il. Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatg‘il,*

³⁹ Antichnye ritoriki. -Moskva: MGU, 1978. - S.199.

⁴⁰ Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. -Toshkent: Fan, 1983.

⁴¹ Головин В.Н. Основы культуры речи. –Москва:Высшая школа, 1988. - C.209.

so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur (ta’kid N.Mahmudovniki.). Shuning uchun behuda so‘zlamag‘ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar:”*So‘z bir nash’adur, undan xumor paydo bo‘lur*”.⁴²

Nutqning uslubiy jihatdan jo‘yaliligi asosan, nutqning kimga, qanday auditoriyaga qaratilganiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, talabalarga mo‘ljallangan ma’ruzani bolalar bog‘chasida o‘qib bo‘lmaganidek, rasmiy davralarda so‘zlashuv uslubida yo ilmiy tilda gapirish o‘rinsiz bo‘ladi. Bu holat ikki tarafning muzokaraga kelishiga to‘siq bo‘ladi. Shuningdek, chet ellik ishbilarmonlar bilan uchrashuvda ishbilarmonlik madaniyati, rasmiy so‘zlashuv madaniyatini bilmaslik ham omadsizlikka olib kelishi mumkin. Har bir so‘zni mantiqiy jihatdan dur donalari kabi terib, xalq donoligini ko‘rsatadigan so‘zlarni topib kerakli uslubda o‘rinli gapirsangiz, odamlar o‘rtasida martabangiz oshadi. Shuning uchun so‘zni botmonlab yig‘ib, misqollab sotamiz. Xalqimiz donoligining bebaho xazinasi, o‘zbek so‘zining ko‘rki bo‘lmish maqol va matallarda ham ayni fikr bot-bot ta’kidlangan: “*So‘zga tushmagan so‘zni aytma, Sozga tushmagan g‘azalni*”; “*Jo ‘yali so‘z jo ‘yasin topar, jo ‘yasiz so‘z iyasin (egasin) topar*”; “*O‘rinli so‘zga tuya cho‘kadi, O‘rinsiz so‘zga hamma so‘kadi*”.⁴³ Notiq nutq tuzar ekan,”tuyaning cho‘kishi va hech kimning uni so‘kmasligi” uchun nutqining jo‘yasini, o‘rnini aniq tasavvur qilishi shart. Jo‘yalilik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday aloqalantirish va bir-biri bilan bog‘lashki, buning natijasida nutq muloqotning maqsadi va sharoitlariga tamomila javob beradigan tarzda tarkib topadi. Ayni ta’rifdan kelib chiqilsa, jo‘yali nutq ifodalamoqchi bo‘lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchi yoki o‘quvchilar tarkibining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy va boshqa xususiyatlari, yozma yoki og‘zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik va shu kabi vazifalariga to‘la mos kelishi asosida yuzaga keladi.

Nutqning ifodaliligi. Nutqning bu sifati ba’zan ta’sirchanlik tarzida ham tushuniladi. Ammo ta’sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o‘quvchi ongiga ta’sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda nutqning muayyan bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to‘g‘ri yoki aniq bo‘lmagan, boy yoki mantiqiy bo‘lmagan, sof yoki jo‘yali bo‘lmagan nutqning ta’sirchanligi haqida gapirib bo‘lmaydi. Lekin ayni paytda nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda ifodalilik sifatining alohida, hatto hal qiluvchi o‘rin tutishini ta’kidlamoq joiz.

Nutq tinglovchi yoki o‘quvchining quruq qulog‘ini emas, balki qalb qo‘g‘onini, aql qal’asini zabit etmog‘i uchun, eng avvalo, uning tarkibi va qurilishi diqqatni tortadigan

⁴² Kaykovus. Qobusnama. -Toshkent: Meros, 1992, 22-23-betlar.

⁴³ Shomaqsudov SH., Shorahmadov Sh. Hikmatnama. -Toshkent, 1990, 381, 382, 457-betlar.

qizg‘in qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishi lozim. Bu esa ayni ifodalilik sifatining mohiyatini tayin etadigan xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ifodalilik nutqning tarkibiy tuzilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga ko‘ra tinglovchi yoki o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalg qila olishdan iborat kommunikativ sifatdir.

Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog‘ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e’tibor qilinsa, ilmiy uslubda o‘rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo‘ladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar muammolari yoritilar ekan, nutqning ifodaliligi ayricha ahamiyat kasb etadi.

Tilda ifodalilikni yuzaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ham ko‘p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha sathlarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bu manbalarning mohiyati, tabiatи va ularni unumli ishga solish usullaridan yetarli xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta’minalashga qiyalmaydi.

Til fikr anglatish quroli bo‘lish bilan birga mukammal hissiy ta’sir qilish vositasi hamdir. Tilning bu xususiyatidan inson o‘z fikrini o‘tkir va ta’sirchan qilib ifodalashdan tashqari, kishilar bir-birini hissiy jihatdan lazzatlantirish, zavqlantirish maqsadida ham foydalanadi. Masalan, onaning o‘z farzandini erakalatishida, sevishganlarning bir-biriga fikr izhor qilishida, do‘srlarning o‘zaro muomalasida, onaning, otaning o‘z farzandlarini sizlashida, aksincha, farzandning o‘z onasiga mehr izhor qilishida qo‘llanadigan so‘zlar, iboralar, ularning o‘ziga xos muloyimlik, iliqlik bilan talaffuz etilishi nutq ohangining yoqimtoyligi, mehr-muhabbat bilan sug‘orilganligi buning isboti bo‘la oladi.

Nutqiy ta’sirchanlikni faqat ijobiy holat, faqat chiroylilikdan iborat deb bilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ba’zan jamiyatda nomutanosib ishlar bilan shug‘ullanuvchi shaxslar (o‘g‘rilar, qalloblar, chaqimchilar, terrorchilar, zo‘ravon va muttaham shaxslar, vatanfurushlar, bosqinchilar), dushmanlarga qarshi, nafrat, g‘azab bilan so‘zlangan nutqlar ham o‘ta ta’sirchan bo‘ladi. Bunday nutqlarda ba’zan so‘zlovchi o‘z nafratini ifodalash uchun dag‘al, qo‘pol ma’noli so‘zlardan ham o‘rinli foydalanadi. Ammo bunday nutqlar ham axloq-odob doirasidan chiqib ketmasligi lozim bo‘ladi.

Demak, tinglovchi va o‘quvchi e’tibori hamda qiziqishini qozonadigan xususiyatlarga ega bo‘lgan nutq ta’sirchan nutqdir. Nutqning ta’sirchanligini oshirishda nutqning aloqaviy sifatlari bo‘lishi, to‘g‘rilik, mantiqiylik, tozalik kabilalar ahamiyatlidir, ya’ni nutq to‘g‘ri bo‘lsa, u ta’sirchan bo‘ladi, nutq mantiqiy bo‘lsa – ta’sirchan bo‘ladi va hokazo.

Nutqning boshqa aloqaviy sifatlari singari ta’sirchanlik ham adabiy tilning barcha lisoniy imkoniyatlariga suyanadi. Bu jihatdan tilning fonetik-orfoepik mezoni o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Talaffuz jihatdan nutq ta'sirchanligini oshirishning yo'llari turlicha. Jumladan, og'zaki nutqda so'zdag'i unli tovushlarni cho'zish orqali shodlanish, taajjub, iztirob, o'kinish, g'azablanish, kesatish kabi qator hissiy ma'nolarini ifodalashi mumkin.

Nutqiy ta'sirchanlik urg'uni o'z o'rniga qo'yish, hamda so'zlarni bo'g'lnlarga bo'lib talaffuz qilish yo'li bilan ham ro'yobga chiqadi: *bor-may-man*, *o'qi-may-di* kabilarda qat'iy inkor ifodalanmoqda.

Og'zaki nutq talaffuzidagi ohang, tez-sekinlik, qattiq yoki yumshoqlik holatlarini to'liq ifodalash uchun yozma matnlardagi ayrim so'zlar imloviy qoidalarga zid ravishda turli grafik belgi va shakllarda yozilaveradi. Bu yozma nutqda fonografik usul bilan ta'sirchanlikni oshirish yo'lidir. Nutq ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida notiqlar va so'z san'atkorlari o'z nutqlarini ehtiyoj talabiga ko'ra ko'tarinki, tantanali uslubda bayon qiladilar. Bunday nutqlar odatda, muhim qarorlar, axborotlar, farmonlar o'qilganda ishlatiladi. Tantanali nutqlarda tekis ritm, urg'uni to'g'ri qo'yish, ko'tarinki ohang, o'rni bilan to'xtam (pauza)ga e'tibor beriladi.

Nutqning go'zal va ma'no ta'sirchanligi uning turli ma'no nozikliklariga ega bo'lgan so'z va iboralarga boyligi bilan belgilanadi. Chunki bu til birliklari nutqda biror tushuncha ifodalashdan tashqari jo'shqin his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ham ifodalaydi.

So'z va grammatik shakllardagi bo'yoq turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'noviy tarkibida his-hayajon, voqealarga munosabat ifodalaniib tursa, ba'zi so'zlarga turli xil erkalash, sevish va kichraytirish shakllarini qo'shish orqali ta'sirchanlik hosil qilinadi. Masalan: *Salom, rahmat, yasha; motam, ona-jon, bola-gina, Lola-xon* kabi. Bu holat tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini aytilayotgan fikrga jalb qilib, uning hissiyotiga ta'sir qiladi.

Nutqiy ta'sirchanlikning yuzaga kelishida ko'chma va ko'p ma'noli so'zlar muhim ahamiyatga ega. Ular notiqqa kinoyali nutq, so'z o'yinlari, o'xshatishlar hosil qilishda qo'l keladi: «*Yonginamda kuyov. Nega kuyov deyisharkin! Oxirgi bo'g'ini nega yov». Men o'z to'yimda zo'rg'a o'tiribman. Lekin u yo'q. O'rnida-kuyov o'tiribdi*».
«*Yoshlik»). Oh malikam-, dedi Mirzo-, Siz zotsiz porloq. Siz hilolsiz, yo'q quyoshsiz,uchi so'niq sham.(A.Oripov).*


Nutq ta'sirchanligini oshiruvchi leksik vositalardan yana biri sinonimlardir. Sinonimik so'z va iboralar so'zlovchi muhim hisoblagan va urg'u berayotgan fikrga tinglovchining diqqatini yanada ko'proq jalb etishga yordamlashadi. Chunki bir sinonimik qatordagi so'zlar o'zining belgi darjasasi va hissiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Nutq jarayonida biror voqea-hodisani aniq izohlashda ko'pincha bir sinonim so'zning o'zi ojizlik qilib qoladi. Bunday hollarda ularni juft yoki yonma-yon qo'llab, ma'no kuchaytiriladi: *Ota-onalaridan ajratilgan yosh bolalarning oh-u zorlari, faryodu fig'onlari, ko'kka chiqmoqda (S.A.) Kecha jimjit, shamolsiz, sassiz-sadosiz edi»*(«*Yoshlik»).*

Tilimizda mavjud bo‘lgan sinonimlardan maqsadga muvofig‘ini, hissiy jozibadorini saralab ishlatalish nutqning vazifaviy uslublariga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan: *Gapirmoq, demoq, aytmoq, so‘zlamoq* sinonimik qatoridagi barcha so‘zlar umumiste’mol xarakterida bo‘lib, barcha nutq uslublarida uchraydi. Ammo shu sinonimik qatordan o‘rin oluvchi *aljiramoq vaqillamoq, akillamoq* kabi so‘zlar so‘zlashuv nutqiga: *sayramoq, xonish qilmoq* so‘zi esa badiiy uslubga xosligi bilan ajralib turadi. Bularning har biri o‘z o‘rnida qo‘llanilgandagina ularning ta’sirchanligi yaqqol seziladi.

Badiiy uslub nutqi o‘zining ifodaliligi, turli tasviriy vositalarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Buning yorqin bir namunasini E.Vohidovning «Ayon bo‘lg‘ay» she’ridan olingan quyidagi parchada yaqqol ko‘rish mumkin:

*Agar yoring xirom etsa,
Sabolardan ayon bo‘lg‘ay.
Takallumi chaman bergen
Sadolardan ayon bo‘lg‘ay.
Agar yoring quyosh bo‘lsa,
Ango aslo boqib bo‘lmas,
Kamolingmi ahvoling yo
Samolardan ayon bo‘lg‘ay.
Agar yoring husn shohi
O‘tar bo‘lsa shaharlardan,
Guzarlarda qolib ketgan
Gadolardan ayon bo‘lg‘ay...*

Nutq oldiga qo‘yiluvchi yuqorida bayon qilingan talablar nutqning mavzu va mazmuniga, nutq uslubiga, shakli hamda nutqiy vaziyatga ko‘ra turli darajada namoyon bo‘ladi. Masalan, badiiy nutqdan ta’sirchanlik, joziba talab qilinadi, rasmiy, ilmiy nutqlarda ko‘proq qisqalik, mantiqiylik talablari ustun turadi.



Mavzu bo'yicha mustahkamlovchi mashqlar.

1-topshiriq. Nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablarni ko'rsating.

2--topshiriq. Nutq so'zlaganda yo'l qo'yadigan kamchiliklaringizni yozing.

Birinchidan, _____

Ikkinchidan, _____

Uchinchidan, _____

To'rtinchidan, _____

Beshinchidan, _____

1 - mashq. Berilgan matnni tuzating: uni qisqartirib, takrorlar, bir xil qo'shimchalar va sinonimlarni olib tashlang.

Bir kuni bog ‘ni kezib yurgandim, so ‘lib yotgan bir bargga, yaproqqa ko ‘zim tushdi. U bargdan xush is hid taralardi. Darhol qo ‘limga oldim, hidlab juda xursand bo ‘ldim. Bargga:

— *Sen gulmisan, anbarmisan, buncha xushbo ‘ysan?—degan edim, barg aytdi:*

— *Men gul ham, anbar ham emasman, oddiy daraxt bargiman. Bir kuni gullar o’rtasiga orasiga tushib qolib, bir necha kun birga bo ‘ldim. Ularning hidi ifori menga ham o’tdi. Shu-shu xushbo ‘y bargga aylanib qoldim.*

2-mashq. Quyidagi matndan nutqning aniqligi va ta’sirchanligini ifodalovchi til vositalarini toping va izohlab bering.

1-matn. Kishining nutqi ham uning madaniyati qay darajada ekanligini ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Madaniyatli odamning nutqi sodda, ravon va ma’noli bo‘ladi. U jumalalarning ortiqcha jimjimadorligini yoqtirmaydi, nutqiga “zeb” berib, o‘zini boshqalardan alohida ajratib ko‘rsatmaydi.

Madaniyat haqida ko‘p gapirib, hatto boshqalarga o‘git aytib, ammo o‘zi unga amal qilmaydigan kishilarni ham haqiqiy madaniyatli odam deb bo‘lmaydi. Chinakam madaniyatli kishi madaniyat haqidagi bilim va tushunchalarini o‘zining kundalik hayotiga tatbiq etish bilan birga tanish-bilishlariga, atrofdagi kishilarga ham bu borada ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi (Y.Shermuxammedov, Y.Turmuxamedov. Xulq va muomala madaniyati).

2-matn. Suhbatlashish san’atini egallang. Zero, inson suhbatlarida namoyon bo‘ladi. Hayotda uning ishtirokisiz kechadigan hech narsa yo‘q. Suhbat sabab hammani yo‘qotish mumkin, suhbat sabab hammani yutish mumkin. Xat yozish – suhbat, puxta o‘ylash – suhbat, aqlning oniy imtihoni – suhbat. Suhbatlaringiz sizning kimligingizni oshkor qiladi. Mulohazali suhbat so‘zamollikdan muhimdir. Suhbatlashish san’atini egallamoqchi bo‘lsangiz, mulohaza bilan savol berishni, diqqat bilan tinglashni, muloyim javob qaytarishni va sukut saqlashni o‘rganing (Baltasar Grasian. Cho‘ntak foli.)

3-topshiriq. So‘zga chiquvchining (notiq, suxandon, sharhlovchi) nutqini baholang.

Nº	Asosiy savollar	Baho
1.	Nutqning mazmundorligi - asosiy fikrning mavjudligi -axborot dalillarining muhimligi - axborotning yangiligi	1 2 3 4 5 1 2 3 1 2 3 1 2 3

2.	Nutqning tushunarligi - nutqning mantiqiyligi - auditoriyani hisobga olish - tilning aniq va ravshanligi	1 2 3 4 5 1 2 3 1 2 3 123
3.	Nutqning ifodaliligi - so‘zlarda urg‘uning to‘g‘riligi va ohang - lug‘atning boy yoki sayozligi - obrazlilik	1 2 3 4 5 1 2 3 1 2 3 1 2 3

Baholash uch asosiy parametr bo‘yicha olib boriladi (mazmunlilik, nutqning tushunarligi va ifodaliligi), ularning har biri uch tarkibiy qismlardan qo‘shiladi. Masalan, so‘zga chiqqanda asosiy fikr kuzatilsa (5 baho), muhim dalillar berilsa (5 baho) va u yangiligi bilan ajralib tursa (5 baho), u holda ushbu ishtirok mazmuniylik jihatidan 5 bahoga baholanadi.

Agar ushbu tarkibiy qismlarning ifodalilik darajasi unchalik yorqin bo‘lmasa, u holda ular 4 va 3 bilan baholanadi. So‘zga chiqishning maksimal umumiyligi bahosi 5 baho.

Dastlab monologik nutqni, so‘ngra dialogik nutqni olish maqsadga muvofiqdir. Dialogni baholashda muvofiq baholar ikki suhbatdoshga ham qo‘yiladi.

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlardan foydalanib, nutqning kommunikativ sifatlariga rioya qilgan holda matn tuzing va tuzgan matningizni so‘zlab bering. Nutq ta’sirchanligini oshiruvchi qanday til vositalaridan foydalanganligingizni izohlang.

Madaniyat, kishi, odam, teatr, kino, kitob, badiiy, adabiy, she’r, ta’sirchanlik, komillik, fazilatlilik, tuyg‘u, ong, shuur, his etmoq, tafakkur, tushuncha, ibrat, bo‘lmoq.

5-topshiriq. Quyidagi fikrlarga munosabatingizni bildirib nutq so‘zlang.

1.Baltasar Grasianning fikricha, “Insonga yigirma yoshida tuyg‘ular, o‘ttizida iste’dod, qirqida aql-zakovat hukmronlik qiladi”. Ushbu fikrga sizning munosabatingiz.

2. “Nutq – amalning soyasidir” bu fikrga siz qo‘shilasizmi?

3.”Aql donishmandlikning taxtidir” degan fikr to‘g‘rimi?

Mustaqil ishlashlari uchun qo‘shimcha vazifalar.

1.Nutqning kommunikativ sifatlari asosida o‘zi xohlagan notiq yoki suxandonning nutqini tahlil qilish.

2.Ixtiyoriy ravishda hozirgi notiqlardan birining nutqini videotasmaga yozib olish va auditoriyaga eshittirish. Nutqidagi yutuq va kamchiliklar bo‘yicha o‘z fikrini ifodalash.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1.Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun asosan qaysi me’yorlarga qat’iy amal qilish talab qilinadi?

2.Nutqning to‘g‘riligiga ta’rif bering.

3.Nutqiy aloqa uchun nutqiy talaffuzning qanday ahamiyati bor?

4.Nutqning aniqligi deganda nimani tushunasiz?

5.Aniq nutq yaratish so‘zlovchidan nimalarni talab qiladi?

6.Aniq nutq yaratishda sinonimlarning roli.

7.Nutqning sofligi deganda nimani tushunasiz?

8.Nutqimiz sofligining buzilishiga, asosan, nimalar ta’sir qiladi?

9.Nutqning ta’sirchanligi qanday vositalar yordamida amalga oshiriladi?

10. Nutqning mantiqiyligi qanday omillarga bog‘liq bo‘ladi?

Glossariy

Nutqning aniqligi – so‘zning tildagi ma’nosи va o‘zi ifodalagan narsaga qat’iy mos kelishi bilan o‘lchanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning ifodaliligi – ta’sirchanlik deb ham aytildi, nutqning tinglovchi yoki o‘quvchi e’tiborini jalb qila olishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning mantiqiyligi – fikr rivojining voqealar rivojiga qat’iy mos va muvofiq kelishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning tozaligi – nutqning adabiy tilning lug‘aviy (leksik) me’yorlariga yot unsurlardan xoli ekani bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning to‘g‘riligi – nutqning adabiy tilning ma’lum vaqtida qabul qilingan me’yorlariga qat’iy muvofiqligi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning maqsadga muvofiqligi – nutqning kommunikativ sifati. So‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmasi bilan belgilanadi.

Orfoepik xatolar – asosan u yoki bu tovushni noto‘g‘ri talaffuz etish .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘ng‘urov R., va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.-Toshkent, 1992.

2. Begmatov E., va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1993.


3. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. -Toshkent, 2002.

4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
- 5.Y.Shermuxammedov, Y.Turmuxamedov. Xulq va muomala madaniyati. –T.: O‘qituvchi, 1974.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmadov Sh. Hikmatnoma. -Toshkent, 1990.
- 7.Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. -Toshkent: Fan, 1983.
- 8.Головин Б.Н. Основы культуры речи. -Москва: Высшая школа, 1988.
- 9.Kaykovus. Qobusnama. -Toshkent: Meros, 1992, 22-23-betlar.
- 10.Mansurov Sh. Ming bir xazina. -T., 2009.
- 11.Baltasar Grasian. “Cho‘ntak foli” yoki zukkolik va o‘tkir aql san’ati. -Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015.
- 12.Античные риторики. -Москва: МГУ, 1978.

NOTIQLIK SAN’ATI TURLARI

Tayanch so‘zlar: notiqlik turlari, nutq ko‘rinishlari, ijtimoiy-siyosiy notiqlik, ijtimoiy-maishiy notiqlik, akademik va sud notiqligi, madhiya, ta’ziya va tabrik nutqi, ilmiy nutq, ilmiy sharh, qoralovchi nutqi, oqlovchi nutqi.

Ijtimoiy – siyosiy notiqlik. Notiqlik san’atining ijtimoiy mavqeyi shu qadar keng va sertarmoqki, uning har bir sohada me’yori, mazmuni va shakli, o‘ziga xosligi, ta’sir kuchi mavjud. Shuning uchun ham har bir sohaga oid jihatlatni alohida-alohida ko‘rib chiqish hamda o‘ziga xos tomonlarini, imkoniyatlarini o‘rganish zarurdir. Notiqliknинг ijtimoiy mavqeyini yaqqolroq tasavvur qilish uchun uni quyidagicha turga bo‘linadi:



1.Ijtimoiy-siyosiy va siyosiy–iqtisodiy mavzudagi nutqlarning vazifasi shu mavzuga taalluqli informatsiyalarni yoritib, tinglovchilarni xabardor qilish va mazkur masalalarda fikr yuritishga o'rgatishdan iborat. Ushbu nutqlar qatoriga biror davlat, ijtimoiy tuzum yoki dunyo miqyosidagi muhim muammolarni qamrab oluvchi nutqlarni kiritish mumkin. Bunday nutqlar keng ko'lamma va aniq faktik misollar yordamida yoritiladi.

2.Qurultoy, anjuman va hokazolardagi hisobot ma'ruzalari – muayyan rahbarning biror tashkilot, jamoaning ma'lum bir muddat orasidagi hisoboti. Bunda amalda bajarilgan ish hajmi va mazmuni, erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va kelajakda ko'zlanadigan rejalar aniq faktlar asosida tahlil qilinadi.

3.Siyosiy nutq biror majlis, anjuman yoki qurultoyda so'zlanadigan nutqdir. Bunda rahbar muayyan davrga xos dolzarb siyosiy masalalarni yoritib beradi. Siyosiy nutqlar siyosiy vaziyatni aniq, ravshan, lo'nda yoritib berishi va aniq mazmunli shior bilan yakunlanishi, tinglovchilarni yangi siyosiy-ijtimoiy bosqichlar sari da'vat qilishi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

4.Diplomatik nutq - O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan diplomatik aloqa o‘rnatildi. Buning natijasida, O‘zbekiston bilan ko‘plab mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar rivojlanma boshladi va rivojlanmoqda. Ijtimoiy-siyosiy nutq turlaridan biri bo‘lgan diplomatik nutq davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo‘lib, xalqaro mavqega egaligi bilan xarakterlanadi. Diplomatiya har bir davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, uning xorijiy davlatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyatidir. Ana shu jarayonda u yoki bu davlat nomidan so‘zlanadigan barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa mavzulardagi nutqlarga diplomatik nutq deyiladi. Diplomatik nutq mazmun va talqin xarakteri jihatidan turlicha bo‘ladi. Masalan: respublikamizning davlat va milliy bayramlarida dunyoning turli chekkalaridan tabriklar va tabriknomalar keladi. Mazkur tabrik va tabriknomalar matni hurmat, ehtirom tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Zero, bu diplomatik munosabatning asosiy tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy-siyosiy nutqqa misol tariqasida davlatimiz rahbari nomiga va u kishi orqali o‘zbek xalqi nomiga kelgan chet davlatlar rahbarlari, jahon miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari tomonidan yo‘llangan maktublar matnlarini keltirish mumkin. Ularda ifodalananayotgan mazmun ijtimoiy-siyosiy nutqning yaqqol ifodasidir:

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga
Janobi Oliylari,*

*Mustaqillik kuni munosabati bilan Sizga, O‘zbekiston Hukumati va xalqiga katta
mamnuniyat ila g‘oyat samimi yutlovlarimni yo‘llayman.*

Janobi Oliylari, Sizga bo‘lgan g‘oyat yuksak ehtiromimni lutfan qabul qilgaysiz.

Kofi ANNAN,
BMT Bosh kotibi

5.Siyosiy sharh – biror notiqning muayyan davrda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni sharhlab bayon etib berishidan iborat.

Siyosiy sharhning eng yuqori turi radio va televideniyeda mavjud, chunki televideniye ko‘rsatuvi va radioeshittirishlarda e’tiborli siyosiy sharhlovchilar, muxbirlar va olimlar muayyan davrning siyosiy-ijtimoiy vaziyatini imkonli boricha asosli ravishda sharhlab, xulosalashtirib beradilar. Siyosiy sharh faqat xalqaro mavqedagi voqea-hodisalarga emas, balki mamlakat ichki siyosati masalalariga ham bag‘ishlangan bo‘ladi.

6.Harbiy-vatanparvarlik nutqi o‘zining jangovar ruhi, siyosiy keskin xarakteri va yuksak pafosi bilan ajralib turadi. Ushbu nutqda vatanparvarlik va o‘z xalqiga sadoqat ruhi ufurib turadi. Masalan, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning Panipat jangidan avval so‘zlagan nutqi shijoat, mardlik ruhi bilan sug‘orilgan hamda uning nafaqat buyuk sarkarda, balki buyuk notiqligidan ham dalolat berib turibdi:

Beklar va yigitlar!...

Har kimki, hayot majlisig ‘a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidir va har kishikim, tiriklik manzilig ‘a kelibtur, oxir dunyo g ‘amxonasidin kechg ‘usidur. Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o ‘lgan yaxshiroq.

... Tengri taolo bu nav’ saodatni bizga nasib qilibtur va mundog ‘ davlatni bizga qariyb aylabtur. O ‘lgan shahid, o ‘lturgan g ‘oziy. Barcha tengrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, har kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmagay, to badandin joni ayrimmag ‘uncha, bu muhoraba va muqotaladin ayrimmag ‘ay...(385-386-b.).

7.Miting nutqi ommaviy nutq ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Mitingda xalqaro va davlat ahamiyatiga molik muhim voqealar ko‘pchilikka bayon etilib, ular o‘sha voqeani qo‘llab-quvvatlovchi yoki qoralovchi umumiy shiorlar, qaror va murojaatnomalar bilan yakunlanadi. Shuning uchun mitinglar siyosiy tashviqotning eng ommaviy va ta’sirchan shakllaridan biri hisoblanadi. Quronish poygasini avj oldirishlariga qarshi, terrorizmga qarshi yoki ijobiy iz qoldiruvchi voqealarga, jumladan, davlat arboblarining tinchlik va do‘stona tashrif bilan xorijga qilgan safarlari, yig‘im-terim va saylov kampaniyalariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan mitinglar bularga misol bo‘la oladi.

8.Tashviqotchi nutqi. Suhbatlar. Nutqning bu ko‘rinishi o‘zining soddaligi, oddiy suhbatga yaqinligi, har bir auditorianing shart-sharoiti va talabiga mosligi bilan ajralib turadi.

Tashviqotchi nutqining mavzusi turlicha bo‘ladi. Masalan, davlatimizning muhim hujjatlarini jamoada ommalashtirishi, saylov paytlarida mahalla va xonardonlarda tushuntirish ishlarini olib borish hamda fan, adabiyot sohasidagi yangiliklar va yutuqlarni ommaga tushuntirib berish kabi masalalarda bo‘lishi mumkin. Tashviqotchi suhbatini turli shaklda o‘tkazishi mumkin. Ayrim tashviqotchilar tinglovchilarga savol berib va ularning javoblaridan kelib chiqib, o‘z fikrlarini bayon etishi yoki aksincha ish tutishi mumkin. Bu notiqning mahoratiga va hozirjavobligiga bog‘liq bo‘ladi.

9.Ilmiy-ommabop nutq. Ilmiy –ommabop nutqlar ilmiy asosga va g‘oyaviy yo‘nalishga ega bo‘lishi, aniq dalil va hujjatlarga asoslanishi, masalani tarixiy jarayonga bog‘liq holda yoritishi, qiziqarli va ixcham bo‘lishi shart. Ilmiy-ommabop nutqlar o‘qilayotgan auditoriya tinglovchilar saviyasini oshirishga, ularning bilimini kengaytirishga, dunyoqarashini muayyan yo‘nalishda shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

2.Akademik notiqlik. Akademik notiqlik o‘zining ilmiyligi bilan xarakterlanib, biror ilmiy haqiqatni bayon etish juda aniq va asosli bo‘lishini talab qiladi. Argumentatsiyalarning kuchliligi va ularning muayyan fan yoki ilm tarmog‘ining mohiyatini yechishga bag‘ishlanganligi akademik notiqlikning eng muhim xususiyatlaridandir.

Akademik notiqlik ham bir necha ko‘rinishga ega:

1.Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim muassasalari ma’ruzalari o‘zining aniqligi, ilmiy muntazamligi, faktlarga asoslanganligi va ma’lum bir predmetni yoritib berishga

bag‘ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Akademik ma’ruzalar predmetning mazmuni, dasturi va tinglovchilar saviyasiga ko‘ra turli murakkablik darajasida bo‘ladi. Mana shu real o‘ziga xoslik hamisha notiqning diqqat markazida turishi lozim.

2.Ilmiy ma’ruza - olimlarning ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, ilmiy kengash va seminarlar, xalqaro kongreslarda o‘qiladigan va ishtirokchilar tomonidan muhokama qilinadigan ilmiy ma’ruzalaridir. Bunda muayyan aspektida qilinayotgan ishlar, ilmiy tajribalar haqidagi xulosalar, tug‘ilgan g‘oyalar va fikrlar bayon qilinadi. Ilmiy ma’ruzalar o‘z tadqiqot obyektining aniqligi, ilmiy argumentatsiyaning akademik ma’ruzadan ham kuchliligi, muayyan yangilikni yechishga aloqadorligi bilan xarakterlanadi.

3.Ilmiy sharh – muayyan ilmiy yutuqlar va ixtirolarning bayoni va xulosasidan iborat bo‘lib, bunda ham ilmiylik, aniqlik, dalillarga asoslanish va predmet doirasidan chekinmaslik kabi o‘ziga xos xususiyatlar bo‘lishi talab qilinadi.

4.Ilmiy axborotda ham akademik nutqqa qo‘yiladigan barcha talablarga amal qilinadi. Mazkur nutq ko‘rinishi qilinayotgan ishlar haqida muayyan doiradagi mutaxassis, javobgar va rahbar shaxslarni xabardor qilishni ko‘zda tutadi. Bunda ilmiy haqiqatni yorqinroq ochib berish uchun akademik nutqlarda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan talqindagi obrazlilik, estetik ta’sirchanlik, emotsiyal jonlilikdan foydalanish mumkin.

3.Sud notiqligi. Sud notiqligi notiqlik san’atining qadimiy turlaridan hisoblanadi. Bu san’at turi Gretsiya va Rimda, O‘rta Osiyo va Hindistonda qadimdan mavjud bo‘lgan. O‘rta Osiyoda hozirgi ma’nodagi sudya vazifasini qozilar bajargan. Ular o‘z nutqi, notiqlik mahorati bilan el nazariga tushgan.

Sud notiqligi tarkiban bir necha turga bo‘linadi: qoralovchi nutqi, jamoatchi qoralovchi nutqi, oqlovchi nutqi, jamoatchi oqlovchi nutqi, o‘z-o‘zini himoya qilish nutqi.

1.Qoralovchi nutqi muayyan shaxs yoki bir guruh kishilarning aybini bo‘yniga qo‘yish, muayyan ijtimoiy tuzum manfaatini yoqlab, shu tuzum qonun-qoidalariга rioya qilmagan fuqarolarni qoralash bilan xarakterlanadi. Qoralovchi o‘z nutqida sudlanuvchining barcha ayblarini aniq ashyoviy va mantiqiy dalillar bilan isbotlashga, uning chindan ham aybdor ekanligini qonun doirasida asoslab berishga harakat qiladi. Qoralovchilarning nutqi emotsiyal jihatdan bir notiqning o‘ziga xos bo‘ladi: kimdir ehtiros va hayajon bilan gapis, boshqasi bosiq va sovuqqon gapisishi mumkin.

2.Jamoatchi qoralovchi nutqi yuridik qonunlar bilan tanish bo‘lmagan shaxsning nutqidir. Jamoatchi-qoralovchi shu jinoyatni sodir etgan kishilar bilan bir jamoada ishlaganligi, ularning insoniylik qiyofasini, o‘tmishini yaxshiroq bilishi bilan jinoyatchilarning qilmishini, aybini ochib tashlashi bilan o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

3. Oqlovchi nutqi. Oqlovchi aybi bo‘lgan jinoyatchini oqlashga urinadi. Shuning uchun qoralovchi qo‘ygan talablarga qarshi dalillar topishi, sud hay’atini va shu jarayonda ishtirok etuvchilarni ishontiruvchi kontrargumentlar keltira olishi kerak.

Oqlovchi nutqi ancha erkinligi bilan ajralib turadi. U nutqida badiiy asarlardan parchalar o‘qib berishi, sud hay’atining ruhiyatiga ta’sir qilib, ularning ko‘nglini yumshatadigan hikoyalar, matallar yoki latifalar kabi vositalarga murojaat etishi mumkin.

4.Jamoatchi oqlovchi nutqi ham sudlanuvchilarning gunohini yengillatish uchun qaratilgan bo‘lib, ular muayyan jamoa nomidan so‘zlaydilar. Shuning uchun ham jamoatchi oqlovchining nutqi inobatga olinadi. Jamoatchi-oqlovchi notiq o‘zi himoya qilayotgan sudlanuvchining kelajakda o‘z gunohini oqlashga qodir ekanligini, jamiyatga manfaat keltira olishini va to‘g‘ri yo‘lga tushib keta olishini mahorat hamda ishonch bilan so‘zlashi lozim.

5. O‘z-o‘zini himoya qilish nutqi. Nohaq sudlanuvchi o‘zini himoya qilish uchun so‘zlaydigan nutq turidir. Notiqlik mahoratiga ega bo‘lgan kishi o‘zining aybsizligini mantiqiy va faktik dalillar bilan gapirib sud hay’atini ishontira olishi mumkin. Bu sud jarayonining demokratik ekanligini ko‘rsatadi.

4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik. Ijtimoiy-maishiy notiqliknинг turli ko‘rinishlari mavjud. Bular orasida an’anaviy nutq ko‘rinishlari bilan birga, zamon talabi bilan yangicha nutq ko‘rinishlari ham rivojlanib bormoqda. Jumladan, madhiya, motam nutqi kabilar juda qadimiy bo‘lsa, majlis, anjumanlar hamda turli yig‘inlardagi tabrik nutqlari zamonaviydir.

1.Madhiya yoki yubiley – maqtov nutqlari ikki ko‘rinishda bo‘ladi:a)aniq shaxslarning xizmatlarini ta’riflash va tavsiflashga bag‘ishlanadi; b) biror korxona, jamoa va boshqa geografik birliklar ta’rifiga bag‘ishlanadi.

Masalan, birinchi ko‘rinishdagi madhiyalar jumlasiga buyuk tarixiy shaxslar, davlat arboblari kabi ulug‘ kishilar haqidagi ta’riflar kirsa, ikkinchisiga qadimiy shaharlar yubileylari, o‘zbek paxtakorlarining yutuqlari bilan bog‘liq bo‘lgan nutqlar kiradi.

2.Ta’ziya yoki motam nutqi ham dunyoning ko‘pchilik xalqlariga mansub bo‘lgan nutq ko‘rinishlaridan biri. O‘rta Osiyo xalqlari orasida ta’ziya nutqining saj’ (qofiyali nasr) va she’riy shakllari mavjud. Ular o‘zining yozilishi, ta’ziya bildiruvchi shaxslarning fazilatlarini yorqin ocha olishi bilan shu qadar go‘zal va dilbar yozilganligini quyida keltiriladigan A.Navoiyning ustoz A.Jomiyga bag‘ishlab yozgan marsiyasini misol tariqasida keltirish mumkin:⁴⁴

Charx anjumanidan har dam yangi jafo keladi,
Uning har bir yulduzi boshqa bir baloning dog‘idir.
Kecha bilan kunduzning ko‘k va qora tuni bor,
Kechasi boshqa bir aza-yu, kunduzi boshqa bir azadir.

⁴⁴ Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 5-jild, 2-kitob, 373-385-betlar.

Sen ketdingu jahon xalqining dili zor qoldi,
To qiyomatgacha firoqingga giriftor qoldi!
Do'stlar, hamma fanda olam aro yagona qani?
Odam avlodining eng afzal-u donosi qani?
Qalam ko'ksini yordi, yuziga surtdi qora,
Deya, ul olimlar olimi bo'lmish egam qani?

Bunday ta'ziya nutqlarining juda ta'sirchan, mazmunan teran namunalari ularning notiqlik san'atining muhim bir ko'rinishi sifatida katta ijtimoiy mavqega ega ekanligini ko'rsatadi.

3.Tabrik nutqi qadimdan mavjud bo'lgan nutq ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Tabrik nutqlari 2 ko'rinishda bo'ladi:

- 1.Rasmiy-diplomatik tabrik nutqi.
- 2.Kundalik-maishiy tabrik nutqi.

Rasmiy-diplomatik tabrik nutqi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan anjumanlarda yirik siyosiy arboblar tomonidan so'zlanadigan nutq bo'lib, mazmun jihatdan tabrik bilan xalqaro ahvolga, turli mamlakatlar va davlatlarning o'zaro munosabatlari doir masalalarni qisman yoki umumiy tarzda yoritishga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Ayniqsa, mustaqillikdan keyin yirik davlatlar siyosiy arboblarining rasmiy va norasmiy tashriflari tufayli tabrik nutqlarining xalqaro ahamiyati ortib bormoqda. Shu do'stona jarayonda qanchadan-qancha keskin masalalar mo'tadil tus oladi, ba'zi muammolar bartaraf etiladi, xalqlar va davlatlarning o'zaro yaqinlashuviga, mavjud muammolarning tinch-totuv hal qilinishiga zamin yaratiladi.

Quyidagi matnda tabriklovchi shaxsning ehtiromi ma'nosi bir necha usullarda aks etgan. Masalan, tabriknoma matnining birinchi gapida qo'llangan ajratilgan to'ldiruvchi (Janobi oliylariga), to'ldiruvchidan (Siz(ga)) anglashilgan hurmat mazmuniga urg'u berishiga xizmat qilgan. Ushbu misolda ham aniqlovchi birikmalar (behad mamnun, eng samimiyl tilak, yuksak ehtirom, saxovatli xalq) kabilar tabrikdagi belgi semali misollarga xos ko'tarinkilik, yuksaltirish, kuchaytirish ottenkalari ham tabriknoma yo'llovchining ehtiromini ifodalagan. Shuningdek, bu tipdagи tabriknomalarda fe'l + - gay shakli faol qo'llanilishi kuzatiladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga

Muborak Ramazon hayiti munosabati bilan Siz, Janobi Oliylariga eng samimiyl tilaklarimni yo'llashdan behad mamnunman.

Fursatdan foydalaniб, qodir Allohdan bunday qutlug' ayyomni musulmonlarga takror nasib qilishini, Sizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, mamlakatingiz va uning saxovatli xalqiga doimiy taraqqiyot va farovonlik ato etishini so'rayman.

Sizga bo‘lgan yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz.

Shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Saboh,

Quvayt Davlati Amiri .

Kundalik-maishiy tabrik nutqlariga ziyofatlardagi tabrik nutqlari, to‘y-hashamlardagi muborakbod kabilar kiradi. Nutqning bu ko‘rinishi vaziyat taqozosiga ko‘ra xilma-xil mazmunga va hajmga ega bo‘lishi mumkin. Tabrik nutqlari chiroyli, silliq va badiiy bezaklarga boy holda tuziladi va ularni so‘zga usta notiq og‘zidan eshitish katta zavq-shavq bag‘ishlaydi.

Har ikkala tabrik nutqi yozma matnga ega bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Lekin rasmiy diplomatik nutqlar ko‘pincha yozma matnga ega bo‘lsa, kundalik-maishiy matnlar esa badiha xarakteriga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, notiqlik san’atining bu turi ijtimoiy mavqega ega hamda shunday nutqlarning aksariyati katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham notiqlik san’atining ushbu imkoniyatlaridan unumli foydalanish juda zarurdir.

5.Diniy notiqlik. Notiqlik san’ati mahorati qadim tarixga ega bo‘lib, bu san’at g‘arbda ham, sharqda ham o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turgan va davrlar osha shakllanib borgan. Sharqda notiqlik san’atining quyidagi ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan:

Og‘zaki nutq

1. Voizlik.
2. Notiqlik.
3. Suxandonlik.
4. Qissago‘ylik.
5. Badihago‘ylik.
6. Askiyachilik.
7. Maddohlik.
8. Qiroatxonlik

Yozma nutq

- 1.Dabirlik.
- 2.Munshiylik (mirzolik)
- 3.Xattotlik.

1.Xutba musulmon davlatlarida keng tarqalgan diniy nutq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, uzoq tarixga ega. Xutba nutqi diniy arbobning juma va hayit namozlarida hamda boshqa diniy marosimlarda aytildigan rasmiy nutqidir.

Xutba nutqlari tarkibi quyidagi tuzilishga ega bo‘lgan:

- 1)hamd va na’t (olloh va payg‘ambar sha’niga madhiya);
- 2)xutbai avval (diniy pandlar);
- 3)xutbai soniya (informatsiya);
- 4)xulosa.

Xutba nutqida odatda an’anaga ko‘ra notiq olloh va payg‘ambar sha’niga madhiya aytgan, so‘ngra jamoatni diniy qonun-qoidalarga amal qilishga chaqirgan va ana shu

fikrini diniy hujjatlar, do‘zax va jannat haqidagi rivoyatlar, qur'on oyatlari va payg‘ambar hadislari bilan asoslagan. Nutqining asosiy qismida esa siyosat haqida, ya’ni davlat yangiliklari, xalqaro ahvol hamda mahalliy axborotlarni bayon qilgan. Chunki ommaviy axborot vositalari bo‘lmagan bir davrda xatibning siyosiy axborotlari yagona informatsiya manbai bo‘lgan. Xutbaning e’tibori shu qadar yuksak bo‘lganki, hatto podshohlar o‘zlarining taxtga o‘tirganlarini rasman e’lon qildirish uchun xutbadan foydalangan. Chunki har bir xutbada olloh payg‘ambarlarga hamdu sanodan so‘ng, albatta podshohning nomi tilga olingan va unga madhiya o‘qilgan. Chunonchi, tarixchi Xondamirning guvohlik berishicha, Shayboniyxon Hirotni egallagandan keyin juma namozida “Xalifat ar-rahmon va imam az-zaman”,⁴⁵ ya’ni “zamonaning imomi va rahmdil (Alloh)ning xalifasi” unvonini qo‘shib o‘qishni buyurgan. Ushbu tarixiy voqeа xutbaning qanchalik ahamiyatli bo‘lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xutba nutqining diniy informatsion xususiyatlaridan tashqari axloqiy jihatи ham bo‘lgan. Xatib tinglovchilarga axloq-odob va gigiyena masalalarida pand-nasihat qilgan. Xutba nutqlari quruq va rasmiy tilda emas, aksincha, hikoyat, rivoyat, sarguzasht va boshqa ibratli, ayni paytda qiziqarli illustrativ materiallar asosida bayon qilingan. Bular xutba nutqining ritorik va estetik-badiiy qimmatini oshirgan.

2.Va’z diniy notiqlikka mansub ikkinchi nutq ko‘rinishidir. Va’z arabcha so‘z bo‘lib, “da’vat”, “xitob” degan ma’nolarni ifodalaydi. Bu san’at katta notiqlik iste’dodini va mahoratini talab etgan. Va’zlar keng ommaga mo‘ljallanganligi uchun diniylici jihatdan xutbaga qaraganda ancha erkin bo‘lgan. Va’z badiiylik va hissiy ta’sirchanlik jihatidan hamda tilning sodda va ravonligi bilan ham xutbadan ajralib turgan. Va’z orqali keng xalq ommasi dunyoviy va diniy bilimlar, yangiliklar va yana ko‘plab masalalarning yechimlaridan xabar topganlar. Va’zlarning quruqligi yoki badiylici va’z eshituvchi kishilarning saviyasiga, va’zxonning bilimi va mahoratiga bog‘liq bo‘lgan.

Voizlik san’atining rivojlanishi natijasida uning yangi tarmoqlari shakllangan. Bular:

1. Muzakkirlik-diniy-axloqiy masalalar bo‘yicha ma’ruza o‘qiydigan kishilar hisoblangan. Juma kunlaridagi, hayit va boshqa tantanali kunlardagi anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berishdan iborat vazifalarni ham bajarganlar. Keyinchalik bularga respublikamizda keng tarqalgan amri - ma’ruflar ham qo‘silgan.

2. Dabirlilik – davlat miqyosidagi yozishmalar bilan shug‘ullanib, ularni qiroat bilan o‘qib beruvchi shaxslar hisoblangan.

3. Notiqlik. Notiq so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, u nutq, mantiq so‘zlarini bilan o‘zakdoshdir. Nutq so‘z va tafakkurning uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Notiq

⁴⁵ Xondamir. Tarix-i as-siyar fi axbar afrad bashar. Ba muqaddima ba kalam-i Jalal ad-din Xumayi. –J.4. –Texron, 1954. 378-b.

boshqa odamlar xulq-atvoriga va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga so'z orqali ta'sir etuvchi shaxsdir. Notiqning tafakkuri va ongi uzviy bog'liqidir. Notiq mantiqiy fikrlash xususiyatiga ega bo'lgan hamda idroki, xotirasi, o'y-xayollar, irodasi, so'zamolligi, gapga chechanligi, bilimdonligi bilan oddiy odamlardan farqlanuvchi shaxs hisoblanadi.

4. Suxandon va sxuxandonlar haqida

Suxandon — so'z donishmandi, so'zlash ustasi, so'z ijodkori demakdir. Suxandonlar uchun sxuxandonlikning o'ziga xos asosiy shartlari belgilab qo'yilgan. Bular qo'yidagilardir:

Birinchidan — u ma'naviy-axloqiy yetuk, ma'rifatli, so'zga chechan, so'z ma'nolarini teran anglay oladigan, tezkor javoblari bilan kishilar hurmatiga sazovor bo'lgan zot bo'lishi;

Ikkinchidan — yoshi ulug'roq hayotiy tajriba ko'rgan, uddaburon bo'lishi;

Uchinchidan — el tanigan va elni taniydigan bo'lishi;

To'rtinchidan — nutqiy kamchiligi bo'lmasligi;

Beshinchidan — ko'rinishi ko'rkan, nuroniy va yoqimtoy bo'lishi;

Oltinchidan — davra tashkilotchisi yoki to'y-ma'raka egasiga yaqin bo'lishi;

Ettinchidan — davra qatnashchilari, xonodon ahli, mehmon-u mezbonlarning asosiy qismini taniydigan kishi bo'lishi zarur.

Yuqorida sanab o'tilgan shartlarga mos kelgan kishigina sxuxandon deb tan olingan. Davralarda kishilarni aniq va teran, ta'sirchan fikrlari orqali birlashtira oladigan shaxs sifatida qabul qilishgan.

Suxandonlikning shartlari tarkibida ularning odobi qanday bo'lishi kerakligi ham belgilab berilgan. Bular quyidagilar:

-sxuxandon, avvalo, imon-e'tiqodli, doimo tahoratda yuradigan bo'lsin;

-sxuxandonlik mavqeyidan g'arazli niyatda va qasd olish uchun foydalanmasin;

-boylikka, xirs-u tama'ga berilgan bo'lmasin;

-yig'inlarda oshirib mubolag'a qilish bilan shug'ullanmasin;

-davra, to'y-ma'raka manfaatini ko'zlab gapirsin, mavqeyini suiiste'mol qilib, o'z-o'zini targ'ib qilish, o'z shaxsiyatini ulug'lab ko'rsatishdan saqlansin;

-sxuxandonlik burchini so'zni so'zga ulash deb tushunsin, uzundan uzoq gapirib, aravani quruq olib qochmasin, balki davra ahlini, mehmon va mezbonlarni mahorat bilan so'zlatsin, ularning ko'ngillaridagi gapni topsin, qulfi dillarini ochsin.

Uslubiga ko'ra sxuxandonlar to'rt xil bo'ladi. Bir xillari na she'r, na nasriy asarlardan foydalanmay faqat oddiy gaplarni gapiradilar. Ularning nutqi kambag'al va jozibasiz bo'ladi. Ikkinci xillari faqat she'r o'qiydilar, she'rni ravon va ifodali o'qib, tinglovchilarga zavq bag'ishlaydilar. Uchinchi xillari nasriy asarlar, mo'jaz gaplar, ibora va ta'rif-u tavsiflar (qissaxonlikni) nasr bilan ado etadilar va bu toifani g'arroxon (chiroyli gapiradiganlar) deb ataydilar. To'rtinci xillari nasr va nazmni aralashtirib, o'z

ijodiy fikrlari bilan yo‘g‘irib gapiradilar. Bu toifani murassa’xon (so‘z ustasi) deb ataydilar. Bunday notiqlarning kamol-u fazli, martabalari oldingi uch guruhdan balanddir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, keyingi davrlarda respublika radio va televide niyesi orqali chiqayotgan diktordarni suxandon deb atashmoqda. Diktor-lotincha “diktor” (“so‘zlovchi”) so‘zidan olingan bo‘lib, radio va televide niyeda nutq so‘zlovchi shaxsdir. Diktor so‘zi ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1)telekamera yoki mikrofonda tayyor matnni xush ovozda ifodali va to‘g‘ri talaffuzda o‘qib beruvchi shaxs; 2) matnga qaramasdan uni ravon va chiroyli gapiruvchi shaxs.

Diktoring ikkinchi ma’nosiga xos xislatga ega bo‘lgan notiqlar diktor so‘zini suxandonning sinonimi sifatida ishlatalishadi. Notiqlik san’atining nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha taniqli mutaxassis Rahimboy Jumaniyozov “Nutqiy mahorat” qo‘llanmasida bu haqda shunday yozadi: “Boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar ko‘pincha, ma’no torayishi va kengayishi bilan kirib keladi. Suxandon so‘zi hozir diktor ma’nosida qo‘llanilmoqda. Aslida, noto‘g‘ri. Diktor bo‘lish mumkin, suxandon bo‘lolmaslik mumkin. Diktor tayyor matnni yoqimli talaffuz, diksiya bilan ifodali tarzda o‘qib beruvchidir. Diktorlar orasida suxandonlik mahoratini egallaganlari ham borligini inkor etib bo‘lmaydi. Diktor matn bilan qattiq bog‘lansa, suxandon matn bilan erkin munosabatda bo‘ladi. Nutqiy malakaga, ko‘nikmaga ega bo‘lmagan diktor tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam diktor nutq texnikasi, ya’ni ovoz, nafas, intonatsiya, pauza, ohang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan, balki nutqiy mahorat, nutqiy faoliyat qirralarini egallahga intilishi, nazariy ma’lumot va amaliy mashg‘ulotni uyg‘unlashtira olishi zarur.

Ifodali o‘qish, matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish hamda amal qilish har doim ahamiyatlidir. Diktor oldiga qo‘yilgan talablarni kundalik mashq orqali shakkantirib boradi. Lekin ba’zi diktordar nutqining sifati suxandonlarga qo‘yilgan to‘rtinch shart talabiga javob bermaydi. Ayrim nutqiy kamchiligi bor kishilarga diktordik vazifasi topshirilmoqda. Ushbu kamchilik radiordan ham ko‘ra ko‘proq televide niyeda yaqqol seziladi. Chunki televizorda notiq tomoshabin bilan bevosita yuzma-yuz bo‘ladi. Tomoshabning e’tibori notiq nutqining mazmuniga emas, balki nutqiy kamchiligiga qaratilib qoladi. Ommaviy minbarlarda xalq maqolida aytilganidek, “Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning o‘g‘li gapirsin”, qabilida ish tutimasligi lozim. Respublika radiosи va televide niyesiga eng asil suxandonlar tanlab qo‘yilishi kerak”.

5.Qissaxon.O‘tmishda qissaxonlar va afsona aytuvchilar bo‘lgan. Ular ham notiq va savodxon kishilar bo‘lishgan. Qissaxonlik yig‘inlarini kitobxonlik deb ham aytishgan. Ma’naviyatga katta e’tibor berilayotgan hozirgi zamonda ana shu an’analarni tiklash, yoshlarni jalg etish foydali bo‘lardi. Qissaxonlikning ahamiyatini XV asrdayoq

Husayn Voiz Koshifiy shunday ta'kidlaydi: "Shuni bilki, qissa o'qish va qissa eshitishning foydasi katta. Birinchidan, kishi o'tgan ajdodlarining ishi va ahvoldidan xabardor bo'ladi. Ikkinchidan, odam g'aroyib va ajoyib voqeа, sarguzashtlarni eshitsa, fikr ko'zi ochiladi. Uchinchidan, o'tganlarning zahmat-u uqubatlaridan xabardor bo'lsa, hech kim bu dunyoda tashvish-g'amdan ozod emasligini anglab, ko'ngli taskin topadi, tasalli bo'ladi. To'rtinchidan, o'tgan podsholar davlati va mulkining zavolini eshitsa, dunyo moliga mehri susayadi, boylik kishiga vafo qilmasligini bilib oladi. Beshinchidan, qissa eshitgan inson behad ko'p ibrat oladi, tajriba orttiradi. Ma'lum bo'ladiki, o'tmish ajdodlarning qissalarida foya ko'p, agar bo'lib o'tgan voqealar bo'lsa, aytuvchi va o'quvchi bilan birga eshituvchi ham undan naf topadi va agar g'ayri voqe (to'qima) bo'lsa, aytuvchi uchun gunoh hisoblansa-da, ammo eshituvchi uchun foydali va savobdir..." .

Qissaxonlik ikki xil bo'ladi: birinchisi — hikoyat, rivoyat va nasriy qissalar aytish, ikkinchisi — she'rxonlik yo'lida o'z hunarini namoyon etish. Nasr aytish odobi qoidalari bunday: qissaxonlik qiluvchi, agar u qissani boshlovchi bo'lsa, ustoz ta'limini olgan, tahsilni ustoz huzurida o'tkazgan bo'lishi lozim. Agar qissani tugatuvchi bo'lsa, o'zi mustaqil takrorlagan bo'lsin, toki esidan chiqib, tutilib qolib, davrani sovutmasin. So'zga dadil kirishsin, sustkashlik qilmasin. Tinglovchilar jamoasi qanday asarni qabul qilishini anglasin va el rag'bati ko'proq bo'lgan asarlarni tanlasin. Qissaxonlik davomida nazmni nasr bilan omuxta tarzda bayon etsin. Lekin me'yor buzilmasin. Ulug'suxandon ustozlar: "Nazm qissaxonlikda bamisoli taomga solinadigan tuzdir — agar kam bo'lsa taom ta'msiz bo'ladi va agar ko'paysa sho'r bo'ladi", — degan ekanlar. Qissaxon yolg'on va ishonarsiz so'zlarni gapirmasinki, elining nazaridan qoladi. Kinoyali, tushunilmaydigan, mavhum so'zlarni qo'llab tinglovchilarni ranjitmasin. Ta'magirlilik qilib odamlarni o'zidan bezdirmasin. Qissaxonlikni haddan tashqari tez tugatmasin, ortiq cho'zmasin ham — o'rta me'yorni saqlasin.

O'ziga xos she'rxonlik odobi qoidalari ham mavjud bo'lgan. She'rxonlik odobi quyidagilardan iboratdir: she'rning muallifini aytish, she'rni ifodali o'qish, uni odamlar qalbiga joylay olish, tinglovchilarga uni sharhlab, mag'zini chaqib berish, eshituvchilarga malol keluvchi harakatlar qilmaslik. Mana shu qoidalar bajo keltirilsa, qissaxonlik katta bir ma'rifiy ma'rakaga aylanadi.⁴⁶

6.Badihago'y. Badihago'y so'zi arabcha so'zlovchi degan ma'noni ifodalaydi. Badihago'ylar hozirjavob va so'zga chechan kishilar bo'lib, ular she'riy yo'sinda birdaniga so'z, she'r yoki qo'shiq aytuvchilar hisoblanadi. Badiha erkin tarzda ijod va ijro etilgan asar bo'lib, badihago'ydan katta tajriba va yuksak iqtidor talab etiladi.

⁴⁶ Rasulov R., Gaiobova K., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. –T.:Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2011, 63-b.

Badihago‘ylikning tur va janrlari ko‘p bo‘lib, eng ko‘p tarqalgani baxshichilikdir. O‘zbek baxshilaridan Po‘lkan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir va boshqalar baxshilik (badihago‘ylik) san’atiga munosib hissa qo‘shganlar. Ular so‘zga chechanligi, xotiraning kuchliligi bilan ajralib turganlar. Har bir baxshining o‘ziga xos ovozi va odamlarga ta’sir eta oladigan jihatlari bo‘lgan.

7. Maddoh. Maddoh-arabcha “madh” (“maqtov”, “ta’rif”) so‘zidan olingan bo‘lib, biror shaxs yoki narsa, voqeа-hodisani madh etuvchidir. U, asosan, diniy mavzularda, xususan, Muhammad (S.A.V) payg‘ambar va choriyorlarning hayoti hamda xislatlari haqidagi ma’lumotlardan badiha tarzida aytuvchi hisoblanadi. Diniy baytlarni, g‘azallarni va hikoyalarni baland ovozda keng xalq ommasi oldida ravon va ifodali aytish maddohning asosiy vazifasi hisoblanadi. Demak, maddohlik diniy aytish yo‘li bo‘lib ijrochidan notiqlik mahoratini talab qilgan. Keyinchalik maddoh so‘zining yana bir ma’nosi yuzaga keldi. Biror shaxsni, xislatni yoki g‘oyani haddan ortiq maqtovchi ham maddoh deb yuritila boshladi.

8. Askiyachi. Askiyachi – arabcha “zakiy” so‘zidan olingan bo‘lib, “hozirjavob, o‘tkir zehnli” degan ma’noni ifodalaydi. Askiyachi jamoat oldida ma’lum mavzu bo‘yicha so‘zda o‘z qobiliyatini namoyon qilib tortishuvchi kishi hisoblanadi. Askiyada ikki va undan ortiq kishi yoki ma’lum guruuhlar o‘zaro musobaqalashadilar. Askiyachining vazifasi so‘zda hozirjavob bo‘lishi, ko‘p ma’noli so‘zlarning mohiyatini anglagan holda o‘z o‘rnida qo‘llay olishi, yig‘ilganlarni kuldira olishi, shuningdek, ta’sirli va qochirimli so‘zlay olishi zarurdir. U ona tilining boyliklarini yaxshi bilishi, kinoya, qochirim, hazil, mashara, kesatiq, o‘xshatish, mubolag‘a kabi san’atlardan unumli va o‘rinli foydalanishi lozim. Askiyachining vazifasi kulgi orqali odamlarga zavq berish, ularning bilimi va aqlini charxlash, hozirjavob bo‘lishga o‘rgatishdan iboratdir.

9. Qiroatxon. Ta’sirchan, ifodali o‘qiydigan shaxs bo‘lib, qissaxon uning bir ko‘rinishidir. Qiroat musiqiylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Arabiy qiroat talabi, tajvid qoidalari bilan o‘qiluvchi Qur’on tilovati bunga misoldir. Qur’on yoddan yoki manbaning o‘zidan o‘qiladi hamda qiroatga rioya etiladi. Taniqli so‘z san’atkorlarining nomi bilan ataluvchi navoiyxonlik, boburxonlik, bedilxonlik kabilar qiroatxonlikka misol bo‘la oladi.

Demak, notiqlik san’ati tur va ko‘rinishlari katta ijtimoiy mavqega ega. Ushbu san’atning mavqeyi va ahamiyati bugungi kunda ham tobora oshib bormoqda. Zotan, mustaqil O‘zbekiston fuqarolarida yangicha dunyoqarashning shakllanishida notiqlik san’atining o‘ziga xos o‘rni bor. Bugungi kun yoshlari notiqlik san’atining tur va ko‘rinishlari haqida muayyan ma’lumot va bilimga ega bo‘lishi joiz, albatta.

1-mashq. Quyidagi matn notiqlikning qaysi turi va ko‘rinishi ekanligini aniqlang. Muayyan nutq turida ishlatilgan til birliklarini izohlang.

O‘zbekiston Qahramoni,

Xalq yozuvchisi Said Ahmadga

Muhtaram Said Ahmad aka!

Sizni hayotingizdag'i qutlug' kun – tabarruk 80 yoshingiz bilan qutlaymiz.

Xalqimiz Sizni milliy madaniyatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan betakror so'z san'atkori, zahmatkash adib sifatida biladi va qadrlaydi. Yurtimizda sehrli qalamingizga mansub go'zal romanlar, rang-barang qissa va hikoyalar, sahna asarlari kirib bormagan xonodon yo'q. Ulardagi hayat manzaralari, insonning nozik qalb kechinmalari tasviri o'zining milliyligi, xalqchil va teranligi bilan adabiyot muxlislarining mehriga sazovor bo'lган.

Millatimiz ruhining badiiy ifodasi bo'lmish "Ufq" romani, jahonning turli mamlakatlarida namoyish etilayotgan "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasi bu fikrning yorqin dalilidir.

Siz bosib o'tgan umr va ijod yo'li xalqimiz hayotini, uning yaqin tarixini butun murakkabliklari bilan o'zida mujassam etgan. Shu bois nafaqat bizning zamondoshlarimiz, balki kelgusi avlodlar ham xalqimizning o'ziga xos oljanob fazilatlari, uning boshiga tushgan og'ir sinovlar, bu yo'lida ajdodlarimiz ko'rsatgan matonat haqida Sizning asarlarингiz orqali tasavvurga ega bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Sizning bukilmas iroda va qat'iyat bilan davr bo'ronlaridan mardona o'tib, xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqayotgan mana shu ozod zamonga yetib kelganingizda ham teran ramziy ma'no bor. Bu odam yaxshi niyat yo'lida sabr-u qanoat bilan mehnat qilsa, albatta, baxtli kunlarga erishadi, degan qadim haqiqatni yana bir karra tasdiqlaydi.

Qadrli Said Ahmad aka!

Bugungi tavallud ayyomingiz yangi ma'no-mazmun bilan boyib borayotgan milliy adabiyotimizning, butun xalqimizning bayramidir. El-yurt xizmatida o'tayotgan umringizga umr qo'shilsin. Uzoq yillar adabiyotimizning aziz oqsoqoli, yoshlarimizning mehribon ustozи bo'lib yuring.

Cheksiz ehtirom ila

Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

(“Xalq so'zi”gazetasi, 2000 -yil 10 iyun)

2-mashq. Quyida berilgan tabrik nutqlarining boshlanishini o'zingiz tuzing.

- 1.Barcha o'ylagan niyatlarингizga yeting.
- 2.Ushbu xonodon sizga baxt keltirsin.
- 3.Baxtimizga ota-onamiz sog'-salomat bo'lishsin.
- 4.Hayotingiz asaldek shirin, zilol suvdek tiniq bo'lsin.
- 5.Ilmiy ishingizda yanada ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.
- 6.Bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ustozlarga tasannolar.

3-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing. N.Jumaxo‘ja o‘g‘lining og‘zaki va yozma nutq haqidagi fikrlariga qo‘silasizmi? Og‘zaki va yozma nutqni VENN diagrammasi asosida tushuntiring.

“Insho” so‘zini o‘qir ekan, ko‘pchilik gap maktab ta’limi haqida deb o‘ylar. Yo‘q, gap milliy tafakkur tarzimiz haqida. Nutqni yozma ravishda bayon etmoq – insho demakdir. Asli bu ham notiqlik san’atining bir qirrasi, san’at ichra san’atdir. Yozma nutq bilan shug‘ullanmagan biror notiqni uchratish qiyin. Zero, notiqlarning hech biri yozma nutqni sayqal toptirmasdan chinakam san’atkor darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lsa kerak. Qadim-qadim zamonlardan insho san’atiga juda katta e’tibor berilgan. Eng oddiy maktublardan tortib hikoya, qissa, roman, epopeya, hatto, murakkab uslublardagi ilmiy asarlargacha – barcha ijodiy tafakkur mahsullarining onasi insho san’atidir.

Yozma nutq bilan og‘zaki nutq bir-biriga chambarchas bog‘liq. Yozma nutq bilan shug‘ullanmagan notiq nutqining rivoji sust, sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so‘z boyligi va ifoda imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Insho mashqlarida toblanmagan nutqning uslub g‘alizligi, tafakkur darajasi sayozligi, sur’ati sekinligi, yaqqol sezilib turadi. Yozma nutq og‘zaki nutqning ravnaq topishiga muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ayni paytda og‘zaki nutq ham yozma nutqning rivojiga ijobjiy ta’sir etadi. Notiqning fikr-u o‘ylari, qalb kechinmalari yozma nutq jarayonida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga yetadi. So‘ng og‘zaki nutqda jamol ko‘rsatadi. Og‘zaki nutq ham ijod jarayoni. Unda ham inson favqulodda noyob fikr-g‘oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Ularni so‘zlab yurib yozma nutqda terib yozadi. Shuning uchun avvaldan maktablarda yozma ish va sinovning asosiy turlaridan biri sifatida insho juda to‘g‘ri kiritilgan. Og‘zaki nutq so‘zlaganda har qanday mahoratli notiq yozayotganidek xotirjamlik bilan chuqur o‘ylab fikr yuritولmaydi. Yozma nutq bilan muttasil shug‘ullanadigan notiq esa o‘ylab gapirishga odatlanib qoladi. Uzoq mashqlar natijasida, insonning yozma tafakkur tarzi bilan og‘zaki tafakkur tarzi muvofiqlashadi. Hozir insho mashqlariga e’tibor kamayib ketdi. Insho sinovlari o‘rnini test sinovlari egalladi. Bu notiqlik san’ati uchun muammodir. Shuning uchun keyingi vaqtida ko‘zga ko‘ringan nazarkarda notiqlar yetishib chiqmayapti. Oddiy o‘quvchidan tortib rahbarlik lavozimlarida ishlovchi shaxslargacha yozish desa zirillaydi. Afsuski, pul muomalasi haqida ko‘p o‘ylaymiz, lekin so‘z muomalasi haqida o‘ylamaymiz. Aslida esa, pul ham, so‘z ham boylik. Pul – moddiy boylik, so‘z esa ma’naviy boylikdir.

Yozuvchi yozma mashqlarda so‘zning yangidan-yangi ma’no ifodalash imkoniyatlarini izlab topadi va amalda qo‘llaydi. Uning uslubida so‘z va ifoda tanqisligi umuman uchramaydi. Oddiy notiq bir so‘zni doimo bir ma’noda qo‘llasa, yozma mashqi kuchli bo‘lgan notiq bir so‘zni o‘n xil ma’no tovlanishlarida qo‘llashi mumkin. Insho mashqida toblangan notiq gapirayotgan chog‘ida ifodalamoqchi bo‘lgan fikriga so‘z izlab, munosib so‘zni topolmay qiyalmaydi. Chunki yozma mashqlar mobaynida uning xotirasi ayttilmoqchi fikr tug‘ilishi bilan, uning ifodasi uchun zarur so‘zni aniq va

tezkorlik bilan topib berishga kompyuterdek moslashgan bo‘ladi. Nutq jarayonida bunday notiqning xotirasida kerakli so‘zlar ma’nodoshlar qatori avtomat magazinidagi o‘qlardek tayyor tizilib turadi. Notiq ulardan eng munosibini yashin tezligida tanlab ishlatadi. Yozma malakasi bo‘lmagan notiqning esa so‘z jamg‘armasi kambag‘al, xotirasi parishon bo‘ladi. U so‘zlayotganda kerakli so‘zni topolmay qiynaladi. Notiq shoshilinch izlanarkan, hayajonlanadi, dovdiraydi. “Haligi”, “Haligi singari”, “Nima edi?”, “Nima desam ekan?”, “Demoqchimanki”, “... e-e-e” kabi nutqiy ortiqchaliklar shundan kelib chiqadi. Nutqning sifati buziladi, ta’sirchanligi pasayadi, notiqning obro‘yi tushadi. Notiqlik mahorati ma’no ifodalashda nishonga bexato urish san’atidir. Fikrga mos ifodani o‘z vaqtida topib qo‘llamagan notiq mo‘ljaldan, albatta, adashadi. Notiqlik san’atini insho mashqlari tarbiyalaydi. Mantiqiy izchillik ham insho mashqlari samarasidir.

1-topshiriq. Kompyuter, internet, uyali aloqa, videotelefonlarning paydo bo‘lishi bilan og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi munosabat o‘zgardimi? Fikringizni xat shaklida bayon qiling.

2-topshiriq. Quyida berilgan bandlar bo‘yicha birorta notiq nutqini tahlil qiling.
Notiqqa maslahatlar bering.

- 1.Mavzu va maqsad (dolzarbmi, o‘rinlimi, qoniqarlimi?)
- 2.Kirish (jalb qiluvchi usullarni qo‘lladimi?)
- 3.Asosiy qism (Reja tuzilganmi, material boshidan oxirigacha mavzuga taalluqlimi?)
- 4.Xulosa (Xulosa qilindimi?)

3-topshiriq. O‘zingiz quyida berilgan notiqlik turlari bo‘yicha nutq tuzing. Tuzgan nutqingizga sarlavha qo‘ying va so‘zlab bering.

- 1.Maqtov nutqi tuzing.
- 2.Tashviqot nutqi tuzing. Ushbu nutqni tuzish qoidalari:
 - 1)nutq hissiy ta’sirchanlikka ega bo‘lishi kerak;
 - 2)qisqa va obrazli iboralar qo‘llanilishi lozim;
 - 3)o‘rtadan yuqoriyoq ovozda gapishtirish kerak;
 - 4)tinglovchilarning tezda qaror qabul qilishlari uchun zaruriy ma’lumotlar berilishi kerak;
- 5)hech qanday noaniqlik va to‘mtoq gaplar bo‘lmashligi lozim;

6)auditoriya tavsiya qilinayotgan harakatlarni amalga oshirish-oshirmasligini hisobga olish kerak (masalan, tavsiya qilinayotgan buyumni sotib ola oladilarmi yoki chaqiriq saylash huquqiga ega bo‘lgan odamlarga nisbatan aytilyaptimi?);

7)auditoriya roziligidagi erishish lozim;

8)nutqni muayyan harakatni amalga oshirish da’vati bilan tugatish kerak.

4-topshiriq. Notiqlikning necha turi va nutqning nechta ko‘rinishi bor? Klasterini chizing va tushuntiring.

5-topshiriq. Quyidagi matn notiqlikning qaysi turi va ko‘rinishi ekanligini aniqlang. Ushbu turga xos til birliklarini ajratib ko‘rsating.

Kechagina, albatta, biz dunyodan ozmi-ko‘pmi xabardor edik. Dunyo ham, yolg‘on bo‘lmasin, bizni ozmi-ko‘pmi bilardi. Lekin fojiamiz shunda ediki, biz dunyoni tugal tanimasdik. Dunyo ham bizni tugal tanimas va tan olmasdi. Nomimiz O‘zbekiston bo‘lgani bilan bizni bepoyon imperiyaning bir chekka viloyati deb bilar, xalqimiz esa dunyo afkor ommasi nazarida haq-huquqlarini tanimagan, olijanob shiorlar bilan pardalangan mustabid zulm ostida yashayotgan, bu zulmdan qutulib chiqishga o‘zida kuch-g‘ayrat topolmayotgan bir xalq edi.

Qarang. O‘zbekiston xalqaro o‘zaro manfaatli munosabatlarga qanchalar shitob va dadillik bilan kirib boryapti! Jahonning turli mamlakatlaridan atoqli davlat arboblari, siyosatdonlar, qudratli banklar va korxonalarining rahbarlari va kordonlar paydar pay kelib turibdilar.

Hozir O‘zbekistonga qanchalab uchuvchilar, aloqachilar, shifrlar bilan ishlovchilar, korchalonlar, harbiy mutaxassislar, zabitlar, barcha ichki va tashqi ishlarmizni eng yuksak saviyada olib boradigan siyosatdonlar, diplomatiya xodimlari – elchilar, konsullar kerak!

Mustaqillik har bir sohada shukuh va milliy sarvatga ega bo‘lishlilikni talab qiladi.

6-topshiriq. Quyidagi matn notiqlikning qaysi turi va ko‘rinishi ekanligini aniqlang. Ushbu turga xos til birliklarini ajratib tahlil qiling.

Muhtaram sudya! Jinoyat sodir etgan shaxs Saidov Qosim, tergovchining ma’lumotlariga qaraganda, u haqiqatan ham 29- martdan 30- martga o‘tar kechasi soat 21 larda bosqinchilik, ya’ni o‘zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida Obidov Baxtiyor xonadoniga kirib, 7 million 250 ming so‘m miqdordagi tilla buyumlarni o‘g‘irlab chiqayotganda Obidov Baxtiyor sezib qoladi va unga qarshilik ko‘rsatadi. Ayblanuvchi Saidov Qosim unga pichoq uradi va qochib ketadi. Ushbu jarayonlarni o‘rganib chiqib, “Jinoyat kodeksi”ning 164-moddasi, ya’ni “bosqinchilik, o‘zganing mol –mulkini talon-taroj qilish maqsadida o‘zga xonadonga bostirib kirib, hayot uchun, sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud noqonuniy qurollar bilan qo‘rkitib

sodir etilgan jinoyat” ning a va b bandlariga muvofiq tegishli jazo berishingizni so‘rayman.

7-topshiriq. Quyidagi matn notiqlikning qaysi turi va ko‘rinishi ekanligini aniqlang. Muayyan nutq turida ishlatilgan til birliklarini topib izohlang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga Janobi Oliylari,

Yaponiya Bosh vaziri lavozimiga saylanganim munosabati bilan Siz, Janobi Oliylari menga yo ‘llagan samimiy tabrigingiz uchun Sizga chin qalbimdan minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz..

Siz Janobi Oliylariga mustahkam sog ‘liq, O‘zbekiston xalqiga ravnaq va farovonlik tilashga ijozat etgaysiz,

Ehtirom bilan,

Sindzo ABE, Yaponiya Bosh vaziri

Mustaqil tayyorlashlari uchun qo‘shimcha vazifalar.

1. Quyida berilgan mavzular bo‘yicha tashviqot nutqi tuzing. Tuzgan matningiz qaysi uslubda ekanligini ayting va gapirib bering.

O‘zbek filmlarini yaxshi ko‘raman.

Zararli filmlar.

Baxt boylikda emas.

Har kuni o‘qish kerak bo‘lgan kitob.

Sport bilan shug‘ullanaylik.

Loqayd bo‘lmaylik.

Ogoh bo‘ling, odamlar!

Kattaga hurmatda – kichikka izzatda bo‘l.

Non ham non – ushog‘i ham non.

O‘zini sevgan insongina,o‘zgalarni ham seva oladi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1.Akademik notiqlikning ko‘rinishlari qaysi qatorda berilgan?

A. O‘quv yurtlari ma’ruzalari, ilmiy-ommabop nutq, ilmiy nutq, ilmiy sharh.

B. O‘quv yurtlari ma’ruzalari, ilmiy nutq, ilmiy axborot, ilmiy sharh.

S. Ilmiy axborot, ilmiy-ommabop nutq, ilmiy nutq, ilmiy sharh.

D. O‘quv yurtlari ma’ruzalari, siyosiy axborot, ilmiy nutq, ilmiy sharh.

E.Siyosiy sharh, ilmiy-ommabop nutq, ilmiy nutq, ilmiy sharh.

2. Qadimda notiqlik necha turga bo‘lingan?

A. Beshta

B. Ikkita

S. To‘rtta

D. Uchta

E. Oltita.

3. “So‘z donishmandi, so‘zlash ustasi, so‘z ijodkori” deb qaysi notiqlik ko‘rinishi bilan shug‘ullanuvchi shaxs haqida aytilgan?

A.Suxandon.

B.Va’zxon.

C.Qissaxon.

D.Badihago‘y.

E.Maddoh.

4.Qaysi nutq o‘zining jangovar ruhi, siyosiy keskin xarakteri va yuksak pafosi bilan ajralib turadi.

A.Siyosiy nutq.

B.Miting nutqi.

C.Harbiy-vatanparvarlik nutqi.

D.Tashviqot-targ‘ibot nutqi.

E.Akademik nutq.

5. Va’z qanday ma’noni ifodalaydi?

A.Notiq, nutq.

B. Da’vat, xitob.

C. Qissa, xitob.

D. Dono, da’vat.

E.Suxandon, xitob.

6.Voizlik bu.....

A. Notiqlik, ya’ni diniy notiqlik

B. Akademik notiqlik

C. Sud notiqligi

D. Ijtimoiy notiqlik

E.Siyosiy notiqlik

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Notiqlikning qanday turlarini bilasiz?

2. Suxandonlar bilan diktchlarning farqi bormi?

3. Qadimda maddohlarning vazifasi nimalardan iborat bo‘lgan?

4. Qissaxonlarning vazifalarini bilasizmi?

5. Yozma va og‘zaki nutqning ahamiyatli tomonlarini farqlab bera olasizmi?

Glossary

Va’z- da’vat, xitob.

Voiz – islomda odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so‘zlovchi shaxs.

Maddoh – biror shaxs yoki narsa, voqea-hodisani madh etuvchi.

Suxandon – so‘zga chechan, turli mavzularda nutq so‘zlaydigan madaniyatli va ma’rifatli shaxs.

Badihago‘y – so‘zga chechan kishilarning she’riy yo‘sinda birdaniga so‘z, she’r yoki qo‘shiq aytishi.

Xutba – juma va hayit namozlarida hamda katta diniy marosimlarda diniy arbobning rasmiy nutqidir.

Qissago‘y – afsona, ertak va dostonlarni ravon va ifodali o‘qiydigan kishi.

Askiyachi - hozirjavob, o‘tkir zehn egasi.

Dabirlik- kotiblik.

Xattot-chiroyli husnixat bilan yozish san’atini egallagan kishi, kalligraf.

Munshiy-yozuv ishlarini olib boruvchi kotib.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Xondamir. Tarix-i as-siyar fi axbar afrad bashar. Ba muqaddima ba kalam-i Jalal ad-din Xumayi. –J.4. –Tehron, 1954. 378-b.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jiddlik. 5-jild, 2-kitob, 373-385-betlar.
3. Z.M. Bobur. Boburnoma. -T.: Fan, 1960.
4. A.Navoiy “Muhokamatul lug‘atayn”. -T.Fan, 1982.
5. Inomxo‘jaev S. Notiqlik san’ati asoslari. –Toshkent:O‘qituvchi, 1982.
6. Jumaxo‘ja N. Istiqlol va ona tilimiz. –Toshkent:Sharq, 1992.
- 7.Rasulov R., Gayubova K., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T.:Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2011.

NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYAT

Tayanch so‘zlar: Nutq uslublari, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, rasmiy ish turlari, og‘zaki nutq uslubi, yozma nutq uslubi, publitsistik uslub, ilmiy uslub, ilmiy uslub turlari, nutq uslublarining ahamiyati, o‘rni.

Nutq madaniyati bilan amaliy uslubiyatning bog‘liq va farqli jihatlari. Nutq madaniyati tushunchasining mohiyatini, uning maqsad – vazifalarini belgilash, nutq

madaniyati bilan uslubiyat fani orasidagi munosabatni aniqlash nihoyatda muhimdir. Mavjud ishlarda bu masalada quyidagi nuqtayi nazarlar bayon qilingan:

1. Nutq madaniyati – bu uslubiyatning o‘zidir.
2. Nutq madaniyati – bu amaliy uslubiyatdir.
3. Nutq madaniyati bilan uslubiyat o‘zaro zich bog‘langan sohadir.
4. Nutq madaniyati va uslubiyat o‘zaro zich aloqador, ammo har biri o‘zicha lisoniy hodisa va mustaqil ilmiy sohalardir.

So‘nggi yillarda amaliy uslubiyat bilan nutq madaniyatining aloqador va farqli jihatlari ma’lum darajada aniqlandi;

-nutq madaniyati va uslubiyat tilshunoslikning bir-biriga aloqador, ammo alohida mustaqil sohalaridir;

- uslubiyat sohasi, ayniqsa, amaliy uslubiyat nutq madaniyatini yaxshilashga yordam bera oladigan omillardan biridir.

- nutq madaniyati sohasi nutqni va umuman til hodisalarini uslubiy planda, tilning barcha uslubiy ko‘rinishlarini hisobga olgan holda o‘rganishi zarur.

Nutq madaniyati hamda uslubiyat nutqiy uslublarga munosabatda ham o‘zaro farqlanadi. Uslubiyat til va nutqning barcha uslubiy ko‘rinishlarini nazarda tutadi, nutq madaniyati sohasini ko‘proq adabiy tilga mansub uslublar tili qiziqtiradi.

Nutq madaniyati o‘zining maqsad va vazifalariga ko‘ra ancha keng soha, uslubiyat esa unga nisbatan tor soha hisoblanadi.

Vazifaviy uslublarning til xususiyatlarini bilish, uni mukammal egallash hamda undan nutq sharoitiga mos ravishda o‘rinli foydalanish nihoyatda muhimdir. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, ayrim mualliflar o‘z ishlarida ilmiy va ilmiy-ommabop uslubni, badiiy va publitsistik uslubni aralashtirib yuboradilar, bu ma’lum xatoliklarni yuzaga keltiradi. Vazifaviy uslublarning har biriga xos, moslashgan til vositalarini nutqiy jarayonda to‘g‘ri tanlay olish hamda qo‘llash muallifdan bilimdonlikni, zukkolikni, topqirlikni talab etadi.

So‘zni o‘z o‘rnida qo‘llab nutq so‘zlash faqat lingvistik emas, ijtimoiy ahamiyatga ham ega. So‘zning vazifasi faqat axborotni yetkazishgina emas, balki so‘zlovchining odamlarga, jamiyatga bo‘lgan munosabatini ham ko‘rsatadi. Shuning uchun so‘zlovchi nutqining odamlarga qanday ta’sir qilishini doimo yodda tutmog‘i lozim. O‘rinsiz aytilgan so‘z kishi qalbini yaralashi, or-nomusiga tegishi mumkinligini o‘ylab inson barmoqni tishlab qolmaslik uchun hamisha qopib emas, topib gapirishga intilishi kerak. Shuning uchun inson muloqotga kirishayotganda tinglovchilarning psixologik xususiyatlariga ham e’tiborni qaratishi lozim bo‘ladi.

Nutq madaniyati adabiy til sathida shakllanuvchi uslublar – ilmiy uslub, ilmiy-ommabop uslub, rasmiy uslub, ilmiy-publitsistik uslub, adabiy so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub hamda ular tayanuvchi me’yorlarga asoslanadi. Shu jihatlardan kelib chiqib, nutq madaniyati va uslubiyatni farqlash zarur. Biroq ular bir-birini to‘ldiruvchi, bog‘liq

sohalardir. Buni hech qachon unutmaslik lozim. Kishilik jamiyatida til birliklaridan foydalanishda turli xil bo‘lishi tabiiy, chunki har bir so‘zlovchi nutq tuzayotganda, o‘zining bilim saviyasidan, tilning qonuniyathalarini qay darajada bilishidan, mantiqiy tafakkur qila olishidan kelib chiqib tuzadi va tinglovchiga yetkazishga harakat qiladi. Ayniqsa, ularning suhbat mavzusi qaysi sohaga daxldor bo‘lsa, o‘sha sohaga aloqador atamalar, iboralar ko‘proq qo‘llanadi, bu esa o‘z- o‘zidan o‘ziga xos, betakror uslubdan foydalanishni talab etadi.

Nutq madaniyati sohasi uslubiyatdan nutqiy uslublarga yondashish jihatidan ham farqlanadi. Nutq madaniyati sohasi uslublarga adabiy til me’yorlari, axloqiy-estetik qarashlar nuqtayi nazaridan yondashadi, ya’ni jargonlar, vulgarizmlar, varvarizmlarni inkor qiladi, ularni nutq madaniyatini buzadigan hodisalar deb baholaydi.

Shuningdek, nutq madaniyati so‘zlarning yozilishi va aytilishiga ko‘ra noto‘liq, buzilgan variantlarni salbiy baholaydi. Uslubiyat tilning yuqorida keltirilgan vositalarini uslubiy vazifasiga ko‘ra o‘rganadi va baholaydi. Uslubiyatni o‘zbek alifbosi, imlosi va orfoepiyasini takomillashtirish ishi deyarli qiziqtirmaydi. Nutq madaniyati bular bilan jiddiy qiziqadi.

Uslubiyat o‘z mundarijasiga ko‘ra: fonetik, leksik va grammatik ko‘rinishlarga ega. Ya’ni tildagi fonetik, leksik va grammatik vositalardan nutqda maqsadga muvofiq tanlab ishlatish qonun-qoidalarini o‘rgatishga yordam beradi.

Ko‘rinadiki, nutq madaniyati o‘z maqsad va vazifasiga ko‘ra ancha keng hodisa bo‘lsa, uslubiyat anchagina tor, juz’iy sohadir. Shunday qilib, nutq madaniyati bilan uslubiyat sohalari teng hodisalar emas, ammo ular biri ikkinchisini to‘ldiradi.

Ma’lumki, gap nutqning eng kichik birligi hisoblanadi. Biz gaplar vositasida biror narsani ataymiz, biron-bir narsa haqida xabar beramiz, aytilayotgan fikrga o‘z munosabatimizni, his-tuyg‘ularimizni bildiramiz. Demak, gaplar bir nechta vazifani: nominativ–atash, kommunikativ-xabar, darak va ekspressiya kabilarni bajaradi. Har qanday tilning eng asosiy vazifasi, avvalo, kommunikativ funksiya bo‘lib, kishilar bir-birlari bilan o‘zaro axborot almashishda eng zarur aloqa vositasi sifatida gaplardan foydalanadilar. Biroq odamlar nutqiy sharoitga, ko‘zlagan maqsadlariga qarab til vositalarini tanlab ishlatadilar va shu tarzda nutqning turli vazifaviy uslublari vujudga keladi. Demak, uslubiyat muayyan fikrni va unga munosabatni bildirish uchun tilning turli vositalaridan maqsadli tarzda tanlab foydalanish yo‘llarini o‘rgatuvchi til bo‘limidir. Jahon tilshunosligida uslubiyat stilistika (grekcha stil - tayoqcha so‘zidan olingan) deb yuritiladi. Stil – uslub atamasi tilda quyidagi ma’nolarda ham qo‘llanadi:

-biror yozuvchi yoki badiiy asarning til xususiyatlarini o‘rganish, masalan, A.Qahhor uslubi yoki muayyan asar tili kabi;

-ma’lum bir davr adabiyoti yoki san’atining o‘ziga xos xususiyatlari yoxud belgilari yig‘indisi, masalan, doston uslubi kabi;

-nutqning adabiy til me'yorlariga moslik darajasini aniqlash uchun, masalan, sodda, ravon, g'aliz uslub yoki uslubiy xatolar kabi;

-harakat va faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash, masalan, so'zlash uslubi, rahbarlik uslubi kabi.

Demak, «stil» so'zi biror narsa yoki holat uchun xos bo'lgan xususiyatlarni anglatadi va filologiyaning tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'limlari o'rtasidagi oraliq fan hisoblanadi. Uslubiyat nutq tuzish yo'llari haqidagi ta'limot. Chin ma'noda madaniy nutq tuza olish uchun kishi nutq uslublarini bilishi talab qilinadi. Zero, har bir uslub o'z nutq madaniyatiga egadir. Masalan, bir uslubda ishlatalgan so'zni boshqasida qo'llash maqsadga muvofiq emas. Bu haqda Kaykovus shunday yozadi: «Nasrda ishlatalgan so'zni nazmga surma, chunki nasr raiyat maqomida, nazm esa podshoh manzilasidandir».

Uslubiyatni bilish va uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, tilning adabiy til me'yorlarini yaxshi bilish lozim. Adabiy til me'yorlari til vositalarining nutqda qo'llanishini belgilab beruvchi qoidalar yig'indisi bo'lib, ular har bir til bo'limida ko'rib chiqiladi, ya'ni leksikologiyada leksik-semantik me'yorlar, fonetikada orfoepik va orfografik me'yorlar, grammatikada morfologik va sintaktik me'yorlar o'r ganiladi. Ana shu me'yorlarni yaxshi bilgan holda ulardan nutq jarayonida o'zi ko'zlagan maqsadiga moslab foydalanish, nutq tovushlari, so'z shakllari va gaplarning ma'no qirralari va nutqiy imkoniyatlarini o'rini qo'llash orqali nutqda ta'sirchanlikka erishish usullari nutq uslublarida o'r ganiladi.

Nutq uslublarining har biri tilda alohida yagona bir tizimni tashkil qiladi. Nutq uslubining bir-biriga bog'liq elementlar tizimini tashkil qilishi aloqa-aratashuv quroli bo'lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. To'g'ri, tilning fonetik tuzilishi grammatik qurilishi va lug'at tarkibining har biri ham alohida bir tizimni, tilning o'zi esa yaxlit holda butun bir tizimni tashkil etadi. Tilning vazifaviy uslublari mana shu leksik, grammatik va fonetik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko'ra uyushishi tufayli bunyodga keladi. U faqat muayyan hodisalar tizimi bilangina emas, balki ularning bog'lanishi, aloqasi va munosabatlari bilan ham xarakterlanadi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi-funksiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslublar deb ham yuritiladi.

Vazifaviy uslubning umumxalq tili xazinasidan tanlab olgan vositalari ayni shu stil sistemasini tashkil qiladi. Tildagi bu uslubiy hodisalar tarqoq xarakterda bo'lmay, balki kommunikativ vazifasi va umumiylilikka ega. Adabiy me'yor tilning tovush tizimini, grammatik qurilishi hamda uning lug'at tarkibidagi eng tiniq hayotiy va zaruriy elementlarni tanlab olish asosida tashkil topadi. U tilning eng yuksak, ishlangan, silliqlashgan shaklidir. Adabiy

me'yorlar faqat yozma adabiy til uchungina taalluqli bo'lmay, u og'zaki adabiy til uchun ham zaruriy holatdir. Shuning uchun ham adabiy tilning og'zaki shaklida (ma'ruza, radio-televideiniyedagi chiqishlar, jonli suhbatlar) ham adabiy me'yorga bo'ysuniladi, uning qonun-qoidalariga rioya qilinadi. Tilning vazifadosh uslublari nutq ko'rinishlarining asosiy funksiyalariga (aloqa-aratashuv; ta'sir etish vositasi bo'lishiga) muvofiq qismlarga bo'linishidir.

Shunga ko'ra adabiy til quyidagi vazifaviy uslublardan tashkil topadi: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, rasmiy uslub.

So'zlashuv uslubi. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv uslubi va oddiy so'zlashuv uslubi.

Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Uning tili sodda: jargon va sheva elementlaridan xolidir. Adabiy so'zlashuv uslubi o'z adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va ma'lum bo'lgan asosiy uslub hisoblanadi. Tilning adabiy so'zlashuv uslubi kundalik aloqa-aratashuv uchun xizmat qiladi: ta'lim muassasalarida o'qitish ishlari shu uslubda olib boriladi, undan badiiy adabiyotda juda keng foydalaniladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turidir.

Oddiy so'zlashuv uslubi uchun nutq muomalasi jarayonida adabiy til hamda sheva elementlaridan foydalanish xarakterli xususiyatdir. Bu uslubda so'zlashuv nutqiga xos emotsiyonallik yaqqol sezilib turadi. Oddiy so'zlashuv uslubi tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy me'yorlariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik-frazeologik hodisalarini kiritish mumkin. So'zlashuv uslubining fonetik xususiyatlari so'zlashuv uslubida, bir tomonidan, umumadabiy tilga xos, ikkinchi tomonidan, og'zaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarni ko'rish mumkin.

Nutqning xarakter va xususiyatlariga ko'ra talaffuz me'yorlarini ikki turga ajratish mumkin. Birinchi talaffuz me'yor ma'ruzachilar, aktyorlar, diktitorlar, notiqlar nutqi uchun xarakterli bo'lib, adabiy til me'yorlariga rioya qilishni talab etadi, unda har bir so'z aniq talaffuz qilinishi shart.

Ikkinci talaffuz me'yor esa, asosan, so'zlashuvda, og'zaki nutqda uchraydi. So'zlashuv uslubida umumiste'moldagi adabiy-neytral so'zlarni talaffuz qilishda birmuncha erkinlik sezilib turadi.

So'zlashuv uslubi fonetik, leksik va grammatik o'ziga xosliklarga ega:

-so'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashinishi: *tuproq-turpoq, daryo-dayro*.

-so'z tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: *maorif-morif, charxlamoq-chaxlamoq, saodat-sodat*.

-biror tovushning orttirilishi: *ro 'mol-o 'ramol, shkaf-ishkop, bank-banka*.

-tovush almashinishi: *tavsiya-tafsiya, chiroq-chiroq', maktab-maxtab*.

1. So'zlashuv uslubida hissiy-ta'sirchan so'zlar ko'p qo'llaniladi. Masalan:mesh qorin, *og'zi qulog 'ida, kapalagi uchib ketdi*.

2.So‘zlashuv uslubida shevaga xos so‘zlar ham qo‘llanilaveradi: garmdori-qalampir.

3.So‘zlashuv uslubida kishi ismlari qisqartirilib qo‘llanishi ko‘p uchraydi: Nurmuhammad- Mamat, Zulayhobonu - Zulay.

4. So‘zlashuv uslubida so‘zlar tartibi erkin bo‘ladi. *Kecha bordim men, bozorga.*

5.Ega vaziyatga ko‘ra nutqda qo‘llanmaydi: *Ana kelyapti.*

6. So‘zlashuv uslubida undov so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi: *Voy bechora!*

7. So‘zlashuv uslubida ko‘p ma’noli so‘zlar tez-tez ishlatiladi.

8. Sinonim so‘zlarning takrorlanishi ko‘p kuzatiladi: aka, akajon, akamey, akang qarag‘ay, akaxon.

9.So‘zlash jarayonida noverbal vositalardan:imo-ishoralar ko‘p foydalaniladi.

10. So‘zlashuv uslubida fikr avtomatik ravishda tayyorgarliksiz aytiladi.

11.Chet so‘zlar aralashtiriladi.

12.Ijobiy ma’no anglatadigan so‘zlar salbiy ma’noda qo‘llaniladi: aqlli, chiroyli, dono.

-*aldoqchi, jinday, shunaqangi* kabi so‘zlarning ko‘p ishlatilishi.

-chilik. –garchilik qo‘shimchalarining keng qo‘llanilishi: *xafagarchilik, sherikchilik.*

-fe’l kesimning ishlatilmasligi: *men bozorga, biz siznikiga.*

-to‘liqsiz gaplar ishlatiladi.

-dialogik shaklda bo‘ladi.

-imo-ishoralar ko‘p ishlatiladi.

So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos belgi va farqlaridan qat’i nazar, adabiy til me’yorlari asosida umumiylukka ega. So‘zlashuv uslubi ham umumxalq boyligi hisoblanadi.

Badiiy uslub. Badiiy uslub inson hayotining barcha tomonlarini qamrab olishi va umuminsoniyatga xosligi, til va nutqning barcha vositalaridan foydalanishi hamda o‘quvchi yoki tinglovchiga emotsional-estetik ta’sir etishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Badiiy nutq uslubida har bir uslubga xos bo‘lgan «o‘z doirasi bilan chegaralanish» yo‘q, unda hamma uslub materiallaridan foydalanish mumkin, hatto adabiy til me’yorlaridan chekinish ham mumkin. Bu uslubda adabiy tilga oid so‘zlar bilan bir qatorda shevaga xos so‘zlar ham, turli kasb-hunarga oid so‘zlar, arxaik - eskirgan so‘zlar, hatto maxsus ilmiy atamalar ham ishlatilishi mumkin, biroq bularning barchasi janrga qarab tanlanadi va muayyan maqsadni ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy uslub badiiy asar tili sifatida namoyon bo‘ladi, shuning uchun emotsionallik, ta’sirchanlik va obratzlik uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Yozuvchi va shoirlar so‘z yordamida real borliq manzaralarini o‘quvchi ko‘zi o‘ngida qaytadan yaratadi, ya’ni uning obrazini jonlantiradi. Badiiy asar, chunonchi, falsafadan shu bilan farqlanadiki, falsafa isbot etadi, adabiyot esa ko‘rsatadi. Ana shu ko‘rsatish, jonlantirish tilning

tasviriy-ifodaviy vositalarga boy bo‘lishini talab qiladi. Badiiy uslub, ayniqsa, so‘zlarning mohirlik bilan tanlanishi, muallifning imkoniyat doirasi juda kengligi, o‘ziga xos yo‘li, ijodkorlik xususiyatlari bilan barcha nutq uslublaridan ajralib turadi. Badiiy asardagi har bir so‘z tasviriy vosita hisoblanishi mumkin, chunki u asar mazmuniga, personaj xususiyatiga qarab tanlanadi. Shuning uchun badiiy asar tilida metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o‘xshatish, majoz, jonlantirish, allegoriya, ramz, giperbola va litota kabi tilning tasviriy vositalari ko‘p uchraydi, ritorik so‘roq gaplar, his-hayajon gaplardan, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar, uyushiq bo‘laklar ko‘p qo‘llanadi. Gap bo‘laklarining erkin tuzilishi, inversiyalarning ko‘p uchrashi kuzatiladi, ko‘proq nutqning monologik turi qo‘llanadi. Masalan, ega va kesim inversiyasi, ayniqsa, she’riyatda ko‘p uchraydi. Bunda vazn, qofiya, turoq talabi bilan ko‘pincha kesim egadan oldin kelib, badiiylik uchun, fikr ta’sirchanligi uchun xizmat qiladi: *Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini, G‘asb ila molin olib, qo‘ymadingiz bitini.* (Turdi)

Xullas, badiiy uslubda muallif asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanishi, turli tasviriy vositalarni qo‘llashi yoki o‘zi yangilarini yaratishi mumkin. Quyida keltiriladigan misollar aytilgan fikrlarni tasdiqlaydi:

Mirzo Ulug‘bek ko‘zini undan uzib shiftga, sham terilgan chambarak tilla qandilga tikdi. ”Yo,tavba! Bu toj-u taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o‘ltirgan har bir kimsa darhol o‘zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqir-u naqir ekanini darhol unutadi? Bu toj-u taxt, bu sultanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yoddan chiqaradi? Nainki shahzoda, bu taxt hattokim amirul muslimin atalmish Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushunmaydi? Ana go‘yo bobosi Amir Temurday gerdayib o‘tiribdi! Bilmaydikim... yo‘q, to‘xta, Muhammad Tarag‘ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen? Bu vafosiz toj-u taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq lazzati o‘zingni ham aql-u hushingdan ayirmagan edimu? Shahzoda yaxshi bo‘lsun, yomon bo‘lsun – o‘z farzanding, o‘z pushti kamaringdan bo‘lg‘an zurriyoting emasmu?... Ot tepkisini ot ko‘taradur. Uni qarg‘ab, yomonlik tilagandan yaxshi so‘zingni so‘zlab, nasihatingni qilganing maqbul emasmu, ey osiy banda?” (O.Yoqubov. *Ulug‘bek xazinasi*)

Matnda Mirzo Ulug‘bekning ruhiy iztiroblari, o‘y-mushohadalarini ifodalovchi so‘zlar, so‘z birikmalari ritorik so‘roq gaplar o‘quvchini hayajon va hayratga soladi, o‘y-mushohadaga undaydi. Gaplar tarkibida ko‘plab ko‘chma ma’noli hamda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarning mavjudligi, jumlalarda obraslilikning ifodalanishi badiiy uslubga xos xususiyatlardir. She’riyatda ham badiiy obraslilikning go‘zal namunalarini kuzatish mumkin:

*Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux bu chehrai zardim. (Bobur)*

Boburning ushbu ruboiysi badiiy jihatdan juda yuksakdir. Ma’no jihatdan bir-biriga qarama-qarshi so‘z va iboralarni bir-biriga zid qo‘yib, xazon yaprog‘i – gul yuz,

lolarux – chehrai zard, ya’ni fikr va holatni tazod yordamida qarshilantirib ajoyib ta’sirchanlikka erishgan.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, badiiy uslubning imkoniyatlari, vosita va usullari juda keng, boy va rang-barangdir.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub fanning turli sohalariga aloqador so‘z va terminlarni (atamalarni) qo‘llashi bilan, bayonning ko‘proq mantiqiy dalillarga suyanishi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Ilmiy uslubda tabiat va jamiyat hodisalari aniq, qandaydir qoidalar, formulalar asosida ifodalanadi. Ilmiy bayonda fikr mantiqiy va ashyoviy dalillar bilan mustahkamlanib boradi. Ilmiy kommunikatsiyaning o‘ziga xos bayon qilish usul va yo‘llari mavjud va bular quyidagilardir:

- Axborotni obyektiv va aniq ifodalash;
- fikrni mantiqiy va ashyoviy dalillar bilan asoslash;
- nutqning ma’lumotlarga boyligi;
- fikrni qisqa va lo‘nda ifodalash.

Bu uslubning o‘z leksikasi va grammatik qurilishi bo‘lib, uni asosan, terminlar va atamalar tashkil qiladi. Ilmiy uslubda to‘liqsiz gaplar, bir tarkibli gaplar, so‘z-gaplar deyarli uchramaydi. So‘zlashuvning qisqa dialog turi ham ilmiy uslubda yozilgan asarlar uchun begonadir.

Ilmiy uslubning leksik xususiyatlari:

1. Kitobiy, neytral so‘zlar to‘g‘ri ma’noda qo‘llanadi.
2. Oddiy so‘zlashuv nutqi unsurlari, sheva va jargonlardan foydalanilmaydi.
3. Tipik nutqiy oborotlar qo‘llanadi (*xulosa qilib shuni aytish mumkinki* kabi).
4. Ilmiy termin va atamalar ko‘p ishlatiladi.

Ilmiy uslubning morfologik va sintaktik xususiyatlari:

1. Turli xil tushunchalarni ifodalovchi otlarning ko‘p ishlatilishi.
2. Birlik shaklda qo‘llanuvchi narsalarning ko‘plik shaklida ishlatilishi (*suvlar, moylar, tuproqlar*).

3. Ergash gapli qo‘shma gaplar qo‘llanadi.
4. Kirish so‘zlar qo‘llanadi: *demak, shunday qilib, shuningdek* kabi.

5. Fe’lning majhul nisbat shaklidan ko‘proq foydalaniladi: *tajriba o‘tkaziladi, materiallar foydalanildi*.

6. 1 va 2-shaxs birlidagi fe’llar hamda 1-va 2-shaxs ko‘plik shaklidagi kishilik olmoshlari qo‘llanilmaydi

Ilmiy uslubning ilmiy va ilmiy-ommabop ko‘rinishlari bor. Ilmiy-ommabop bayon o‘zining leksik tarkibi va sintaksisi bilan xalq ommasiga mo‘ljallangan bo‘ladi: bunga izohli lug‘atlar, sohalarga oid lug‘atlar kiradi. Ilmiy uslubda esa tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta’riflanadi, tushuntiriladi. Bu uslub o‘zining alohida maxsus vazifasiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ilmiy uslub ilmiy terminologiya bilan bog‘liq. Odatda, terminlar ilmiy uslubning leksikasini tashkil etadi. Lekin ilmiy asarlar

tili faqat terminlardangina tashkil topmay, unda mavhum leksika va ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lgan umumxalq so‘zlari ham shartli ravishda qo‘llanadi. Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid ramz va belgilari, raqamlari ham ishlatiladi.

Ilmiy uslubning grammatik qurilishi mantiqiy bog‘liqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab etadi. Shuning uchun ilmiy uslubda ellipsis (nazarda tutilgan birorta so‘zning tushib qolishi) hodisasidan qochiladi. Masalan, predmetning belgisini bildirib, qanday, qanaqa so‘roqlariga javob beradigan so‘zlar turkumiga sifat so‘z turkumi deyiladi. Keltirilgan ta’rif ilmiy bayonda bo‘lib, bunda fikrlar aniq va izchil tarzda beriladi.

Ilmiy uslubning og‘zaki va yozma shakllari ham mavjud. Ilmiy og‘zaki uslub tili ancha so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lsa-da, biroq undagi qo‘llanayotgan so‘z-terminlar, aniqlik, ta’rif va izchilliklar ilmiy uslub ekanligini isbotlab turadi. Bunda adabiy tilning og‘zaki shakli muhim o‘rin tutadi. Ilmiy uslubda fikr yuritayotgan shaxs turli xil tasviriy vositalarni iloji boricha qo‘llamasligi lozim. Har bir fikr o‘z tasdig‘ini ilmiy va mantiqiy asosda topmog‘i zarur. Ilmiy uslubning yozma shakli deganda turli xil ilmiy doiradagi o‘quv qo‘llanmalar tili tushuniladi. Bu uslubning o‘z leksikasi va grammatik qurilishi bo‘lib, uni asosan, yuqorida aytganimizdek terminlar va atamalar tashkil qiladi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash kerakki, ba’zi ilmiy asarlarda termin va atama tushunchasiga turlicha qarashlar mavjud. Bizning fikrimizcha, termin bilan atama ilmiy uslubning leksikasidir. Termin ilm-fanga tegishli bo‘lgan tushunchalarning nomi *fonetika, ega, kesim, kislorod, vodorod* kabi. Atama esa mavjud narsalarga atab qo‘yilgan nom: *inson, osmon, kitob, olma* kabi.

Ilmiy uslub tili yoki uning yo‘nalishini ilmiy tadqiqot ishlarida, ma’ruzada, sharh, annotatsiya kabilarda kuzatish mumkin. Demak, ilmiy uslub bugungi kunda alohida soha sifatida shakllanib kelmoqda. Ilmiy uslubga doir qanday ish yoki asar yozilmasin, unda muhim mavzuning o‘ziga xos jihatlari ochib berilishi shart.

Xullas, ilmiy uslub biror narsa, voqeа-hodisa haqida aniq, asoslangan, izchil ma’lumot berishga qaratilgan bo‘ladi, shunga ko‘ra unda ta’riflab berish, tahlil qilish sababini aniqlab, isbotlash va natijalarini bayon qilish asosiy o‘rin oladi. Ilmiy uslub fan-texnika va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifaviy uslubdir. U yana ilmiy-texnikaviy, ilmiy-hujjat, ilmiy-ommabop, o‘quv-ilmiy, publitsistik kabi jabhalarga ega. Fanning u yoki bu sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi termin va atamalarga boyligi ilmiy uslubning eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Ko‘rinadiki, ilmiy uslub adabiy tilning me’yorlarini to‘la saqlash bilan ham ajralib turadi. Bu uslubda nutqning ixcham bo‘lishiga intilish kuchli, lekin sintaktik qurilma ko‘pincha murakkab bo‘ladi.

Publitsistik uslub. Publitsistika - lotincha «ijtimoiy» so‘zidan olingan. Publitsistika keng ma’noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagи asarlarni o‘z ichiga oladi. Bu uslubning ham ikki turi, ya’ni yozma va og‘zaki ko‘rinishlari mavjud. Yozma turiga asosan matbuot tili kiradi. Publitsistik uslub o‘zbek

adabiy tilining nutq uslublari tizimida, asosan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo‘la boshlaydi. Chunki bu davrga kelib, ya’ni 1883-yilning boshlaridan, o‘zbek tilida ilk gazetalardan - «Turkiston viloyatining gazeti», «Oyina», «Sadoi Turkiston» gazetalari chiqa boshladi. XX asr boshida esa nashriyot va vaqtli matbuot ishlari doirasining yanada kengayishi hamda o‘zbek demokratik yozuvchilar ijodida badiiy publitsistikaning keng o‘rin olishi kabi omillar o‘zbek adabiiy tilida publitsistik uslubning paydo bo‘lishi va shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng o‘zbek adabiy tilining publitsistik uslubi har tomonlama takomillashdi, o‘z taraqqiyotining yuqori pog‘onasiga ko‘tarilmoqda. Ayniqsa, mumtoz asarlarning o‘zbek tiliga tarjimasi, vaqtli matbuot va nashriyotda hozirgi zamonning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan materiallarning keng yoritilishi, radio va televide niye orqali siyosat va ijtimoiy hayot masalalariga bag‘ishlangan publitsistik bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar publitsistik uslubning yozma turidagi asarlaridir. O‘zbek adabiy tilining publitsistik uslubi matbuot tili rivojida muhim o‘rin tutadi. Mazkur uslub orqali omma bilan doimiy muloqot olib boriladi va u ommaga operativ tarzda informatsiya berish vazifasini bajaradi. Xorijiy so‘zlarga, tom ma’nodagi professionalizmga, so‘zlashuv uslubiga intilish publitsistikaga xos xususiyatdir. Ular gazetaning umumlisoniy qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Ular omma ongiga ta’sir etib, uni tarbiyalaydi.

Publitsistik uslubning og‘zaki turiga esa notiqlik kiradi. O‘tmishning mashhur notiqlari kishilarning ijtimoiy aloqa quroli bo‘lgan tildan ma’lum g‘oyaviy maqsadni ifodalash hamda estetik ta’sir etish vositasi sifatida mohirona foydalanib kelganlar. Publitsistik uslubning og‘zaki turiga kundalik voqealarga doir maqolalar yoki xalqaro obzor bilan radio va televide niyeda chiqayotgan sharhlovchilarning nutqlari ham kiradi.

Publitsistik uslubning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lsa-da, ular publitsistik uslubning umumiyl talablariga bo‘ysunadi. Chunonchi, bu uslubning ikkala turida publitsistikaga xos siyosiy faollik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ‘ibot kabi xususiyatlar mavjud bo‘ladi.

Publitsistik uslub quyidagi til birliklarining qo‘llanilishi bilan farqlanadi:

1. Leksik

- Ijtimoiy-siyosiy leksika
- So‘zlashuv leksikasi
- Neologizmlar (muallif neologizmlari)
- So‘zlarning ko‘chma ma’noda ishlatilishi
- Leksik takrorlar
- Frazeologizmlar, maqol va matallar

2. Morfologik

- so‘z yasalishi (monopoliyachi, separatchi)

-yasovchi qo'shimchalar orqali ko'chma ma'no hosil qilinishi (shaharsozlar-quruvchilar, ziyokorlar –o'qituvchilar)

3. Sintaktik

- darak, so'roq, undov gaplar
- to'liqsiz gaplar

– uyushiq bo'lakli gaplar

-kirish bo'lakli va kirish qurilmali gaplar

-qoliplangan til birliklari (vaziyatni keskinlashtirish, iqtisodiy tejamkorlik).

Publitsistik uslubda nutqning obrazliligi barqaror xarakterga ega bo'ladi. Ibora, tasviriy ifoda, istiora, epitet, o'xshatish, mubolag'a, kesatish kabi his-tuyg'uga ta'sir etuvchi vositalar umumxalq tilidan olinadi. Publitsistikada leksikani tanlash mantiqiylilik va emotsiyonallik talabiga ko'ra belgilanadi. Til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish imkoniyatlari, eng avvalo, publitsistik nutqning janr turlariga, ularning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Bundan tashqari, publitsistik materiallarning barcha turlarida, chunonchi, pamphlet, felyeton va notiqlikda muallifning o'ziga xos individual uslubi ham sezilib turadi. Publitsistik uslubning sintaktik tuzilishi ham o'ziga xos. Ya'ni unda sodda gap turlari ham, qo'shma gapning o'zaro **va, ham, yoki** teng bog'lovchilari yordamida birikkan bog'langan qo'shma gaplar turi ham ishlatiladi. Sintaktik parallelizmlar ham ishlatiladi: *huquqda bo'lsin, sharaf-shonda bo'lsin, oilada bo'lsin, ishq va vafoda bo'lsin* kabi. Bu kabi sintaktik takror fikr va hisni yaqqol ifodalash bilan birga, ta'sirni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, publitsistik nutqda obrazlilikka katta e'tibor beriladi. Tilning tasviriy vositalaridan keng foydalaniladi. Til vositalarini tanlash mantiqiylilik va emotsiyonallik talabiga qarab amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, tilni puxta o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta egallah, mantiqli so'zlashni o'rganish, nutqning ichki(mazmun) va tashqi(shakl) ko'rinishiga birday e'tibor berish, go'zal va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o'rinni ishlatish vazifalarini qo'yadi.

Rasmiy uslub. Rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Mazkur uslub hujjatchilik xarakteri bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Rasmiy yozishma va hujjatlar iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, ma'muriy - davlat idoralarida ishlatiladi. Shunga ko'ra rasmiy uslubda yuridik qonunlar, diplomatik yozishmalar, farmonlar, qarorlar, ko'rsatmalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi.

Rasmiy yozishma va hujjatlar tilining qo'llanish doirasi keng va xilma-xil bo'lganligidan, uning tarkibi ham turlichadir. Fikrning sodda, qisqa, aniq ifoda etilishi

rasmiy ish qog‘ozlari uslubining asosiy talabidir. Ular o‘ziga xos leksik va grammatik xususiyatlarga ega:

- professional terminlar (guvohnoma, dalolatnama, bayonot, elchixona, ishonchli vakil, qidiruv);
- turg‘un iboralar (imzo chekuvchilar, yuqorida ko‘rsatilganlar);
- tilga olinayotgan kishilar o‘z nomi bilan atalmasdan, buning o‘rniga ularning belgisi yoki biror harakati, narsaga munosabatini ifodalovchi otlar qo‘llanadi (guvoh, da’vogar, ijrochi);
- noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun otlar olmoshlar bilan almashtirilmaydi;
- fe'lning majhul darajadagi, shart, buyruq-istik va harakat nomi shakllari ko‘proq qo‘llanadi (bajariladi, belgilansin, chora ko‘rish);
- uyushiq bo‘lakli sodda gaplar ko‘p qo‘llaniladi;
- shart ergash gapli qo‘shma gaplardan keng foydalaniladi.

Rasmiy uslubda og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar, dialektizmlar, jargonlar deyarli ishlatilmaydi.

Demak, o‘zbek tilining rasmiy uslubiga mansub yozishma va hujjatlar boshqa uslublardan leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarga ko‘ra bir-biridan farqlanib turadi. Bayon qilingan fikrlarning izchillik bilan uzviy bog‘langan bo‘lishiga alohida e’tibor qilinadi va tanlangan so‘zlarning gap qurilishining rasmiy munosabatni ifodalashga bo‘ysundirilganligi bilan izohlanadi.

Ma’lumki, hujjatlar xilma-xil va miqdoran juda ko‘p. Hujjatlarning maqsadi, yo‘nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlichadir. Ma’muriy va huquqiy hujjatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Namunali hujjatlar. Boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog‘liq, bir – biriga o‘xhash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladi.

2.Qolipli hujjatlar. Odatda oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya’ni o‘zgaruvchan va o‘zgarmas axborot beriladi.

3.Xizmat hujjatlari - tayyorlanishiga ko‘ra muassasa yoki mansabdar shaxslarga tegishli bo‘lsa, shaxsiy hujjatlar - yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladi.

4.Tashkiliy hujjatlar. Mazmuni tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari boshqaruv jarayonining borishida jamoa ishtiropining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.

5. Farmoyish hujjatlari . Bularga (buyruq, ko‘rsatma, farmoyish),

6.Ma'lumot-axborot hujjatlari. Bularga (dalolatnoma, ma'lumotnoma, ariza, tushuntirish xati, hisobot, ishonchnoma, tavsifnoma) xizmat yozishmalari kabi hujjatlar mavjud.

Xullas, uslubiyatning tilda tutgan o'rni beqiyosdir. Nutq jaryonida masalaga nutq mavzusi va xususiyati nuqtayi nazaridan yondoshilib, vazifaviy uslublarning amal qilish qonuniyatlarini va talablarini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Uslubshunoslik me'yorlarni shakllantirish, mashhur tilshunos olim G.O.Vinokur ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi, uning eng muhim vazifasidir. Chunki uslubiy me'yorni yaxshi bilmassdan, ularni mukammal egallamasdan turib, nutq madaniyatiga, madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi. Tilda har bir so'zni, grammatik shaklni, har bir sintaktik qurilmani o'z o'rnida, ya'ni shu so'z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ularning holati kabilar) hisobga olgan holda to'g'ri qo'llash, ularning shu vaziyatga eng mos tushadiganini tanlab, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo'nda ifodalaydiganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning ravonligini, tushunarligini, aniqligini ta'minlaydi, uni g'alizliklardan xalos etadi.

1-mashq. Quyidagi matnlar qaysi uslubga xosligini aniqlang va o'z munosabatingizni og'zaki nutq orqali bayon eting.

1.Matn. Adabiy til me'yorlari buzilishining ikki turini farqlash lozim. Birinchisi shuki, so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yorlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yo'l qo'yadi va u tuzgan nutq noto'g'ri deb qaraladi. Ikkinci holatda esa so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yorlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan estetik maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu me'yorlarni buzadi va uning nutqi noto'g'ri deb hisoblanadi.

2.Matn. So'z aytish – og'ir ish. Gohida birgina insonga so'z aytish uchun qancha taraddud ko'rasiz, o'zingizga qulay vaqtni poylaysiz, eshitadigan kishingizning kayfiyatini mo'ljallaysiz, qog'ozga yozmasangiz ham, ichingizda aytar gapingizning bir necha nusxasini tayyorlaysiz, tanlab-tanlab, so'nggina aytasiz. Shuginaga ba'zan terlab-pishib ketasiz, yuragingiz ham bir necha bor o'ynab to'xtaydi.

3. Matn. Bag'rimming na kecha, na kunduz so'nmovchi mangu o'tini ko'rib, Quyosh qizara-qizara ortga chekindi. Meni armon ichra g'arq va yolg'iz ko'rib oy bulutlar ortiga bekindi. Yulduzlar pirpirab oy ortidan yugurdi. Ko'ksimdag'i yig'lanmagan dardlarni ko'rib bulutlar yig'lab yubordi. Men oshkor hayqirib yig'lay olmasdim. Osmon oshkor, hayqirib yig'ladi. Sening yoding mening ko'ksimni butun umr bo'yi pora-pora qilib keladi. Yashinlar esa omon bag'rini lahzalargagina poraladi.

2-mashq. Quyidagi so'zlar asosida ilmiy, rasmiy va publitsistik matn tayyorlang. Tayyor matningizda qo'llanilgan til vositalarini toping va tahlil eting.

Til, nutq, madaniyat, kishilar ongi, tafakkuri, tushunchasi, borliq, ijtimoiy, hodisa, tabiiy, jarayon, soflik, aniqlik, to‘g‘rilik, maqsadli, bilish, o‘rganish, o‘sish, odob, aql, mantiqiylik, o‘rganish, izlanish, o‘qish, og‘zaki, yozma, shakl, iborat.

4-mashq. Quyidagi so‘zlar asosida ilmiy, rasmiy va publitsistik matn tayyorlang. Tayyor matningizda qo‘llanilgan til vositalarini toping va tahlil qiling.

Ota-onalik, do‘stlik, aloqa, yaxshilik, hamjihatlik, inoqlik, ilmiy, asoslangan, tekshirish, turmush, chorrahalar, go‘zallik, oshno, his, tafakkur, qudrat, ma’naviy, madaniy, totuvlik, topmoq, bo‘lmoq, hayratlanmoq, tekshirmoq.

5-mashq. Quyidagi so‘zlar qatnashgan matn tayyorlang. Tayyorlagan matningizda til vositalaridan qaysi biri qatnashganligini, qaysi uslubga xosligini tushuntirib bering.

Ufq, quyosh, osmon, yomg‘ir, sovuq, junjikmoq, holat, sariq, barg, daraxt, kayfiyat, inson, odam, jarayon, ko‘ngil, ayriliq, tushkunlik, hijron, azob, o‘ksish, qalb.

6-mashq. Baltasar Grasianning ushbu fikrlariga sizning munosabatingiz.

1. “Muomalada, odob va axloqda go‘zallikka oshno bo‘ling. Hamma ishda va har qanday suhbatda sabr-qanoat lozim. Tilingizning aqlingizdan oldinga ketishiga yo‘l qo‘ymang. Bitta so‘z bilan o‘zimizga va o‘zgalarga qanday zarar yetkaza olishimizni tasavvur qila olganimizda edi, uning oqibatida vujudga keladigan katta talofatlarni tuzatib bo‘lmasligini anglagan bo‘lar edik. Bilingki, beparvolik bilan aytilgan bir og‘iz sovuq so‘z insonni xafa qilishi, dilini og‘ritishi, ranjitishi, izardi qilishi, larzaga tushirishi, dovdiratib qo‘yishi mumkin. Yaxshi gapirish uchun insonda aql yetmasligi yoki indamaygina qo‘ya qolishi uchun idrok yetishmasligi musibatdir. Ko‘ngil nafosati ruhni yuksaltirsa, harakatlarning go‘zalligi yurakka rohat baxsh etishi yodingizda bo‘lsin”.

2. “Oqilona va odilona so‘z – asl va qimmatbaho toshdek yashirindir”. Ushbu fikrga siz qo‘shilasizmi?

3.”Asl notiqlik barcha kerakli narsalarni me’yori bilan ayta olish san’atidir” degan fikr to‘g‘rimi?

7-mashq. Shoir Erkin Vohidov ushbu she’rida nima demoqchi?

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun

O‘par doim peshonasidan.

2-topshiriq . “Kalandimog”, “takabbr”, “kamtar”, “manman” so‘zlarining ma’nolarini izohlang.

3-topshiriq. *Takabbr* so‘zining sinonimini toping?

4-topshiriq. Quyidagi matn qaysi uslubga xos va shu uslubga xos til birliklarini aniqlang.

KAMTARINLIK FAZILATI

Kamtarinlik hammaga ham nasib etavermaydigan ilohiy ne’matdir. Inson kamtarin bo‘lib tug‘ilmaydi. Ammo bolani yoshligidan oddiylikka, kamtarinlikka o‘rgatish, tarbiyalash mumkin. Bu jarayonda ota-onas, ustoz-murabbiylarning ibratlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yoshlarga har tamonlama ibrat bo‘lmoq uchun ularning atrofidagi muhit sog‘lom, fazilatli, yoqimli bo‘lgani ma’qul. Ilm, odob, mukammal tarbiya bilan to‘yingan insonda o‘z-o‘zidan kamtarinlik vujudga keladi. Kamtarin odam hech maqtanmaydi, yutug‘ini ko‘z-ko‘z qilib g‘ururlanmaydi, yuksak yutuqlarga erishsa-da, shunchaki el qatori vazifamizni ado etdik, deb qo‘ya qoladi. Kamtarin odam samimiy, sodda, kamgap, xokisor bo‘ladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, kamtarinlik buyuklikka yaqin turadi, deya bejiz aytishmaydi donolar.

Guruuh bo‘lib ishlash. Loyiha himoyasi.

O‘qituvchi har bir guruuhga topshiriq beradi: Ma’lum bir janr asosida publisistik uslubda kichik bir matn tuzish. Lavha, reportaj, intervju va esselarning sxemalaridan foydalanishlari mumkinligi aytiladi.

- 1- guruuh “Qarilikni donolik bezatadi, yoshlikni - kamtarlik” mavzusida lavha yozadi.
- 2-guruuh – “Kamtar yetar murodga, manman qolar uyatga” mavzusida esse yozadi.
- 3- guruuh – “Odamga eng yaxshi libos kamtarlikdir” mavzusida bo‘lib o‘tgan anjumandan reportaj tayyorlaydi.
- 4- guruuh – “Odam bo‘laman desang, kamtarlikni odat qil” mavzusida guruuh talabalaridan intervju oladi.⁴⁷

1-topshiriq. Quyidagi mazmunda ariza yozing:

a)akademik ta’til olishga ruxsat berishlarini so‘rab;

b)boshqa fakultetga o‘tkazishlari haqida;

⁴⁷ Mo`minova O. Talaba faolligiga qanday erishiladi?//Til va adabiyot ta’limi. -№3, 2014, 21-22-b.

v) ishga kirish haqida.

2-topshiriq. Qandaydir voqeanning guvohi bo‘lganligingiz haqida reportaj tayyorlang.

3-topshiriq. Sohangizga tegishli ilmiy jurnaldan bir maqolani tanlab quyidagi topshiriqlar asosida tahlil qiling.

- 1)mavzu dolzarbligining asoslanishi;**
- 2)dalillar keltirilishi va izohlanishi;**
- 3)xulosaning berilishi.**

Namunada ko‘rsatilganidek nutqning vazifaviy uslublari bo‘yicha o‘zingiz bilgan nazariy ma’lumotlarni yozing va og‘zaki tushuntirib bering.

Tushunchalar	Mazmuni
Nutqning vazifaviy uslubi	Tilning vazifadosh uslublari nutq ko‘rinishlarining asosiy funksiyalariga (aloqa-aratashuv; ta’sir etish vositasi bo‘lishiga) muvofiq ma’lum turlar asosida o‘rganiladi.
Ilmiy uslub	Ilmiy uslubda fanning turli sohalariga aloqador so‘z va terminlar (atamalarni) qo‘llanadi. Bayon ko‘proq mantiqiy dalillarga suyanadi. Ilmiy uslubda tabiat va jamiyat hodisalari aniq, qandaydir qoidalar, formulalar asosida ifodalanadi.
Rasmiy uslub	Rasmiy yozishma va hujjatlar iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, ma’muriy - davlat idoralarida ishlatiladigan til.
Publitsistik uslub	Publitsistika- lotincha «ijtimoiy» so‘zidan olingan. Publitsistika keng ma’noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o‘z ichiga oladi.
Badiiy uslub	Badiiy uslub adabiy tilning ifodalanishi bo‘lib, asosan, badiiy asar tiliga xosligi, inson hayotining barcha tomonlarini qamrab olganligi uchun til va nutqning barcha vositalaridan foydalanadi.
So‘zlashuv uslubi	So‘zlashuv uslubi - bu fikr almashishda qo‘llaniladigan erkin muloqot turi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Nutqiy uslublar deganda nimani tushunasiz?

2. Nechta uslub turlari bor?
3. So‘zlashuv uslubi bilan badiiy uslubning o‘ziga xos tomonlari nimada?
4. Ilmiy uslub boshqa uslublardan nimesi bilan ajralib turadi?
5. Rasmiy uslubning o‘ziga xos tomoni nimada deb o‘ylaysiz?
6. Nutq madaniyati bilan nutqiy malakaning farqi nimada?
7. Radio va televide niye tili qaysi uslubda bo`ladi?
8. Nutq madaniyati malakasini egallashning qanday yo‘llari mavjud?
9. Tilda og‘zaki nutq madaniyati va yozma nutq madaniyati tushunchalarining farqi nimalarda ko‘rinadi?

Glossariy

Adabiy til – og‘zaki va yozma shaklga ega bo‘lgan, tilshunos olimlar tomonidan qayta ishlangan, shakllantirilgan, me’yorlashtirilgan til.

Radio va televide niye nutqi – radio va televide niye orqali adabiy tilda so‘zlovchi diktorlar va sharhlovchilar nutqi.

Ma’ruzachilar nutqi - bu ko‘rinishga oliv ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining, targ‘ibotchilar, olimlarning ma’ruzalari va chiqishlari kiradi.

Sahna nutqi – tomoshabinlar uchun tushunarli, dialogik xarakterga ega bo‘lgan og‘zaki nutq ko‘rinishi.

Namunali hujjatlar - boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog‘liq, bir – biriga o‘xhash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladi.

Qolipli hujjatlar - odatda oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya’ni o‘zgaruvchan va o‘zgarmas axborot beriladi.

Xizmat hujjatlari - tayyorlanishiga ko‘ra muassasa yoki mansabdor shaxslarga tegishli bo‘lsa, shaxsiy hujjatlar - yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. - Samarqand, 1984.
2. R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1992.
3. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. -T., O‘zbekiston, 1992.
4. Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1993.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1993.

6. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. -T.: 1999.
7. Qilichev E., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 1992, 2002.
8. Tojiyev Y., Hasanova J., Tojimatov H., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994, 2006.

NUTQ MADANIUATI VA TASVIRIU VOSITALAR

Tayanch tushunchalar: tasviriy vositalar, troplar, uslubiy figuralar, epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, allegoriya, simvol, kinoya, antifraza, sarkazm, perifraz, jonlantirish, apostrofa, antiteza, gradatsiya, ellipsis, anafora.

Nutqda tasviriy vositalarning ahamiyati. Yuqorida fikr yuritilgan har bir uslubning, uning lisoniy me'yorlarini ta'minlovchi muayyan lug'aviy, morfologik vositalari, sintaktik imkoniyatlari mavjud. Ushbu vositalar uslublarning qaysi birida qo'llanishiga qarab nutqqa badiiylik, jozibalik va ta'sirchanlik, jonlilik bag'ishlaydi. Aksincha, shunday vositalar mavjudki, ular nutqqa rasmiylik, qat'iylik, vazminlik ottenkalarini kiritadi. Ayniqsa, tilning badiiy uslubi buyoq dor vosita va imkoniyatlarga boy. Ular tilshunoslikda tilning tasviriy vositalari, shuningdek, troplar, uslubiy figuralar deb yuritiladi. Tasviriy vositalar muhim bir vazifaga – nutqning to'g'ri, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi. Nutq ta'sirchan, aniq, maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi uchun undan foydalanuvchi tilning uslubiy resurslari va me'yorlarini yaxshi bilishi lozim. Tasviriy vositalardan foydalanish bilan so'zlovchi tinglovchining

sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Buning uchun esa ma'lum shart-sharoitlar kerak bo'ladi: birinchidan, so'zlovchi tasviriy vositalarning tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan bo'lishi, ikkinchidan, tasviriy vositalarga nutq bo'yoqdorligini oshiraman deb haddan tashqari ko'p va o'rinsiz murojaat qilmaslik. Ularning qo'llanilish o'rni, payti, vazifasini yaxshi tushunmog'i lozim, aks holda nutq madaniyati buziladi, tinglovchida o'sha nutqqa u orqali muallifga nisbatan salbiy munosabat uyg'otishi mumkin. Tasviriy vositalar talabalar tafakkurini o'stirish, so'z boyligini oshirish, estetik didi va ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud adabiyotlarda tilning tasviriy vositalari va uslubiy figuralar quyidagicha farqlanadi:

1.Troplar: epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a va kichraytirish, allegoriya, simvol, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraza, jonlantirish, apostrofa va h.k.

2.Uslubiy figuralar: antiteza, gradatsiya, ritorik so'roq, ko'p bog'lovchilik, jim qolish, takror va h. k.

So'zlovchi o'z fikrini aniq, lo'nda, ifodali, mazmunli shu bilan birga ta'sirli qilish uchun tilning maxsus ifoda vositalaridan foydalanishi lozim bo'ladi. Bu vositalar troplar va figuralar deb yuritiladi. Nutqda so'z va iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash **trop** sanaladi. Uning quyidagi ko'rinishlari mavjud.

Epitet (sifatlash). Kishi, narsa yoki voqeanning biror belgisini, sifatini ifodalashi sifatlash deyiladi. Oddiy epitetlar kishida kuchli hissiylikni uyg'otmaydi. Masalan, *musaffo osmon, qora ko'z*. So'zlovchi uslubiy epitetda voqea-hodisani ma'lum nuqtayi nazardan turib baholaydi, unga munosabat bildiradi. Badiiy epitetlar ko'chma ma'no asosida hosil bo'ladi. Nutqda *qora tun, yashil vodiy, oppoq yuz* kabi sifatlashlar ko'proq qo'llanadi. Bundan tashqari *g'uncha lab, shirmoy yuz, charos ko'z* kabi badiiy sifatlashlar ham nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim o'rinn tutadi.

O'xshatish. Nutqimizda -dek, -day qo'shimchasi va o'xshash, xuddi, go'yo, misli, misoli, singari, yanglig'; *bamisoli* kabi so'zlar yordamida o'xshatishlar yuzaga keltiriladi.

Labing g'uncha, yuzing ikki qizil gul,

Qadding sarv-u, soching go'yoki sunbul. (Furqat).

baytida ma'shuqaning a'zolari aniq narsalarga: labi g'unchaga, yuzi qizil gulga, qaddi sarvga, sochi esa sunbulga o'xhatilgan.

O'xshatishlar badiiy nutqda keng qo'llanadi. Nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim omil sanaladi.

Soching sunbul, qading sarvi sanuvbar?

Ko'zung nargis, yanog'ing arg'uvondir.

(Atoyi)

*Bo 'ying sarvi sanubartek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.
(Xorazmiy)*

Metafora - nutqiy ta'sirchanlikni oshiruvchi vositalardan biri bo'lib, o'xshatishning turlaridan biridir. Biroq barcha metaforalar nutqiy timsollikni yuzaga keltirmaydi. Shu bois ular **lingvistik metafora va badiiy metaforalarga** ajratiladi. Masalan, lab (insonning labi, ariqning labi), etak (tog'ning etagi, ko'yakning etagi).

*Bizga yotdir Shirin baxtini
Poymol etgan u qop-qora tun.*

*Bu ne dard- minbarga chiqqan beibo
Chiroylik yolg'onga qarsak urishlar.*

*Soxtalikning iliq muhiti aro
Yayrab ko 'payadi manfur viruslar.*

(E.Vohidov)

Ushbu misrada *virus* so'zi metaforik⁴⁸ ma'noda qo'llangan bo'lib, uning asl ma'nosi faqat tirik hujayralarda ko'payib, odam, hayvon, o'simliklarda yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizmdir. Sho'r eng razil, jirkanch insonlar, ya'ni yulg'ichlar, poraxo'rlar, shuhratparast mansabdor shaxslarni viruslarga o'xshatadi.

METONIMIYA yunoncha so'z bo'lib, «yangi nom qo'yish», «nomini o'zgartirish» demakdir. Ikki narsa o'rtasidagi aloqadorlik asosida metonimiya hosil bo'ladi. Masalan, Navoiy «*Qu sh tili*» ustida zavq bilan ishladi.(O.) «*Gulshan*»da *uyjoy muammo emas* (*Rustam Rahmon*). Abror «*Jiguli*» sini har qancha qistab haydasa *ham, to Darxon tomonidan chiqib, shahar markazidan o'tgunlaricha vaqt ketib qoldi*. Abror *qo'l tormozini shaxt bilan tortar ekan*:

*-Nima, Beshyog'ochdan aylanib kelaymidi?- dedi.
-Shota Rustavelidan o'tsak ham bo'ladi-ku.*

(P.Qodirov).

Yoki:

*Beqadr bo 'lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo 'qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!*
(E.Vohidov)

⁴⁸ Maksumova S. Badiiy matnning lingvopraktik xususiyatlari. – Toshkent, 2015.

Ushbu misrada bu dunyodan o‘tib ketganlar *qabr* so‘zi orqali ko‘chma ma’noda berilgan. Shoir nazarida insonlarning o‘z ona tiliga bo‘lgan munosabati hatto qabr egalari halovatining buzilishiga ham sabab bo‘ladi. Bunday metonimik ifoda orqali norozilik, achinish, ogohlikka da’vat kabi subyektiv munosabatlar bo‘rttirilgan.

SINEKDOXA – yunoncha, «birga anglamoq», «qo‘sib fahmlamoq» ma’nosini bildiradi. Hozirgi o‘zbek tilida sinekdoxa hodisasi ko‘plab uchraydi. Masalan, *Yo‘rg‘anining so‘zini bo‘ldi, Karimjon, eshikka qarang, chopar kelidi. Qizim, nevaraginam! Sobirimdan qolgan tirnoq. Sokinabuvi Margaritani bag‘riga bosdi.*

Yuqoridagi gaplarda «yo‘rg‘a», «chopar», «tirnoq» so‘zlari sinekdoxa hodisasiga misol bo‘la oladi.

MUBOLAG‘A va KICHRAYTIRISH. Mubolag‘a arab tilida «kattalashtirish», «kuchaytirish» ma’nosini ifodalaydi.

Mehr emas, ohim o‘tidin ko‘kka yetmish bir sharar,

Ayb emastur gar desam: Dam ursam aflok o‘rtanur.

(Navoiy)

baytida mubolag‘a qo‘llangan. Go‘yoki ko‘kdan quyosh oshiq yerda chekkan oh o‘tining bir uchquni. Mumtoz adabiyotda mubolag‘aning tablig‘, ig‘roq, g‘uluv kabi ko‘rinishlari ham qo‘llanilgan. A.Hojiahmedov o‘zining «Mumtoz badiiyat malohati» risolasida mubolag‘a va uning ko‘rinishlari haqida atroflicha ma’lumotlar beradi.⁴⁹

Aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘a **tablig‘** hisoblanadi.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro ‘kelmadi,

Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

(Navoiy)

Yuqoridagi baytning ikkinchi misrasida mubolag‘a mavjud. Darhaqiqat, ayrim hollarda oshiq ma’shuqani kutib uxlamasdan tongni ottirishi mumkin.

Ig‘roq belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlashdir.

Chu oshiq ongladi qilg‘och taammul,

Ki yeldin tushkudekdur yer uza gul.

Yer o‘pmaklikka majnundek ham o‘ldi,

Quyosh ostida gardundek ham o‘ldi.

Ko‘tardi orqasiga badnoni,

Nechukkim badno ul dilraboni.

...Chu ikki-uch yig‘och g‘am urdi shaydo,

Bo‘lib olinda qarsu havz paydo.

Qadamni qo‘ydi qasr ayvoni sori,

⁴⁹ A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. -T.: 1999, 9-14-betlar.

Salomat raxshi birla shahsuvori.

(*Navoiy*)

Farhod 1,5-2 km masofani otda va Shirinni ko‘targan holda bosib o‘tishiga aqlan ishonish mumkin, biroq bunday voqeanning kundalik turmushda yuz berishi mumkin emasligi ko‘rinib turibdi.

Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘limgan tarzda tasvirlash **g‘uluv** hisoblanadi. Masalan:

Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladi,

Yetkach ohim shu’lasi oni sarig ‘gul ayladim.

Navoiyning tasviricha, oshiq o‘z ma’shuqasining qizil yuzini sog‘inib qizil gulni olib hidlar ekan, ohi shu’lasidan u sariq gulga aylanibdi. Chunonchi, bu hodisani ham aqlan qabul qila olmaymiz, uning hayotda yuz berishiga ham ishonmaymiz. Yoki «Algomish» dostonidagi quyidagi misralarga ham e’tibor bersak, g‘uluvning nihoyatda go‘zal namunasi qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz:

Odam tushmas uning aytgan tiliga,

Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.

Mubolag‘ada muayyan belgi-xususiyat ba’zan obyektiv voqelik me’yordan ortiq darajada tavsiflanadi va shu orqali nutqqa badiiy ruh beriladi. E.Vohidov ko‘chimning bu turidan zarur o‘rinlarda mohirona foydalangan. Masalan:

Polvon edi Matmusa

To‘rt fil kuchi jam edi.

(«Matmusaning charxpalagi»)

Ushbu she’riy parchaning ikkinchi misrasida keltirilgan mubolag‘a birinchi misradagi fikrni dalillash maqsadida kiritilgan bo‘lib, shoir she’r qahramoni *Matmusaning polvonligini to‘rt fil kuchiga ega ekanligi* bilan tavsiflaydi. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda muayyan belgi-xususiyatning me’yordan ortiqligi o‘xshatish asosida mubolag‘a bilan ko‘rsatilgan.

Kichraytirish narsa va hodisalarini o‘z holatiga nisbatan nihoyatda kichraytirib tasvirlash san’atidir.

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o‘ltirur,

G‘oyati nozikligidin suv bila yutsa bo‘lur.

(*Atoyi*)

Allegoriya grekcha so‘z bo‘lib, “kinoya”, “qochirim”, “kesatish” ma’nolarini ifodalaydi. Allegoriya, asosan, masallarda va hayvonlar haqidagi ertaklarda ishlatalib, *tulki-ayyor va aldamchi, bo‘ri-ochko‘z, chayon-hammaga azob beruvchi, ilon-makkor, qo‘zichoq-kuchsiz va ojiz, chumoli zahmatkash kishi* sifatida tasvir etiladi.

Simvol (ramz)-majoz turlaridan biri. Hayotdagи voqea-hodisalar, tushuncha va narsalar shartli ravishda ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalananadi. Masalan, *tong-yoshlik, quvnoqlik, kabutar-tinchlik, qora-sovuqlik ramzi*.

Ironiya (kesatiq). Grekcha “zimdan kulish”, “kesatish” ma’nosida qo‘llanadi. So‘z va iboralarni kesatish, kinoya, birov ustidan kulish maqsadida so‘z ma’nosiga zid ma’noda qo‘llash ironiya sanaladi.

E.Vohidov «Bizlar ishlayapmiz» she’rida ironiya usulidan ustalik bilan foydalanganini kuzatamiz. Masalan:

Yoz-u qish dalada «javlon uramiz» –

Sening so‘zing bilan aytganda...

Ushbu misrada paxtakorlar mehnatiga nisbatan qo‘llanilgan *javlon uramiz* iborasi kinoyaviy ma’noda bo‘lib, kinoya ostidagi ma’no she’r davomida yoritiladi:

Dalada chang yutish «javlon urish»mas,

Bizlar ishlayapmiz.

Bu – mehnat, xolos.

Antifraza ham ironyaning bir ko‘rinishidir. Masalan, *Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi-Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p “achindi” va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin “kichkinagina sharti” bor. “Bu sharti kuzda ma‘lum bo‘ladi”* (A.Qahhor)

Sarkazm. Grekcha so‘z bo‘lib, “achchiq zaharxanda”, “istehzoli ta’na”, “piching” ma’nolarini anglatadi.

... mulla Norqо ‘zining xotini pokdomon. Uning bitta-yu bitta o‘rtog‘i bor. Bu xotin to‘g‘risida mulla Norqо ‘zi shunday fikrda, agar farishta ilgari o‘tgan bo‘lsa, shuning onasi, endi tug‘ilgan bo‘lsa - shuning bolasi bo‘ladi, agar hozir yer yuzida bo‘lsa – shu xotinning o‘zi.

-Bu farishta erkak kishi edi.

-Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan. (A.Qahhor)

Perifraz-grekcha “aylana”, “atrof”, “boshqacha gapiRAMAN” ma’nosini anglatadi. ... *shu bilan muhtaram ustod menga go‘yo muborak ko‘zoynaklarini berdilar.* (A.Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”)

Jonlantirish-insonga xos xususiyatlarni jonsiz narsalarga nisbat qilib tasvirlashdir.

Oy o‘rtanar, ko‘zlarida yosh,

Ko‘ksi dog‘-u yuragi qiyma.

Der: ”Ey falak, men edim quyosh,

Nega meni qilding tarjima?”

(E.Vohidov)

Daryo sokin, uxlar to‘lqinlar,

Uxlar, qo 'yib qirg 'oqlarga bosh.

(E.Vohidov)

Apostrofada harakat qilmaydigan jonsiz narsaga, jonli narsaga murojaat etgandek munosabatda bo'linadi.

Yurtim,

Seni yana oldim qalamga

To 'ying, shodiyonang bahona bo 'lib

Yana kelib qo 'nding tonggi misramga

Falak nisor etgan durdona bo 'lib.

(E.Vohidov)

Siyohdon, omon bo 'l, ishchan hamdamim,

Ishonki, so 'qqabosh bo 'magaysan hech!

Seni ko 'p bezovta qildi qalamim,

Sen ham uxlatmagan meni erta-kech!

(M.Shayxzoda)

Takror, jim qolish, sukut, ritorik so'roq, antiteza, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik va bog'lovchisizlik, inversiya, ellipsislar uslubiy figuralarning asosiylaridan hisoblanadi.

Antiteza (qarshilantirish)- grekcha so'z bo'lib, «qarama-qarshi qo'yish» ma'nosini anglatadi.

Rahm qilg 'il bandag 'a, ey shoh, ul tengri uchun

Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan.

(Lutfiy)

Bu jahoning rohatin ol,

Bor azobin menga ber,

Senga bo 'lsin barcha orom,

Barcha bedorlik menga.

(E.Vohidov)

Gradatsiya-lotincha bosqichma-bosqich kuchaytirish ma'nosida bo'lib, aytilayotgan fikr borgan sari kuchaytirib boriladi.

Yursa agar tomirda qoning,

Aziz bo 'lsa, bir parcha noning,

Kerak bo 'lsa, nomus, vijdoning,

Bo 'lsang yigit, bo 'lsang hamki chol,

Qo 'lingga qurol ol!

(H. Olimjon)

Ritorik so‘roq, ritorik xitob. Fikr faqat so‘roq shaklida ifodalanib uslubiy ma’no kuchaytiriladi, ammo so‘roqqa javob talab qilinmaydi:

*Aytib ber-chi, shuncha sevganlar
Bo‘lganmikan mencha baxtiyor?*

(H.Olimjon)

*Yoshlik! Seni kuylamagan kim,
Ertaklaring so‘ylamagan kim,
Qariganda o‘ylamagan kim,
O‘ylab yana kuylamagan kim?*

(E.Vohidov)

Ko‘p bog‘lovchilik va bog‘lovchisizlik. Nutqda ba’zi hollarda bir xil bog‘lovchining takror qo‘llanishi uchraydi. Bunda bog‘lovchi ta’kidni kuchaytiradi, fikrga qat’iylik tusini bag‘ishlaydi. Aksincha, gapdagi uyushiq bo‘laklarning bog‘lovchisiz ohang bilan bog‘lanishi bu bo‘laklarning yanada jipslashuviga, ta’kidning bo‘linmasdan, susaymasdan yaxlit holatda ifodalanishiga xizmat qiladi.

*Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir.
Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar.
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ylar.*

(Cho‘lpon)

Ellipsis-grekcha “tushirib qoldirish” ma’nosini anglatadi. Nutq va mazmunni buzmagan holda gapning ba’zi bo‘laklari tushirilishi yoki so‘zlarning qisqargan shaklida qo‘llanishi uchraydi. Ellipsis nutqiy jarayonda ixchamlikni yuzaga keltiradi. Masalan:

*-Hozir keldingmi?-so‘radi Oksana unga havasi kelib
-Ha, hozir. (A.Muxtor)*

Jim qolish. So‘z yoki so‘zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi jim qolish deyiladi. Uni ellipsisning bir ko‘rinishi ham deyish mumkin.

-Qaydam...- Gulchehra yelkalarini qoqib qo‘ydi. (O‘.Umarbekov)

Takror. Ilmiy adabiyotlarda alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, monorin, pleonazm, tavtologiya, naqorat kabilar badiiy takrorning ko‘rinishlari sifatida talqin etiladi.

Agar gap tarkibidagi so‘zlarda bir xil unli tovush takrorlansa, uni assonans, ya’ni ohangdoshlik deyiladi.

*Ko ‘m-ko ‘k,
Ko ‘m-ko ‘k....
Ko ‘klam qu ‘yoshidan
Ko ‘kargan qirlar.
Po ‘lat yag ‘rinlarini*

Ko 'targan yerlar ko 'm-ko 'k.

(H.Olimjon).

-*Voy, Zebo! O 'zimning Zebom, kichkina Zebom!* (S.Ayniy «Qullar»)

She 'rning sozi – to 'rt satr,

To 'rt ajoyib – zo 'r satr.

Shoir odam o 'zini

To 'rt satrda ko 'rsatur. (“To 'rtlik”)

Bu she'riy parchaning har misrasida o‘ unlisi takrorlanib kelgan.

Poetik matnda bir xil undoshning ketma-ket takrorlanishi, ya’ni alliteratsiya o‘ziga xos ritmni vujudga keltiradi. E.Vohidov she’riyatida ham alliteratsiya konnotativ ma’noni hosil qilishga xizmat qiladi:

Mohir-u mehr-u mahorat,

Olim-u ilm-u amal ,

Oshiq-u ishq-u mashaqqat,

Shoir-u she 'r-u shuur.

(“To tirikdirki tabiat”)

Bu she'riy parchaning dastlabki ikki misrasida **m** undoshi, keyingi ikki misrasida **sh** undoshi ketma-ket ishlatalgan: har ikkisi olti marta qo‘llangan. Misralardagi tovushlar takrori she’rning nafaqat musiqiyligini, balki mazmunan yanada ta’sirchan bo‘lishini ta’milagan.

Quyidagi misralarda esa **q** tovushining takror qo‘llanilishi she’rning jozibadorligini kuchaytiradi. Bunda shoir mohirlik bilan tovush o‘yinini hosil qiladi:

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing qiz.

Qilur qatlimga qasd qayrab,

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiyab,

Qanot qoqmoqqa qo 'ymaysan.

Qarab qo 'ygil qiyo,

Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.

(“Qaro qoshing”)

Ko‘rinadiki, to‘rtlikni o‘qigan har qanday tinglovchi zavqlanadi, ta’sirlanadi. Keyingi misolda ham undosh, ham unli tovush takrorlanib, o‘ziga xos ohangdorlikni hosil qilgan:

Gul bo 'lib, gul-gul yonib,

Gulshan aro Gulchehralar,

*Gul uzib o'ynar, qo'yib
Gulga bino Gulchehralar.
("Gulchehralar")*

Anafora – Nutqda parallel kelgan nutqiy parchalarda aynan bir so‘z yoki so‘z birikmalarining, iboraning takrorlanishi bo‘lib, u nutqqa ekspressivlik bag‘ishlaydi. Fikrni kuchaytiradi, ta’sirchan qiladi.

*Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?
Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?
Yolg‘iz menmi ko‘kragimni tig‘lagan?
Yolg‘iz menmi sevinch bilan bo‘lmagan*
(Cho‘lpon)

*Shukurkim, u kunlar olisda qoldi.
Shukurkim, vatanim ma’mur va obod.
Shukurkim, bu yurtda mening avlodim.
Muhtojlikni ko‘rgan eng so‘nggi avlod.*
(E.Vohidov)

*Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.*
(A.Oripov)

*Qalbda hamon o‘sha yozu
O‘sha ko‘k chashma.
O‘sha sozu o‘sha nozu
O‘sha karashma.*
(E.Vohidov)

Yuqorida keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, troplar va uslubiy figuralar nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi, bir-birining o‘rnini to‘ldiruvchi, badiiy asarlarda keng qo‘llanuvchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Hissiy ta’sir qilish uchun so‘z ustalari o‘z nutqlarida tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalanishadi. Hozirgi kunda ham yoshlardan tilning lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta o‘rganish, nutqning ichki va tashqi shakliga birday e’tibor berish, to‘g‘ri, go‘zal va ta’sirchan nutq tuza olish, til birliklarini maqsadga muvofiq hamda o‘rinli ishlatish vazifalaridan xabardor bo‘lishi talab qilinadi.

**1-mashq. Quyidagi she’riy parchalarda tropning qanday turlari qo‘llangan?
Tahlil qilib daftaringizga yozing.**

1.Odessaq yetib borgach ertagacha kema,

Zinasiga chiqib kelgan azamat.
Sizni «izzat-ikrom bilan» kutib oladi,

Qo‘lingizga taqishadi ajoyib zanjir.
Bir zanjirki, jaranglashi ko‘kragingizda,
Jaranglagan ordenlarga juda hamohang.

2.Boshlig‘ing ko‘nglini bil sen,
Ketma pinjidan nari,
Paytini topsang mabodo,
Birga yuzta-yuzta qil.

3.Men nadomatlarni unutganman. Men meros
Dovlamayman. Men molparast ham emasman.
Lekin qani mening yetti ma’dandan eritib quyilgan
Darvozam?

Jahonning bir mo‘jizasi?
Oltin, temir, qurch, qalay, po‘lat, mis, kumush
Darvozam?
Bibixonim darvozasi?
Yo‘qolgan darvoza...
O‘g‘irlangan darvoza...
Tanga qilib maydalangan darvoza... (I.G‘ofurov)

2-mashq. Matnlarni diqqat bilan o‘qing, o‘z fikrlaringiz asosida davom ettiring va tasviriy vositalarni toping.

Buzilgan nikoh

Uyni qonuniy bo‘lishdingiz... Mol-mulkni qonuniy bo‘lishdingiz... Muhabbat bo‘laklandi... Sadoqat bo‘laklandi... Bola-chi? Bolani qaysi qonun bilan bo‘lishasiz? Onasi bilan bo‘lsa, otasiz qolsa. Otasi bilan bo‘lsa, onasiz qolsa... Yaxshisi, uniyam ikkiga bo‘ling! Bir nimtasi-eriga! Bir nimtasi –xotinga! Qani ko‘taring boltani, bolaning uvoli tutgurlar! (O‘.Hoshimov)

3-mashq. Quyidagi matndan tasviriy vositalarni toping va so‘zlab bering.

Tiriklar va o‘liklar

Vaqti-vaqt bilan qabristonga borasiz. Ajdodlaringiz boshida turib o‘tganlar ruhini xotirlaysiz... Keyin... o‘z yumushingiz bilan ketasiz.

Shoshilmang. Dunyo ishi bitganmas.. Iloji bo‘lsa, qabristonni osoyishta aylaning. Shunda... g‘alati holat ro‘y beradi. Marhumlar sizga ko‘-o‘-o‘p narsalar aytadi...

Ishoning, o‘liklar tiriklardan ko‘ra teranroq fikrlaydi... (O‘.Hoshimov).

4-mashq. Quyidagi Tiberiy Grakx nutqidan keltirilgan parchani tahlil qiling.

Italiyada izg‘ib yurgan vahshiy yirtqichlarning ham tunash uchun g‘or va yaylovlari bor, Italiyani deb kurashayotgan va qurbon bo‘layotgan kishilarda esa suv bilan havodan boshqa narsa yo‘q.... Soldatlar boshqa birovlarining ishrati va boyishi uchun jang qilyapti; ularni “borliqning hokimi” deb aytishadi, aslida esa ularning bir qarichgina yeri ham yo‘q”

1-topshiriq. Daftaringizga uslubiy figuralar va troplarni aks ettiradigan klaster chizing.

2-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va notiq Demosfenning nutq uslubi, ya’ni til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati qanday bo‘lganligini izohlang.

Yunoniston tuprog‘idan makedoniyalik Filipni quvib chiqarishda davlat arbobi va harbiy notiq sifatidagi fidoiyligi va jasorati uchun Demosfen 3-marta oltin gulchambar bilan taqdirlanadi. Shu munosabat bilan so‘zlagan “Gulchambar haqida” nomli nutqida raqibi notiq Esxinga qarata shunday deydi: “Sen savod chiqararding, men bo‘lsam mактабга qatnardim, sen maqtovlar tayyorlarding, men maqtanuvchi edim, sen xorda raqsga tusharding, men xorning xo‘jayini edim, sen kotib eding, men bo‘lsam xalq majlisida qatnashardim, sen mayda rolda chiquvchi aktyor eding, men esa tomoshabin edim, sen rasvo qilib o‘ynarding, men bo‘lsam hushtak chalardim”.

3-topshiriq. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan o‘xshatishlarni topib tahlil qiling.

So‘zni hamisha sir saqlash joiz, saqlanmagan so‘z o‘limga yondashtiradi. Kishining og‘zi o‘raga qiyos.

El-yurt eshitgandan keyin bu so‘zlarni pardalab bo‘lmaydi. Kishi so‘zlasa, og‘zidan goho o‘t, goho suv chiqadi, ularning biri yashnatadi, biri esa ishlarni buzadi. Keraksiz so‘z yonar o‘t misolidir, uni og‘zingdan chiqarma, chiqarsang u avval o‘zingni kuydiradi.

Shirin va o‘zga so‘zlar oqib turgan zilol suvgaga o‘xshaydi. Zilol qayerga oqib borsa, u yerdan anvoyi chechaklar unib chiqadi.

Sir saqlanishi kerak bo‘lgan so‘zlarning joyi-dilning tubi:

Ko‘ngil sirin asra, chiqarma sirin,

Chiqarsang mo‘l etar ko‘ngilning kirin.

Qizil til qora bosh yovi beayov,

Yovin kim tutadi, betushov, emin?!

Tilingni ko‘dazgil, tishing sinmasun.

4-topshiriq. Quyidagi she’riy parchalarda qo‘llangan metaforalarni tahlil qiling.

Muhabbat otashini

Hech qachon do‘zaxga teng qilmam,
Nechunkim, menga nurli –
Tal’ating jannat bilan tengdur. (E.Vohidov)

Oshiq o‘lding, ey ko‘ngil,
G‘am lashkaridan qo‘rwmagil,
Bari chopqu oldda, Erkin,
Ne uchun vahm aylading? (E.Vohidov)

Istadim sayr aylamoqni
Men g‘azal bo‘stonida
Kulmangiz, ne bor, senga deb
Mir Alisher yonida. (E.Vohidov)

5-topshiriq. Quyidagi she’riy parchalarda qo‘llangan metonimiyalarni tahlil qiling.

Beqadr bo‘lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!(E.Vohidov)

El borki, ufqning har to‘rt yog‘ida
Egni butun bo‘ldi shu millionlardan. (E.Vohidov)

Bukun mehmon bo‘lib cho‘ng san’at keldi,
Tom-tom kitob keldi, she’riyat keldi. (E.Vohidov)

6-topshiriq. Ushbu matnda qanday troplar qo‘llangan? Matnni o‘qib, jadvalni to‘ldiring.

Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yuguradi. Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kului, o‘zлari horg‘in-horg‘in oqsalar-da, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash’asini beradi. Bultur ekilib ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi. Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasiga yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat! Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada... ko‘klam nash’asi bilan sho‘xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go‘zal va shirin bo‘ladi bahorda?

.	Troplarning turlari	Misollar

Mustaqil bajarishlari uchun qo'shimcha vazifalar.

1.Badiiy asardan tasviriy vositalar qo'llangan til birliklaridan 10ta misol toping va daftaringizga yozing.

2.Quyidagi mavzulardan birini tanlab esse yozing:

Buyuk orzular sari.

Ona tilim – bu o'zbekning g'ururi.

Oltin kuz tarovati.

Ma'naviyat – qalbim quyoshi.

Ona – eng ulug' zot.

Vatan tuyg'usi eng oliv saodatdir.

Vatan ostonadan boshlanadi.

Biz yurt farzandlarimiz.

Quyidagi test savollarining to'g'ri variantlarini toping.

1.Ritorik so'roq gaplar qanday hosil bo'ladi?

A. So'roq olmoshlari bilan

B. So'roq yuklamalari bilan

V. So'roq ohangi bilan

G. Barchasi to'g'ri

2.Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy figurani toping.

A. Gradatsiya

B. Alliteratsiya

V. Kontaminatsiya

G. Assonans

3.Ko'ngil ma'yus tortdi yilning so'ngida,

Bilmam, nimang bilan sehrladning, qor

Bugun kuppa-kunduz ko'zim o'ngida,

Yana bir yoshimni o'g'irlading, qor. (M.Yusuf)

Quyidagi she'riy parchada qanday uslubiy figura qo'llangan?

- A. Apostrofa
- B. Alliteratsiya
- V. Jonlashtirish
- G. Antiteza

4.Qorachig‘da porlagan o‘sha,

Iqboliga chorlagan o‘sha
Dunyoni tor aylagan o‘sha
Mehr qolur, muhabbat qolur (M.Yusuf)
Ushbu she'riy parchadagi uslubiy figurani ayting.

- A. Apostrofa
- B. Ironiya
- V. Epifora
- G. Antifraza

5.Burchak-burchakda jim tortishar burun,

Bilmam qanday o‘y-u xayol ichida
Tuzsiz she'r larim deb shirindan-shirin
Bolalarim yurar oyoq uchida... (M.Yusuf)
Ushbu she'riy parchada tropning qanday turi qo'llangan?

- A. Metafora
- B. Metonimiya
- V. Sinekdoxa
- G. Ironiya

6.Kurashadi ikki to'lqin, qarab turaymi?

Yosh tarixning temir qo'lin chetga buraymi? (Oybek)
Ushbu parchada qanday uslubiy figura qo'llangan?
A. Gammatik vositalar orqali o'xshatish
B. So'roq yuklamali takror
V. So'roq olmoshlari orqali ritorik so'roq gap
G. So'roq yuklamalari orqali ritorik so'roq.

7.Sahar chog‘i... Kumush kabi shudringdan

Sirg'a taqib, yaprog‘iga bosh qo'yib,
Gullar tunning quchog‘ida mudraydi. (Uyg‘un)
Parchada qo'llangan uslubiy figurani ayting.

- A. Jonlashtirish
- B. Mubolag'a
- V. Ironiya
- G. Gradatsiya

8. She'rning sozi – to'rt satr,

To‘rt ajoyib – zo‘r satr.

Shoir odam o‘zini

To‘rt satrda ko‘rsatur.(E.Vohidov)

Ushbu parchada qo‘llangan uslubiy figurani aniqlang.

A. Jonlashtirish

B. Mubolag‘a

V. Ironiya

G. Alliteratsiya

9.Bir predmet nomining boshqa pedmetga butun va qism munosabati asosida ko‘chishi, butunning nomi qismning nomi yoki aksincha bo‘lib qolishi. Bu ta’rif tropning qaysi turiga xos?

A. Sinekdoxa

B. Metonimiya

V. Ironiya

G. Metafora.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1.Nutq madaniyati bilan amaliy uslubiyatning bog‘liq va farqli tomonlari nimalardan iborat?

2.Tilning qanday tasviriy vositalari mavjud?

3. Troplar deb nimaga aytiladi?

4. Antifraza va perifrazaning qanday farqi bor?

5.Apostrofa bilan antitezaning badiiy asardagi vazifalari nimalardan iborat?

6. O‘xshatishning qanday turlari bor?

7.Leksik o‘xshatish qaysi so‘zlar yordamida hosil bo‘ladi?

8.Grammatik o‘xshatish qaysi qo‘sishchalar yordamida hosil bo‘ladi?

9.Singari, kabi, go‘yo, xuddi, yanglig‘ so‘zlari tropning qaysi turida uchraydi?

Glossariy

Allegoriya – kinoya, qochiriq, kesatish ma’nosini ifodalaydi.

Simvol – majoz turlaridan biri.

Ironiya –“zimdan kulish”, “kesatish” ma’nosida qo‘llanadi.

Sarkazm – “achchiq zaharxanda”, “istehzoli ta’na”, “piching” ma’nolarini anglatadi.

Perifraz – “aylana”, “atrof”, “boshqacha gapiraman”.

Gradatsiya – aytilayotgan fikr borgan sari kuchaytirib boriladi.

Trop va figuralar - so‘zlovchi o‘z fikrini aniq, lo‘nda, ifodali, mazmunli va shu bilan birga ta’sirli qilish uchun tilning maxsus vositalaridan foydalanadi.

Epitet – kishi, narsa yoki voqeanning biror belgisini ifodalashi sifatlash hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. - Samarqand,1984.
2. R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1992.
- 3.Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1993.
4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
- 5.Qilichev E., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 1992, 2002.
- 6. Tojiev Y., Hasanova J., Tojimatov H., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994, 2006.**

NUTQ MADANIYATINI EGALLASHNING USUL VA YO’LLARI

Tayanch so‘zlar: nutqiy malaka, normativ vositalar, yozma nutq madaniyati, og‘zaki nutq madaniyati, ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, badiiy nutq, ilmiy til, rasmiy til, badiiy til, lektorlar nutqi, radio nutqi, televide niye nutqi, sahna nutqi, o‘qituvchi nutqi, o‘quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, to‘g‘ri nutq bosqichi, nutq madaniyati bosqichi, nutq texnikasi, ovoz, jarangdorlik, tembr, melodika.

Og‘zaki va yozma nutq madaniyati. Adabiy nutq ko‘pqirrali xususiyatlarga egadir. Bu xususiyat, avvalo, nutqiy faoliyatning murakkabligi va ko‘p tomonli ekani bilan izohlanadi. Adabiy til va uning vazifaviy shaklining o‘zi ikki ko‘rinishga ega: 1) yozma adabiy til; 2) og‘zaki adabiy til. Adabiy tilning bu shakllari nutqiy faoliyat nuqtayi nazaridan: yozma nutq va og‘zaki nutq deb ham yuritiladi.

Nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til me’yorlariga tayanib ish ko‘radi. Shu sababli ularda mushtarak lug‘aviy me’yorlar, umumiy morfologik vosita mavjud. Ammo yozma nutq amal qiladigan imloviy, punktuatsion me’yorlar og‘zaki nutqda, og‘zaki nutq amal qiladigan talaffuz me’yorlari, ohangiy (intonatsion) me’yorlar yozma nutqda yo‘q yoki etakchi rol o‘ynamaydi. Mana shunday farqli tomonlar yozma va og‘zaki nutqning sintaktik qurilishida, so‘z shakllarining to‘liq va noto‘liq qo‘llanishlarida, imo-ishora bilan bog‘liq (paralingvistik) vositalarning ishlatalishi xususiyatlarida ham ko‘rinadi. Bular yozma va og‘zaki nutq madaniyatini egallashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligiga dalildir. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og‘zaki nutq madaniyati deyilgan tushunchalar

mavjud. Bu tushunchalar o‘zida yozma va og‘zaki nutq shakllari oldiga qo‘yiladigan nutq madaniyati talablarini ifodalaydi.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek, radio va televide niye uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi. Keltirilgan yozma nutq ko‘rinishlarining o‘zaro farq qiladigan me’yoriy tomonlari bor. Shunga ko‘ra, bu me’yorlarga amal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan nutq madaniyati talablari ham mavjudligi, shubhasiz. Nutqning keltirilgan vazifaviy tiplari ba’zan ilmiy til, rasmiy til, badiiy til deb ham yuritiladi.

Og‘zaki nutq dastlab ikki tipga ajraladi: 1) oddiy so‘zlashuv nutqi; 2) adabiy so‘zlashuv nutqi.

Oddiy so‘zlashuv nutqi o‘zbek tilida tabiiy holda mavjud bo‘lgan og‘zaki nutq ko‘rinishlaridan iborat. Masalan, o‘zbek sheva va lahjalari tili, ya’ni dialektal nutq ko‘rinishlari, shevachilik unsurlari ta’sirida bo‘lgan kundalik so‘zlashuvning boshqa xil ko‘rinishlari va h.k.

Oddiy so‘zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shu tufayli oddiy so‘zlashuvdan biz talqin qilayotgan ma’nodagi nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so‘zlashuv oldiga qo‘yiluvchi nutqiy talablar aniq lahja va shevalarning tabiiy me’yorlari, lisoniy talablari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki nutq doirasidagi vazifalaridan yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy so‘zlashuv nutqi – adabiy til madaniyatiga, ya’ni adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda gapirishdir. Ammo adabiy tilda so‘zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir, buning bir qator sabablari bor:

1) og‘zaki nutqda shevachilikning ta’siri kuchli bo‘ladi;

2) og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab olib so‘zlash imkonini kam bo‘ladi. Chunki og‘zaki nutq yozma nutqdan tezkor, jadallahsgan (avtomatik) jarayon ekani bilan farqlanadi;

3) og‘zaki nuqtning o‘ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. Chunonchi, gap bo‘laklarining tushib qolishi, qisqarib ketishi, o‘rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo‘lishi va b.;

4) og‘zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari asosiy rol o‘ynaydi;

5) og‘zaki nutqning yuzaga chiqishi so‘zlovchining kayfiyatiga, nutq so‘zlanayotgan vaziyatga, so‘zlovchi nutqiy a’zolarining normal va sog‘lomligiga bog‘liq;

6) og‘zaki nutq me’yorlarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o‘rgatish va o‘rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi;

7) og‘zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyatdir. Uning ko‘pgina qirralari turli sharoitlarda o‘zicha kechadi va payqalmagan holda beiz yo‘qolib ketadi;

8) og‘zaki nutqning lisoniy xususiyatlari fanda yozma nutqqa nisbatan kam o‘rganilgan;

9) og‘zaki nutqni me’yorlash ishlariga shu kunga qadar fanda nihoyatda kam e’tibor beriladi;

10) kishi so‘zlaganda o‘z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi yetarli e’tibor beravermaydi va b.

Og‘zaki nutqda qayd etilgan xususiyatlar ba’zi tadqiqotchilarda og‘zaki nutqni muayyan me’yorga keltirib bo‘lmaydi, deyilgan fikr tug‘dirgan. Aslida bu unchalik to‘g‘ri xulosa emas.

Og‘zaki nutqning quyidagi vazifaviy ko‘rinishlari mavjud:

1. Kundalik adabiy so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlari. Bunga adabiy tilda gapiruvchi shaxslarning kundalik so‘zlashuv nutqini kiritish mumkin.

2. Lektorlar nutqi. Bu ko‘rinishga o‘rta va oliv ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining, targ‘ibotchilarining, olimlarning ma’ruzalari, chiqishlarini kiritish mumkin. Og‘zaki nutqning bu xili asosan, monologik nutq xarakterida bo‘ladi.

3. Radio va televide niye nutqi (tili). Bu ko‘rinishga radio va televide niye orqali adabiy tilda so‘zlangan nutqlar kiradi. Radio va televide niye nutqi asosan diktorlar, radio va televide niye sharhlovchilarining nutqi tashkil qiladi. Radio va televide niye orqali adabiy tilda olib borilgan eshittirishlar, ko‘rsatuvalar, suhbatlar, e’lonlar, reklamalar tili ham radio va televide niyening o‘ziga xos talablariga bo‘ysunadi.

4. Sahna nutqi. Og‘zaki nutqning alohida turi sahna nutqidir. Sahna nutqida ijro etilayotgan asarning til xususiyatlarini saqlagan holda, tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan tilda so‘zlashga intilish mavjud. Sahna nutqining umumtushunarli bo‘lishini ta’minlaydigan asosiy omil adabiy tilda so‘zlashdir. Bunda adabiy talaffuz, ayniqsa, muhim o‘rin tutadi. Sahna nutqi nutqning yuqorida qayd qilingan ko‘rinishlaridan dialogik xarakterga egaligi bilan ham farqlanadi.

Nutq turlarini ba’zan ijtimoiy tabaqalar va kasb-kor egalari guruhi tili nuqtayi nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o‘qituvchilar nutqi, o‘quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, bola nutqi (bog‘cha bolalari nutqi) kabi. Nutqning yuqorida keltirilgan xillari ham nutq madaniyatining asosiy talablariga bo‘ysunadi. Chunki ularning til asoslari ham adabiy til me’yorlaridir. Shu tufayli ham bu nutqiy ko‘rinishlardan talab qilinuvchi nutq madaniyati haqida ham alohida gapirish mumkin. Mana shu asosga ko‘ra o‘quvchilarining nutq madaniyati, o‘qituvchilarining nutq madaniyati, sahna nutqi madaniyati, lektor nutqi madaniyati, radio nutqi madaniyati, televide niye nutqi madaniyati, umuman keng ma’noda og‘zaki nutq madaniyati haqida ham gap yuritish asoslidir. Ammo keltirilgan nutq turlarining asosiy lisoniy xususiyatlari, ular amal qiluvchi adabiy me’yorlar bu nutqlarda yo‘l qo‘yilayotgan ba’zi nuqsonlarning obyektiv va subyektiv sabablari o‘zbek tilshunosligida deyarli o‘rganilgan emas. Nutq madaniyati jamiyat a’zosining kundalik salomlashishidan

boshlab, kimga, qachon, qaerda va qanday muomalada bo‘lishigacha bo‘lgan barcha nutqiy jarayonlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Jamiyat a’zolari tabiiy holda ona tilidan foydalana olish ko‘nikmasiga ega. Ular til qonuniyatlarini yoshligidan egallaydi, kundalik hayotda odamlar bilan u yoki bu darajada muomala-munosabatda bo‘ladi. Nutq madaniyati sohasi mana shunday nutqning adabiy tilda bo‘lishi uchun kurashadi. Shunga ko‘ra nutq madaniyati sohasi jamiyat a’zolariga adabiy til me’yorlarida so‘zlashish, fikrlasha olish uchun yo‘l-yo‘riqlar, tavsiyalar, ko‘rsatmalar beradi. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish o‘rinlikni, jamiyat a’zolari adabiy til me’yorlarini bilmasa, ular nutqiy muomalada bo‘la olmaydi, deyish ham noto‘g‘ridir. Masalan, kundalik hayotda adabiy til me’yorlarini yaxshi o‘rganmagan yoxud unga amal qilmagan shaxslar ham muomala-munosabat borasida u yoki bu darajada ishtirok etishi tabiiy hol, albatta.

Jamiyat a’zolarining o‘zaro fikr almashinuv jarayonida tildan foydalanishi va foydalana olish qobiliyati o‘zining ma’lum qonuniyatiga ega. Bundagi bir umumiyl holat shundan iboratki, har bir kishi ham o‘z ona tili yoki o‘zi egallagan boshqa biror tildan ehtiyojiga yarasha foydalanish ko‘nikmasiga egadir. Ushbu ko‘nikma ko‘p zamонлар davomida avloddan-avlodga o‘tib keluvchi insoniy mushohada va tafakkur an’analaring har bir shaxsda takrorlanuvchi intellektual xususiyatga tayanadi. Bunday qobiliyat shaxsning o‘zi gapirayotgan til yoki til shaklining me’oriy tizimini egallaganligi, uni ijodiy idrok eta olishi bilan bog‘langandir. Shaxsning o‘zi egallagan tilni qay darajada bilishi shu shaxsning o‘z faoliyati, intilishi, hayotiy tajribasi hamda hayotiy ehtiyojiga bog‘liq bo‘lgan masaladir.

Demak, odamning yoshlikdan ma’lum bir tilda so‘zlay olishi tabiiy, shaxsiy va obyektiv qobiliyatdir. Shu tufayli ham nutq madaniyati sohasi kishilarni, umuman, so‘zlashga ma’lum til vositasida fikr almashishga o‘rgatish vazifasini ko‘zda tutmaydi. Chunki qayd etilganidek, insonning o‘z ona tilida so‘zlay olish qobiliyati avvaldan bor bo‘lgan tabiiy holatdir. Shunday ekan, nutq madaniyati sohasining maqsadi nima? Bu soha, umuman, ona tilida emas, balki jamiyat a’zolarini ona tilining maxsus shaklida gapira olishni o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Tilning bunday shakli ma’lum bir milliy tilda gaplashuvchi ijtimoiy guruhlarning barchasi uchun mushtarak bo‘lgan til - adabiy tildir. Shu tufayli nutq madaniyati uchun kurash bu kishilarning o‘zaro har qanday fikr almashishini madaniylashtirish uchun kurash emas, balki butun millat a’zolari uchun yagona bo‘lgan adabiy tilda to‘g‘ri fikr almashish uchun kurashishdan iboratdir, ya’ni:

- nutq madaniyati sohasi butun millatni ko‘zda tutib ish olib boradi;
- nutq madaniyati faqat ziyorolar nutqini yaxshilashni ko‘zda tutadi;
- nutq madaniyati sohasi, birinchi navbatda, yosh avlod nutqini to‘g‘irlashni ko‘zda tutib ish ko‘radi.

-nutq madaniyati tushunchasi adabiy til bilan bog‘liqdir. Shuning uchun adabiy tilni egallamagan va unda so‘zlay olmaydigan kishining nutqiy madaniyati haqida gapirish ham ortiqchadir;

-nutq madaniyati sohasi adabiy tilda gapiruvchilar, adabiy tilni egallagan va egallayotganlar nutqini, nutqiy faoliyatini ko‘zda tutgan holda ish ko‘radi.

Ammo hozirda adabiy til barchaning so‘zlashuv quroliga aylanayotgan bizning jamiyatimizda ham aholining ko‘pchilik qismi mahalliy lahja va shevalarda yoki adabiy til bilan o‘z shevalarining qandaydir qorishmasidan iborat bo‘lgan bir tilda so‘zlashmoqdalar. O‘zbek millatiga mansub kishilar kundalik faoliyatlarida o‘zbek adabiy tilidan qay darajada foydalanayotganiga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1.O‘zbek adabiy tilida gapira oluvchi va yoza oluvchi kishilar guruhi.

2.O‘zbek adabiy tilida yoza oluvchi, ammo og‘zaki nutqida adabiy til me’yorlariga to‘liq amal eta olmaydigan kishilar guruhi.

3.Rasmiy doiralarda adabiy tilda so‘zlay olmaydigan, ammo oddiy so‘zlashuvda, ayniqsa, oilada shevasida va sheva bilan adabiy tilning aralashmasidan iborat bir tilda gapiruvchi shaxslar guruhi.

4. Mahalliy shevaning kuchli ta’siri sezilib turadigan nutq egasi bo‘lmish kishilar guruhi.

5.Mahalliy shevaning kuchsiz ta’siri sezilib turadigan tilda so‘zlaydigan kishilar guruhi.

6. Adabiy tilni o‘z mahalliy shevasida gapiradigan kishilar guruhi.

O‘zbekiston aholisi nutqining keltirilgan ko‘rinishlari og‘zaki nutq madaniyatini barchadan bir xilda talab etib bo‘lmasligiga yorqin dalildir. Kishilarining “adabiy tilni bilmasligi” tushunchasi nisbiy hodisa bo‘lib, ya’ni adabiy tilni tamoman tushunmaydi ma’nosida emas, balki ular adabiy tildan to‘la ma’noda foydalanmaydi, bu tilda gapirishga va yozishga tamoman odatlanmagan degan ma’noda tushunish lozim. Ammo shunday bo‘lganda ham keltirilgan oltinchi guruh kishilarining mavjudligi, hattoki ularning o‘zbek aholisining ko‘pchilik qismini tashkil etishi nutq madaniyati talablarini butun o‘zbek millati doirasiga qo‘yish mumkin emasligini ko‘rsatib turibdi. Bunga sabab, o‘zbek aholisining ma’lum qismi hali adabiy tilda gaplashishga o‘tmagan va bunday nutqiy faoliyatga hali to‘lig‘icha ko‘nikmagan.

Mana shu kabi sabablar tufayli bo‘lsa kerak, nutq madaniyati sohasining ish tutish doirasini (nutq madaniyati haqidagi gap ketganida kimlarni ko‘zda tutish lozimligini) belgilash fanda mulohazalidir. Chunonchi, ba’zi tadqiqotchilar nutq madaniyati, asosan, o‘qimishli kishilarни ko‘zda tutib ish ko‘radi, degan fikrni oldinga suradilar: “O‘zbek adabiy tilidan foydalanib ish olib boradigan va nutq madaniyatlari yuqori bo‘lishi shart deb hisoblanuvchi kishilar deganda, birinchi navbatda, olimlar, matbuot xodimlari, adiblar, shoirlar, artistlar, davlat arboblari, idora va tashkilot xizmatchilari, adabiy

tilning ommaviy og‘zaki shakli bo‘lgan radio, televideeniye, kinoning diktor va notiqlari, pedagoglar, tashviqotchilar ko‘zda tutiladi.”

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli yozma va ayniqsa, og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz notiqliidan emas, bilki har bir fuqarodan talab qilinadigan ishdir.

Nutq madaniyati ma’lum ma’noda har qanday kishilar, odamlar guruhini emas, balki ma’lum saviyaga ega adabiy tilni muayyan darajada egallagan odamlarni ko‘zda tutgan holda ish ko‘radi.

Nutq madaniyati haqida qayg‘urish-umumxalq ishidir. Nutq madaniyati sohasining to‘liq, ya’ni asosiy va bosh maqsadi barcha xalq ommasining nutqini adabiy tarbiyaga olishni ko‘zda tutmog‘i lozim.

Har qanday holda ham nutq madaniyati - bu avvalo, nutqiy ko‘nikma, nutqiy va amaliy jarayon bo‘lib, maxsus mehnat va mashq evaziga, o‘qish va o‘qitish orqali erishiladigan qobiliyat, mahoratdir.

Insonning aloqa quroli bo‘lmish tilni, jumladan, adabiy tilni o‘rganishi va egallahshi to‘rt xil yo‘l bilan amalga oshadi:

1.Tilni tabiiy holda egallah.

Bunga bolaning o‘z ona tilida oila muhitida, shuningdek, o‘zi duch kelgan kishilardan tabiiy holda eshitish va o‘zlashtirish orqali egallaydi. Bolada, bola tili malakasi tabiiy holda, ongli ravishda yuzaga keladi va shakllanadi.

2.Tilni o‘qitish, o‘rgatish orqali egallah.

Bunga asosan, o‘rta va oliy maktab ta’limi kiradi. Shuningdek, qisman bolalar bog‘chasidagi ta’limni ham mana shu omilga qo‘sish mumkin. Til va uning qonuniyatları, nutq qoidalari o‘rta maktabda ona tili va adabiyot darslarida o‘qitiladi. Bolaning til egallahshida boshqa fanlardan o‘tiladigan darslarining roli ham muhim ahamiyatga egadir. Tarix, geografiya, astronomiya, biologiya, hatto matematika darslari ham o‘quvchilarda nutq madaniyati malakasining shakllanishida sezilarli rol o‘ynaydi. Bu fanlarga oid darslar jarayonida bolaning lug‘at boyligi oshadi. U gap tuzishning bir qator murakkab tiplarini, fikr ifodalashning ba’zi mantiqiy asoslarini egallab boradi.

Tabiiy fanlardan dars beradigan o‘qituvchilar orasida o‘zbek adabiy tilini yaxshi egallagan, so‘zga usta, mohir notiqlar talaygina. Nutq madaniyatini tarbiyalashda o‘qitish asosiy omildir.

3.Til va nutq madaniyatini mustaqil o‘qish, shug‘ullanish orqali o‘rganish.

Tilni, nutq madaniyatini egallahshda mustaqil o‘qish, til va nutq ustida mustaqil ishlash muhimdir. Buni ikki xil yo‘l bilan amalga oshirish mumkin: 1) kishi tilga oid maxsus adabiyotlar, darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlarni o‘rganadi. Undagi til va nutqqa oid maxsus adabiyotlar va qonuniyatlarni egallaydi; 2) nolinguistik adabiyotlarni mustaqil o‘qiydi va bu hol kishi nutqining o‘sishiga, adabiy til meyorlarini egallahshiga

turki bo‘ladi. Masalan, badiiy adabiyot asarlarini, gazeta va jurnallarni ko‘plab o‘qish, she’rlarni yod olish, radio va televide niye eshittirishlarini tinglash va boshqalar.

4.Til va nutq madaniyatini egallahning ko‘rinishlaridan biri nutqiy taqliddir.

Har bir inson o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va o‘tkir gapiradigan kishilar nutqiga havas bilan qarashi va unga taqlid qilishga intilishi mumkin. Bu holda nutqiy taqlid bu namunali til, nutq madaniyatini egallahga intilishning omillaridan biriga aylanadi. Namunali, yaxshi gapiruvchilar, odatda radio va televide niye suxandonlari, mashhur artistlar, badiiy so‘z ijrochilar, ba’zi yozuvchilar, olimlar orasida ham uchraydi.

Nutqiy taqlid - ongli faoliyatdir va milliy notiqlikning eng yaxshi namunalari va an’analarini avloddan avlodga o‘tkazish, yetkazish, ko‘p asrlar davomida saqlab qolishning vositasi hamdir.

Til va nutq madaniyatini egallahning quyidagi bosqichlari mavjud:

- oila va atrof -muhitdan o‘rganish;
- maktabgacha ta’limi;
- o‘rta maktab ta’limi;
- oliy ta’lim;
- til ustida mustaqil shug‘ullanish orqali.

Tilni egallah haqida gap borganda ikki muhim narsani farqlamoq kerak. Bularning birinchisi, umuman, o‘zbek tilini - xalq tilini bilish, ikkinchisi, o‘zbek adabiy tilini egallah.

Nutq madaniyati shaxsning, umuman, tilni bilish darajasi bilangina emas, balki adabiy tilni namunali bilishi va undan nutqning og‘zaki va yozma shakllarida to‘la foydalana olishi darajasi bilan o‘lchanadi. Nutq madaniyatini egallah uchun nutqni o‘stirishga oid bo‘lgan adabiy til me’yorlari va unga vosita bo‘luvchi narsalar:

-o‘zbek tilining darslik va qo‘llanmalari, o‘zbek tili grammatikasi, o‘zbek tilining turli lug‘atlari va boshqalar;

-o‘zbek adabiyoti darslari, oliy va o‘rta ta’limda o‘tiladigan boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarga oid darslar, ularning tili;

-o‘zbek adabiyoti tili (mustaqil o‘qish ko‘zda tutiladi);

-o‘zbek matbuoti tili;

-o‘zbek radiosи va televide niyesi tili;

-badiiy o‘qish darslari va ta’limi;

-notiqlik san’ati yuzasidan o‘qitiladigan maxsus kurslar ta’limi va boshqalar.

Ona tili va o‘zbek adabiyoti kishilarning og‘zaki nutq madaniyatini ko‘tarishga xizmat qiladi, radio va televide niye nutqini tinglash, notiqlik sirlarini o‘rganish og‘zaki nutq madaniyati rivoji uchun muhim omildir.

Yozma nutq madaniyati, og‘zaki nutq madaniyatining yuzaga chiqishini ta’min etadigan vositadir. Masalan, yozma nutq madaniyati uchun imlo va tinish belgilari ga oid

qoidalari, yozuv texnikasi, yozishni ko‘p mashq qilish, ko‘p yozish va ko‘p o‘qish, so‘zlarning yozilish shakllarini xotirada saqlay olish, sintaksisga doir me’yor va qoidalarni yaxshi o‘zlashtirish muhimdir. Yozma nutq madaniyatini oshirishda imlo lug‘atlari yetakchi o‘rin tutadi.

Kishilar og‘zaki va yozma nutq madaniyatini egallashlari uchun quyidagi tomonlarga ham e’tibor bermog‘i kerak:

- so‘zlashuv nutqi jarayonida kishilar o‘zlarining kundalik tiliga e’tibor qilishi, undagi yutuq va nuqsonlarni sezab bilishi;

- har qanday shaxs o‘z ona tiliga, uning qonun-qoidalariiga ongli, ilmiy munosabatda bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘sha til grammatikasini, fonetikasini, leksikologiyasi va stilistikasini yaxshi bilishi talab qilinadi;

- har bir kishi o‘zining yozma va og‘zaki nutqi ustidan ongli nazorat o‘rnata olmog‘i lozim. Bu shaxslarda o‘z nutqi ustidan yutuq va kamchiliklarga tanqidiy yondasha olish ko‘nikmasini shakllantiradi;

- har qanday ongli kishi uchun nutq madaniyatini egallashning muhim shartlaridan biri bu tilga hurmat bilan qarash, unga muhabbat qo‘yishdir;

- tilni o‘rganish, nutq madaniyatini egallash kishi hayotining ma’lum davriga to‘g‘ri keladigan vaqtinchalik ish, bir fasllik tadbir emas, balki doimiy intilish va shug‘ullanishni, bir umr takomillashtirib borishni talab qiluvchi hodisadir.

Nutq madaniyati - so‘z san’ati sohasi bo‘lib, nutq vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanilgan holda yaxshi gapirish va yozish san’atidir.

Nutq texnikasi. Notiqning nutqi ravon, tushunarli va yoqimli bo‘lishi kerak. Chunki notiqning nutqi so‘zlovchi – tinglovchi munosabatini o‘rnatishda hamda ularning o‘zaro tushunishlarini ta’minlaydigan asosiy vositalardan biridir. Bunda so‘zlovchining tinglovchilarga murojaati, salomlashishi, talablarni qo‘yishi, ogohlantirishi, gapirish ohangi, yuz ifodasi, nigohi, savol berish va javob olish usullarining barchasi muhim hisoblanadi.

Mashhur rus olimi M.V.Lomonosov o‘zining “Notiqlik bo‘yicha qisqacha qo‘llanma”sida notiq bo‘lish uchun avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo‘linishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yoqimli ovoz, uzun nafas va baquvvat ko‘krak, shuningdek, sog‘lom tana va kelishgan qomatni nazarda tutadi.

Bugungi kunda notiqlarning yoki o‘qituvchilarning og‘zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlar mavjud bo‘lsa-yu, lekin ularning ovozida u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta’sir kuchining yarmini yo‘qotadi. “Tabiiy jismoniy qobiliyat” sifatidagi xirqiroq, chiyildoq, shang‘iroq kabi ovozlar hech qachon yoqimli bo‘lolmaydi. Bunday yoqimsiz ovozdan “libos kiygan” fikrlarning ko‘pgina qismi nutq idrokining o‘ta sezgir va nozik darvozasi bo‘lmish qulogdan o‘tolmay tashqarida qoladi. Bu albatta, nutq egasi qo‘ygan maqsad – muayyan bir axborotni

tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Tabiatan ana shunday “qulinqi qiyinaydigan” ovozga ega bo‘lgan odam o‘z ishining samarasidan chinakam huzur topishi, Shayx Sa’diyning “Guliston” idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy quroli nutq bo‘lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani ma’qul.⁵⁰

To‘liq, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi notiq yoki o‘qituvchining(umuman, so‘zlovchining) umumiyligi nutqiy madaniyatining eng muhim uzvi hisoblanadi. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami nutq texnikasidir. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to‘g‘ri nafas olish, tovush va tovush qo‘silmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diksiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo‘lgan har bir odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

Notiqning ovozida quyidagi xususiyatlar bo‘lishi lozim:

-jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi)

-keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo‘lgan darjasasi)

-havodorlik (erkin so‘zlaganda yaxshi eshitiluvchanlikka ega bo‘lishi)

-ixchamlik, harakatchanlik

-chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo‘lish)

-moslashuvchanlik (dinamik, tembr, melodikaning eshitilish sharoitiga moslasha olishi)

qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga qarshi tembr va tessituraning o‘zgarib turishi)

-suggestivlik (ovozning hayajon ifodalash va bu orqali qanday so‘z aytilayotganidan qat‘i nazar tinglovchining xulqiga ta’sir qilish xususiyati)

⁵⁰ Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.

Buning uchun notiqning nutq texnikasi yaxshi rivojlangan bo‘lishi lozim. Ovoz - nutq texnikasining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Notiqning asosiy mehnat quroli uning ovozidir. Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish natijasida kulgiga qolish, qattiq va qo‘pol ohangda gapirish bilan notiq o‘zini so‘zlovchidan uzoqlashtirishi, noto‘g‘ri nafas olish orqali paydo bo‘ladigan hansirash, yurakning tez-tez urib ketishi, qizarib ketish singari holatlar natijasida aniq gapira olmasligi mumkin. Shuning uchun notiq nutqiga bir qator talablar qo‘yiladi va ushbu talablar kasbiy faoliyat jarayonida hal qilinadi hamda aniqlanadi:

1. Notiqning ovozi tinglovchilarda yoqimsiz hislarni uyg‘otmasligi kerak, aksincha, shirador va jozibador bo‘lishi lozim.
2. Notiqning ovozida havodorlik bo‘lishi kerak, ya’ni o‘z ovozini boshqara olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, o‘zi uchun emas, o‘quvchilar tinglashi uchun gapirishi lozim.
3. Ovoz – bu notiqning quroli bo‘lganligi tufayli ham tinglovchilarga qo‘ygan talablarini bajartira olish ohangini tanlay bilishi kerak.
4. Notiq vaziyatga qarab ovoz xususiyatlarini o‘zgartirib turishi lozim.
5. Notiq nutq apparatiga ko‘p kuch tushganligi sababli uning ovozi chidamli bo‘lishi zarur.

Shunga ko‘ra, notiqning ovozi jozibador, havodor, chidamli va harakatchan bo‘lishi kerak. Mazkur sifatlarni shakllantirish va ovozni sozlash bir qator jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Notiq ovozining shirador va jozibador bo‘lishiga ashula darslarida hamda maxsus mashqlar qilish natijasida erishsa bo‘ladi. Masalan: *She’rlarni turli templarda, ya’ni sekin, o’rta va tez o‘qib ko‘rib, ularning qay biri muvofiq kelishini bilib olish zarur bo‘ladi. She’rni aytish yoki biror bir hikoyani so‘zlab berish jarayonida ovozga zo‘r berish yaramaydi. Matnlarni ovoz chiqarib o‘qish o‘qituvchining fikrlash qobiliyatini shakllantirishga katta yordam beradi. Bu mashqni har kuni bajarish kerak va o‘qiyotganda tinglovchilarni ko‘z oldiga keltirib ularning nigohlariga qaragandek o‘qish kerak. Yana uyda oila a’zolari va do’stlariga turli ovozda she’r yoki matnlarni gapirib berishi mumkin. Ular o‘zlariga yoqqan ovozni tanlab beradilar.* Faqat shundagina ovoz yoqimlilik, bosiqlik kabi ifodalilikka ega bo‘lishi mumkin.

Nutq texnikasining yana bir zaruriy elementlaridan biri diksiya sanaladi. Diksiya nutq tovushlarini, bo‘g‘inlarni, so‘zlarni aniq talaffuz etishdir. Diksiyaning yaxshi bo‘lishi artikulyatsion qonun-qoidalarga rioya qilish bilan bog‘liq. Noaniq artikulyatsiya nutqning aniqligiga putur etkazadi hamda so‘zlovchining gaplarini tinglovchilar tushunmasligiga olib keladi. Natijada kommunikativ aloqa yuzaga chiqmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi diksiyasini yaxshilaydigan mashqlarni doimo bajarib yurishi maqsadga muvofiqdir. Hatto dars boshlashdan avval tovush birikmalarini (ro, do, zi, mi, gi, ti...) diksiya bilan aytib, tayyorgarlik ko‘rish har bir so‘zning to‘g‘ri va aniq aytilishiga sabab bo‘ladi. Ba’zilar juda tez gapiradi yoki aksincha sekin gapiradi. Shunga

o‘xshash kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlar mavjud. Masalan: *Labni mahkam juftlab, hushtak chalmoqchi bo‘layotgandek, uni oldinga cho‘chchatyirib chapga, o‘ngga, tepaga va pastga harakatlantiriladi. Bu holatda tishlar mahkam qisilishi va iyak esa qimirlamasligi kerak.*

Tishlarni ko‘rsatmagan holda tabassum qilmoqchi bo‘lganday lablar cho‘ziladi.

Yuqorigi labni ochib, yuqori tishlar ko‘rsatiladi.

Pastki labni pastga tushirib, pastki tishlar ko‘rsatiladi.

A tovushini ovozsiz aytildi, til xuddi esnash paytidagi holatda bo‘ladi.

Nutq so‘zlashda nafas olishning ham ahamiyati katta. So‘zlashni boshlashdan avval nafas olib olish kerak. Nafas olganda o‘pka havoga to‘ladi, ko‘krak qafasi kengayadi, qovurg‘alar ko‘tariladi, diafragma esa pasayadi. O‘pkaga yig‘ilgan havo nutq so‘zlangan paytda asta-sekinlik bilan sarflanadi. To‘g‘ri nafas olish, to‘xtash, nafas chiqarish ma’lum mashqlar orqali amalga oshiriladi. Chunonchi, *qomatni tik tutib, bir qo‘lni qorinning ustki qismiga, ikkinchi qo‘lni yonga, ya’ni qovurg‘alarning harakatini nazorat qilish uchun beldan yuqoriroq qismiga qo‘yiladi*. Burun teshiklarini qimirlatmasdan burundan asta-sekinlik bilan nafas olinadi. (5 soniya), 2-3 soniya o‘pkada havo ushlanadi, so‘ngra A tovushini talaffuz qilganday nafas chiqariladi (4-5 soniya). 1-mashqdagidek nafas olinadi va nafas chiqarayotganda 1, 2,3... deb ovoz chiqarib sanaladi. 3-mashqda matnlarni o‘qish orqali nafas olish tekshiriladi. Qaysi o‘rinlarda chuqur nafas chiqarilganligi va nafas olinganligini belgilab olish kerak bo‘ladi. Bu kabi mashqlar bilan notiqining diafragmasi mustahkamlanadi va nutqiy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Nutq texnikasini egallahda umumiy tarzda bo‘lsa-da, fonetik bilimlardan xabardor bo‘lgan ma’qul. Ma’lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri, cho‘ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Og‘zaki nutqning yashashini ta’minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo‘lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Ayrim o‘qituvchilar dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiрадilar, ba’zi o‘qituvchilar darsda deyarli past ovozda so‘zlaydilar. Bu ikkisi ham noto‘g‘ri. O‘qituvchinng nutq texnikasi bilan bog‘liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to‘g‘ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko‘ra mo‘tadillagini saqlay olmaslikdan iborat.

Nutqda intonatsiyaning ahamiyati juda katta. Intonatsiya orqali turli ma’nolarni ifodalash mumkin. Shuning uchun nutqning fonetik jihatdan bo‘linishi (fraz, takt, bo‘g‘in, ayrim tovushlar)ni puxta egallah zarur. Ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash orqali gapning mazmuni aniq anglashiladi.

Notiq nutqi orqali tinglovchi tafakkuriga, xulqiga ta’sirini o‘tkazadi, dunyoqarashini kengaytira oladi. Ayniqsa, ona tili o‘qituvchisining nutqi katta ahamiyat kasb etadi, chunki o‘quvchi o‘qituvchisiga taqlid qilish orqali uning gapirish uslubini

o'zlashtirib oladi. Bu ma'noda o'qituvchining nutqi o'quvchi uchun namunadir. Shuning uchun o'qituvchining leksik, fonetik, grammatik va stilistik me'yorlarning barchasiga rioya qilib gapirishi talab etiladi. O'qituvchi so'zlayotgan nutqida o'quvchilarning hissiyotiga ta'sir qilishi va eshitganlarini tushunishlariga harakat qilishi kerak. Xabar berilayotgan axborotning nafaqat qiziqarli va foydali bo'lishi, balki tinglovchi, hikoya qilib beruvchi yoki o'qiyotgan o'quvchi uchun tushunarli hamda tarbiyaviy ahamiyati jihatidan qimmatli bo'lishi lozim. Shundagina o'qigan asarining mazmuni haqida aniq, yorqin va jonli ko'rinish namoyon bo'ladi. Yana notiqning eng asosiy vazifalaridan biri - matnlarni xatosiz ifodali o'qishga hamda ularni ifodali gapirib berish yo'llarini o'rgatishdan iborat. Ifodali o'qishni yaxshi egallash uchun nutq texnikasini (ovoz, diksiya, nafas olish, intonatsiya) puxta egallash talab qilinadi. Mashhur Rim notig'i Kvintilian aytganidek, notiqlik mahorati tinimsiz mehnat va tirishqoqlikni, turli-tuman mashqlarni, boy tajribani, aql va yangicha fikrni talab qiladi. Umuman, notiq o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq.

Nutqqa tayyorgarlik ko'rish va stressga qarshi kurashish. O'quvchilar nutqi oilada, maktabda, jamoada o'zaro fikr almashish, suhbat, dialog, muayyan mavzuda bahs-munozara, savol-javob shakllarida namoyon bo'ladi. O'quvchi tafakkuri, idroki, tasavvuri, his-kechinmalari fikrni qo'zg'asa, nutq ayni o'y-fikrlarni ifoda qilish vositasiga aylanadi. Bunda o'quvchining o'z qarashlarini bayon tarzida ifoda etishi kuzatilsa, yozma nutqda ushbu bayonning grammatik, punktuatsion, stilistik jihatlardan ravon, mazmunli, izchil va to'g'ri ifoda etilishi nazarda tutiladi. O'quvchida fikr uyg'otish, unga aqliy-hissiy ta'sir ko'rsatish natijasida yuzaga kelgan fikrlar tafakkurda muayyan shaklga ega holda nutqqa ko'chadi. Hozirgi o'quvchi va talabalarimiz nutqida uchraydigan nuqson, fikrlashdagi oqsoqlik, fikrini bayon etishda qolipdan chiqolmaslik, ortiqcha parazit so'zlarni, ya'ni anaqa, haligi, shu, nima desam ekan kabilarni qo'llashi nutq tuzish malakalarining zaifligi bilan bog'liqdir. Fikrimizni o'z ona tilimizda ravon, tushunarli va go'zal ifodalash uchun nutqiy madaniyatni, notiqlikni yetarli darajada shakllantirmog'imiz darkor. Nutqqa tayyorgarlik ko'rish uni qog'ozga yozish, yod olish emas, bu – o'ylash, eslab qolish va uni saralash, tartib bilan mavzuga mos tarzda joylashtirib chiqishdir.

Buyuk notiqlar omma oldiga chiqishdan oldin katta tayyorgarlik ko'rganlar. Ular haqida shunday ma'lumotlar yetib kelgan.

Demosfen oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan omma oldiga hech qachon chiqmagan ekan. "Tinglovchilarimga hurmat yuzasidan soatlab nutq ustida ter to'kib ishlayman", degan edi u. Haqiqatan ham Demosfen nutqqa kuch-quvvatini ayamay

tayyorgarlik ko‘rgan. Tayyorlanmasdan omma oldiga chiqish ularni mensimaslikdir. Undan keladigan omad xizmat evaziga emas, yolg‘on tufayli topilganday bo‘ladi.

Sitseron: “Harbiylar quroq ishlatalishni tinimsiz mashq qilganiday notiq yoshligidanoq tinmay so‘zga egalik qilishni mashq qilishi kerak. Chunki notiqlikka tuyulganidan ko‘ra ko‘proq qiyinchilik bilan erishiladi. Unga ko‘p bilim va mehnat talab etiladi”, - degan edi. Sitseronning nutqqa tayyorgarlik ko‘rishi haqidagi quyidagi ma’lumot mavjud: sudda nutq so‘zlash uchun tayyorgalik ko‘rayotgan Sitseron sud yig‘ilishi qoldirilganligi haqida xabar olib kelgan quliga shu zahoti ozodlik berib yuborgan ekan. Chunki u nutqini yanada mukammal tayyorlashga imkoniyat tug‘ilganidan nihoyatda quvonib ketgan edi. Ko‘rinib turibdiki, Sitseron omma oldidagi nutqqa katta mas’uliyat bilan qaragan.

Nutqqa tayyorgarlik ko‘rishning 4 xil usuli mavjud:⁵¹

1.Ekspromt (badiha) – hech qanday tayyorgarliksiz nutq so‘zlash.
2.Nutqning plan-konspekti – oldindan reja tuzilib, har bir qismning asosiy g‘oyasi va kerakli fikrlar batafsil yoritilgan bo‘ladi.

3.Nutq matni – tayyor nutq matni to‘liq o‘qib beriladi.

4.Yoddan so‘zlash – hech qanday matnga qaramasdan yodlangan nutq so‘zlanadi.

Bu usullardan qaysi biri eng osoni va yaxshisi deb o‘ylaysiz? Bu, albatta, notiqlarning bilimi va tayyorgarligiga bog‘liq. Kimdir 2-usulda nutq so‘zlasa, boshqasi 3 yoki 4-usulni qo‘llaydi. Notiqlarning plan konspekti bo‘lgani yaxshi, lekin unga bog‘lanib qolmasligi kerak. Biror bir mavzu tanlangandan keyin u haqda puxta o‘ylab olish kerak: “*Avvalo, buni gapiraman, ikkinchidan unisini, keyin ..., va oxirida mana bularni aytaman*”.

Ko‘pchilik oldida so‘zlash uchun quyidagi yo‘riqlarga amal qilish kerak:

1.Odamlarga ma’lum bo‘lgan narsalarni miridan sirigacha aytib o‘tirishning hojati yo‘q. Bekorchi gaplarni gapirib safsata so‘qib odamlar vaqtini olmaslik kerak.

2.Gapirganda har bir so‘z aniq va tushunarli qilib aytishi lozim. So‘zlovchining ovozi jarangdor shirali bo‘lishi va ovoz ohangidan notiqlarning o‘ziga ishonchi, shijoati va g‘ayrati sezilib tursin.

3.Nutq so‘zlayotganda qog‘ozdan bosh ko‘tarmay o‘qish nojoiz, odamlarga qarab so‘zlasa, tingovchilar notiqli diqqat bilan eshitadilar. Bunda imo-ishoralar, mimikaning ham ahamiyati katta.

4.Gapni siyqasi chiqib ketgan jumlalar bilan boshlamaslik kerak. Adabiy tilda gapirib, maqol-matalllar va boshqa tasviriy vositalardan foydalananib ta’sirchan va qiziqarli nutq tuzish kerak bo‘ladi.

5.Aytildigan fikr qisqa va lo‘nda bo‘lmog‘i lozim. «Oz so‘z- oltin, ko‘p so‘z-ko‘mir» degan maqolni yodga olgan ma’qul.

⁵¹ Стернин И.А. Практическая риторика. –М., 2008 –С. 96-97.

6.Rejali nutqning uyg‘unligi, ketma-ketligi bo‘ladi. Gaplar va fikrlar orasida tabiiy bog‘liqlik bo‘lmasa, tinglovchi unday so‘zdan qanoatlanmaydi.

7.Nutqqa bir kun oldin emas, bir necha kun oldin tayyorgarlik ko‘rishni boshlash kerak. Spunda mavzuni chuqur egallab olinadi va fikr tarqoq bo‘lmaydi.

8.Nutqni, albatta, mashq (repetitsiya) qilish zarur.

9.Nutqni bo‘laklab emas, “butun”icha mashq qilish kerak. So‘zlashni boshlagan bo‘lsangiz, nimadir yoddan chiqqan bo‘lsa ham, nimanidir o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz ham to‘xtamang. Esdan chiqqan o‘rinlarni “yodimdan ko‘tarilay debdi” deya qulay joyda kiritib ketish mumkin. Auditoriya buni yaxshi qabul qiladi.

10.Nutqqa tayyorlanishdan oldin shpargalka tuzib olish mumkin. Unda zaruriy ma’lumotlar: sanalar, sitatalar, misollar, asoslar va isbotlar bo‘ladi.

11.Mashq davomida nutqiy vaziyatni ko‘z oldiga keltirish lozim.

12.Mashq paytida alohida iboralarni yodlash emas, nutqning asosiy g‘oyasini eslab qolish maqsadi bo‘lish kerak.

Og‘zaki ma’ruzaning tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, uning qismlari butun ma’ruzaning asosiy mag‘zini tashkil qiladi. Bu kompozitsiya deb atalib, u kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Bu uch qism bir-biri bilan bog‘langan bo‘lishi nutqning muvaffaqiyatli chiqishiga sabab bo‘ladi. Eng asosiy fikrni ochib berish uchun materialni mantiqiy izchillikda joylashtirish kompozitsiyaga qo‘yiladigan eng birinchi talablardan biri hisoblanadi.

Har bir qismning o‘z maqsadi bo‘lishi kerak va bular quyidagilardan iboratdir:

-Kirish qismida notiq auditoriyani o‘ziga jalb qilishi va ishontirish natijasida ular bilan aloqa o‘rnatishi;

-tinglovchilarni qiziqtirishi;

-tinglovchilarni nutqni qabul qilishga tayyorlashi;

Asosiy qismning maqsadi:

-tinglovchilarga yangi xabarlarni aytish;

-olib chiqilgan masalalarning to‘g‘riligini isbotlash hamda tushuntirish;

-tinglovchilarni kerakli xulosalar chiqarishga tayyorlab olib borish.

Xulosa qismida notiq o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yishi lozim:

-Aytilganlarni umumlashtirish;

-ko‘rib chiqilgan masalalarning takrorlanishi va yodda saqlab qolinishiga sharoit yaratish;

-nutqning ishonchli chiqishiga qo‘srimcha dalillarni keltirish;

-tinglovchilarni undash va u yoki bu masalalarni hal qilishga chaqirish.


Notiq mavzu haqida ko‘p narsalarni bilishi mumkin, lekin ularni tartibga keltirib olmasa, nutq muvaffaqiyatli chiqmaydi. Shuning uchun ma’ruza qilishdan avval nutq rejasini tuzib olish juda muhim. Nutq rejasi matnning asosi hisoblanadi. Matn tuzish

tartibiga ko‘ra oldindan qanday masalalarni ko‘tarib chiqayotganligini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Ishchi reja tuzilib, unda aytildigan masalalarning izchilligi belgilab olinadi. Shuning negizida asosiy reja tuziladi. Nutq tuzishga tayyorgarlik ko‘rishni aniq ko‘z oldimizga keltirish uchun quyidagi “nutqqa tayyorgarlik ko‘rish jarayoni” jadvalini ko‘rib chiqish lozim:

Nutq so‘zlashgacha bo‘lgan davr

aloqa vaqtি


nutqdan keyin



Matnni yozish uchun quyidagi ishlarni bajarish mumkin: faktlar ro‘yxatini **tuzib olish; eng asosiyalarini tanlab olib, 2-darajalilarini o‘chirib tashlash** lozim; eng kerakli deb bilgan faktlarinigizni olib qolib qolganlarini o‘chirish kerak; matnni qaytadan o‘qib chiqib yana nimalar yetishmayotganligini aniqlash va o‘scha joyga belgi qo‘yib qo‘yish; uni kirish, asosiy qism, xulosalarga bo‘lib chiqib, kirish va xulosa qismlarini batafsil bayon qilish; matn boshidan oxirigacha mantiqiy izchillikda bayon qilinishiga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi.

D.Karnegining aytishicha, yozma matn faqat tayyorgarlik ko‘rgandagina qo‘llanishi, nutq so‘zlayotganda esa unga qarash kerak emas, aksincha, uni cho‘ntakka solib qo‘yish kerak. Lekin bu ishni faqat kuchli notiqlargina va bir mavzuni qayta-qayta so‘zlaydiganlargina eplashi mumkin. Shuning uchun matnni kichik qog‘ozlarga yozib olib ulardan kerakli o‘rinlarda foydalanish orqali ham yaxshi nutq so‘zlash mumkin.

Matnni yozib bo‘lgandan so‘ng uni so‘zlashga o‘rganish kerak. Matnni quruq yodlab olish bilan ish bitmaydi, yodlab olingan matnni tantanali marosimlarda gina aytish mumkin. Notiq yod olgan iboralarni o‘ylab, ushbu mavzu borasida men shunday taklifni o‘rtaga tashlayman, falon sabablarga ko‘ra shunday qilish lozim deb o‘ylayman, deb gapirishi kerak. Notiq uchun eng muhimi tinglovchilarda qiziqish uyg‘ota bilishdir. Nutqda eng kerakli iboralarni alohida, ifodali va ishonarli ohangda aytishi ma’ruzaga tabiiylik baxsh etadi hamda tinglovchilarning e’tiborini o‘ziga qaratadi. Tinglovchilarning e’tiborini jalb qilish va ularning ma’ruzani diqqat bilan tinglashlari uchun nutqning tushunarligi va ifodaliligi e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun nutq mantiqiy izchillikda tuzilishi darkor.



Demak, notiq nutqqa tayyorgarlik ko‘rishda tayyor materialga o‘z shaxsiy fikr-mulohazalarini qo‘sib, uni tartibga solib, nimani va qanday gapirishi haqida o‘ylab olsa, ya’ni nutqqa tayyorgarlik ko‘rish usullarini puxta egallasa, nutq muvaffaqiyatli chiqadi. Napoleon shunday degan: “Urush san’ati – bu ilm, agar har bir narsa oldindan o‘ylanmagan va hisoblanmagan bo‘lsa, barchasi barbod bo‘ladi”. Nutq ham shunday. Unda hamma narsa oldindan reja qilingan bo‘lishi kerak.

Notiq 3 holatda hayajonlanishi mumkin:

1. Notanish auditoriyadan qo‘rqishi mumkin.

Bunda notiq nutq so‘zlashni boshlashdan avval “Men mavzuni yaxshi bilaman va ular meni tinglashadi” deb o‘zini ruhlantirishi lozim va jarangdor ovozda nutq so‘zlashi kerak. Yoqimtoy odamlarni topib ularga qarab g‘ayrat bilan gapirsa, tinglovchilar notiqni qo‘llab-quvvaytlaydilar.

2. Yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagaligini sezish hissi.

Bu holatda eng yaxshi bilgan fikrlarni aytib, ikkilanganlariningizni tashlab keting.

3.Ijodiy hayajonlanish.

Bu tabiiy hayajonni yengish shart emas, bunday hayajon samimiy va tabiiy bo‘lgani uchun nutqqa o‘zgacha joziba beradi.

Hayajonni bosishning amaliy yo‘llari:

- nutq his-hayajonini kuchaytirish;
- nutq jarandorligini kuchaytirish;
- nutq energiyasini oshirish;
- bir vaqtning o‘zida og‘iz va burun bilan nafas olish;
- qo‘l yoki oyoq barmoqlarini qimirlatish;
- stul, minbar yoki partaning chetini ushslash;
- tangani kaftida siqish;
- bo‘r yoki ko‘rsatkichni olish;
- taxtaga mavzu yoki sana kabilarni yozish.

Tinglovchilarga muhim informatsiyalarni bermoqchililingizni, eng asosiy fikrlarni aytmoqchililingizni sezdiring va sizning vazifangiz asosiy mazmunni tiglovchilarga yetkazishdan iboratligini his qiling. Bu vaqtda boshqa narsalar muhim emasligini yodda tuting.

Stressga qarshi kurash

Stress (hayajon) – qattiq hayajon, ruhiy zarba holati hisoblanadi. Stress – muhim moslashuvchan jarayonlardan biri bo‘lib, u butun organizmning tezda faollashuvi bilan belgilanadi. Xavfli vaziyatdan qutulishdan butun kuchlarni harakatga keltiradi. Aytaylik, imtihon oldidan yoki minbarga chiqish oldidagi o‘zingizda yuz beradigan holatni tasavvur qiling: tizzalar titraydi, ovoz buziladi, og‘iz bo‘shlig‘i quriydi, kaftlar sovuq ter bilan qoplanadi...

Zamonaviy inson o‘zining qadimgi ajdodlaridan farqli o‘laroq kuchli hayajon belgilarini namoyon qilmasdan jamoat oldida turishga majbur. Bunday holatlar bilan qanday kurashish kerak. So‘zlovchi uchun hayajonlanish foydali. U rujni tetiklantirgan holda ilhomlanish imkoniyatini beradi. Bu esa odatdagি holatda mumkin emas. Bunda nutq muvaffaqiyatli chiqishi uchun zarur bo‘lgan hissiyot paydo bo‘ladi. Demak, hayajon – nutq muvaffaqiyatini ta’minlashda ijobiy omil bo‘lib, unga tayyorlanish, o‘zingizdagi qo‘rquvni yengishga, hayajondan esa muvaffaqiyat garovi sifatida foydalanishga o‘rgatadi.

Stressga qarshi nafas mashqi:

- 1.Turli holatda (turgan, o‘tirgan) o‘zingizni bo‘sh qo‘ying.
- 2.Mushaklarni bo‘shashtirib, burundan xotirjam nafas oling.
- 3.Hech qanday zo‘riqishsiz o‘pkada ozgina nafas qolguncha sekin chiqaring. Ko‘zni yumib olish ham mumkin.

4.Mashqni ilk boshlaganlar 15-20 sekund nafasni ushlab turib, so‘ngra 3 daqiqa gacha yetkazib turish mumkin. Nafas olmay turish qiyinlashganda qorin mushaklarini yordamga chaqiring.

5.Nafasni o‘ta xotirjam, sekin (xuddi kam – kamdan, oz – ozdan yutayotganday) olish va xuddi shu holatda chiqarish kerak.

6.Nafasni shunday oling va chiqaringki, avval qoringa so‘ng o‘pkada havo to‘layotganini his qiling. Bu mashqni butun tanani bo‘sashtirgan holda 1 daqiqa davomida bajaring.

Bu – to‘laqonli nafas olish usuli deyiladi.

1-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring.

Sitseron: “Harbiylar quroq ishlatalishni tinimsiz mashq qilganiday notiq yoshtagidanoq timmay so‘zga egalik qilishni mashq qilishi kerak. Chunki notiqlikka tuyulganidan ko‘ra ko‘proq qiyinchilik bilan erishiladi. Unga ko‘p bilim va mehnat talab etiladi”, - degan edi.

2-mashq. Quyidagi antonimlar ishtirok etgan maqollarni topib yozing.

Aqlii-ahmoq, yaxshi-yomon, to‘g‘ri-egri, dono-nodon, do‘s-t-dushman, shohgago, katta-kichik, keng-tor, ilmli-ilmsiz, yosh-qari.

3-mashq. Misollar ichidan kontekstual antonimlarni ajratib yozing.

1.Aytuvchi ahmoq bo‘lsa, tinglovchi dono bo‘lsin. 2. Ushoq qand oq tuzga monand erur, Va lekin biri qand, biri tuz erur. 3. Oliy himmatli, mard odam bir lahzada do‘s-orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi. 4. Do‘s-tlarning hasadi, dushmanlarning xusumatidan yomondir. 5.Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang balosi yuqar. 6. Ayol mehri - asaldek totli, Ayol makri - zahardek xavfli. 7. Odam o‘z farzandlarining yil sayin o‘sib, kamol sari ketayotganini biladi-yu, o‘z ota-onasining yil sayin cho‘kib, zavol sari ketayotganini bilmaydi.

4-mashq. Quyidagi she’rda nutq ta’sirchanligini oshiruvchi so‘zlarni toping va tahlil eting. She’rda qo‘llanilgan salbiylik va ijobiylikni oshiruvchi so‘zlarni topib, o‘z munosabatingizni bildiring.

Kazzob Stalindan zorlanmang hadeb,
U ham farzandidir bitta insonning.
Bilmoqchi bo‘lsangiz, qabri qayda deb,
Laganbardorlardan so‘rang Cho‘lponni.. .
Otabek Kumushin ko‘zlarin yopib,
O‘zi ham ortidan qilgach safarlar.
Qodiriy boboning qo‘llarin o‘pib,
Chohga itargan ham – laganbardorlar.

Ular Iblis bilan tili bir o‘rtoq,
Ular Azroilga sodiq choparlar.
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko‘targan ham – laganbardorlar.

5-mashq. Quyidagi sinonim so‘zlarning inson ongiga tez, ijobiy va salbiy ta’siri doirasiga ko‘ra, shuningdek, darajalanishiga ko‘ra ajrating.

Kulmoq- irshaymoq – jilmaymoq - miyig‘ida kulmoq- tabassum qilmoq-kulimsiramoq-irjaymoq-tirjaymoq-ishshaymoq.

Qaramoq- qiyo boqmoq - nazar tashlamoq-boqmoq -baqraymoq.

Yuz - jamol-bet-chehra-ruxsor- aft-turq-bashara-oraz.

Qiziq-g‘alati-ajoyib.

Kekkaymoq-kerilmoq-gerdaymoq-serraymoq-chiranmoq-shishinmoq.

Qayg‘urmoq-achinmoq-kuymoq-kuyinmoq-afsuslanmoq.

6-mashq. Oyna bilan mashq qilish

Oynaga qarab biror bir she’r yoki hikoyani o‘qib, oynada o‘z yuzingizni kuzating. Yuzingizning ifodasi sizga yoqyaptimi? Ushbu ifoda boshqalarga ham yoqarmikan?

Quyidagi harakatlarni qilib ko‘ring:

a) kitobdan olingan bir necha so‘zlarni sust, me’yorida, faol talaffuz qiling. Imo-ishorani kuzating;

b) bir hikoyaning o‘zini (2-mashq) “ifodalang”, avval harakatsiz yuz bilan, keyin imo-ishora orqali ifodalang. Qanday imo-ishora ko‘proq samara berayotganini payqashga harakat qiling.

Oyna bilan mashq qilish o‘z imo-ishorasini ongli ravishda boshqarish orqali ko‘nikmalar ishlab chiqishga yordam beradi.

1-topshiriq. 3 kishidan iborat guruh tuziladi. Birinchi talaba seminar mashg‘ulotining nazariy materialidan bir masalani gapirib beradi.

2-talaba notiqning nafas olishi, ovozining kuchi, jarangdorligi, chidamliligi, tembri, diksiyasi va ritmini kuzatadi va tahlil qiladi.

3-talaba so‘zlovchining modulyatsiyasiga e’tibor berib, uning ovoziga obrazli xarakteristika beradi. Masalan: maza-tamga nisbatlash (ovozi xushbo‘y olma hidiga o‘xshaydi), ko‘rish xarakteristikasi (olovrangga o‘xshaydi), eshitish xarakteristikasi (qo‘ng‘iroqning ovoziga o‘xshaydi), sezish xarakteristikasi (ipakka o‘xshaydi).

Keyin rollar bilan almashadilar va shu tarzda mavzu mustahkamlanadi.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlar vositasida ikkita matn tuzing: biri ilmiy va ikkinchisi publitsistik matn bo‘lsin. Tuzgan matnlaringizni adabiy tilda so‘zlab bering.

Gul, bekat, urashuv, bo‘lmoq, jarayon, yillik, ega, hosil, o‘stirmoq, uy, xonaki, yavvoyi, o‘sish, chatishtirmoq, turlicha, biologik, o‘simlik, suv, tosh, suv, tuproq, oziqa, madaniy, inson, umr, yosharish, yashamoq.

3-topshiriq. Akademik notiqlik bo‘yicha matn tuzish. (Bunda o‘tilgan mavzular bo‘yicha bir soatlak dars ishlanmasini tayyorlab, dars o‘tib berish).

4-topshiriq. Quyida berilgan ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib matn tuzing va o‘z fikringizni bildiring.

Xizmatkor bir soatlardan keyin dasturxonni ko‘tarib kirganda, uy sohibi “Nega shuncha qolib ketding?” deb unga tanbeh berdi.

-Uni shu holda mehmon oldiga olib chiqsam, odobdan bo‘lmas, dedim.

Xizmatkor ancha hayalladi. Mehmonlar buni sezmaganday o‘tirishdi. Bu gapni eshitib, mehmonlardan biri duo qildi:

-Tangri taolo dasturxoningizga baraka ato etsin, ustoz! Chunki shuncha chumoliga taom beribdi... Mezbon ularni kutib olib, ichkariga boshlab kirgan xizmatkoriga “Dasturxon olib chiq!” deb buyurdi. Mo‘tabar odamnikiga muxlislari mehmon bo‘lib kelishdi.

-Banda dasturxonni olib qarasam, chumoli bosib yotgan ekan,- dedi xizmatkor uzrli ohangda.

-Uni shu holda mehmon oldiga olib chiqsam, odobdan bo‘lmas, dedim. Yana nonni bechora nonxo‘rlardan tortib olishni muruvvatsizlik deb bildim va chumolilar dasturxonni tark etmagunlaricha kutdim.

(Tohir Malik, Ko‘ngil nega qorayadi, T.,2014, 156-bet).

5-topshiriq. “So‘zlab berish” treningi

Ushbu trening ma’lumotni so‘zlab berish, tinglash va suhbatdoshni eshitish ko‘nikmalarini shakllantiradi, amaliyotda kommunikativ to‘siqlarning muloqot samaradorligi ta’sir darajasini namoyish qiladi.

Guruhan ishtirokchilaridan biriga ma’lumot keltirilgan matn beriladi. Matnning taxminiy hajmi - A4 formatdagi bitta sahifaga (oraliqqa ega 1860ta belgi) to‘g‘ri keladi. Matn ushbu maqsadli auditoriya uchun qiziqarli, shuningdek, ham so‘z orqali, ham raqamli ma’lumotlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi ishtirokchi berilgan matnnning mazmuni bilan tanishadi va keyingi ishtirokchiga so‘zlab berishga tayyorlanadi. Bunda ishni shunday tashkil qilish kerakki, ishtirokchilar navbatlari kelgunga qadar matn hikoyasini eshitmasliklari zarur yoki barcha ishtirokchilarni auditoriyadan tashqariga chiqarib, bittadan taklif qilish lozim.

Muammoni hal qilishning ikkinchi varianti yanada maqsadga muvofiqdir, bunda ishtirokchilar o‘zidan keyin matn qanday hikoya qilinayotganini eshitadilar va ushbu hikoyani o‘ziniki bilan taqqoslaydilar.

O‘qituvchi talabalar materialni konspekt qilishlari, ma’lumotni aniqlashlari, yo‘llovchi savollar berishlari, materialni takrorlashni so‘rashlariga qarshilik ko‘rsatmasligi kerak, chunki bunday harakatlar talabalarning kommunikatsiya mahorati va topqirliklaridan dalolat beradi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Nutq madaniyati sohasining qanday asosiy yo‘nalishi mavjud?
- 2.Nutq madaniyatini egallashning nechta bosqichi bor?
- 3.Nutqqa tayyorgarlik ko‘rish qanday amalga oshiriladi?
- 4.Notiqning ovozi qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
- 5.Ovozning yoqimli bo‘lishi nimalarga bog‘liq?
- 6.Ovoz buzilishiga sabab bo‘ladigan omillar va uni bartaraf etish yo‘llari qaysilar?

Glossariy

Fonatsiya – to‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarish fazasi.

Temp – nutq oqimining ma’lum vaqtdagi harakat sur’ati bo‘lib, nutqning artikulatsion tarangligi aniqligi darajasini izohlovchi tezlashuvi yoki sekinlashuvidir.

Tembr – nutqqa emotsiyal-ekspressiv jilo beruvchi tovush bo‘yoqdorligidir.

Diksiya – har bir tovush yoki so‘zning to‘g‘ri talaffuz qilinishi.

Melodika – nutqda ovozning baland-past tarzda to‘lqinlanilishi.

Jarangdorlik – tovushning yorqinligi, baland yoqimli ovoz.

Suggestivlik – ovozning hayajonli ifodalanishi.

Keng diapazonlik – ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo‘lgan darjasи.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. - Samarqand,1984.
2. Qo‘ng‘urov R. va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1992.
3. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. -T., O‘zbekiston, 1992.
4. Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1993.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
6. Qilichev E., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 1992, 2002.
7. Tojiyev Y., Hasanova J., Tojimatov H., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994, 2006.

GLOSSARY

Termin	O‘zbek tilidagi izohi	Rus tilidagi izohi	Ingliz tilidagi izohi
Adabiy norma	til birliklaridan maqsadga muvofig‘ini tanlash	Литературная норма - совокупность наиболее устойчивых традиционных реализаций языковой системы, отобранных и закреплённых в процессе общественной коммуникации	A literary norm is totality of the most steady traditional realization of the language system is selected and envisaged in the process of public communication
Badihago‘y	So‘zga chechan kishilarning she’riy yo‘sinda birdaniga so‘z, she’r yoki qo‘sishq aytishi	Импровизатор - Оратор, сочиняющий стихи или песни экспромтом, импровизатор	An improvisator is Speaker, writing verses or songs off-hand, improviser
Varvarizm	noo‘rin qo‘llangan chet so‘z	Варваризм (от греч. βάρβαρος - чужеземный)	Barbarism - (from grech. βάρβαρος - outlandish)
Va’z	da’vat, xitob	Проповед	
Voiz	islomda odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so‘zlovchi shaxs	Проповедник, оратор	
Vulgarizm		Вульгаризм -(от лат. vulgaris — простой, обыкновенный)	Vulgarism - (from lats. vulgaris - simple, usual)

Dialektizm	shevaga oid birlik	Dialektizm – (от греч. <i>diAlektoς</i> - разговор, говор, наречие) - устный некодифицированный вариант национального языка, употребляемый в качестве общения лицами, связанными тесной территориальной, социальной или профессиональной общностью	A dialecticism is Dialect (from grech. <i>diAlektoς</i> is conversation, manner of speaking, adverb) - verbal unindicated variant of national language, used as communication by the persons bound by close territorial, social or professional community
Jargon	ijtimoiy sheva, ma'lum ijtimoiy guruh nutqiga xos birliklar	Жаргон – (франц. <i>jargon</i>) — разновидность речи, используемой преимущественно в устном общении отдельной относительно устойчивой социальной группой, объединяющей людей по признаку профессии (жаргон программистов), положения в обществе (жаргон русского дворянства в 19 в.), интересов (жаргон филателистов) или возраста (молодёжный жаргон)	Jargon - (frants. <i>jargon</i>) is a variety of the speech, used mainly in verbal communication by separate relatively steady task force, uniting people on the sign of profession (jargon of programmers), position in society (jargon of the Russian nobility in 19 century), interests (jargon of philatelists) or age (youth jargon).

Kanselyar izm	turg‘un birliklar, rasmiy uslubga xos bo‘lgan nutqiy shtamplar	Kantselyarizm – слова , устойчивые словосочетания мл>, грамматические формы и конструкции, употребление которых в литературном языке закреплено традицией за официально-деловым стилем , особенно за канцелярско-деловым стилем	Konstant words, set expressions, grammatical forms and constructions, the which is used in a literary language is envisaged by tradition after officially-business style, especially after formal substyle
Logograf	qadimda nutq matnini tuzib beruvchi shaxs	Logograf – в прошлом лицо, написавший текст речи	Logograf – last person who wrote the text of the speech
Madaniy nutq	adabiy me’yorlarga rioya qilib tuzilgan nutq	Культура речи - соблюдение литературных норм, воспринимаемых говорящими и пишущими в качестве «идеала» или общепринятого и традиционно охраняемого обычая, образца	Cultural - correctness of speech, i. e. observance of the literary norms, perceived by talking and writing as a "ideal" or generally accepted and traditionally guarded custom, standard, and speech mastery
Maddoh	biror shaxs yoki narsa, voqeahodisani madh etuvchi		
Nutq	so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan hosil	Речь - конкретное говорение, протекающее во времени и облечённое в	Speech - certain talking aleak in time and invested

	qilingan matnning tashqi shakliy ko‘rinishi	звуковую (включая внутреннее проговаривание) или письменную форму	in a voice (including the internal saying of) or writing form
Nutq madaniyati	adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri, chiroyl va o‘rinli so‘zlash; tildan maqsadga muvofig foydalanim ko‘nikma va malakalarning jami	Речевой этикет - система правил речевого поведения в стандартных ситуациях (приветствие, прощание в официальной и неофициальной обстановке, представление, светская беседа и т. п.)	Speech etiquette is the system of rules of speech behavior in standard situations (greeting, farewell in an official and unofficial situation, presentation, society onversation and i. e.)
Nutqning aniqligi	so‘zning tildagi ma’nosni va o‘zi ifodalagan narsaga qat’iy mos kelishi bilan o‘lchanadigan kommunikativ sifat	Точность речи (смысловая точность) - употребление слов в соответствии с их лексическим значением (семантикой) и сочетаемостью	Exactness of speech (semantic exactness) is the use of words in accordance with their lexical value (by semantics) and compatibility
Nutqning boyligi		Богатство речи - это ее лексико- фразеологическое, грамматическое и интонационно- фонетическое разнообразие; это отсутствие в речи неоправданных повторов одних и тех же слов, выражений и однотипных синтаксических конструкций	Richness of speech are this her lexico- phraseological, grammatical and intonation- phonetic variety; this absence is in speech of unjustified repetitions of the same words, expressions and of

			the same type phrases
Nutqning ifodaliligi	ta'sirchanlik deb ham aytildi, nutqning tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini jalb qila olishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat	Выразительность речи (экспрессивность) - это такие свойства формы речи, которые обеспечивают и поддерживают внимание и интерес читателей или слушателей	Expressiveness of speech (expressivity) is such properties of form speeches that provide and support attention and interest of readers or listeners
Nutqning mantiqiyligi	fikr rivojining voqealar rivojiga qat'iy mos va muvofiq kelishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat	Логичность речи - соответствие используемых речевых средств законам мышления	Logic of speech is accordance of the used speech facilities to the thinking laws
Nutqning tozaligi	nutqning adabiy tilning lug'aviy (leksik) me'yorlariga yot unsurlardan xoli ekani bilan belgilanadigan kommunikativ sifat	Чистота речи - отсутствие в речи чуждых современному литературному языку элементов (диалектизмов, жаргонизмов, вульгаризмов, варваризмов, эвфемизмов, паразитизмов, архаизмов)	A purity of speech is absence in speech of alien to the modern literary language elements (dialects, in-words, vulgarisms, barbarism, euphemism, archaisms)
Nutqning to'g'riliqi	nutqning adabiy tilning ma'lum vaqtda qabul qilingan me'yorlariga qat'iy muvofiqligi bilan	Правильность речи - владение нормами литературного языка	A correctness of speech is possession the norms of literary language

	belgilanadigan kommunikativ sifat		
Nutqning o‘rinliligi	nutqning kommunikativ sifati. So‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmasi bilan belgilanadi	Уместность речи - это владение стилями литературного языка; это умение в зависимости от цели, темы, ситуации, жанра речи избрать необходимый стиль общения	An appropriateness of speech is this possession styles of literary language; this ability depending on an aim, theme, situation, genre of speech to choose necessary style of communication
Parazit so‘zlar	nutqda vazifa bajarmaydigan, ortiqcha so‘zlar	Паразитизмы (слова-паразиты) - слова и выражения, используемые для заполнения пауз в речи и не несущие никакой смысловой нагрузки (как бы, ну, вот, значит, понимаешь, так сказать и т. п.)	(words-vermin) are the words and expressions, used for filling of pauses in speech and bearing no semantic loading (as, well, here, so, understand, so to say and t. of p.)
Ritorika	Ritorika – yunoncha so‘z bo‘lib, qadimgi yunon tilida rhej ”gapisht”, “quyilib kelish”, retor - “ritor”- notiq ma’nolarini anglatgan	Риторика (греч. <i>rhetorike</i> - красноречие) - теория красноречия; прикладная дисциплина, обучающая навыкам устной публичной речи	A rhetoric (greek. rhetorike is eloquence) is a theory of eloquence; applied discipline teaching to skills of the spoken public language
Sinegor	qadimda ma’lum haq evaziga sudda tomonlarning manfaatini	Синегор - известный в прошлом за отдельную плату, выступал в суде,	oratorical speech that is pronounced in instance where talking calls to the

	himoya qilib nutq so‘zlovchi shaxs	чтобы защитить интересы сторон	listeners on purpose to convince them of rightness of the pulled out positions or cause in them the desired reaction on events or phenomena of the real reality
Suxandon	So‘zga chechan, turli mavzularda nutq so‘zlaydigan madaniyatli va ma’rifatli shaxs	образованный и культурный человек, который произносил красноречивую речь по различным темам.	Orator - is a well-educated and cultural man that pronounced eloquent speech on different themes
Uzus	til imkoniyatlarining iste’molda bo‘lgan qismi	Узус - (от лат. пользование, употребление, обычай) Узус - общепринятое употребление языковой единицы, массовое и регулярное. Норма - это узус, ставший законом	Areal word is (from lats. usus - полъзованie, use, custom) generally accepted use of language unit, mass and regular. is uzus becoming a law
Xulq	fe'l-atvor, tabiat, kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmui	Xulq – нрав, характер	Norm- Behavoir, position

Xutba	juma va hayit namozlarida hamda katta diniy marosimlarda diniy arbobning rasmiy nutqidir	ораторская речь, которая произносится в ситуации, когда говорящий обращается к слушателям с целью убедить их в правильности выдвигаемых положений или вызвать в них желаемую реакцию на события или явления реальной действительности.	Xutba is in oratorical speech that is pronounced in instance where talking calls to the listeners on purpose to convince them of rightness of the pulled out positions or cause in them the desired reaction on events or phenomena of the real reality
--------------	--	--	--

Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. -T.: Fan, 1975.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 13-jild. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
3. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. –T.: Fan, 1982.
4. Alisher Navoiy. Muhokamatul lug‘atayn. -T.Fan, 1982.
5. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1966.
6. Antichnaya ritorika. -Moskva: MGU, 1978, S.129.
7. Aristotel. Ritorika. -M., 1978.
8. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. -Toshkent: Fan, 1983.
9. Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti. №5. 1975.
10. Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1993.
11. Begmatov E., Tursunqulov M. O‘zbek nutqi madaniyati asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
12. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent: 1998.
13. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1,2, 3- qismlar.-Toshkent, 1997, 1998, 2000.
14. E.Begmatov, N.Jiyanova. “Nutq madaniyati asoslari” ma’ruzalar matni . -Toshkent. Nizomiy nomidagi TPDU, 2006.
15. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. –T.: Fan, 2006.
16. Beruniy. Tanlangan asarlar. III tom .T.: Fan, 1982.
17. Golovin B.N. Osnovy kul’tury rechi. -Moskva: Vysshaya shkola, 1988.
18. Gumboldt V. Yazyk i filosofiya kul’tury. –M.:Progress, 1985.
19. Jumaniyozov R., Salimov S. G‘oyaviy tarbiyada notiqlik san’ati.-Toshkent, 2002.
20. Inomxo‘jaev S. Notiqlik san’ati asoslari.-Toshkent, 1982.
21. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. J.1. – T.:O‘zbekiston, 1996.
22. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq, 1997.

- 23.Kaykovus. Qobusnama. -Toshkent: Meros, 1992.
- 24.Kramer S.N. Istorya nachinaetsya v Shumere. -Moskva: Nauka, 1991.
- 25.Kyera E. Oni pisali na gline. -Moskva: Nauka, 1984.
- 26.Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
- 27.Mo‘min S. So‘zlashish san’ati. –Farg‘ona, 1997.
- 28.Mo`minova O. Talaba faolligiga qanday erishiladi?//Til va adabiyot ta’limi. №3. 2014.
- 29.Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Istiqlol va ona tilimiz. –Toshkent, 1992.
- 30.Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. -Toshkent, 2002.
- 31.Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2006.
- 32.Rasulov R., Gayubova K., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T.:Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2011.
- 33.Sossyur de F. Trudy po yazыikoznaniyu. -Moskva: Progress, 1977.
- 34.Stepanov A.V. O kulture rechi i prakticheskoy stilistike//Vestnik vlysshey shkoly, 1981.
- 35.Sternin I.A. Prakticheskaya ritorika. –M.: Akademiya, 2008.
- 36.Tojiyev Y., Hasanova J., Tojimatov H., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994, 2006.
- 37.Shparafiddinov O. Dovondagi o‘ylar. -Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
- 38.Shomaqsudov Sh., Shorahmadov Sh. Hikmatnoma. -Toshkent, 1990.
- 39.O‘zbek nutqi madaniyati masalalari, to‘plamlar: 1973, 1975, 1978 yillar va boshqalar.
- 40.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. –Toshkent, 2006.
- 41.O‘rinboyev B. Notiqlik mahorati. –T.: O‘qituvchi, 1984.
- 42.Qilichev E., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 1992, 2002.
- 43.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -Toshkent: 1993, 38-bet.
- 44.R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. - Samarqand,1984.
45. R.Qo‘ng‘urov va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1992.

Elektron sayt materiallari:

<http://gov.uz/>
<http://www.ziyonet.uz/>
<http://www.connect.uz/>
<http://www.uzsci.net/>
<http://www.edu.uz/>

Rasmiy hujjatlar

1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. J.9. – T.: O’zbekiston, 2001.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. J.11. – T.: O’zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.12. – T.: O’zbekiston, 2004.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
5. “Ta’lim haqida” Qonun. – T., 1997.
6. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – T., 1997.
7. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar 1,2 – qismlar. -T. 1999.
8. SH.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. -Toshkent:O’zbekiston, 2016, 14-b.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Былинский К.И., Розенталь Д.Э. Литературное редактирование. -М., 1991.
2. Введенская Л.А., Павлова Л.Г., Чихачев В.П. Культура и техника речи. Ростов на Дону, 1994.
3. Ицкович В.А. Норма и кодификация // Актуальные проблемы культуры речи. -М., 1990.
4. Ицкович В.А. Языковая норма. -М., 1998.
5. Мучник Б.С. Культура письменной речи. -М., 1996.
6. Мучник Б.С. Основы стилистики и редактирования. - Ростов на Дону, 1997.
7. Основы культуры речи: Хрест. -М., 1994.
8. Скворцов Л.И. Норма. Литературный язык. Культура речи //Актуальные проблемы культуры речи. -М., 1990.
9. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. -М., 1999.
10. Стернин И.А. Практическая риторика. - М., 2008.

Mualliflar haqida ma'lumot



Jiyanova N.E. - f.f.n., dotsent



Mo'minova O.Q. – f.f.n..dotsent

